1925-yil “Turon” kutubxonasi fondidan foydalanish maqsadida mashhur sharqshunos olim V.V. Bartold (1869-1930) ushbu maskanga tashrif buyuradi va fondning zukko kutubxonachisi Abdulla Nosirov bilan tanishib qoladi. Abdulla Nosirovning sinchkovligi, qaysi kitoblarda nima manbalar mavjudligini aniq bilishiga qoyil qolgan Bartold uning xattotlik mahoratidan ham foydalanadi. Nosirov Bartoldning iltimosiga binoan “Iqdul jumon” [1925-yilda V.V. Bartoldning “Doktorlik dissertatsiyasi himoyasining 25 yilligi” munosabati bilan bir qancha Turkistonlik do‘stlari A.E. Shmidt va E.K. Betgerlar tahririyati ostida “Iqdul jumon” (“Durlar shodasi”) nomli to‘plam jamlanadi va 1927-yilda Toshkentda chop etiladi.] kitobining birinchi sahifasiga quyidagi so‘zlarni arab tilida yozib beradi: *“Iqdul jumon” – Turkiston*

tarixchisi, fazilatli sayyid ustoz Bartuld komilni ulug'lash uchun uning Turkiston ulamalari bo'lgan do'stlari va o'quvchilari tomonidan tuzildi 1345-yil." [3; 67 a].

"Turon" kutubxonasining kekxa a'zolaridan biri, mehnat faxriysi Qodir Norxo'jayev o'z xotiralarida: *"Eski Jo'va maydoni biqinidagi binoda «Turon» kutubxonasi bo'lib, unga Toshkent Pedagogika texnikumi o'quvchilari tez-tez kelib turardilar. Kunlarning birida kitob olgani kutubxonaga borsam, ochiq chehrali va fayzli bir kishi turgan ekan. Shu vaqt ichkaridan Abdulla Nosirov (keyinroq O'zR FA Sharqshunoslik institutida bibliograf va ilmiy xodim bo'lib ishlagan) bir kitobni olib, haligi kishining qo'liga berdi. U kishi kitobni qo'liga olib varaqlar ekan, ko'zim «Sarvati funun» degan yozuvga tushdi. Bu nomdagi kitobni birinchi ko'rishim edi. Chiqib ketgach, Abdulla akadan bu odamning kim ekanini so'rasam, «Cho'lpon» degan shoir shu kishi bo'ladi. Istanbulda nashr etiladigan jurnalni oldilar», dedilar"* [9; 22-24-b].

Abdulla Nosirovning Abdulla Qodiriy bilan munosabatlarini esa, uning daftarlaridan yoki ko'plab kishilarga so'zlab bergan xotiralaridan o'qishimiz mumkin: *"«Turon» kutubxonasida ishlab yurgan kezarimda bo'lgan bir voqea sira yodimdan chiqmaydi, — deb xotirlagan edi Abdulla Nosirov. Kutubxonaga elimizning ardoqli farzandi, mashhur adib Abdulla Qodiriy (Julqunboy) ham tez-tez kelib, mendan kitob olib turar edi. Ana shunday uchrashuvlar va samimiy muloqotlar tufayli u kishi bilan yaqindan tanishib oldim. Abdulla Qodiriy kamoli hurmatlari balandligidan menga ismim bilan emas, ilm sohibi degan ma'noda "Maxdum janoblari" deb murojaat qilardilar. Bir kuni: "Maxdum janoblari, vaqtingiz bo'lsa, romanimni bir ko'zdan kechirib bersangiz, qo'lyozmani olib qolib, nashriyotga nusxa topshirsam", deb iltimos qildilar. Mammuniyat bilan iltimoslarini qabul etib, ishga kirishdim. Bu "O'tkan kunlar" romani edi. Xizmatim evaziga Abdulla Qodiriydan olgan qalam haqqimga ushanda radio sotib olganman"*[2; 26-27-b].

Darhaqiqat, "O'tkan kunlar" romanining ilk xattoti Abdulla Nosirov sanaladi. Buni Abdulla Qodiriyning o'g'li Habibulla Qodiriy [12; 225-226-b.] hamda, Qodiriyning nabirasi Xondamir Qodiriylarning xotiralarida [10;29-b] ham uchratishimiz mumkin.

Endi e'tiborimizni Abdulla Nosirovning "Turon" kutubxonasini ommalashtirish, uni boyitish yo'lida qilgan xizmatlariga qaratsak. Yuqorida aytganimizdek, Abdulla Nosirov o'z faoliyatini 1922-yildan "Turon" kutubxonasida kutubxonachi lavozimidan boshlagan. 1928-1930-yillar davomida u "Turon" kutubxonasida mudir lavozimida ishlab kelgan. Kutubxonaning ilmiy xodimlari A.I.Ageev va M.N.Latipovalar tarafidan Nosirovga berilgan tavsifnomada [3;89 b] aytilishicha, Abdulla Nosirov kutubxonada mudirlik faoliyatini boshlashi bilan tizimda bir qancha yangiliklar joriy qilgan. Bu davrlarda kutubxonaning texnik jihatdan tashkil etilishi ko'p ishlarni amalga oshirishni talab qilar edi, kitoblarni inventarizatsiya qilish, ularni hisobga olish, hatto o'sha davr uchun ham eski bo'lgan usullarda olib borilar edi. Nosirovning sa'y harakatlari bilan kutubxona yangi qiyofaga ega bo'ldi: yangi maxsus kitob javonlari va boshqa jihozlar o'rnatildi, qayta inventarizatsiya o'tkazildi va kataloglar tuzildi, shu davrga oid gazeta va jurnallar nusxalari muqovalanib saqlab qo'yildi, kutubxona byudjeti va xodimlari soni ortdi. Nosirov tomonidan yangi kitoblarni targ'ib qilish maqsadida ko'rgazmalar va ijodiy kechalar tashkil etildi.

Matbuotdagi maqolalari (1923-1929).

"Turon" kutubxonasining har oydagi hisoboti, kutubxonada tashkil etilgan yeg'ilish va tadbirlar XX asr matbuotida muntazam yoritilgan. Masalan, "Turkiston" (1922-1924) gazetasi "Turon" kutubxonasining faoliyatini eng ko'p yoritgan gazetalardan biri bo'lib, unda o'zining qisqa faoliyati davomida "Turon" haqida bahs yurituvchi 28 ta material bosilgan. "Turkiston" gazetasining 1923-yilgi 166-sonida Orsk shahrida yashagan Ahmad Is'hoqiyning butun kutubxonasi sotib olinib, barcha kitoblar (5000 jild) "Turon" kutubxonasiga topshirilganligi haqida maqola yoziladi. Xabarning davomida kutubxonada yangi kitoblarni joylash uchun kitob javonlari yetarli emasligi, Maorif sho'rosi kutubxonaga yaxshi ahamiyat bermayotganligi va bunga bir chora ko'rish kerakligi ta'kidlanadi. Hech qanday imzosiz berilgan bu xabar Abdulla Nosirovga tegishli ekanligi ishimiz davomida aniqlandi [4].

“Turon” kutubxonasining keyingi bildirishi “Turkiston” gazetasida 1924-yilda chop etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, “Turon kutubxonasida kitob haftasi munosabati bilan 27-may kuni Usmonxon Eshonxo‘jayev [Usmonxon Eshonxo‘jayev (1899-1939) – journalist, tarjimon va jamoat arbobi.] tomonidan “Kitobning ahamiyati va uning tarixi” mavzusida leksiya o‘qilishi haqida aytiladi. Nosirov daftarlarining birida aynan shu leksiya Nosirov tomonidan tashkillashtirilganligi qayd etilgan [4]. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, o‘sha vaqtlari “Turon” kutubxonasi nafaqat kutubxona vazifasi, balkim, turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazuvchi maskan ham sanalgan.

Kutubxonada mavjud an‘anaga binoan, u yerda yuz bergan yangiliklar albatta kutubxona mudirlari tomonidan gazetalarda e‘lon qilinib kelingan. 1928-1920-yillar davomida “Turon” kutubxonasi mudiri lavozimida faoliyat olib borgan Nosirov kutubxona sar hisobi, yoki u bilan bog‘liq yangiliklarni matbuotda yoritib kelgan. Shunga muvofiq “Turon” kutubxonasining “Oktabr” nomiga o‘zgarishi haqidagi bildirishnomani Nosirov “Qizil O‘zbekiston” (1924-1940) gazetasining 1928-yilgi sonida [15] e‘lon qiladi. Unga binoan “firqa raykomining qarori va Shahar sho‘rosining tasdig‘i bilan “Turon” kutubxonasi “Oktabr nomida Markaziy kutubxona va qiroatxonasi” nomi bilan yuritilishi aytiladi. Mazkur maqolada Nosirov taxallusi qo‘llaniladi.

1929-yilda “Maorif va o‘qitg‘uvchi” gazetasida chop etilgan, “Turon” kutubxonasining tashkil etilganidan to 1929-yilgacha bo‘lgan tarixi haqida yozilgan “Turon” emas “Oktabr” nomli katta maqola [11; 15-18-b.] jadidlar tarixini o‘rgangan ko‘plab tarixchilarga tanish. “N” imzoli bu maqola aynan Nosirovning o‘zi tomonidan “Turon” kutubxonasida mudirlik lavozimida ishlagan yillarida yozildi [Ushbu maqola Nosirovning O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanuvchi daftarlarida bir necha marotaba Nosirovning o‘zi tomonidan yozilganligi aytib o‘tilgan.]. Bilamizki, XIX asr oxirlari XX asr boshlarida ijod qilgan ko‘plab taraqqiyparvarlarimiz o‘z ismlarini davriy matbuotda turlicha imzolar (taxalluslar, otalarining ismlari, ismlarining bosh harflari) bilan ko‘rsatishgan. Abdulla Nosirov ham o‘zining ilmiy ijodi davomida turli imzo (Nosirov, N., A.N., Nosirov va boshqa) lardan keng foydalangan. Balkim, shu sababmi uning ijodi bilan yaxshi tanish bo‘lmagan tarixchilar bu maqolani muallifi kim ekanini hanuzgacha taxmin qilib keladilar.

Mazkur maqolada “Turon” kutubxonasi 1919-yilning 10-yanvar oyida “Turon” jamiyati qoshida ochilganligi, 1928-yilda Eski Shahar firqa raykomida “Turon” masalasi alohida muhokama qilinib, unga “Markaziy Oktabr kutubxona va qiroatxonasi” nomi berilganligi aytiladi. “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1928-yil sonida kutubxona nomi Oktyabr inqilobining 10 yilligi munosabati bilan “Oktyabr” nomini olganligi ko‘rsatiladi [15; 3-b].

Abdulla Nosirovning “Turon emas Oktyabr” nomli maqolasi “Turon” haqida yozilgan maqolalar ichida hajmi va mazmuni jihatidan eng katta maqoladir. Shuni alohida aytish kerakki, “Turon” kutubxonasining shu davrdagi suratlari aynan Nosirovning “Turon” emas “Oktabr” nomli maqolasida ilk bor chop etilgan. Shu bilan birga ushbu maqoladan xalqimizni kitob va vaqtli matbuotga bo‘lgan rag‘bati qanday bo‘lganligini, undan qaysi ijtimoiy tabaqa va millat vakillari ko‘proq foydalanganliklarini, qaysi kitoblar ko‘proq o‘qilganlarini ham bilish mumkin. Maqola shunchalik keng va batafsil berilganki, uni o‘qigan har qanday kishi ushbu kutubxonaning avvalgi qiyofasini ko‘z oldiga keltira oladi.

Masalan, maqolada kutubxonaning 1927-yilgacha qanday ko‘rinishda ekanligi quyidagicha tasvirlanadi: *“Kutubxonada qanday kitoblarning to‘planishig‘a qaramasdan, unda “muhtaram” o‘runni olib Muhammad Abdon (Muhammad Abduh – F.N), Ismoilbek Gaspinskiy, Jamoliddin Afg‘oniy, Rizoiddin bin Fahriddin, Muso Jorullo Bagiev kabi ma‘lum panturkistlar, panislamist din ulamolarining haybarakalla rasmlari bemalol osilib turabedir (bu 1927-yilgacha bo‘ladi).”*

Yuqorida nomlari keltirilgan Muhammad Abduh (1849-1905), Ismoilbek Gaspinskiy (1851-1914), Jamoliddin Afg‘oniy (1839-1897), Rizouddin bin Fahriddin (1859-1936) va Muso Jorullo Bagievlar (1873-1949) jadidchilik harakatining ilk asoschilaridan edi. “Turon” kutubxonasi tashkil topganidan to 1927-yilgacha mamlakatimiz ziyolilarining ma‘naviy va

madaniy markazi bo'lib keldi. Lekin keyinchalik sovet siyosati keskin tus olishi natijasida. ommaviy qatag'onlar avj ola boshladi. O'sha davrda ko'zga ko'ringan taraqqiyparvarlar tomonidan tashkil etilgan, hamda ularning tashabbuslari bilan xalqimizga ilm-ma'rifat tarqatib kelgan "Turon" kutubxonasi ham sovet siyosatidan chetda qolmadi. 1927-yilda osilgan suratlar olib tashlanadi va kutubxonadagi 500ga yaqin kitoblar tuzilgan komissiya tomonidan mafkuraviy sayoz deb topilib, o'quvchilarga berilishi taqiqlab qo'yiladi.

Maqolaning davomida "Turon" kutubxonasining boy fondi ko'rsatilib o'tiladi. Unga binoan, 1929-yilda kutubxona fondida 20 mingdan ziyod zamonaviy va tarixiy kitoblar saqlangan. Bundan tashqari kutubxonada mavjud nodir asarlar va davriy matbuot nomlari, kutubxona foydalanuvchilarning soni, byudjeti, hamda, kutubxonaning kamchilik va yutuqlari sanab o'tilgan va kutubxonaning ravnaqi yo'lida kelgusiga vazifa va takliflar berilgan.

Keyingi maqola ham Abdulla Nosirovning rahbarlik davriga to'g'ri kelib, bu maqola 1929-yil "Sharq haqiqati" (1928-1930) gazetasida e'lon qilingan. Unga binoan, "Oktabr" kutubxonasiga 5 oydan buyon yangi kitob olinmay, 2000 dan oshiqroq o'quvchi mutolaasiz qolib kelmoqdaligi aytiladi[13]. Maqolaning davomida kutubxonaning mudiri (Abdulla Nosirov) Davlat nashriyotining do'konidan qimmatli asarlardan 300 tasini ajratib qo'yganiga qaramay, pul yo'qligi sababli ola olmayotganligi qayd etilgan. Bu maqola ham A.N. imzosi bilan berilganiga qaramay, Abdulla Nosirov tarafidan yozilgan.

"Turon" kutubxonasi 1927-yilda o'z homiysi bo'lgan eski Shahar vaqf sho'basi tugatilishi sababidan turg'unlik davrini kechiradi[5;23-b]. Kutubxona o'z faoliyatini davom ettirishi uchun yetarli mablag'ga ega emasligiga qaramay, uning fidoyi hodimlari xalqimizga ziyo tarqatishda to'xtamadilar. O'z faoliyati ana shunday davrlarga to'g'ri kelgan Abdulla Nosirov kutubxona rivoji uchun salmoqli hissa qo'shdi. Uning mehnati bilan kutubxona fondi yangi-yangi kitoblarga ega bo'ldi, inventarizatsiya ishlari amalga oshirildi, gazeta va jurnallarning nusxalari muqovalanib arxivlashtirildi, uning tashabbusi bilan turli ma'rifiy-madaniy tadbirlar uyushtirildi, umuman kutubxona ishini yo'lga qo'yishda katta xizmat ko'rsatdi. Shu bilan birga, Vatanimiz taraqqiyotiga o'zini ulkan hissasini qo'shgan ziyolilarni, kerakli axborot va manbalar bilan ta'minlab, katta katta asarlar dunyoga kelishida yordam berdi.

Kutubxonadagi faoliyatining to'xtatilishi.

Abdulla Nosirov 1930-yilning oktyabr oyidan "Turon" kutubxonasining rahbarlik lavozimidan bo'shatiladi. Buning sabablarini ham biz shu davr gazeta va jurnallaridan topishga urinib ko'rdik. "Qizil O'zbekiston" gazetasinign 1931-yil 6- mart sonidagi "A.U." imzoli "Oktabr kutubxonasi yashamog'i kerak." Deb boshlanuvchi maqolada shunday deb yoziladi: *"Oktabr" kutubxonasi mahalliy byudjetning kambag'allig'idan 30-yil may oyida Maorif komissarligi qarori bilan davlat byudjetiga o'tkazilib, O'rta Osiyo kutubxonasi bilan birga qo'shildi. O'rta Osiyo kutubxonasi director muovini "Oktabr" kutubxonasi mudiri bo'lib hisoblansin, deyildi... Kutubxonani eng so'nggi texnika yo'lig'a solg'on mudirini "shtat qisqartirish" bilan bo'shatib yubordilar.*[17]"

Yuqoridagi maqoladan ko'rinib turibdiki, Nosirovning "Turon" kutubxonasidagi mudirlik faoliyati, uning O'rta Osiyo kutubxonasi (hozirgi [Alisher Navoiy](#) nomidagi [O'zbekiston Respublikasi](#) davlat milliy kutubxonasi) tarkibiga kiritilganidan so'ng tugatildi.

1920-1930-yillarga oid gazeta va jurnallarda Abdulla Nosirovni ko'proq Nosihiy taxallusi uchraydi. Masalan, o'zining ilk adabiy asari "Bilka"[6;26-28], yoki yuqorida biz sanab o'tmagan "Qizil O'zbekiston" gazetasida 1926-yillarda bosilgan "Yangi O'zbek alifbosi va klublar"[19], "Maqol va cho'pchaklar kerak" [18] Nosihiy imzosi bilan berilgan bu bildirishda muallif xalqqa murojaat qilib, o'zbek maqol va cho'pchaklaridan yozib yuborishlarini so'raydi] kabi maqolalari ham uning "Turon" kutubxonasidagi faoliyati yillarida yozildi. "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalining 1927-yilgi sonida esa, "Mahallalardagi jurnal vakillarimiz" sarlavhali ro'yxatda Abdulla Nosirov - "Turon" kutubxonasi rahbari Abdulla Nosihov deb sanab o'tiladi.

Yana shuni aytish kerakki, yuqorida nomlari keltirilgan gazeta va jurnallarda Nosirovning "Turon" kutubxonasida ishlagan davrlarida chop etilgan ko'plab maqolalar borki,

ular da ham “N”, “A.N” yoki “N.A” imzolari qo‘yilgan. Ushbu maqolalarda “Turon” kutubxonasining masalalari ko‘tarilgan yoki yurtimizning madaniy-ma‘rifiy sohalarga bag‘ishlangan. Ammo bu tadqiqotimizda hozircha biz ularni Nosirov tomonidan yozilgan deb ayta olmadik. Chunki, yuqoridagi Abdulla Nosirovning imzosi deb bergan maqolalarimiz, Nosirovning O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanuvchi “Nosirov daftarlari”da keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib yozildi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Abdulla Nosirov o‘zining ilk kutubxonachilik faoliyatini “Turon” kutubxonasidan boshladi. Yurtimizni ko‘plab taraqqiylarining sevimli maskani bo‘lgan bu joy, Nosirovni ham ana shu ma‘rifiy madaniy jarayonlarga o‘z hissasini qo‘shishiga, kutubxonachilik, manbashunoslik va xattotlik sohalarida katta tajriba orttirishiga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, Nosirov Turon kutubxonasini rivojlanishiga o‘zini salmoqli hissasini qo‘shdi. Avvaliga uchta xodim bilan ish boshlagan kutubxona uning mudirlik davriga kelib, besh kishi bilan faoliyatini davom ettiradi. Kutubxona fondi yangi kitoblar bilan to‘ladi, kutubxonachilik ishlari yaxshilanadi. Bularni barchasini biz yuqoridagi maqolalarda ko‘rib chiqdik.

Abulla Nosirov o‘zining ilmiy faoliyati davomida davriy matbuotda faol bo‘lgan. 1920-yildan to umrini oxirigacha (1986) uning ellikdan oshiq maqolalari chop etilgan. Bu maqolalar ham hozirgacha biz aniqlay olganlarimiz xolos. Bu esa, Nosirovning nafaqat bibliograf, tarjimon, xattot balkim, yaxshigina publitsist ekanligini ham ko‘rsatadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Архив АН РУз, ф. 55, д. 255, л.31. (Личное дело А. Насырова)
2. Habibulla Zayniddin. Qo‘lyozmalar bilimdoni. Hidoyat jurnali, 2019, 2-son. – B.26-27.
3. Nosirov A. Nosirov jamlagan material va manbalarning ro‘yxat daftari. O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi inventar №13498.
4. Nosirov A. Ma‘lumotlar daftari. O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi inventar №13463.
5. Nuriddinova F. “Turon” javohirlari (bibliografik ko‘rsatkich). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019. – 471.
6. Nasirillayeva N. Bibliograf Abdulla Nosirov va uning “Bilka t” asari haqida. «Sharqshunoslik sohalarini tadqiq etishning dolzarb masalalari» mavzusida Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XIX respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2024. – B.26-28.
7. Oxunjonov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarix: 1-qism darslik / E.Oxunjonov; Mas‘ul muharrir A.O.Umarov; -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004. – 108.
8. Oxunjonov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarix: 2-qism darslik / E.Oxunjonov; Mas‘ul muharrir A.O.Umarov; -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. – 308.
9. Sobirova V. Ma‘rifat qal’asi. Kutubxonachi ilmiy uslubiy jurnal, - 2022, 2-son (54). B.22-24
10. «Turon» kutubxonasi – madaniyat va ma‘rifat koshonasi: [maqolalar to‘plami] / Toshkent viloyati «TURON» axborot-kutubxona markazi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2018. – 80.
11. “Sharq yulduzi”. 1965-yil 15-son,
12. “Sharq haqiqati”, 1929-yil, 6-iyun.
13. “Qizil bayroq”. 1922. - 29-avg.
14. “Qizil O‘zbekiston”, 1928-yil, 218-son,
15. “Qizil O‘zbekiston”, 1926-yil, 16-dekabr.
16. “Qizil O‘zbekiston” 1931-yil, 6-mart, 54-son.
17. “Qizil O‘zbekiston” 1926-yil, 5-aprel, 78-son.
18. “Qizil O‘zbekiston” 1926-yil, 2-noyabr, 252-son.
19. “Maorif va o‘qitg`uvchi” jurnali, 1929-yil, 6-son.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

EXTERNAL COOPERATION RELATIONS IN THE FIELD OF HEALTH CARE IN THE NAVOY REGION

Tuyev Fazliddin Erkinovich,

Independent researcher,

E-mail: fazli1820bek@gmail.com

Abstract. This article shows that mutual external cooperation in the field of health care has developed in the Navoi region as a result of cooperation, protection of the family, motherhood and childhood, social assistance to the disabled and children from socially needy families of the region. Hospitals were renovated and supplied with a number of medicines. It was noted that doctors working in regional hospitals returned from internships in a number of foreign countries in order to exchange foreign experience.

Keywords: in Navoi region, US dollar, Finland, USA "Counterpart International", "Medicine", Estonia, hospital, "Mother and Child".

NAVOIY VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH BORASIDA O'ZARO TASHQI HAMKORLIK ALOQALARI

Tuyev Fazliddin Erkinovich,

mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Navoiy viloyatida sog'liqni saqlash borasida o'zaro tashqi hamkorlik aloqalari rivojlanib borganligi hamkorlik natijasida viloyatida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, nogironligi bo'lganlarga va ijtimoiy muhtoj oila farzandlariga ijtimoiy ko'maklar ko'rsatilgan. Shifoxonalar ta'mirlanib, bir qator dori-darmonlar bilan ta'minlangan. Viloyatdagi shifoxonalarda faoliyat olib boradigan shifokorlar xorijiy tajriba almashlash maqsadida bir qator xorij davlatlarida malaka oshirib qaytganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyatida, AQSh dollari, Fillandiya, AQShning "Counterpart International", "Dori-darmon", Estoniya, shifoxona, "Ona va bola".

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N06>

Kirish. Navoiy viloyati sanoati, qishloq xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlash, qishloq infratuzilmasining rivojlanishi va madaniy sohalardagi xalqaro aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi va bu borada yetarlicha tajriba to'plandi. Navoiy viloyati o'zining rivojlangan sanoati va qishloq xo'jaligi, tabiiy boyliklari, ulkan sayyohlik salohiyati bilan mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. Viloyatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarda tashqi aloqalarning rivojlanishi masalalari O'zbekistonning eng yangi tarixi kontekstida alohida, tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Mazkur muammoni ilmiy jihatdan o'rganish zarurati mavzu dolzarbligini tasdiqlaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonning xalqaro aloqalarda ishtiroki masalalari yoritilgan adabiyotlarni tashkil etadi. Jumladan, M. Tursunmuhamedov, A. Kasmov,

Yu. Abdullaev, E. Nuriddinov, A. Qirg'izboev, S. Jo'raev, Sh. Xayitov, M. Raximov, Q. Rajabov, X. Bekmuratov[1] kabi olimlar tomonidan turli ilmiy adabiyotlar yaratilgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tizimli-xronologik va tarixiy-tipologik yondashuv, sinxron, dioxron, analiz va sintez, qiyosiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Muhokama. 2001-yil Navoiy viloyatida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish maqsadida katta e'tibor berildi. O'tgan yil davomida "Ona va bola" yili dasturi asosida amalga oshirilgan ishlarga viloyat budjetidan jami 2,8 mlrd. so'm miqdorida mablag' sarflangan. Shuningdek, viloyat tibbiyot muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlashda qator ishlar qilingan. Jumladan, Nurota tumani markaziy shifoxonasiga qarashli tug'ruqxona kompleksi kapital ta'mirlandi Finlandiyaning "Mediko-Medikal" firmasi orqali 1,2 mln. AQSh dollari miqdorida zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar bilan ta'minlanib, faoliyatini boshladi. Viloyat o'sma kasalliklari dispanserida 15-o'rinli Doimiy shifoxona tashkil etilib ishga tushirilgan edi. 2001-yilda viloyat bo'yicha 15 ta qishloq vrachlik punktlari yangidan qurilib ishga tushirilishi, Navoiy tumani "Narpay" shirkat xo'jaligi hududida 25-o'rinli maxsus davolash profilaktika muassasasining, tuman markaziy shifoxonasi tarkibida qo'shimcha tumanlararo nevrologiya, pulmonologiya, neyrojarrohlik, otolaringologiya bo'limlari, Xatirchi tuman markaziy shifoxonasi tarkibida 30 o'rinli shoshilinch tibbiy tez yordam bo'limi, barcha tuman markaziy shifoxonalari va 3-son tibbiy sanitariya qismi laboratoriya funksional tashxis bo'limlari ta'mirdan chiqarilib, jahon banki krediti orqali zamonaviy tibbiy jihozlar o'rnatilib, ishga tushirilgandi. Shuningdek, AQShning "Counterpart International" muruvvat tashkiloti tomonidan 655 ming AQSh dollari miqdorida tibbiy jihozlar keltirilib, viloyat aholisi salomatligi yo'lida beminnat xizmat ko'rsatib kelmoqda[2].

Viloyat sog'liqni saqlash tizimida 40 ta shifoxona, shu jumladan 11 ta dispanser, 16 ta qishloq vrachlik shifoxonasi, 95 ta qishloq vrachlik punkti, 25 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasi, 116 ta feldsher akusherlik punkti onalar va bolalarga kafolatlangan bepul, malakali xizmat ko'rsatmoqda. 2002-yil davomida 13 ta QVP, shu jumladan 9 tasi yangidan qurish hisobidan, 4 tasi esa boshqa binolarni kapital ta'mirlash hisobidan qayta tashkil qilindi va foydalanishga topshirildi. Shuningdek, 2003 yil 12 oyi davomida Qiziltepa tumanida 2 ta, Xatirchi tumanida 1 ta. Navoiy tumanida 1 ta qishloq vrachlik punkti ishga tushirilgandi. 2004-yil 19-yanvar holatida esa viloyatda 95 ta qishloq vrachlik punktlari faoliyat ko'rsatgan va shundan 71 tasiga radioaloqalar uchun jihozlar olib kelib, o'rnatilgandi. 41 QVP ga, 26 FAPga har biriga 22 ming AQSh dollari miqdorida tibbiyot jihozlari Jahon banki mablag'lari hisobidan olib berildi. Cho'l hududlarida joylashgan qishloq vrachlik punktlari uchun Navoiy kon metallurgiya kombinati homiyligida 12 ta "UAZ" rusumli sanitariya transportlari olib berilgandi va 2004-yil 19-yanvar holatida esa "Salomatlik loyihasi tomonidan 18 ta "UAZ" rusumli sanitariya transportlari viloyatga olib kelindi[3].

Navoiy viloyatidagi 8 ta tuman markaziy shifoxonasi va Zarafshon Shahar tibbiy-sanitariya qismi laboratoriya markazlari zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan Jahon banki tomonidan ta'minlandi. Viloyat markazida 150 o'rinli viloyat tug'rug'xona majmuasi va 90 o'rinli bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi ishga tushirilgandi Viloyat "Dori-darmon" AJ tarkibida "Avitsena" dori ishlab chiqarish kichik korxonasi 2002-yilda o'z faoliyatini boshlab viloyat aholisiga arzon va sifatli dorilar tayyorlab berishni boshlagan. Amerika davlatining XOUP loyihasi bilan hamkorlikda quyidagi dasturlar bo'yicha ish olib borildi: "Ko'krak suti bilan boqishni qo'llab quvvatlash", "Bolalar kasalliklarini davolashni integrallashgan usulda olib borish", "Reproduktiv salomatlik", "Bexatar onalik", "Aholi, o'smirlar bilan ishlash" hamda "Aholi salomatligini yaxshilash" ishlari bo'yicha tibbiyot muassasalarida ish olib borilmoqda[4].

Viloyat sog'liqni saqlash tizimidagi davolash profilaktika muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan 351 nafar vrach Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti va Samarqand davlat tibbiyot institutining vrachlar malakasini oshirish fakultetida o'z malakalarini oshirdilar. Bundan tashqari 2002-2003 yil davomida 4 ta akusher ginekolog Ukraina davlatiga borib

malakalarini oshirib qaytdi. “Salomatlik” loyihasi tomonidan 2000-2003 yillarda tajriba almashish uchun 18 ta QVP vrachlari Estoniya davlatiga borib o‘qib keldi. Viloyat bo‘yicha 1283 ta o‘rta tibbiyot xodimlari Navoiy o‘rta tibbiyot va dorishunos xodimlari malakasini oshirildilar.

Viloyatda sil kasalligini vaqtida aniqlash hamda nazorat ostida davolashni tashkillashtirish bo‘yicha DOTS strategiyasini joriy etish munosabati bilan 308 ta vrach, 750 ta hamshiralalar Respublika Ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy tekshirish, instituti va Respublika DOTS markazi mutaxassislari tomonidan o‘qitildi, shuningdek DOTS xonalari tashkil etilib, jihozlandi. Viloyat narkologiya dispanserida Respublikada birinchi bo‘lib 2004-yilning 15-mayidan boshlab odam organizmidan ajraladigan moddalar biologik narkotik moddalar miqdorini aniqlaydigan “PIIN-Iskovich-1” apparati o‘rnatilib, ishga tushirildi. Viloyat bolalar shifoxonasida yana bir qo‘shimcha bino XOUP loyihasi yordamida 20 mln. so‘mlik qayta kapital ta‘mir lanib, jihozlangan edi [5].

Viloyat aholisini va davolash profilaktika muassasalarini dori vositalari glyugisir bilan ta‘minlash maqsadida 2002-yilda “Avitsenna” savdo ishlab chiqarish korxonasi tashkil etildi. 2002-yilda bu korxonada 37 mln. so‘mlik, 2003-yilda 45 mln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqardi. Korxonada 2002-yilda ming fl glyugitsir, 5 tonna yod 5 foizli eritmasi, 40 turdan ziyod dori-darmonlar tayyorlangan bo‘lsa, 2003-yilda 10 ming fl glyugisin, 1 tonna riliant kukuni eritmasi, 4 tonna yod 5 foizlik eritmasi, 42 turdan ziyod vositalar ishlab chiqarildi. Viloyat bo‘yicha 2002-yilda chet el firmalaridan kvota hisobida 175 ming dollarga sotib olingan bo‘lsa, 2003-yilda esa 185 ming dollarga hayotiy zarur dorilar sotib olindi. Viloyatga keltirilgan dorilarning tahlili jamiyat tizimidagi nazorat tahlil laboratoriyasi tomonidan shartnoma asosida tekshirilib borilmoqda.

Nurota, Xatirchi, Karmana tumanlaridagi markaziy dorixonalarda dori vositalari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bu dorixonalarda 15-18 turdagi dorilar tayyorlanib davolash muassasalariga yetkazib berilgandi.

Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi davolash muassasalarini dori-darmonlar bilan ta‘minlash 13 ta dorixonalar orqali amalga oshirildi. Shulardan 7 tasi steral dorilar ishlab chiqaradi va maxsus litsenziyalarga ega. Bu dorixonalarga O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining 2001-yil 5-sentabrdagi 400 sonli hamda 2001-yil oktabrdagi 444-sonli buyruq talablari asosida sharoit yaratilgan, maxsus asbob-uskuna, jihozlar hamda malakali mutaxassislar bilan ta‘minlanib borilmoqda. Viloyatdagi “Dori-darmon” davlat aksiyadorlik jamiyatidagi 9 ta dorixonalarda sog‘liqni saqlash tizimidagi barcha davolash profilaktika muassasalari giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarga litsenziya berilgan.

Imtiyozli retseptlar bo‘yicha aholiga xizmat ko‘rsatish ta‘minoti sog‘liqni saqlash boshqarmasining dorixonalari bilan tuzgan shartnomalari asosida yo‘lga qo‘yilgan. Viloyat “Dori-darmon” davlat aksiyadorlik jamiyati tizimidagi dorixonalarga qariyalarni, nogironlarni, mehnat faxriylarini dori-darmonlar bilan bepul ta‘minlash uchun har yili buyurtma tuzilib Respublika “Dori-darmon” davlat aksionerlik uyushmasiga topshiriladi.

2002-2003 yillar davomida 71 ta dorixonalar tekshirilib, ularning 27 tasiga chora ko‘rish uchun tuman, shahar soliq inspeksiyalariga taqdimnomalar kiritilgan va bu dorixonalarga Qonun doirasida ma‘muriy choralar qo‘llanilgan. Tekshirilgan xususiy dorixonalarda 20 xil cheklangan narxdagi dorilarning ba‘zilari mavjud emas, sovtgichlar ishlamaydi, mutaxassislar malakasi oshirilmagan, sifat sertifikatini bo‘lmagan dorilar sotilgan, imtiyozga ega bo‘lgan shaxslar retsept asosida dori-darmonlar berish uchun tuman, shahar sog‘liqni saqlash bo‘limlari bilan shartnomalar tuzmagan[6]. Xususiy dorixonalarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar har chorakda sifat nazorat komissiyasi yig‘ilishlarida muhokama etilib, tegishli choralar ko‘rilib borilmoqda. Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi barcha davolash profilaktika muassasalarida hamda sohaga tegishli tashkilotlarda bu borada amaliy ishlar davom ettirilgan [7].

2003-yilning 9 oyi davomida 5925 nafar nogiron bolalar sog'lomlashtirildi, 516 nafar bola sog'ayganligi tufayli nogironligi bekor qilindi. Navoiy shahrida "Skrening" markazi uchun bino olinib, 2003-yil hisobida 30 mln. so'mlik ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi viloyat bo'limining tibbiy-ijtimoiy patronaj ko'chma brigadasi tomonidan 5352 nafar ona, 3015 nafar bola va 316 nafar o'smir yoshlar shu vaqt mobaynida tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. 2003-yil viloyat umumta'lim maktablarining 141 tasida nogiron bolalar o'qitildi, 530 nafar nogironligi tufayli individual o'qishga ehtiyoji bor bolalar mavjud. Bu bolalarga 630 nafar o'qituvchi birlashtirilgan bo'lib, ularga Vazirlar Mahkamasining 490-sonli qaroriga asosan 50 foiz qo'shimcha pul to'langan. Viloyat mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi hisobida 2003-yil 1-oktabr holatiga 7420 nafar 18 yoshga to'lmagan nogiron bolalar bo'lib, 2003-yilning 9 oyi davomida 15 nafar nogiron bolalar maxsus o'rindiqli aravachalar bilan, 40 nafar nogiron bolalar protez-ortopediya buyumlari va 17 nafar nogiron bolalar qo'ltiq-tayoq bilan ta'minlangandi. Bundan tashqari mahalliy hokimliklar, tuman, shahar ijtimoiy ta'minot bo'limlari va tashkilotlar homiyligi ostida bayram kunlari 1642 nafar nogiron bolalar va kam ta'minlangan oilalar bolalariga 4785,9 ming so'mlik bayram sovg'alari berildi. Shu bilan bir qatorda AQShning "Counterpart International" tashkiloti tomonidan ajratilgan muruvvat yordami hisobidan viloyatda istiqomat qilayotgan 6047 nafar nogiron bolalar va kam ta'minlangan oila farzandlariga kiyim-kechaklar tarqatildi [8].

O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 84-sonli buyrug'iga asosan tizimda zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat ko'rsatuvchi "Ortopediya reabilitatsiyasi" ilmiy ishlab chiqarish korxonasi Navoiy filiali tashkil qilinib, 2003-yilning 9 oyi davomida 71 nafar turli toifadagi nogironlardan buyurtma qabul qilindi, shundan 16 nafar voyaga yetmagan nogiron bolalarga protez-ortopediya buyumlari tayyorlab berildi [9].

Tibbiyot tarmoqlarining taraqqiy topib borishi bilan bir qatorda ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, 2003-yil 9 oyi davomida viloyatda 8 ta onalar o'limi va 169 ta go'daklar o'limi qayd etilgan. Ro'y bergan onalar va bolalar o'limi holatlari o'rganilib, xatoliklarga yo'l qo'ygan tibbiyot xodimlariga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanildi [10]. Navoiy viloyat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida 710,0 ming aholiga tibbiy xizmat ko'rsatilgan edi. 2003-yilda viloyat sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish uchun 16222745,1 ming so'm mablag' ajratish talab qilingan bo'lsa, bor-yo'g'i 6851064,0 ming so'm (talabning 42,2%) mablag' ajratilgan. Shundan, hayotiy zarur dori-darmon harajatlari uchun 5537990,0 ming so'm talab qilinganda 422940,0 ming so'm (talabning 7,6%) mablag' ajratilgan. Dori-darmon uchun ajratilgan mablag', ekologik jihatdan nosog'lom bo'lgan Navoiy viloyati uchun juda ham kam miqdordir. Navoiy shahrida viloyat va shahar shifoxonasining yo'qligi sababli ularga tegishli xizmatni ham Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Navoiy viloyat filiali zimmasiga yuklatilgan edi. Lekin, hatto filialning o'ziga ham budjetdan yetarli miqdorda mablag' ajratilmaganligi achinarli holdir [11].

2003-yilda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Navoiy viloyat filialiga dori-darmon harajati uchun 556396,4 ming so'm mablag' talab qilingan holda, bor-yo'g'i 60231,0 ming so'm (ya'ni talabning 11 foizi) ajratilgan. Bu ko'rsatgichlar Respublika va boshqa viloyatlar ko'rsatgichlari bilan taqqoslaganda oxirgi o'rinda turadi. Masalan: Surxandaryo viloyat shoshilinch tibbiy yordam xizmatga 1 o'rin kunga dori-darmon uchun 2002-yilda 2742 so'm, Toshkentdagi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi (RShTYoIM[12])ga 2277 so'm, Xorazm viloyatiga 1505 so'm, Farg'ona viloyatiga 1288 so'm ajratilgan bo'lsa, Navoiy viloyati shoshilinch tibbiy xizmati uchun 1 o'rin joyga 388 so'mni tashkil qilgan edi [13].

2003-yil 6 oy yakuni bilan aholi jon boshiga hisoblanganda Surxandaryo viloyatiga 3587 so'm, Buxoro viloyatida 3932 so'm, Navoiy viloyatida esa 4223 so'mdan to'g'ri kelgan. Lekin, Navoiy viloyati ekologik jihatdan notozaligini hisobga olib tuman va shaharlarda oylik ish haqiga tuman kayfitsentlarni qo'shib berilishi tufayli oylik va ajratmalardan 2003-yilda

966 mln 853 ming so‘m mablag‘ Navoiy shahri, Uchquduq va Zarafshon hududlarida kommunal xizmatlar Navoiy Tog‘ Metallurgiya Kombinati muassasalari tomonidan ko‘rsatilishi, bu muassasalarda qo‘shimcha qiymat solig‘i (NDS) yuqori qo‘yilishi tufayli kommunal xizmat harajatlaridan 16 mln 528 ming so‘m mablag‘lar iqtisod qilinib, ushbu mablag‘lar dori-darmon va boshqa harajatlariga yo‘naltirilgan bo‘lar edi. Jon boshiga ajratiladigan mablag‘ hisoblanayotganda qo‘shimcha kayfitsentlar va qo‘shimcha qiymat solig‘iga ketadigan mablag‘lar alohida hisoblanib borilishi natijasida. Ushbu muammolarni inobatga olgan holda viloyatda shoshilinch tibbiy xizmat tizimini yaxshilash maqsadida 2003-yilning 3-4-choraklarida dori-darmon uchun qo‘shimcha mablag‘ ajratildi[14] va 2004-yil budjet mablag‘lari taqsimotiga alohida e‘tibor qaratilgan[15].

Xulosa. Bir so‘z bilan aytganda, Navoiy viloyati hududida joylashgan sog‘liqni saqlash muassalarida bir qancha shifoxonalar qayta ta‘mirlanib xorijiy asbob uskunalar bilan ta‘minlandi. Viloyatdagi ijtimoiy himoyaga muxtoj aholiga va ularning farzadlariga AQShning “Counterpart International” tashkiloti tomonidan ajratilgan muruvvat yordami hisobidan ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatilgan. Lekin, bu boradagi ayrim kamchiliklar ham qayd qilinganligi dalillangan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Турсунмухамедов М. Совиестные предприятия и проблемных развития //общественных науки в Узбекистан, 1993.- №// -12.- б. 22-26; Касымов А. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. –Ташкент: Ўзбекистон, 1994.- 112 с.; Абдуллаев Ю. Хорижий олий таълим: тажриба ва тараqqиёт йўналишлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. –200 б.; Нуриддинов Э. Международное сотрудничество Республика Узбекистана со странами Европы. – Ташкент: Чшлпон, 2002. – 216с.; Qирг‘избоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халqаро ҳамкорлиги. – Тошкент:Фан, 2004. –280 б.; Жўраев С. Ўзбекистон ва жапон ҳамжамияти. – Тошкент: Академия, 2005. –36 б.; Найитов Ш. Ўзбек мухожирлиги тарихи (1917-1991 йиллар) .-Тошкент: «ABV MATBOT – KONSAIT», 2008. – 208 б.; Рахимов М. Международная сотрудничество Узбекистана в контексте обеспечения стабилности и устойчивого развития в сентралной Азии. – Тошкент, Янги нашр, 2011. –229 с.; Ражабов Q, Бекмуратов X. Ўзбекистон билан Туркия ўртасидаги иqtисодий ва маданият ҳамкорлик тарихидан. – Тошкент: Тафаккур, 2017. –167 б.
2. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 560-yig‘ma jild, 38 varaq.
3. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 673-yig‘ma jild, 63-varaq.
4. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 673-yig‘ma jild, 64-varaq.
5. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 673-yig‘ma jild, 64-varaq.
6. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 673-yig‘ma jild, 39-varaq.
7. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 673-yig‘ma jild, 39 -varaq.
8. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 616-yig‘ma jild, 41-varaq.
9. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 616-yig‘ma jild, 42-varaq.
10. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 616-yig‘ma jild, 41-varaq.
11. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 614-yig‘ma jild, 14-15 varaq.; Navoiy viloyat hokimligi chiqish xati №-01/407-son. 2003-yil 20-avgust.
12. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi.
13. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 614-yig‘ma jild, 14-15 varaq.; Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi (RshTYoIM) bosh direktori A.M.Xodjiboevning SSV kollegiyasidagi 2002-yilgi hisobot ma‘ruzasidan.
14. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 562-yig‘ma jild, 6- varaq.
15. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro‘yxat, 614-yig‘ma jild, 14-15 varaq.; Navoiy viloyat hokimligi chiqish xati №-01/407-son. 2003-yil 20-avgust.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

PROCLAMATION OF SOVIET AUTONOMY OF TURKESTAN AND THE GOVERNING ORGANIZATIONS OF BOLSHEVIKS IN THE COUNTRY

Davlatova Shoira,

Termez State University,

Doctor of Philosophy in history (PhD)

Abstract. In this article, the announcement of the Turkestan Soviet Autonomy and the establishment of the Bolshevik governing organizations in the country – the Central Executive Committee of the Turkestan Autonomous Federal Republic, the Council of People’s Commissars, the Communist Party of Turkestan (TKP (b)) and their composition thoughts about it have been expressed.

Key words: soviets, autonomy, Turkestan Soviet Autonomy, Bolsheviks, communist, parliament, country, power, management system, commissariat, party, left socialist-revolutionaries.

TURKISTON SOVET AVTONOMIYASINING E’LON QILINISHI VA O’LKADA BOLSHEVIKLARNING BOSHQARUV TASHKILOTLARI

Davlatova Shoira

Termiz davlat universiteti,

Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston Sovet Avtonomiyasining e’lon qilinishi va o’lkada bolsheviklarning boshqaruv tashkilotlari – Turkiston Avtonom Federativ Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo’mitasi, Xalq Komissarlar Soveti, Turkiston Kommunistik partiyasi (TKP (b)) tashkil etilganligi va ularning tarkibi to’g’risidagi fikrlar o’z ifodasini topgan.

Kalit so’zlar: sovetlar, avtonomiya, Turkiston Sovet Avtonomiyasi, bolsheviklar, kommunist, syezd, o’lka, hokimiyat, boshqaruv tizimi, komissarlik, partiya, so’l sotsialist-inqilobchilar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N07>

Kirish. 1918-yil 20-aprelda Toshkentda Sovetlarning V o’lka syezdi ochildi. Syezdi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri – Turkiston Sovet Avtonomiyasini e’lon qilish va shu munosabat bilan hokimiyatni, komissarliklarni qayta tashkil etish edi. Turkiston Sovet Avtonomiyasi bolsheviklar yoki sovetlar “andozasi” asosida tashkil etildi. 22-aprelda Sovet hukumati boshlig’i V.I.Lenin va Millatlar Ishlari Xalq Komissari I.V.Stalin o’lka syezdiga: “Ishonishlaringiz mumkinki, Xalq Komissarlari Soveti o’lkangiz muxtoriyatini sovet asoslarida qo’llab-quvvatlaydi. Biz sizlarni ilk harakatlaringizni qo’llaymiz va chuqur ishonamizki, butun o’lkani Sovetlar tarmog’iga bog’laysiz, Sovetlarning tuzilishi bilan to’liq aloqadorlikda faoliyat yurita boshlaysiz” [1. 248-249], deb telegramma jo’natishdi. Bu xabar orqali “dohiy”lar Turkistonda faqat Sovetlar andozasi asosidagi boshqaruv tizimini joriy qilish haqida ko’rsatma berishgandi. Shu asosda 1918-yil 30-aprelda syezd “Turkiston Sovet Federativ Respublikasi

to'g'risidagi Nizom" ni qabul qildi. Bu nizomga ko'ra Turkiston o'lkasining hududi Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi deb e'lon qilinadi [2.74].

Turkiston Respublikasi avtonomiya tarzida boshqarilib, RSFSR hukumatini tan olar va o'zining faoliyatini shunga muvofiqlashtirar edi. Xiva va Buxorodan tashqari Turkistonning barcha hududi geografik chegarasi bilan shu respublika tarkibiga kiritildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turkiston sovet avtonomiyasining e'lon qilinishi va o'lkada bolsheviklarning boshqaruv tashkilotlari masalasi bir qator mahalliy va xorijiy tarixchi-tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ayniqsa, T.G.Tuxtametovning "Русско-бухарские отношения в конце XIX начале XX века", Q. Rajabov, B. Qandov, I. Shoymardonovlarning "O'zbekiston tarixining muhim sanalari", Q. Rajabov, M. Haydarovning "Turkiston tarixi (1917-1924 y.)" kabi kitoblari so'z yuritilayotgan mavzuning mohiyatini to'liqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Syezd birinchi marta Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasini sayladi, bu oliy qonun chiqaruvchi organ edi. Uning tarkibi 36 kishidan iborat edi:

a) kommunist-bolsheviklar partiyasidan: Federmesser, P.Kobozyev, Solkin, H.Ibrohimov, S.Jo'raboyev, Yermolov, A.Sh.Sharofutdinov, S.Yusupov, Astanboyev, Klimov, Klevleev, Bogoyavlenskiy, Golyatovskiy, Volkin, Kilyachkov, Lugin, Fomenko, Malkof.

b) so'l sotsial-inqilobchilar partiyasidan: Tixomolov, Azimboyev, Nagaybakov, Viktor Aleksandrov, Begatnikov, Dorojkin, Anialovskiy, Krimov, Zabolotnikov, Kosenko, Teodorovich, Slastushinskiy, Bullyabayev, Oxunov, I. Uspenskiy, Troskiy, Doze, Tumanov [3.252].

Ularga bolsheviklar partiyasidan Husanboyev, Foteyev, Burnashyev, Inog'omxo'jayev, so'l sotsialist-inqilobchilar partiyasidan N.N.Chernevskiy, Badalimov, Burenkin, Palastrovlar nomzod qilib olindi.

Turkiston Avtonom Federativ Respublikasi MIQ raisi etib P.A.Kobozyev, MIQning ikkinchi raisi bolshevik Solkin saylanishdi. Markaziy Ijroiya qo'mita raisining birinchi maslahatchisi Tixomolov, ikkinchi maslahatchi Nagaybakovlar saylanib, ularning har ikkalasi so'l sotsialist-inqilobchilar partiyasidan edi. Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi a'zolaridan 18 kishi bolsheviklar, 18 kishi eserlar bo'lib, ulardan atigi 5 kishi H.Ibrohimov, S.Jo'raboyev, A.Sh.Sharofutdinov, S.Yusupov, Q.Q.Otaboyev mazkur partiyalarga mansub bo'lgan mahalliy millat vakillari edilar.

1918-1924-yillarda Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raislari – P.A.Kobozev, A.F.Solkin, I.O.Tobolin, V.D.Votinshev (1918-yil oktyabr – 1919-yil yanvar), A.A.Kazakov (1919-yil mart-sentyabr), I.A.Apin (1919-yil sentyabr –1920-yil yanvar), Turor Risqulov (1920-yil yanvar-iyul), Muhammadjon Biseryev (1920-yil iyul-sentyabr), Nazir To'raqulov (1920-yil sentyabr – 1921-yil avgust), Abdulla Rahimboyev (1921-yil noyabr – 1922-yil sentyabr), Inomjon Xidiraliyev (1922-yil sentyabr –1924-yil yanvar), Nodirboy Aytakov (1924-yil yanvar-noyabr). [4. 148] Ushbu tarkibda Turkiston MIQ avval yevropaliklar tomonidan boshqarilib, so'ng mahalliy rahbarlarning talablari asosida boshqaruv yerli aholi vakillari qo'liga o'tganligini anglash mumkin.

Syездda XKS ham qayta tuzildi. Turkiston Avtonom Federativ Respublikasi XKS ijroiya organi tarkibiga kommunist bolsheviklardan – Kolesov, Poltoraskiy, Kazakov, Ashurxo'jayev, Ibrohimov, Osipov, Reneslans kiritildi.

So'l eserlar partiyasidan – Domogatskiy, Uspenskiy, Lavyanyakov, Chernevskiy, N.I.Gabitov, Tursunxo'jayev, Petrenkolar saylangan.

XKS raisi Kolesov (bolshevik), Adliya Xalq Komissari Ibrohimov (bolshevik), Oziq-ovqat komissari Kazakov (bolshevik), Xalq ta'limi komissari Uspenskiy (so'l eser), Sog'liqni saqlash Xalq Komissari O.Tursunxo'jayev (so'l eser), Harbiy ishlar komissari Osipov (bolshevik), Tashqi ishlar Xalq Komissari – Domogatskiy (so'l eser), Sanoat ishlari komissari – N.I.Chernevskiy (so'l eser), Axborot-aloqa komissari – Dubiskiy, Pochta va telegraf Xalq Komissari – Bocharov, Ichki ishlar Xalq Komissari Gabitov (so'l eser), Mehnat komissari – Poltoraskiy (bolshevik), Moliya komissari – Reneslans (bolshevik), sovet ish boshqaruvchisi – Petrenko (so'l eser), Yer ishlari

komissari – Lavenekov (soʻl eser) [5. 253] tarkibida 14 kishidan iborat edi. Yana temir yoʻllar, pochta va telegraf komissarligiga 2 kishi, jami 16 kishi saylandi.

16 kishi tarkibida saylangan XKS aʼzolaridan atigi S.Tursunxoʻjayev, H.Ibrohimov, S.Ashurxoʻjayevlar mahalliy aholiga mansub boʻlib, sanoqligina kishilar oʻlkani boshqarish ishlariga jalb qilindi.

Turkiston Avtonom Respublikasi tashkil etilgach, Turkistonda boshqarish ishlarini markaz manfaatlari asosida mahalliy millatga mansub boʻlmagan yevropalik bolshevik hamda soʻl eserlar partiyalari vakillari oʻz qoʻllariga oldi. Bu holat oʻlkaga yevropalik millat vakillarining kelish oqimini yana koʻpaytirdi. Oʻlkaga, mahalliy aholiga taalluqli ishlarga markazning aralashuvi ortib bordi.

1918-yil 17-25-iyunda Toshkentda Turkiston bolsheviklarining oʻlka konferensiyasi oʻtkazildi. Bu konferensiya Turkiston kommunist-bolsheviklar partiyasining I syezdi deb nom oldi. Syezdda oʻlkadagi kommunistik guruhlar tashkiliy jihatdan rasmiylashib, Turkiston Kompartiyasiga (TKP (b) asos soldilar [6. 148]. Syezdda I.Tobolin raisligida 7 kishidan iborat Markaziy Qoʻmita saylandi. Markaziy qoʻmita tarkibiga mahalliy kommunistlardan faqat Nizomiddin Xoʻjaev kiritildi. 1918-1924-yillar davomida Turkiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti raislari va masʼul kotiblari vazifalarida faoliyat yuritganlar:

I.O.Tobolin – 1918-yil iyun-sentyabr.

A.F.Solkin – 1918 yil sentyabr –1919-yil sentyabr.

I.A.Apin – 1919-yil sentyabr – 1920-yil iyul.

Nazir Toʻraqulov – 1920-yil iyul – 1922-yil sentyabr.

M.S. Enshteyn – 1922-yil sentyabr – 1924-yil may.

I.M. Vareykis –1924-yil may-noyabr [7. 150].

Ushbu maʼlumotlar oʻlkadagi bu boshqaruv tizimi ham deyarli faqat yevropaliklar tomonidan idora qilinganligini bildiradi.

Turkiston Kompartiyasi “temir intizom” asosida RKP(b)ga boʻysundirildi. Oʻlkaning Sovetlar mamlakatiga, bolsheviklar partiyasiga nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy qaramligi yanada ortdi [8.74].

1918-yil 15-oktabrda Sovetlarning III oʻlka syezdida Turkiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Turkiston Respublikasi Konstitutsiyasi birinchi marta Rossiya Federatsiyasi bilan Turkiston Respublikasi oʻrtasidagi huquq va vakolatlarni belgiladi. Bu Konstitutsiyada davlatning millatlarga boʻlgan munosabati toʻgʻrisida fikr bildirilmagan va u rus tilida nashr qilinib, shu holatida xalqqa havola qilingan. Shuning oʻzi Sovet hokimiyatining, bolsheviklar partiyasining oʻlka aholisiga munosabati qay tarzda ekanligini anglatadi. Konstitutsiyada mudofaa, tashqi aloqalar, pochta-telegraf, dengiz ishlari, temir yoʻllar, bojxona, savdo-sotiq, sanoat va moliya masalalari federal hukumat boshqaruvida qoldirilishi taʼkidlab qoʻyildi. Turkiston Avtonom Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilishicha, Sovetlarga saylash va saylanishga faqat boshqalar mehnatini ekspluatatsiya qilmaydigan shaxslar: sanoat, savdo va qishloq xoʻjaligida hamda boshqa sohalarida band boʻlgan barcha turdagi va toifadagi ishchilar, xizmatchilar, boylik orttirish maqsadida yollanma mehnatdan foydalanmaydigan dehqonlar, kazaklar va fuqarolarning boshqa ayrim toifalari haqli edilar [9. 8-14]. Xususiy savdogarlar, tadbirkorlar, din peshvolari, tijoratchilar saylash va saylanish huquqidan butunlay mahrum etildi. Bu usul bilan markaz qonun yoʻli bilan Turkiston jamiyatining koʻpgina ijtimoiy qatlamlarini davlatni idora etish ishlarida ishtirokini cheklashga erishdi.

Sovetlarning V oʻlka syezdida yuzaga kelgan bolsheviklar va soʻl eserlar partiyalari oʻrtasidagi keskin kurash 1919-yilning bahorida soʻl eserlar partiyasining tarqatib yuborilishiga olib keldi. Shu vaqtdan eʼtiboran bolsheviklar partiyasi Turkistonda gegemon partiyaga aylandi. Hukumat rahbarlaridan tortib mahalliy kengashlar, viloyatlar, shahar va uyezd Sovetlarida bolsheviklar yanada mustahkamroq oʻrnasha boshladi. Markazdan mahalliy aholiga yot boʻlgan markaz manfaatlarning soʻzsiz “tajribali kadrlar”ning kelishi koʻpaydi hamda buyuk davlatchilik-shovinistik siyosatini oʻlka hayotining barcha sohalariga oʻrnatdilar.

Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining tashkil etilishi, Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining federativ boshqaruv tartiblarini o'zida ifoda etgan Konstitutsiyasining qabul qilinishi, davlatni boshqarishda o'lka mahalliy aholisining teng huquqli emasligi mustaqillik uchun kurash boshlashga sabab bo'ldi. Ammo 1919-yil 8-oktyabriga kelib o'lkadagi boshqaruvni yanada markaz izmiga solish, mahalliy aholi talablarini nazorat qilib turish, hatto cheklash uchun yana bir "sovetcha" tashkilot RSFSR hukumatining qarori bilan MIQ va Xalq Komissarlari Sovetining vakili bo'lib, Turkiston o'lkasi va u bilan chegaradosh davlatlar hududida ular nomidan harakat qilish imtiyoziga ega bo'lgan Turkkomissiya tuzildi. RKP (b) MQ Siyosiy byurosida komissiya a'zolari qilib V.Boqiy, F.Goloshchekin, V.Kuybishyev, Ya.Rudzutak, M.Frunze, Sh.Eliava tasdiqlandilar [10. 151]. Ular qatoriga keyinchalik mahalliy rahbarlardan A.Rahimboyev, A.To'raqulov, Q.Otaboyev, T.Risqulov, S.Xo'janov kiritilgan [11.81].

Markazdan kelgan "tajribali" komissiya a'zolari o'zlariga berilgan cheksiz huquqlardan foydalanib, Turkistonni sovet hokimiyati ta'sirida saqlab qolish va mustahkamlash uchun astoydil harakat qildilar, mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilgan milliy rahbar kadrlarga nisbatan ayovsiz quvg'in hamda qatag'on siyosatini olib bordilar. Sovet hokimiyati siyosatiga bo'ysunmagan, unga xayrixoh bo'lmagan mahalliy aholi vakillari "bosmachi", "vatan xoini", "xalq dushmani" tamg'alari bilan ayblanib, turli jazolarga giriftor qilindi. Turkkomissiya o'lkadagi boshqaruv va nazorat ishlarida Turkiston MIQ va XKSdan ham hukmron pozitsiyani egalladi, hatto O'rta Osiyodagi oxirgi milliy davlatlarni har ikkalasini tugatishga, ularning o'rniga BXS, XXSR kabi davlatlar tashkil qilishga erishdi. Respublikaning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalar faqat Turkkomissiyaning ijozati hamda yo'l-yo'rig'i asosida amalga oshirildi.

Turkkomissiyaning bu faoliyati mahalliy aholini, milliy rahbar kadrlarni e'tiroziga va millat manfaati yo'lida kurashishga sabab bo'ldi. XX asrning 20-yillarida Turkkomissiyaning qarorlariga qarshi bo'lgan yoki ularning rejalarini qo'llab-quvvatlamagan mahalliy rahbarlar turli tuhmatlarga, jazolarga giriftor qilindi. Xuddi shunday tuhmatlar T.Risqulovga nisbatan ham amalga oshirildi. T.Risqulov, N.Xo'jayev, Bex-Ivanovdan iborat delegatsiya Turkkomissiya faoliyatidan noroziliklarini bildirib, muxtor Turkistonning huquqlari poymol etilayotganligi, unga mustaqillik berilishini talab qilib, 1920-yil 23-mayda RKP(b) MQga ma'lumotnoma topshirdilar. Ammo Markaziy Qo'mita tomonidan delegatsiyaning ma'lumotnomasi ijobiy qabul qilinmaydi. Markazga najot istab borgan Risqulov va uning tarafdorlari 18-iyulda Turkiston Komfirqasining O'lka Komiteti va Turkiston MIQ tarkibidan chiqarilganliklari e'lon qilindi [12.73]. Turkkomissiyaning faoliyatidan norozi bo'lgan T.Risqulov haqida Munavvar qori Abdurashidxonov "Ovrupoliklar yerliklarni millatchilikda ayblay boshladilar. Nihoyat bu hujumlarga chidolmasdan o'rtoq Risqulov boshliq markaz ishchilar hukumatidan chekinishga (iste'foga) majbur bo'ldilar. Turkkomissiya ustidan dod demak uchun Risqulov boshliq bir necha ishchilar Masko'vga jo'nadilar. Masko'vdan xafa bo'lib, mag'lubiyat bilan qaytdilar. Risqulovlar zamonida markaziy va mahalliy ishlarga qo'yilgan yerlik ishchilar umuman deyarlik "risqulovshinalik" bilan ayblanib, ishdan quvildilar" [13. 240-241], – deydi. 1920-yil may oyida T.Risqulov markazga borib, V.I.Leninning qabulida bo'ladi. Shundan so'ng uning siyosiy ongini "o'stirishda" yoki "qayta" tarbiyalashda Toshkentdagi bolshevik mafkurachilar Sh.Z.Eliava, M.V.Frunze, V.V.Kuybishyev, Ya.E.Rudzutak, F. Goloshchekin, P.A.Kobozyevlar katta rol o'ynaydi. [14. 81] O'lkani markazga bo'ysundirish maqsadida tayyorlangan rejalar, ularning bunday tartibda amalga oshirilishi mahalliy rahbar kadrlarni Turkistonda davlat mustaqilligiga tinch yo'l bilan erishish mumkin emasligini yana bir bor isbotladi. Turkkomissiya 1920-yil 19-iyulda T.Risqulov safdoshlarining ko'pchiligini tarqatib yuborish va Turkiston Kompartiyasining Muvaqqat komitetini tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Nazir To'raqulov Muvaqqat Markaziy Qo'mita Ijroiya byurosining mas'ul kotibi qilib saylandi, Turkiston MIQ tarkibi ham yangilanib, uning raisi qilib T.Risqulov o'rniga Abdulla Rahimboyev tayinlandi [15. 612-613].

1920-yil 29-iyulda markaz tomonidan RKP (b) MKning Turkiston byurosi tuzildi. U Turkistonda partiya ishlariga rahbarlik qilish uchun tashkil qilinib, unga Turkkomissiya o'zining partiyaviy vakolatini topshirdi. Turkbyuroning dastlabki tarkibi quyidagicha tasdiqlandi: G.Ya.Sokolnikov-raiz, L.M.Kaganovich, Ya.X.Peters, G.I.Safarov (raiz o'rinbosarlari), Ya.Z.Suris.

1922-yil mayda o'lka boshqaruv strukturasi yana bir yangi tuzilma shakllandi. RKP(b) MQ Turkiston byurosi partiyaning O'rta Osiyo byurosiga (Sredazbyuro)ga aylantirildi. RKP (b) MQ qarori bilan O'rta Osiyo byurosining raisi etib Yan Ernestovich Rudzutak tayinlangan. [16. 68] RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosiga Turkbyuro zimmasidagi barcha vazifalar yuklandi. Bu tuzilmaning g'oyaviy va siyosiy ta'sir doirasi Turkbyuroga nisbatan ham kengaytirildi. U Turkiston ASSR, BXSР va XXSRda sovetlashtirish jarayonini oxiriga yetkazish, mulkdorlarni sinf sifatida tugatish, diniy sohaga taaluqli barcha "eshiklarni yopib qo'yish" va diniy muassasalarni faoliyatiga butunlay barham berish, O'rta Osiyoda majburan milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish, O'rta Osiyoni Rossiyaning xom ashyo bazasiga aylantirish, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, industrilashtirish singari sovetcha siyosatni amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etdi. Bu tuzilma faoliyati davomida Turkistondagi eng yuqori vakolatga ega bo'lgan organga aylandi, hududdagi boshqa davlat boshqaruv idoralari unga bo'ysundirildi va o'lkadagi juda ko'plab mahalliy kadrlarni turli tuhmat, bo'htonlar asosida jazolash hamda jismonan yo'q qilish harakatlarining rahnamosi bo'ldi.

U mintaqadagi barcha sovet respublikalari va kompartiyalari (O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Qoraqalpog'iston) ustidan partiyaviy, siyosiy va g'oyaviy jihatdan nazorat qildi va ular faoliyatini boshqarib turdi. RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi 1925-yildan VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi deb nomlandi. 1934-yil 2-oktyabrda SSSR XKS va VKP(b) MQ qarori bilan uning faoliyati tugatildi. [17. 164]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Markaz va bolsheviklar tomonidan Turkiston o'lkasida majburiy ravishda sovet hokimiyatini o'rnatilib, bu hududda yangi boshqaruv strukturasi shakllantirildi. Boshqaruv tizimi haqida mahalliy aholining vakillari tomonidan bildirilgan takliflar e'tiborga olinmadi. Yangi tashkil etilgan tuzilmalar boshqaruv tizimida yerli millat vakillari nihoyatda ozchilikdan iborat edi. Hatto qabul qilingan davlatning asosiy qonuni – Turkiston ASR Konstitutsiyasida ham xalq huquq va erkinliklarida noteng munosabatlar ochiqchasiga bayon etildi. Bundan tashqari bolsheviklar Turkiston o'lka boshqaruv strukturasi RKP (b) Markaziy Qo'mitasi, Butunrossiya MIQ va RSFSR XKKning Turkiston ishlari bo'yicha komissiyasi, RKP (b) Markaziy Qo'mitasining Turkiston byurosi, O'rta Osiyo byurosi kabi turli komissiya va byurolar hamda harbiy kuchlarga tayanib, mintaqada o'z hokimiyatlarini mustahkamlashga kirishdi.

Adabiyotlar/Литературы/References:

1. Победа Октябрьской революции в Узбекистане. Сборник документов. Т. 2. – Ташкент: "Фан", 1972. – С. 248-249.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. – Тошкент: "Шарқ", 2000. – Б. 74.
3. Победа Октябрьской революции в Узбекистане. Сборник документов. Т. 2. – Ташкент: "Фан", 1972. – С. 252.
4. Ражабов Қ. Қандов Б. Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. – Тошкент: "O'zbekiston", 2012. – Б.148.
5. Победа Октябрьской революции в Узбекистане. Сборник документов. Т. 2. – Ташкент: "Фан", 1972. – С. 253.
6. Тухтаметов Т.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX начале XX в. –Ташкент: "Фан", 1966. – С. 148.

7. Ражабов Қ. Қандов Б. Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2012. – Б.150.
8. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 й.). – Тошкент: “Университет”, 2002. – Б.74.
9. Конституция Туркестанской Республики Российской Социалистической Советской Федерации, принятая 6-м туркестанским съездом Советов. – Ташкент: 1918. – С. 8-14.
10. Тухтаметов Т.Г. Русско-бухарские отношения в конце XIX начале XX в. – Ташкент: “Фан”, 1966. – С. 151.
11. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / Илмий муҳаррир М. Жўраев. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – Б. 81.
12. Ражабов Қ., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи (1917-1924 й.). – Тошкент: Университет, 2002. – Б.73.
13. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 2003. – Б. 240-241.
14. Рашидов О. Ўзбекистон ҳудудида миллий зиёлилар ва большевикларнинг мафкура майдонидаги кураши (1917-1938 йй.). – Тошкент: “Muharrir”, 2022. – Б. 81.
15. Гражданская война и военная интервенция в СССР. Энциклопедия. – Москва: “Советская энциклопедия”. 1987. – С. 612-613.
16. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана (1917-1932 гг.). отв.ред. Житов К.Е. – Ташкент: “Фан”, 1968. – С. 68.
17. Ражабов Қ. Қандов Б. Шоймардонов И. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2012. – Б. 164.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 10 October 2024

Article / Original Paper

INCREASING ECOLOGICAL KNOWLEDGE AND ECOLOGICAL CULTURE IN TOURISM

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich

Doctor of Philosophy in Historical Sciences,
Associate Professor of the Department of World History,
Tashkent Pedagogical Institute named after Nizami
Email: m.azizbek14051983@gmail.com

Abstract. This article presents Decrees and decrees of the Republic of Uzbekistan on tourism, environmental education, environmental protection and ecological balance, improving environmental culture, increasing public participation in nature protection, proposals and recommendations for improving environmental knowledge and culture in tourism.

Key words: tourism, environmental education, environmental education, environmental culture, environmental law, June 5 - World Environment Day, the concept of environmental education in the Republic of Uzbekistan.

TURIZM SOHASIDA EKOLOGIK BILIM VA EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISH

Muminov Azizbek Ziyoviddinovich

Nizomiy nomidagi TDPU Jahon tarixi kafedrasida dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm, ekologik bilim, ekologik ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni ta'minlash, ekologik madaniyatni yuksaltirish, tabiatni muhofaza qilishda jamoatchilikning faolligini oshirishga oid O'zbekiston Respublikasi farmon va qarorlari, turizm sohasida ekologik bilim va madaniyatni yuksaltirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, ekologik bilim, ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, ekologik huquq, 5 iyun – Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni, O'zbekiston Respublikasining ekologik ta'lim konsepsiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N08>

Kirish. Tarixga nazar tashlasak kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida tabiat insonning hayotiy faoliyati uchun zaruriy energiya va moddalar manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Agar inson tabiat bilan muvofiqlikda yashashni, uning ne'matlaridan foydalanishni va go'zalliklaridan zavqlanishni istasa, u tabiat sharoitlarini qabul qilishi va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun atrof-muhitga ta'sir etayotgan ma'lum chegaralarga rioya qilishi zarur.

Hozirgi davrda barqaror ekologik vaziyatni va tabiiy atrof-muhitning musaffoligini saqlash, shuningdek, tabiiy resurslardan turizm maqsadlarida oqilona foydalanishni taqazo etadigan ekologik ong va madaniyatni insonlarda yanada rivojlantirishga kuchli e'tibor berilmoqda. "Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh

qotirishimiz zarur.bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin” [1]. Shu sababli, yurtimizda ekologiya sohasidagi ta’lim-tarbiya va targ’ibot ishlari ahvolini yaxshilash, shuningdek, ekologik madaniyat an’analarini tiklash va rivojlantirish tendensiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish bugungi kunda obyektiv zaruratga aylangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lish, tabiat ne’matlaridan oqilona foydalanish juda qadim zamonlarga borib taqaladi. O’zbekiston hududida yashagan ajdodlarimiz qadim-qadim davrlardan beri tabiatni sevib, ardoqlab kelgan. Inson o’zlarini yashab turgan muhitning bir bo’lagi sifatida his qilishga odatlanganlar. Jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo’lmish “Avesto”ni bu boradagi ilk manba deyish mumkin[4]. Milliy ma’naviy-ekologik qadriyatlarimizning asosi bo’lgan “ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal” g’oyasi atrof-muhitni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini ta’kidlaydigan ko’plab qoidalar va yo’l-yo’riqlarni o’z ichiga oladi.

Binobarin, islom dini ma’rifati va tarixiy manbalaridagi o’gitlar yurtimizda yashovchi har bir e’tiqodli insonning qalbiga yaqin bo’lib, ularda tabiatni qadrlash mas’uliyatini oshirish bilan birga, ekologik dunyoqarashni har bir shaxs ruhiyatiga doimiy ravishda singdirishga ham rag’batlantiradi. Hadisi Sharifda “Uch joyga – ariqlarga, yo’llarga va soya-salqin yerlarga, ya’ni bog’-u rog’larga axlat tashlab, la’natga qolishdan qo’rqinglar” deyilgan.

Inson bilan tabiat o’rtasidagi bog’liqlik IX-XV asrlarda yashab ijod qilgan Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Jayhoni, Abu Ali ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning asarlarida ham o’z ifodasini topgan[5].

Xalqimizga xos qadriyatlar — bular ona tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitning tozalik va musaffoligini saqlash, ozodalik va poklik. Yoshlarda ekologik madaniyatni rivojlantirish, tabiatga ehtiyotkorona munosabat ko’nikmalarini shakllantirish va ularning ekologik bilimlarini kengaytirish juda muhimdir. 1992 yilda BMT tomonidan Biologik rang-baranglik to’g’risidagi Rio-de-Janeyroda imzolangan Konvensiya ekologik muvozanatni saqlashda davlatlardan kuchli iroda hamda katta siyosiy kuchni ishga solishda muhim hujjat bo’lib xizmat qilmoqda. O’zbekiston mazkur xalqaro hujjatga 1995 yilda qo’shilgani, respublika hukumati tomonidan O’zbekiston Respublikasida Biologik xilma xillikni saqlab qolish bo’yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasi tasdiqlangani diqqatga sazovor[9]. BMT tashabbusi bilan 22 may “Xalqaro biologik xilma xillik kuni” deb e’lon qilingan. Ushbu ekologik sana butun dunyoda bo’lgani kabi O’zbekistonda ham keng nishonlanadi. Bugungi kunda Konvensiya doirasidagi vazifalarni bajarish maqsadida mamlakatda umumiy yer maydonining 10 foizi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toifasiga kiritish borasida izchil sa’y-harakatlar olib borilmoqda[10].

Ekologik vaziyatni, tabiiy atrof-muhit musaffoligini saqlash maqsadida “5 iyun – Butunjahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni” sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan keng nishonlanadi[8]. Ushbu sanani nishonlashda xalqaro tashkilotlar atrof-muhitni himoya qilish bilan bog’liq g’oya va takliflarini butun insoniyatga xavola qilmoqdalar. Jumladan, BMT Bosh kotibi A.Guterrish “Qat’iy chora-tadbirlarning qabul qiladigan vaqti keldi. Hukumatlar qat’iy da’vat etgan holda ularga murojaat etaman: ifloslantirilganlik uchun soliqqa tortish, qazib olinadigan yoqilg’i subsidiya qilishdan va yangi ko’mir elektrostansiyalarni qurishdan voz kechish zarur. Bizga “kulrang” emas “yashil iqtisodiyot” kerak” deb ta’kidladi[7]. Mazkur sana atrof-muhitni asrab-avaylash bo’yicha bilimlarni chuqurroq egallash, ularni keng targ’ib etish ishlariga yangicha shukuh bag’ishlaydi. Ushbu sanani “Men tabiat bilan birgaman” shiori ostida nishonlash O’zbekistonda an’anaga aylangan. Yoshlar orasida ekologik ta’lim-tarbiyatni, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish maqsadida “Yoshlik” talabalar shaharchasida “Yosh ekologlar” kulubi tashkil etilgan. Mazkur harakatlar zamirida yurtimiz ajdodlarining bebaho merosiga munosib voris bo’lishga intilayotgan hozirgi avlod uchun sog’lom va barqaror ekologik muhitni saqlashga jiddiy e’tibor berilgan. Barqaror taraqqiyotga erishish yo’lida ekologik toza ishlab chiqarish mexanizmlarini joriy etish, avtomobillarni

ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish, agrar sohada tejamkor texnologiyalarni qo'llash va muqobil energiya manbalaridan foydalanish kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

Natija va muhokama. Bugungi kunda ekologik madaniyatni rivojlantirish va tabiatga ehtiyotkorona munosabat ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ekologik bilimlarini kengaytirish zarurligini hisobga olib, doimiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda bu sohaga alohida e'tibor hukumat darajasida qaralishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari [2] hamda "Ta'lim to'g'risida", "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari muhim ahamiyat kasb etdi. Jamiyatda barqaror rivojlanish tamoyillariga tayangan holda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlash, ekologik madaniyatni oshirish, tabiatni muhofazalashda jamoatchilik faoliyatini kuchaytirish va ekologik ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Hozirgi kunda hududlaridagi ekologik muammolarni hal etishda jamoatchilik o'rnini oshirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"da qarori tabiatni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va ekologik sharoitlarni yaxshilashda ekologik ta'lim tarbiya muhim rol o'ynaydi[3]. Turli mamlakatlardagi ekologik vaziyat va tabiatdan foydalanish usullari ko'p jihatdan aholining ekologik savodxonlik darajasi va ekologik madaniyatiga bog'liqdir. Tarbiya oiladan boshlanadi, shu jumladan ekologik tarbiya ham. Bu jarayon bog'chadan oliy o'quv yurtlariga qadar uzluksiz davom etishi lozim. Tabiatga bo'lgan mehr insonlarning natijasidir.

Ekologik ta'lim va tarbiya xalqaro tashkilotlar (BMT, YuNESKO va YuNEP)ning diqqat markazidagi masalalardan biridir. Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun dunyo va alohida davlatlar miqyosida turli tadbirlar o'tkazilmoqda. Har bir soha mutaxassisi ekologik savodxon bo'lishi va o'z faoliyatida tabiatga zarar yetkazmaslik, shuningdek, ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak.

XX asr oxirida insoniyatning biosferadagi jarayonlarga ta'siri o'zining eng yuqori bosqichiga yetdi. Bugungi avlodda mahalliy va ma'naviy ekologik inqiroz vaziyatlari kuzatilmoqda. Bunday murakkab davrda ekologiyaning har tomonlama, ya'ni ilmiy, nazariy, amaliy, ta'limiy, madaniy va axboriy ahamiyatlari tobora kuchayib bormoqda. Ekologik bilimlarning rivojlanganlik darajasi bevosita atrof-muhit holatini to'g'ri baholash va zarur tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish bilan bog'liqdir.

XXI asr – ekologiya asri bo'lishi shubhasiz. Ekologik ong – ekologik savodxonlik va madaniyatning asosidir. Ekologik ong tabiatni asrab-avaylashda, unga ongli munosabatda bo'lishda, resurslardan me'yorida foydalanishda, tabiiy inqirozning oldini olishda va atrof-muhitni toza saqlashda namoyon bo'ladi. Uning muhim jihati tabiat obyektini subyektiv idrok etish bo'lib, u ko'p qirrali va murakkab shakllanish jarayoniga ega.

Ekologik ta'lim-tarbiya – bu tabiat va jamiyat o'rtasidagi doimiy birlikni saqlash va ularni bog'lovchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish va hayotga tatbiq etish jarayonidir. Ekologik bilim – insonlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash bo'yicha to'plangan ma'lumotlar, ya'ni ushbu voqelikning inson tafakkurida aks etish darajasi.

Ekologik ta'limning maqsadi – Vatanimiz tabiati haqida samimiy faxrlanish, g'ururlanish va shu bilan birga qayg'urish kabi his-tuyg'ularni shakllantirishdir.

O'zbekiston Respublikasining ekologik ta'lim konsepsiyasida ekologik ta'lim prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- atrof-muhit muhofazasi mahalliy aholining ongi va madaniyatiga uzviy bog'langanligi;
- tabiat va jamiyat qonunlarini uyg'unlashtirish zaruriyati;
- yoshlarni ekologik bilimi va madaniyatini ta'lim orqali bog'langanligi;

- ekologik ta'lim va tarbiyaning majburiyligi;
- yuksak ekologik ma'naviyat shaxs ma'naviyatining ajralmas bo'lagi ekanligi va boshqalar[11].

Ekoturizmning asosiy maqsadlari xulosalarda aks ettirilgan. Ekoturizm o'z ta'rifini berishda birinchi navbatda tabiat qo'ynida bo'lish va uning resurslariga zarar yetkazmaslikni ta'kidlaydi. Tabiat va uning biologik xilma-xillikidan zavq-shavq olgan inson, albatta, bu obyektни asrashni istaydi. Shu bilan birga ekoturizm rivojlanishiga sabab bo'lgan boshqa omillar ham bor.

Ekologik muammolarni hal etish uchun fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning ekologik-huquqiy bilimlari, ongi, ma'naviyati va madaniyatini zamon talablari darajasida rivojlantirish zarur. Farzandlarimiz amaldagi barcha qonunlarni, jumladan, ekologik va agrar sohaga oid qonunlarni yaxshi bilishlari va ularning talablariga to'g'ri amal qilishlari lozim. Qonunlarni vijdonan bajarish va amaliyotda to'g'ri tatbiq qilish uchun yoshlarning ekologik-huquqiy ongini, tafakkurini, ma'naviyatini va madaniyatini oshirish zarur.

Ekologik madaniyat — tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur tushunib, unga zarar yetkazmay asrab-avaylashdir. Uning rivoji ekologik ta'lim-tarbiya va ekologik ma'lumotlarni aholiga yetkazish, ya'ni targ'ibot-tashviqot bilan bog'liqdir. Ekologik madaniyatning asosi ekologik ta'lim-tarbiyadir. Bu esa tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asoslari uchun zarur bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni va natijasi sifatida ko'riladi. Ekologik madaniyat insoniy madaniyatning moddiy va ma'naviy muhit mahsuli sifatida muhim tarkibiy qismidir. Uning taraqqiyoti kasbiy ekologik ta'lim va tarbiya hamda haqqoniy ekologik ma'lumotlarni ommaga yetkazish bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari ekologik muammolarni hal etishda faqat resurslarni tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish yoki sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish bilan cheklanib qolmaslikni ko'rsatmoqda. Bu masalalarda aholi ekologik madaniyatini oshirish, har bir insonga atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatish, mamlakatning noyob tabiatini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish, ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sirni kamaytirish kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda ekoturistik obyektlarni to'g'ri munosabatda bo'lishi muhim sanaladi. Ekologik bilim va madaniyatni rivojlantirishda, birinchi navbatda, ekoturizm orqali aholining shunday hududlarni asrab-avaylashini rag'batlantirib, iqtisodiy foyda olish va ijtimoiy yashash tarzini yaxshilash bo'yicha doimiy targ'ibot ishlari olib borilishi lozim. O'zbekistonda tabiatga qilingan hamma sayohatlarni ham ekoturizm deb atay olmaymiz. Chunki shaharliklarning toqqa chiqib dam olishlari, agarda u ekologik maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lmasa, ekoturizm emas, balki tabiiy turizmdir. Masalan, toshkentliklarning 90 foizi 100-130 km radiusda tabiat qo'yniga bir kunlik tashrif qiladilar. Mazkur turizm uyushgan holda tashkil etilib, ekologik va sanitar talablarga rioya qilinmaydi. Natijada, tabiiy muhit keskin ravishda ifloslanadi. Ularning aksariyati "yovvoyi turlar" dan iborat bo'lgani uchun ham, sayohatchilarning tabiatga yetkazgan zarari hamda uni qoplash haqida o'ylab ham ko'rilmaydi.

Ekologik turizm esa tabiat qo'yniga mas'uliyatli sayohat bo'lib, atrof-muhitni asrash va mahalliy xalqning ijtimoiy himoyasini yaxshilashni ta'minlaydi. Turizm atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va buzilgan tabiiy komplekslarini qayta tiklashga yo'naltirilgan taqdiridagina ekoturizm bo'la oladi. Ekoturizmning maqsadi esa undan tushgan sarmoyani tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashga yo'naltirilgan moddiy va moliyaviy sarf-harajatlardan iboratdir[6].

Ta'kidlash kerakki, ekologik tarbiya, bilim va madaniyat ishlab chiqarish sohalariga qarab o'zgarishi shart emas; ekologik bilimli va madaniyatli inson o'z sohasini ekologiyalashtirishi uchun o'z bilimlaridan foydalanadi. Shu bilan birga, respublikada

ekoturizmni rivojlantirish tarbiyalash jarayonida muhim va istiqbolli yo'nalish bo'lib qolishi zarur. Ekoturizm va boshqa ishlab chiqarish sohaslarida ham inson ekologik bilim va madaniyatni o'rganish uchun ekologik huquq asoslarini puxta bilishi kerak.

Turizmda ekologik huquqni bilish shart, chunki ekoturizm faoliyatida ishtirok etayotganlar ko'pincha "kelib-ketuvchilar"dir, shuning uchun turist yoki ekoturist tabiatimizda, qo'riqxonalarda yoki noyob landshaftlarda bo'lganda, o'simliklar olamining kamligini hisobga olib, tabiatni toptashga jazolanishini bilishi zarur. Ekologiya huquqi esa jamiyat (kishilar) va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tartibga soluvchi huquqiy tamoyillar va me'yorlarni o'rganadigan fan sohasidir. Shuning uchun, ekologiya huquqining maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlar uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni huquqiy tartibga solishdir.

Boshqa tarbiya turlaridan farqli o'laroq, ekologik madaniyat shaxsdagi sifat ko'rsatkichlarining eng yuqori mezoni hisoblanadi. Har qanday tarbiya turidan qat'i nazar, shaxs madaniy darajaga erishish uchun o'zida ijobiy xususiyatlarni mujassam etishi zarur. Bu jarayon shaxsning yoshiga, individual va pedagogik xususiyatlariga hamda psixologik jihatlariga mos ravishda amalga oshiriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ekologik ong va madaniyatini shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayon uzluksiz va uzviy takomillashuvga erishganda yuqori natijalarga erishish mumkin. Yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini aniqlash darajalari ham doimiy ravishda o'zgarib boradi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun pedagoglarni turli toifalarga bo'lib, maxsus tayyorlash va qayta tayyorlash zarur. Yuqori ekologik ma'naviyatga ega shaxsni tarbiyalashda milliy ta'lim tizimining roli katta bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha yo'llari va vositalaridan oqilona foydalanish lozim.

Ekologik barqaror rivojlanish ekologik muammolarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ta'sirini hisobga olib, bu ta'sirlarni ijobiy hal qilishda tabiat resurslaridan foydalangan holda amaliy hamkorlik qilishni talab etadi. Bu yechim mamlakatning barcha mintaqalarida ekoturizmni rivojlantirish, zamonaviy va istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida, dolzarb vazifalardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun tabiiy va geografik imkoniyatlar yetarli. Negaki, yurtimiz o'zining betakror tabiati, go'zal landshaftlari, purviqor tog'lari, bepoyon cho'llari, noyob o'simlik va hayvonot dunyosi, ko'p ming yillik tabiiy yodgorliklari bilan ajralib turadi. Bu yilning to'rt faslida ham o'ziga xos bo'lgan ekosayohatlarni tashkil etish mumkinligidan dalolatdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -B.570.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5024-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, 17-son, 287-modda; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 apreldagi "2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2916-sonli Qarori // "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017 yil 10 may, 18-son, 318-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasining Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-sonli qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-4354743>
4. Homidjon H. Avesto. "Avesto"dan namunalari // O'zbek pedagogikasi antologiyasi. -Toshkent: "O'qituvchi", 1995. - 253 b.
5. 100 Markaziy Osiyo mutafakkirlari. -Toshkent: "Yangi Nashr", 2011. - 172 b.

6. Nigmatov A., Shomurotova N. Ekologik turizm – yangi fan sohasi // O‘zbekiston ekologik xabarnomasi, 6-son. -Toshkent, 2004. -B.17.
7. Atrof-muhitni muhofaza qilish xalqaro tashkilotlar nigohida. “5 iyun- Butunjahon atrof-muhit kuni havoning ifloslanishiga qarshi kurashish shiori ostida nishonlanmoqda” // Ekologiya xabarnomasi, 6-son, 2019. -B.6.
8. Xidirov Q. “Ekologik tarbiya oilada shakllanadi” // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 1 iyun.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 6 maydagi “O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik rang-baranglik to‘g‘risidagi Konvensiyaga qo‘shilishi haqida”gi 82-I-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 6-son, 130-modda.
10. Xushvaqtov I. Ekologik barqarorlik kafolati // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018 yil 22 may, №103 (7061).
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.05.2019-y., 09/19/434/3189-son.
12. Muminov A.Z. Development of ecologic tourism in Uzbekistan // *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 3(3), 2018. -pp.123-126.
13. Babajanova, D., Isakov, B. N., Tilabaev, S. B., & Muminov, A.Z. Interaction of Tourism Development in Uzbekistan with Types of Historical and Cultural Monuments. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2022. -pp.1730-1739.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

ESTABLISHING RELATIONS BETWEEN EMIR TEMUR AND THE MUZAFFARID STATE

Abdullaev Elbek Abduqahhor ugli,

base doctoral student, Fergana State University

Email: elbekabdullayev87@gmail.com

Abstract. Based on the analysis of historical sources and literature, the establishment of relations between the state of Amir Temur and the state of Muzaffari, visits embassies, family relations and issues of establishing cooperation between the two countries are highlighted.

Key words: Mozondaron, Amir Vali, Sabzavor, Kalot, Alibek Jonikurbani, Khorasan, Turshiz Castle, Shah Shuja, Amir Umarshah, Governor of Shiraz, Sharafuddin Ali Yazdiy, Oli Muzaffar, Jahangir Mirza, Pir Muhammad, the state of Muzaffari, the state of Sarbador in Sabzavore, State of the Kurds in Hirat, State of Jalairi in Iraq and Azerbaijan, Astrobad, Oljoytu Daroz, Haji Khoja.

AMIR TEMUR VA MUZAFFARIYLAR DAVLATI O'RTASIDA MUNOSABATLARNI YO'LGA QO'YILISHI

Abdullayev Elbek Abduqahhor o'g'li

tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada tarixiy manbalar va adabiyotlar tahlili asosida Amir Temur davlati bilan Muzaffariylar davlati o'rtasida munosabatlarning yo'lga qo'yilishi, elchilik aloqalari, quda-andachilik masalalari va ikki davlat hamkorligining yo'lga qo'yilishi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mozondaron, Amir Vali, Sabzavor, Kalot, Alibek Joniqurboniy, Xuroson, Turshiz qal'asi, Shoh Shujo, Sheroz valiyi amir Umarshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy, Oli Muzaffar, Jahongir Mirzo, Pir Muhammad, Muzaffariylar davlati, Sabzavorda Sarbadorlar davlati, Xirotda Kurtlar davlati, Iroq va Ozarbayjonda Jaloiriylar davlati, Astrobad, O'ljoytu Daroz, Hoji Xoja.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N09>

Kirish. Amir Temur davlatini barpo etish jarayonida uning sarkardalik mahorati bilan bir qator mohir diplomatik faoliyatini ham etirof etishimiz lozim bo'ladi. Ulkan davlatni barpo etish va uni boshqarish jarayonida uning bu xislatini juda ko'p bor guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunga misol sifatida Muzaffariylar davlati bilan munosabatlarning yo'lga qo'yilishi, elchilik aloqalari va bu munosabatlarni quda-andachilik, qarindoshlik bilan mustahkamlanishi, kelajakda davlati ravnaqi yo'lida oqilona foydalana olish qobiliyatlarini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolada tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalangan holda tadqiqot uchun qo'yilgan asosiy maqsad mohiyatin ochib berishga harakat qilindi.

Biz tadqiq etayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni bir qator asarlarda o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi, bulardan Retveladze E.V., Alimova. D.A. "Istoriya Uzbekistana

Epoxa Amira Temura i Temuridov”, Shog’ulomov I. “Amir Temur jahon tarixida”, O’ljayeva Sh. “Amir Temur davlat boshqaruvi”, kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Boshqa asarlarda keltirib o’tilgan ma’lumotlar umumiy bo’lib, ularda asosan Eron davlatini bosib olinishi bilan bog’liq fikrlar uchraydi. Ikki davlat o’rtasidagi munosabatlarni yo’lga qo’yilishiga oid ma’lumotlar deyarli kam tadqiq etilgan.

Natijalar va muhokama. Amir Temur 1382 yilning qish fasli o’rtalarida Mozondaron hukmdori Amir Valining Sabzavor ustiga yurish qilganligi va Kalot hukmdori Alibek Joniqurboniy (Kalotiy) ning isyonini bostirish bostirish maqsadida Xurosonga ikkinchi marta yurish bilan bordi[1].

Ushbu hududlar 1381 yilgi birinchi Xuroson yurishi vaqtida Amir Temur davlati tarkibiga kiritilgan edi[2]. Xuroson hukmdorlarinig bu harakatlarini bostirish va jazolash maqsadida Xurosonga ikkinchi marotaba yurish tashkillash zarurati yuzaga keldi.

Ikkinchi Xuroson yurishida dastlab Kalot so’ngra Turshiz qal’alari Amir Temur qo’shinlari tomonidan istilo etildi[3]. Shu voqealar bilan bir vaqtda Shoh Shujo tomonidan elchi qilib yuborilgan Sheroz voliysi (hokimi) amir Umarshoh Amir Temur huzuriga keldi. Shoh Shujo Amir Temurga nisbatan ixlos va ijobiy munosabatlarni yo’lga qo’yish istagini bildirayotgan bir hukmdor edi. Amir Umarshoh Amir Temurga ko’p tufha va hadyalar va Shoh Shujoning maktubini taqdim etdi. Amir Temur ham o’z navbatida uni hadya va in’omlar bilan siylab, hurmat bilan kuzatib yubordi. Ushbu yuborilgan maktubga javoban Amir Temur, ehtirom qoidalari bilan yozilgan maktub bilan elchi yuboradi. O’rtadagi do’stlik, ishonchni mustahkamlash va abadiy qilish maqsadida Shoh Shujoning qizini farzandlaridan biriga turmushga berishini so’raydi[4]. Sharafiddin Ali Yazdiyda Shoh Shujo to’g’risida qo’shimcha shunday ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. “Shoh Shujo’kim, Sheroz viloyatining podshohi erdi va Oli Muzaffar[5] erdi. Ul zamonda aningdek ulug’ podshoh yo’q erdi va asru oqil va fozil va dono kishi erdi”[6]. Umarshohga qo’shib o’zining elchisini yuborganligi va Shoh Shujoning qizini Jahongir mirzoning o’g’li Pir Muhammad uchun so’ralganligi to’g’risidagi ma’lumotni ko’rishimiz mumkin[7].

Bu elchilik faoliyati ikki davlat o’rtasida yo’lga qo’yilgan munosabatlarning dastlabkisi sifatida etirof etishimiz mumkin. Aynan bu erda bir savol paydo bo’ladi. Muzaffariylar davlati hukmdori Shoh Shujonini Amir Temur davlati bilan munosabatlarini yo’lga qo’yishdan ko’zlagan maqsadi nimadan iborat edi?

Birinchi bu davrda Amir Temurning Eron hududlarini o’z davlati tarkibiga qo’shib olish yoki bu hududlarga yurish qilish bo’yicha xali bir qarorga kelgani to’g’risida biror bir fikrlarni uchratmaymiz. Bundan tashqari Xuroson hududlari hali to’liq bo’ysundirilgani yo’q edi.

Xurosonga qilingan dastlabki ikki yurish davomida Amir Temur tomonidan bu hududlarni to’liq egallash vazifasi hali qo’yilmaganligi, bunga zarurat keyinroq To’xtamishxon tomonidan Eronning ba’zi viloyatlarini egallash maqsadida amalga oshirgan yurishlaridan so’ng qaror qilinganligini ko’rishimiz mumkin[8].

Bu vaqtda 1382 yilgi ikkinchi Xuroson yurishi davrida Muzaffariylar davlatiga Amir Temur tomonidan havf tug’dirilayotgani yo’q edi.

Bunga misol sifatida Amir Temur 1384 yil Shimoliy Eronga yurish qilib Ozarbayjondagi Sultoniya gacha etib boradi va 1385 yili Samarqandga qaytib keladi. Bu va oldingi yurishlari davomida hali Amir Temurning butun Eronni bosib olish niyati yo’q edi[9].

Ikkinchidan: ko’rishimiz mumkinki ushbu davrda Eron va uning atrof hududlarida yagona bir markazlashgan davlat mavjud emas edi. Misol sifatida Sabzavorda Sarbadorlar davlati (1337-1381 yillar), Xirotda kurtlar davlati (1337-1381 yillar), Mozandaronda Amir Vali hukmronlik qilardi, Iroq va Ozarbayjonda Jaloiriyalar davlati (1336-1411 yillar), Janubiy Forsda Muzaffariylar va boshqalarini aytib o’tishimiz mumkin.

Yuqoridagi fikrimizdan kelib chiqadigan bo’lsak yagona markazlashgan davlatning mavjud emasligi, bu hududlarda bir necha sulola va hukmdorlarning manfaatlarining bir

nuqtada jamlanishi, ular o'rtasidagi turli nizolarni avj olishiga sabab bo'lgan. Ushbu qarama-qarshiliklar asnosida ittifoqdoshlarning bo'lishi foydadan holi bo'lmadi. Shu sababli Shoh Shujo va Muzaffariylar davlatiga Movaraunnahr hukmdori Amir Temur bilan ittifoqchi bo'lish zarurati yuzaga kelgan bo'lsa ajab emas.

Ushbu ittifoqni Amir Temur uchun ham foydali tomonlari mavjud edi. Bundan tashqari Amir Temurning uzoqni ko'ra olishi, to'g'ri qaror qabul qilishi, har bir ishdan o'zining davlati manfaati uchun foydalana olishi, ushbu ittifoqni mustahkamlanishiga xizmat qilgan deb xulosa qilishimizga sabab bo'ladi.

Amir Temur Xuroson yurishlari davomida itoat etgan yoki ittifoq yo'lini tanlagan hukmdorlarga zarar etkazmaslikka harakat qildi[10]. Muzaffariylar davlati bilan ittifoq uning amal qilib kelayotgan mezonlariga ham mos kelardi.

Uchinchi: birinchi elchilikning o'zida Shoh Shujoning qizini kelinlikka so'rashlik, Amir Temurning Shoh Shujo va muzaffariylar davlatiga nisbatan o'zini va davlatini qudratli deb hisoblashidan yoki siyosiy ustunlikni qo'lga kiritishga urinish sifatida baholash mumkin yoki ikki davlatning bir-biri to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lgan deb tahmin qilishga imkon beradi.

Amir Temur 1384 yil ikkinchi marta Mozandaron hukmdori Amir Valiga qarshi yurish qilish maqsadida Astrobod tomonga yo'lga chiqadi. Balx viloyatiga etganlarida atrof hududlardan qo'shin to'plash maqsadida bir necha kun shu erda to'xtab turishadi. Balxda turgan vaqtlarida Shoh Shujoni qizini olib kelish uchun O'ljoytu Daroz va Hoji Xojani elchi sifatida Sherozga yuboradi.

Ikki davlat o'rtasida birinchi elchilik va ushbu elchilik o'rtasida aloqalarning mavjud bo'lganligi, har ikki tarafdin elchilar borib-kelib turganligi to'g'risidagi ma'lumotni Nizomiddin Shomiyning Zafarnomasida ko'rishimiz mumkin bo'ladi[11].

Elchilar Sherozga borib amirzoda Pir Muhammad uchun kelin olib kelishganligi, Balx viloyatida bir necha kun to'y-tomosha qilinib, vaqtichog'likda kun o'tkazishadi.

Balxga Shoh Shujoning qizini elchilar tomonidan olib kelinishi bu vaqtga kelganda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar haqiqatdan yaqin bo'lganligini, Shomiyning ikki o'rtada (1382-1384 yillar oralig'ida) elchilar muntazam borib kelganligi to'g'risidagi ma'lumotlarini to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yo'lga qo'yilishi Muzaffariylar davlati hukmdori Shoh Shujo' tashabbusi bilan amalga oshirilganligi bundan o'z navbatida ushbu davlatning manfaatdorligi yuqori bo'lganligini, o'z navbatida Amir Temur davlati homiyli va himoyasi zarurati mavjud bo'lganligiga yoki kelajakda ushbu davlat tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldini olish imkoniga ega bo'lish maqsadida tashkillangan deb xulosa chiqarishimizga imkon yaratadi

Bu munosabatlarning davom etishi va mustahkamlanishida Amir Temurning faoliyatini ham e'tirof etishimiz lozim bo'ladi. Bu aloqalarning keyingi rivojiga, do'stlik munosabatlaridan qarindoshchilik aloqalariga aylanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar Shoh Shujo' vafotigacha davom etib, keyinchalik uning farzandlari davrida yomonlashganligini, ikki hukmdor ham o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga va o'zaro hurmat, sadoqat mezonlariga rioya etishganligini ko'rishimiz mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Тошкент "Ўзбекистон" 1996. 118 бетлар.
2. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Тошкент "Ўзбекистон" 1996. 112-118 бетлар.
3. Ретвеладзе Э.В., Алимова. Д.А. История Узбекистана Эпоха Амира Темура и Темуридов. Ташкент Фан 2017. с 65.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Тошкент "Ўзбекистон" 1996. 121 бет.

5. Оли Музаффар-Оли Музаффар ёки Музаффарийлар (1313-1393) - Эрон ва Ироқда Ҳулогу улуси парчаланганидан сўнг Эроннинг жануби-ғарбида Форс вилоятида ҳокимиятни қўлга олган сулола. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти. Тошкент 1997. 328 бет
6. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти. Тошкент 1997. 96 бет бет
7. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти. Тошкент 1997. 96 бет
8. Ретвеладзе Э.В., Алимова. Д.А. История Узбекистана Эпоха Амира Темура и Темуридов. Ташкент Фан 2017. с 66.
9. Шоғуломов И. Амир Темур жаҳон тарихида. “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни. Тошкент 1996. 52 бет.
10. Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви. Тошкент «akademnashr» 2017. 215-217 бетлар
11. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Тошкент “Ўзбекистон” 1996. 129 бет

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

OPINIONS ABOUT CONDITIONS IN THE HEALTH CARE, SPORTS AND HEALTH AND CULTURAL AND EDUCATIONAL FIELDS CREATED FOR WORKERS IN THE INDUSTRIAL ENTERPRISES OF NAMANGAN REGION

Turg'unov Sherzod Abduvositovich

Foundation doctoral student at Fergona State University

Email: turgunovs979@gmail.com

Abstract. In this article, in the 1960s-1990s of the last century, the medical rehabilitation measures for workers and servants, engineers and technicians in the industrial enterprises that operated in Namangan region, and the cultural events organized for the meaningful organization of their free time from production activities, as well as information about the contribution of these activities to the recovery of working capacity of workers and the development of labor productivity.

Key words: "Namangan Haqiqati" newspaper, "Communist" newspaper, "First Five-year" combine, "Koksaroy" resort, Namangan silk weaving factory, Namangan artificial fiber production factory.

NAMANGAN VILOYATI SANOAT KORXONALARIDA MEHNATKASHLAR UCHUN YARATILGAN SOG'LIKNI SAQLASH, SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH VA MADANIY-MA'RIFIY SOHADAGI SHAROITLAR HAQIDA FIKR MULOHAZALAR

Turg'unov Sherzod Abduvositovich,

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1960-1990-yillarda Namangan viloyatida faoliyat yuritgan sanoat korxonalarida ishchilar, xizmatchilar, muhandislar va texnik xodimlar uchun o'tkazilgan tibbiy sog'lomlashtirish tadbirlari, shuningdek, ularning ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga mo'ljallangan madaniy va ma'rifiy tadbirlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadbirlarning mehnatkashlarning mehnat qobiliyatini tiklash va mehnat unumdorligini oshirishga qo'shgan hissasi ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Namangan haqiqati" gazetasi, "Kommunist" gazetasi, "Birinchi Besh yillik" kombinati, "Ko'ksaroy" oromgohi, Namangan shoyi to'qish fabrikasi, Namangan sun'iy tolalar ishlab chiqarish fabrikasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N010>

Kirish. 1960-1990-yillarda Namangan viloyatida sanoatning turli tarmoqlariga oid ko'plab sanoat korxonalarida faoliyat yuritgan. Ushbu korxonalarda viloyatning har bir qismidan minglab muhandis, texnik xodimlar, ishchilar va xizmatchilar mehnat qilgan. Ishchilar va xizmatchilarning sog'lig'ini saqlashda, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida xastalanganda yoki jarohat olganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda sanoat korxonalarida joylashgan tibbiyot punktlari va alohida tashkil etilgan tibbiy-sog'lomlashtirish profilaktoriyalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ishchilar va xizmatchilarning ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini

mazmunli o'tkazish esa ularning mehnat qobiliyatini oshirish va mustahkamlashda, shuningdek, mehnat unumdorligini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mustaqil O'zbekistonda ham aholining keng ommasini iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yaxshilash, farovon turmush tarziga ega bo'lishi uchun bugungi kunda davlat miqyosida keng miqyosda islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda aholining ish bilan ta'minlamagan qismini doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlash, aholing kambag'al qismini kambag'allik darajasidan chiqarish eng asosiy maqsad sifatida ilgari surilmoqda. Ushbu jarayonda yangi tashkil etilayotgan sanoat korxonalarini va ularda ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilayotgan mehnat muhofazasi hamda tibbiy-sog'lomlashtirish tadbirlarining ahamiyati juda katta. Maqolada yoritilgan mavzuning ahamiyati shundan iboratki, sobiq sovet tuzumi davrida milliy respublikalarning turli viloyatlarida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarida mehnatkashlarning mehnat sharoitlari, sog'liklarini saqlash va ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan amalga oshirilgan amaliy tadbirlarning asl holatini o'rganish, yosh avlodga to'g'ri taqdim etish orqali bugungi kunda davlatimiz va hukumatimiz tomonidan aholining iqtisodiy, ijtimoiy va jismoniy jihatdan yetukligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mazmuni va ahamiyatini yoritishda yordam beradi. Bu, shuningdek, barcha yosh toifasidagi yurtdoshlarimizda farovon hayotni qadrlash tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amalga oshirilishi. Namangan viloyatida 1960-1990-yillarda faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining muhandis va texnik xodimlariga, ishchi va xizmatchilariga va ushbu korxonalarda amalga oshirilgan tibbiy xizmatning ahvoli, ishchilar va xizmatchilarning ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan madaniy va ma'rifiy tadbirlar to'g'risida Namangan viloyati partiya qo'mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri hisoblangan "Namangan haqiqati" gazetasining 1960-1990-yillarda nashr qilingan sonlarida e'lon qilingan maqolalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida zarur ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Namangan viloyati Namangan shahrida faoliyat olib borayotgan Nodirabegim nomli Axborot Kutubxona Markazining fondlarida saqlanayotgan o'tgan asrning 60-90-yillariga oid vaqtli matbuot nashrlari o'rganildi va ilmiy tadqiqot ishiga oid muhim ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Bu jarayonda "Namangan" gazetasining 1960-1990-yillarda nashr etilgan sonlari xronologik tartibda ko'rib chiqildi. Ushbu gazetaning deyarli barcha sonlarida sanoat yangiliklari rukni mavjud bo'lgan. Unda viloyatda sanoat sohasida yuz berayotgan muhim yangiliklar, sanoat korxonalarida ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilayotgan mehnat sharoitlarida erishilayotgan yutuqlar, shuningdek, mavjud kamchiliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mehnatkashlarning sog'ligini saqlash, mehnat qobiliyatini qayta tiklash va ish unumdorligini oshirish maqsadida bajarilgan tadbirlar, xususan, sanatoriylar, kurortlar va dam olish uylarida mehnatkashlar sog'liklarini tiklash va mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan amaliy ishlar, shuningdek, mehnatkashlar bilan mashhur san'atkorlar, shoirlar va yozuvchilarning ijodiy uchrashuvlari, tashkil etilgan konsertlar va teatr spektakllari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, viloyatdagi zavod va fabrikalarning davlat tomonidan belgilangan mehnat majburiyatlarini bajarishdagi yutuqlari va kamchiliklari haqida ham ma'lumotlar taqdim etilgan. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish jarayonida qiyosiy taqqoslash usullari qo'llanildi. Bu jarayonda, aynan, shu davrda Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida, xususan RSFSR va Ukraina SSR, Belorusiya SSR kabi respublikalardagi sanoat korxonalarida ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari va mehnatkashlarning sog'ligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan sport-sog'lomlashtirish tadbirlari haqidagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil o'tkazildi.

Natijalar va muhokama. Vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalarni o'rganish asnosida Namangan viloyatida 1960-1990-yillar davomida sanoatning turli tarmoqlariga mansub 100 dan ortiq sanoat korxonalarini faoliyat olib borganligi ma'lum bo'ldi. "Namangan haqiqati" gazetasining 1967-yil 13-oktabr sanasida chop etilgan 123-sonida

viloyatda 1967-yilda faoliyat olib borayotgan sanoat korxonalari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Maqolada keltirilishicha ushbu yilda Namangan oblastida :

1.Elektrotexnika sanoatiga oid;

1) Namangan Transformator zavodi; 2) Elektrotexnika zavodi; 3) Elektro mexanika ustaxonasi.

2.Yengil sanoat va to'quvchilik sanoatiga mansub;

1) 2- Paxta tozalash zavodi; 2) 3-4 Paxta tozalash zavodi 3) 2-Tikuvchilik fabrikasi; 4) Birinchi Besh yillik kombinati; 5) Namangan poyabzal fabrikasi; 6) Shoyi va kostyumbop matolar kombinati; 7) "Gagarin" nomidagi tikuvchilik fabrikasi; 8) Shoyi to'qish fabrikasi.

3.Oziq -ovqat sanoatiga mansub:

1) Yog' ekstrakt zavodi; 2) Non kombinati; 3) Makaron -konditer fabrikasi; 4) Konserva zavodi; 5) Sut-moy zavodi; 6) Go'sht kombinati; 7) 7- pivo zavodi.

4.Mebelsozlik va yog'ochni qayta ishlash sanoatiga oid bo'lgan:

1)Mebel fabrikasi; 2) Badiiy buyumlar fabrikasi.

5.Kimyo sanoatiga mansub:

1) Namangan Kimyo zavodi; 2) Namangan kimyo mashinasozligi zavodi.

6.Qurilish va binokorlik sanoatiga mansub:

1) 10-qurilish trestining binokorlik mahsulotlari kombinati; 2) "Andijon oblselstroy" trestining binokorlik mahsulotlari kombinati; 3) Namangan shahridagi va tumanlardagi g'isht zavodlari faoliyat olib borganligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan [3-bet].

Viloyatdagi sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan muhandis va texnik xodimlar va ishchi, xizmatchilarni ishlab chiqarish jarayonida sog'liklarini saqlash va ularni ishlab chiqarish jarayonlarida jarohatlanishini oldini olish ushbu korxonalarda texnika xavfsizligi talablarini qat'iy amal qilinishi va ishlab chiqarish sexlarida sanoat sanitariyasi talablarining bajarilish holati bilan uzviy bog'liq bo'lganligi vaqtli matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalardan ham ma'lum bo'ladi. Shuningdek ushbu jarayonlarda ishlab chiqarish jarayonlariga yangi texnika va texnologiyalarini joriy etish va bundan tashqari mehnatkashlarning ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Namangan viloyatidagi yirik oziq-ovqat korxonalaridan biri hisoblangan Namangan yog'-ekstrakt zavodida 1966-1967-yillar davomida zavodda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va buning natijasida ishlab chiqarish unumdorligini oshirish maqsadida ishlab chiqarishda qo'l mehnatini kamaytirish uchun chigitni bevosita ishlab chiqarish joyiga yetkazib beruvchi tunnel barpo etilgan.Shuningdek zavod hududida ishchilarning ishdan bo'sh vaqtlarida dam olishlari uchun gulzorlar barpo etilib bu yerga turli navlardagi gul ko'chatlari ekilgan. Zavodning ishchi va xizmatchilari ishdan bo'sh vaqtda ushbu hududda tabiat go'zalliklaridan bahra olganlar [2.2-bet.].

Shuningdek, vaqtli matbuot nashrlarida viloytadagi binokorlik va qurilish sanoati korxonalarida mehnat qilayotgan mehnatkashlarga ko'rsatilayotgan e'tibor haqida ham ma'lumotlar berilgan. Xususan, "Namangan haqiqati" gazetasining 1967-yil 3-noyabrdagi 133-sonida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, Namangan shahrida faoliyat olib borayotgan yirik panelli uysozlik zavodida mehnat qilayotgan ishchilar zavodning mahalliy kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan munosib taqdirlanib ularning 50 nafariga 28 so'mdan 30 so'mgacha pul mukofotlari, 20 nafar ishchiga esa, turli hududlardagi dam olish uylariga yo'llanmalar taqdim etilgan. Bunday tadbirlar viloyatda faoliyat olib borayotgan yengil sanoat va to'qimachilik sanoati korxonalarida ham amalga oshirilganligi haqida ham ushbu gazeta sahifalarida ma'lumotlar berilgan. Masalan viloyatdagi yengil sanoat sohasida yirik sanoat korxonasi hisoblangan "Birinchi Besh yillik" kombinatida kombinat mahalliy kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan 1967-yil avgust oyida kombinatda mehnat qilayotgan ishchilarning ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni va sog'liklarini mustahkamlashni ta'minlash maqsadida 38 nafar ishchi va xizmatchiga O'sh, Toshkent shaharlarida joylashgan dam olish uylariga va sihatgohlarga yo'llanmalar berilgan.Bundan tashqari kombinat

ishchilarining farzandlaridan 20 nafariga yozgi lagerlarga borish uchun yo'llanmalar taqdim etilgan [3.5-bet].

Sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan mehnatkashlarning ishdan bo'sh vaqtlarida turli madaniy tadbirlar ham tashkil etib borilganligi haqida vaqtli matbuot nashrlarida ma'lumotlar berib borilgan. Xususan, 1967-yilning 7-aprelida Namangan shoyi to'qish fabrikasida mehnat qilayotgan to'quvchilarning ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida To'xtasin Jalilov nomidagi O'zbekiston Davlat Filarmoniyasining bir guruh san'atkorlari ishtirokida konsert tadbiri o'tkazilgan. Ushbu konsertda filarmoniya solistlari Rohatoy Mannonova, Xo'janiyoz Sobirov, Otajon Rajabovlar ijro etgan kuy qo'shiqlari fabrika mehnatkashlariga juda manzur bo'lgan. Ayniqsa, O'zbekiston xalq artisti G'ulom Abdurahmonovning "Atlaschi qiz" qo'shig'i fabrikada mehnat qilayotgan to'quvchi ayol qizlarga juda manzur bo'lib bu konsertdan fabrika mehnatkashlari juda katta ma'naviy ozuqa olganlar [4.4-bet].

Shuningdek, ushbu davrda sanoatning turli tarmoqlarida mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning sog'lom turmush tarziga amal qilishida sportning ahamiyati katta bo'lgan. Bu jarayonda ko'pgina zavod va fabrikalarda ko'ngilli sport jamiyatlarining faoliyati ham katta o'rin tutgan. Bu jamiyatlarga a'zo bo'lgan mehnatkashlar sportning turli yo'nalishlari bilan shug'ullanganlar va o'z sog'liklarini mustahkamlash bilan bir qatorda viloyat va respublika miqyosida tashkil etilgan turli sport musobaqalarida ham faol ishtirok etishgan. Sobiq Sovet Ittifoqida ittifoqning barcha hududlaridagi sanoat korxonalarida ishchilar uchun bir xildagi mehnat sharoitlarini mavjud bo'lmaganligi vaqtli matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalarni o'rganish natijasida o'z tasdig'ini topadi. Bu jarayon RSFSR, USSR, BSSR hududlaridagi sanoat korxonalarida tashkil etilgan sport majmualari kerakli barcha sport anjomlari bilan ta'minlangani holda milliy respublikalardagi sanoat korxonalarida ko'ngilli sport jamiyatlarining faoliyatida sport anjomlari yetishmasligi muammosi mavjud bo'lganligida ham ma'lum bo'ladi. SSSRning markaziy hududlarida joylashgan respublikalardagi sanoat korxonalarida sport majmualarini zaruriy sport anjomlari bilan ta'minlanishi holatini Belorussiyaning Minsk shahrida joylashgan Minsk Traktor zavodi misolida ham yaqqol ko'rsa bo'ladi. 1965-yilda Minsk Traktor zavodi ishchilari o'zlarining ixtisoslashgan sport majmuasiga ega bo'lgan bo'lib, bu majmuada ishchilar uchun sportning kurash, yengil atletika, stol tennisi, sport gimnastikasi kabi turlari bilan shug'ullanish uchun alohida sport zallari mavjud bo'lgan, ushbu zallar kerakli barcha sport jihozlari bilan to'liq ta'minlangan. Zavodning sportga qiziqqan ishchi va xizmatchilari ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarida ushbu majmuada sportning o'zlari yoqtirgan turlari bilan bemalol shug'ullanish imkoniyati yaratilgan [5.3-bet].

Namangan viloyatidagi sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan ishchilar uchun sog'lom turmush tarzini amalga oshirish uchun sport majmualari va sport jihozlari bilan ta'minlash jarayonlari a'lo darajada bo'lmasa-da, lekin ular orasidan mohir sportchilar yetishib chiqib ular turli sport musobaqalarida katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. "Namanganskaya Pravda" gazetasining 1965-yil 28-yanvardagi 12-sonida chop etilgan M.Timoshenko muallifligidagi "Ratsionalizator-Chempion" nomli maqolada yozilishicha Namangan sun'iy tola zavodida 20-yildan buyon mehnat qilib kelayotgan ishchi V.Ya.Bayrashevskiy 1965-yilda Namangan shahrida o'tkazilgan sport to'pponchasidan o'q otish bo'yicha musobaqada muvaffaqiyatli qatnashib faxrli 1-o'rinni egallagan va "Shahar chempioni" degan shahafli unvonni qo'lga kiritgan.

Sanoatning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan ishchilar va xizmatchilarning sog'ligini saqlashda, zavod va fabrikalarning o'zida tashkil etilgan tibbiy xizmat ko'rsatish markazlarining faoliyati, shuningdek, ularni kerakli tibbiyot mutaxassislari va dori-darmonlar bilan ta'minlash juda muhimdir. Viloyatidagi yengil sanoat va to'qimachilik sanoati korxonalarida mehnatkashlar uchun yo'lga qo'yilgan va amalga oshirilgan tibbiy xizmatlar hamda sog'lomlashtirish tadbirlari namuna sifatida ko'rsatilishi mumkin. Masalan, viloyatidagi to'qimachilik sanoatiga taalluqli yirik koxonalardan biri hisoblangan "O'zbekiston SSR

50 yilligi” nomli shoyi gazlamalar kombinatida ana shunday ijobiy holatni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu kombinat 1967-yilda qurib ishga tushirilgan. Kombinatda 40 dan ortiq millat vakillari bir oila bo‘lib mehnat qilganlar. Ushbu korxonada mehnat qilayotgan ishchilarning qariyb 70 foizni yoshlar tashkil etgan. Kombinat boshqaruv ma‘muriyati va mahalliy kasaba uyushma qo‘mitasi tashabbusi bilan kombinat to‘quvchilarini ijtimoiy ahvolini yaxshilash, sog‘liklarini saqlash maqsadida bir qator ijobiy ishlatr amalga oshirilgan. Xususan, ishchi va xizmatchilar uchun To‘qimachilar shaharchasidan 10 ming metr kvadrat hajmdagi xonadonlar, to‘quvchilarning 2000 nafar farzandini tarbiyalaydigan 7 ta bolalar bog‘chalari, 620 nafar bemorni bir yo‘la qabul qila oladigan poliklinika, 520 o‘rinli shifoxona, bir nechta sog‘lomlashtirish maskanlari, 800 o‘rinli madaniyat uyi tashkil etilib ular ushbu kombinatda mehnat qilayotgan mehnatkashlar uchun xizmat qilgan. Barakali mehnat jarayonidan keyin madaniy hordiq chiqarishni tashkil etish ushbu kombinat ishchilarining an‘nasiga aylangan. Bu jarayonda ishchilar sog‘liklarini tiklash uchun mamlakatdagi va shuningdek Sovet Ittifoqi hududidagi sanatoriyalarga, kurortlarga va dam olish uylariga yuborish tadbirlari ham amalga oshirilgan. Kombinatning sog‘lomlashtirish lageri kombinat ishchilari uchun qishin-yozin sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatgan [6.2-bet].

Namangan viloyatida mavjud sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan ilg‘or ishchilarni ishlab chiqarishdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida 1973-yil dekabr oyida ba‘zi ijobiy tadbirlar amalga oshirilgan. Bu jarayonda Namangan viloyat turizm va ekskursiyalar Kengashi va Namangan shahar turizm va ekskursiyalar byurosi tashabbuskor bo‘lib “Namanganets” nomli sayohat poyezdini tashkil etgan. Ushbu sayohat poyezdi 1973-yil 14-dekabr kuni Namangan temir yo‘l vokzalidan sayohat uchun yo‘lga chiqqan. Ushbu poyezdda sayohatga chiqqan 350 dan ortiq mash‘al paxtakorlar, zavod fabrikalarda mehnat qilayotgan ilg‘or ishchi va xizmatchilar 20 kun davomida Smolensk, Minsk, Vilnyus, Kaunas, Kaliningrad, Riga, Leningrad, Kuybishev, Orenburg kabi shaharlarning diqqatga sazovor joylarida bo‘lib maroqli dam olganlar [7.4-bet].

Bu davrda Sovet Ittifoqi tarkibidagi milliy respublikalarda va RSFSR ning o‘zida sanoat ishchilari uchun yaratilgan mehnat sharoitlari va ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatning holati haqida “Namangan haqiqati” gazetasining 1985-yil 5-iyunda nashrdan chiqqan 106-sonida “Yangi dam olish zonasida” nomli maqola o‘rganish orqali ham xulosa qilsa bo‘ladi. Ushbu maqolada qo‘shni Qirg‘iziston SSR hududida joylashgan M.Frunze nomidagi Qadamjo surma kombinati ishchilari uchun Issiqbuloq atrofida qurilgan Sog‘lomlashtirish markazi haqida ma‘lumotlar berilgan. Maqolada yozilishicha ushbu sog‘lomlashtirish markazida sun‘iy ko‘l va uning markazida sun‘iy orol tashkil etilgan bo‘lib ushbu sun‘iy orolda sog‘lomlashtirish markaziga tashrif buyurayotgan mehnatkashlar uchun davolanish uchun shifobaxsh balchiqli plyaj tashkil etilgan. Sog‘lomlashtirish markaziga avtomobil kiritilmagan, gulxan yoqish ta‘qiqlangan buning sababi sog‘lomlashtirish markazining tabiiy holatini saqlab qolish maqsad qilingan. Ushbu sog‘lomlashtirish maskanida minglab konchilar va metallurglar davolanib maroqli dam olganlar.

Ana shunday, qulay sharoitlar RSFSR dagi Novolipetsk shahridagi Yu.V.Andropov nomli Metallurgiya kombinati Avtotransport sexi haydovchilari uchun ham yaratilgan. Ushbu kombinatda tashkil etilgan “Neptun” nomli sog‘lomlashtirish markazida kombinatda mehnat qilayotgan metallurglar va boshqa ishlab chiqarish sexlarining ishchilari og‘ir mehnatdan keyin issiq dush qabul qilish, saunadan va iliq suvli hovuzdan va tibbiy massajdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishgan [8.3-bet].

Aksincha, xuddi shu davrda O‘zbekiston SSRning turli viloyatlaridagi sanoat korxonalarida tashkil etilgan sog‘lomlashtirish profilaktoriyalari esa, sanoat korxonalarini ma‘muriyatlarining mas‘uliyatsizligi va qarovsizlik natijasida faoliyat ko‘rsatishdan to‘xtab qolgan. Misol uchun, Andijon viloyati Xonobod shahridagi “Tarandubitel” ishlab chiqarish birlashmasining 1972-yilda qurib ishga tushirilgan, shaharning eng xushmanzara hududida joylashgan sanatoriy–profilaktoriyasi birlashma ishchilariga ishlab chiqarishdan ajralmagan

holatda o'z sog'lig'ini tiklash va mustahkamlash imkoniyatini yaratgan. Ushbu sihatgohda bemorlar shifobaxsh mineral suv, fizioterapiya, shifobaxsh balchiq bilan turli kasalliklardan davolangan. Ushbu sanatoriya-profilaktoriyaning davolash bo'limi eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan bo'lgan. Afsuski ushbu sihatgoh 1985-yilga kelib o'zining asosiy faoliyatini to'xtatgan. Bu davrda sihatgoh faqatgina "Tarandubitel" birlashmasi ishchilariga sexlar yo'nalishida bir yilda bir marotaba parhez ovqatlar berish bilan chegaralangan. Ushbu sanatoriya-profilaktoriyaning davolash bo'limidagi birlashma ishchilarini sog'lig'ini tiklash va mustahkamlash uchun xizmat qilishi kerak bo'lgan tibbiy jihozlar ishlatilmasdan chang bosib yotgan aslida ushbu birlashmada mehnat qilayotgan ishchilar og'ir mehnat sharoitida, ya'ni teriga ishlov berish jarayonida mehnat qilishgan va ularning sog'lig'ini mustahkamlash birlashma ma'muriyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanhgan. Lekin yuqorida aytilganidek birlashma ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi bu jarayonga panja ortidan qaragan [9.3-bet].

Yuqorida keltirilgan ikkala maqolada ko'rsatib o'tilganidek, mustabit tuzum davrida sanoat ishchilari va xizmatchilariga yaratilgan sharoitlar hamda ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarning sifati markaziy hududlar va milliy respublikalardagi sanoat korxonalarida sezilarli darajada farq qilgan. Bu farq sanoat korxonalaridagi salbiy jarayonlarning boshqaruv ma'muriyatlari va mahalliy kasaba uyushma qo'mita raislarining mas'uliyatsizligi, shuningdek, o'z vazifalariga vijdonan yondashmasligi bilan ham bog'liq.

Sovet Ittifoqida qayta qurish yillarida hukumat va kommunistik partiyaning ko'plab syezdlari va plenumlarida asosiy e'tiborni insonlarning manfaatlarini ta'minlashga qaratish belgilangan. Xususan, O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining 1988-yil 1-2-fevral kunlari bo'lib o'tgan IX plenumida "Inson – uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish –qayta qurish yo'lidagi barcha kuch g'ayratlarning obyekti va mezoni" degan shior ilgari surilgan. Ushbu shiorlar va ko'rsatmalar asosida 1988-1989-yillar davomida Namangan viloyatida faoliyat olib borayotgan zavod va fabrikalarda mehnat qilayotgan mehnatkashlarning sog'lig'ini saqlashda ushbu sanoat korxonalari qoshidagi meditsina-saniatariy qismlarini samarali tibbiy xizmat ko'rsatishni sifatini yaxshilash chora tadbirlari ham amalga oshirila boshlangan. Masalan, Namangan viloyatidagi agrosanoat tizimidagi yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lgan 3-4-sonli paxta tozalash zavodi qoshida tashkil etilgan maditsina-sanitariya qismida mehnat qilayotgan shifokorlar tomonidan ko'rsatilayotgan sifatli tibbiy xizmat ushbu tibbiyot maskanida davolanayotgan bemorlarni juda mamnun qilgan. Ushbu tibbiyot muassasasida 60 nafar bemorni yotib davolanishi uchun kerakli barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Tibbiyot muassasasi Namangan shahridagi 3-4-sonli paxta tozlash zavodi ishchi va xizmatchilariga, Namangan konserva zavodi ishchi va xizmatchilariga, Namangan don mahsulotlari kombinati mehnatkashlariga, Tajriba remont zavodi ishchi va xizmatchilariga tibbiy xizmat ko'rsatgan [10.4-bet].

Ushbu davrda mehnatkashlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning ishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni ta'minlash maqsadida ham bir qator ijobiy tadbirlar amalga oshirilgan. Chunonchi, 1988-yilning fevral oyi davomida Namangan shahridagi sanoat korxonalarining muhandis va texnik xodimlari, ishchi va xizmatchilaridan 900 nafari haftaning shanba va yakshanba kunlari ishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlarini ta'minlash uchun Yangiqo'rg'on tumanida joylashgan "Ko'ksaroy" turistik bazasiga sayohatga olib borilgan. Bu turistik bazada mehnatkashlarning maroqli dam olishlari uchun barcha kerakli sharoitlar yaratilgan. Ushbu turistik bazada sayohatga kelgan mehnatkashlar uchun qorda uchish uchun chang'ilar va sayohat qilish uchun velosipedlar tashkil etilgan. Bundan tashqari, turistik bazaning oshxonasida sayohatchilar uchun mazali taomlar tayyorlanib sayohatchilarga taqdim etilgan. Ushbu sayohatda qatnashib maroqli hordiq chiqargan Namangan noto'qima matolar ishlab chiqarish fabrikasi sex boshlig'i X.Usmonov o'zining sayohat taassurotlarini "Namangan Haqiqati" gazetasining muxbiri bilan o'rtoqlashgan. X.Usmonovning aytishicha Namangan noto'qima matolar ishlab chiqarish birlashmasida mehnat qilayotgan ishchilar

uchun ishlab chiqarishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va maroqli dam olish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Birlashma boshqaruv ma'muriyati va mahalliy kasaba uyushma qo'mitasi tashabbusi bilan har yili birlashmada mehnat qilayotgan mehnatkashlar uchun turli shaharlarga sayohatlar tashkil etilgan. Shuningdek birlashmaning ishchi va xizmatchilarini o'z sog'liklarini tiklash uchun turli sanatoriylar va oromgohlarga yuborish ishlari ham to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Masalan, 1987-yil davomida birlashmada mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilar uchun Toshkent, Samarqand, Leninsk (hozirgi Andijon viloyatidagi Xonabod shaharchasi), Arslonobob hududlariga sayohatlar tashkil etilgan.

“Ko'ksaroy” turistik bazasida hordiq chiqarayotgan viloyatdagi turli sanoat korxonalarining mehnatkashlarining sog'liklarini mustahkamlash maqsadida ular o'rtasida sportning turli yo'nalishlari bo'yicha sport musobaqalari ham o'tkazilgan. Jumladan ushbu oromgohda dam olayotgan Namangan noto'qima matolar ishlab chiqarish birlashmasi ishchilari va Namangan mashinasozlik zavodi ishchilari o'rtasida futbol musobaqasi o'tkazilgan. Mehnatkashlar ushbu oromgohda, shuningdek, chang'ida uchib musaffo tog' havosidan bahramand bo'lganlar [11.4-bet].

Xulosa. Namangan viloyatidagi Nodira nomidagi Axborot kutubxona markazida saqlanayotgan o'tgan asrning 60-90-yillariga mansub vaqtli matbuot nashrlari xususan Namangan viloyati partiya qo'mitasi va Mehnatkash deputatlari viloyat Kengashining rasmiy nashri bo'lgan “Namangan Haqiqati” gazetasining 1960-1990-yillar davomida chop etilgan sonlarini o'rganish va tahlil qilish jarayonida shunday xulosalar shakllandi. Sovet Ittifoqidagi yakka hukmron partiya — KPSS dasturlarida ishchilar va xizmatchilar uchun qulay mehnat sharoitlari va farovon moddiy turmush tarzi yaratishga oid katta va'dalar berilgan bo'lsa-da, 1990-yillarga kelib sanoatning turli tarmoqlarida mehnat qilayotgan ishchilar va xizmatchilarning og'ir iqtisodiy ahvolga tushishi, zavod va fabrikalardagi ishlab chiqarish jarayonlariga eng ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etishning paysalga solinishi, shuningdek, mehnatkashlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mehnat muhofazasi sohasidagi kamchiliklarning bartaraf etilmaganligi millionlab mehnatkashlar orasida Kommunistik partiyaning obro'sizlanishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari mazkur davrda Namangan viloyatidagi sanoat korxonalarida ishchilar va xizmatchilarning sog'ligini saqlash hamda ularning ishlab chiqarish faoliyatidan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar 1960-1990-yillar davomida bir xil darajada bo'lmagan. Faqat 1984-yildan keyin mehnatkashlarga g'amxo'rlik qilish hukumat miqyosida muhim jarayon sifatida ko'rilganligi vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalarni o'rganish natijasida ma'lum bo'ldi. Hukmron Markazning qoldiq siyosati natijasida milliy respublikalardagi sanoat korxonalarini moddiy-texnik jihatdan modernizatsiya qilish jarayonlari deyarli bajarilmadi. Sovet Ittifoqining markaziy hududlaridagi sanoat korxonalarini eng zamonaviy ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlash tadbirlari jadallik bilan amalga oshirilgan bo'lsa-da, Ittifoqning olis hududlaridagi xuddi shunday korxonalarda ishlayotgan ishchi va xizmatchilar juda og'ir va qo'l mehnati yuqori bo'lgan sharoitlarda, sog'liklarini saqlash va mustahkamlash uchun zarur sharoitlar mavjud bo'lmagan muhitda mehnat qilishda davom etishdi. Ishchilarning mehnat sharoitlaridan noroziligi, xom-ashyo tanqisligi natijasida yuzaga kelgan ish o'rinlarini qisqarishi, oylik maoshlar masalasidagi uzilishlar kabi jarayonlar Sovet Ittifoqida 1990-1991-yillarda yuzaga kelgan og'ir siyosiy vaziyatga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Namangan viloyat statistika Boshqarmasi Axboroti “Namangan haqiqati” gazetasi 1967-yil 13-oktabr 123-son 3-bet
2. “Sanoat yangiliklari”, “Namangan haqiqati” gazetasi 1967-yil 15-oktabr 124-son 2-bet
3. U.Isroilov .”G'amxo'rlik” “Namangan haqiqati,” gazetasi.1967-yil 11-avgust 96-son, 5-bet,

4. M.Mamadaliyeva, “Filarmoniya artistlari to‘quvchilar mehmoni”, “Namangan haqiqat” gazetasi. 1967-yil 9-aprel, 43-son, 4-bet.
5. “Спорт клуб –Трактор” Газета “Наманганская правда” 28 января 1965 год №12 страница-3.
6. V.Tolyatnikov “Qo‘lni qo‘lga berib”, “Namangan haqiqati”gazetasi, 1980-yil 27-fevral, 42-son 2-bet.
7. “Oq yo‘l sayyohlar” “Namangan Haqiqati” gazetasi, 1973-yil 16 dekabr, 246-son, 4-bet.
8. “Neptun taklif etadi”, “Namangan haqiqati”gazetasi, 1985-yil 5-iyun 106-son 3-bet.
9. A.Mirzaakbarov. “Profilkatoriya qani”, “Kommunist” gazetasi 1985-yil 14-may 94-son 3-bet.
10. M.Sulaymonov. “G‘amxo‘rlik namunasi” “Namangan Haqiqati” gazetasi, 1987-yil 20-iyun, 120-son, 4-bet.
11. “Insonga g‘amxo‘rlik –muhim omil” “Namangan Haqiqati” gazetasi, 1988-yil 3-fevral 24-son 4-bet.

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

REGULATION OF HOUSING FINANCING IN UZBEKISTAN: ECONOMIC AND LEGAL ASPECTS

Berdaliyeva Mukhabbatkhan

PhD student, Scientific research center “Scientific bases and problems of the development of the economy of Uzbekistan” under the Tashkent state university of economics

E-mail: ielts8owner@mail.ru

Abstract. In this article, the right to housing, legal relations related to housing, the principles of the right to housing and the classification of normative legal documents of the Republic of Uzbekistan are presented. Also, the article contains information about the laws and regulations on housing finance, which are included in the group of regulatory and legal documents of different levels. In the explanation of the main rules in housing finance, the definitions of the necessary regulatory and legal categories are also systematically described. The subject of housing law is housing relations, that is, social relations related to ensuring the rights of citizens to housing. It should be noted that with the transition of houses to private ownership, not housing relations, but property rights to housing - its ownership, use and disposal will be of decisive importance. Therefore, housing owned by citizens, in practice, deviates from the scope of action of the full housing right and becomes an object of civil legal regulation.

Key words: Housing law, legal relations, Housing Code, regulation, instruction, regulation, strategy, concept, doctrine, program, housing fund.

O‘ZBEKISTONDA UY-JOYNI MOLIALASHTIRISHNI TARTIBGA SOLISH: IQTISODIY VA HUQUQIY JIHATLARI

Berdaliyeva Muxabbatxon Zayniddin qizi

TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM doktoranti,

Annotatsiya: Ushbu maqolada uy-joy huquqi, uy-joy bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar, uy-joy huquqining tamoyillari va O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari tasnifi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, maqola turli darajadagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar guruhiga kiruvchi uy-joy moliyasiga doir qonun va qonunosti hujjatlari haqidagi ma‘lumotlarni ham o‘z ichiga olgan. Uy-joy moliyasidagi asosiy qoidalarni tushuntirishda zarur me‘yoriy-huquqiy kategoriyalarning ta‘riflari ham tizimli tarzda bayon qilingan. Uy-joy huquqining predmeti uy-joy munosabatlari, ya‘ni fuqarolarning uy-joyga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Ta‘kidlash lozimki, uy-joylarning xususiy mulkka o‘tishi bilan uy-joy munosabatlari emas, balki uy-joyga nisbatan mulk huquqi – unga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu sababli, fuqarolarning mulki bo‘lgan uy-joy, amalda to‘liq uy-joy huquqining harakat doirasidan chetga chiqadi va fuqarolik huquqiy tartibga solish obyektiga aylanadi.

Kalit so‘zlar: Uy-joy huquqi, huquqiy munosabatlar, Uy-joy kodeksi, nizom, yo‘riqnoma, reglament, strategiya, konsepsiya, doktrina, dastur, uy-joy fondi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N11>


Kirish. Ko'chmas mulk va ipoteka bozori O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti va kelajakdagi o'sishining muhim ko'rsatkichidir. So'nggi yillarda O'zbekiston uy-joy bozorida sezilarli o'sish kuzatildi. Ijtimoiy iqtisodiy islohotlar doirasida aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari uy-joy bozorini rivojlanishida asosiy omil bo'ldi. Hukumatning ushbu ko'magi rivojlanayotgan ko'chmas mulk sektori uchun zarur bo'lgan infratuzilma va me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Davlat tashabbuslari aholining keng qatlamlari uchun uy-joy mulkdori bo'lish imkoniyatlarini yanada qulayroq qilib, yangi uy-joylar qurilishini osonlashtirdi. Bu sa'y-harakatlar uy-joy bozorini barqarorlashtirish va rag'batlantirish, kelajakdagi o'sish uchun mustahkam poydevor yaratishda muhim rol o'ynadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot ishi davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi. Xususan, o'ndan ortiq milliy va xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga doir tadqiqotlar o'rganib chiqildi va tahlil etildi.

O'zbekistonda uy-joy huquqini tahlil qilish davomida Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni ko'rib chiqildi. Bunda mavjud qonun hujjatlari qay tartibda klassifikatsiya qilinganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari mavzu doirasida turli iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi, shuningdek, ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risidagi, O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risidagi hamda Ipoteka to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari ma'lumotlari alohida ahamiyatga egadir. Bundan tashqari uy-joy huquqi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, Davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va fuqarolarga ijara shartnomasi shartlari asosida berishni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari ham tahlil qilindi. Mavzuga tegishli nazariy qismlarni yoritishda esa Imomovning O'zbekiston Respublikasi uy joy huquqi tushunchasi va tizimi nomli darsligi ham foydali bo'ldi.


Tahlil va natijalar. Uy-joy huquqi – fuqarolarning turar joy binolariga ega bo'lish, ulardan foydalanish qoidalari va sh.k.ni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui. Uy-joy ko'chmas mulk hisoblanadi. O'zbekiston qonunlariga ko'ra, turar joyga bo'lgan mulk huquqi muddatsiz bo'lib, uning mulkdori o'zga shaxslar (fuqarolar, tashkilotlar yoki davlat)ning huquq va qonuniy manfaatlarini buzmaganda holda egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi mumkin. Uy-joy xususiy yoki davlat mulki bo'lishi, ayni vaqtda u qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulkchilikning bir shaklidan boshqa shakliga ham o'tishi mumkin. Uy-joyga bo'lgan xususiy mulk miqdor, o'lcham va qiymat jihatdan cheklanmaydi. Ayni vaqtda qonunda turar joy maydonining bir kishi hisobiga eng kam ijtimoiy normasi ham belgilanadi. Unga ko'ra, uy-joy maydonining ijtimoiy normasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent sh. hokimliklari tomonidan 1 kishi hisobiga 16 kv m dan, kresol-aravachada harakatlanadigan nogironlar uchun esa – 23 kv m dan kam bo'lmagan hajmda belgilanadi. Yangi ajratilgan yer uchastkasida qurilayotgan uy-joyga mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Ajratib berilgan yer uchastkasi davlat mulki bo'lib, u fuqarolarga ashyoviy huquq asosida (ya'ni, meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod ega lik qilish tarzida) tegishli bo'ladi. Uy-joy bilan bog'liq barcha bitimlar (oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, meros, ijara, garov) yozma shaklda tuzilishi, notarial guvohlantirilishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim [15].

Uy-joy qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlar. Uy-joy to'g'risidagi qonunchilik fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining quyidagi masalalar bo'yicha munosabatlarini tartibga soladi:



1-rasm. Uy-joy bilan bog'liq huquqiy munosabatlar

Uy-joy huquqining tamoyillari. Uy-joy huquq o'zining asosiy tamoyillariga ega. Uy-joy huquqining tamoyillari deganda, uy-joy huquqiy tartibga solishning asosiy qoidalari tushuniladi va ularga quyidagilar kiradi:



2-rasm. Uy-joy huquqining tamoyillari


Uy-joy to'g'risidagi qonunchilik fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining quyidagi masalalar bo'yicha munosabatlarini tartibga soladi:

- turar joylarga mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqining yuzaga kelishi, amalga oshirilishi, o'zgarishi hamda bekor bo'lishi;
- uy-joy fondini hisobga olish;
- uy-joy fondini saqlash, qarash va ta'mirlashni ta'minlash;
- fuqarolarning uy-joy huquqlariga rioya etilishi va uy-joy fondidan maqsadli foydalanish ustidan nazorat qilish.

Uylarni qurish, turar joylarni qayta qurish va o'zgartirish, muhandislik qurilmalaridan foydalanish, kommunal xizmatlar bilan ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar Uy-joy Kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Agar qonunda yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, uy-joy to'g'risidagi qonunchilikning qoidalari chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi uy-joy munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi. Normativ-huquqiy hujjatlar turli sohalardagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishda asosiy yuridik manba hisoblanadi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari

Uy-joy huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Uy-joy Kodeksi hisoblanadi.

Uy-joy kodeksi – fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining uy joy bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu holatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, uy-joy huquqi deganda, huquq subyektlarining turar joylarga nisbatan mulk huquqi, fuqarolarning turar joylarda istiqomat qilishlari va davlat organlarining turar joy sohasidagi vakolatlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari yig'indisi tushuniladi. Ayrim mutaxassislar uy-joy huquqining mustaqil roli mavjud emas, shu sababli u fuqarolik huquqining kichik sohasi, deb hisoblashadi. Biroq uy-joy huquqining O'zbekiston Respublikasi huquq tizimidagi mustaqil kompleks huquq sohasi sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiqdir [16]. Uy-joy huquqi huquq sohasi sifatida fuqarolarning uy-joyga bo'lgan huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar va institutlar tizimidir. Huquq sohasi sifatida uy-joy huquqining predmeti bo'lib, uy-joy munosabatlari, ya'ni fuqarolarning uy-joyga bo'lgan huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; Yangi tahrir (01.05.2023).

31-modda. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

47-modda. Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega.

Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi.

Davlat uy-joy qurilishini rag'batlantiradi va uy-joyga bo'lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari:

– O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi (01.04.1999) Yangi tahrir (21.10.2021);

– O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida, 07.11.2019 yildagi O'RQ-581-son. Kuchga kirish sanasi 01.08.2020;

– O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida. 05.08.2024 yildagi O‘RQ-937-son. Kuchga kirish sanasi 08.11.2024;

– O‘zbekiston Respublikasining qonuni, Ipoteka to‘g‘risida, 04.10.2006 yildagi O‘RQ-58-son.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari:

– Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.02.2005 yildagi PQ-3-son.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

– Davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va fuqarolarga ijara shartnomasi shartlari asosida berishni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 26.02.2019 yildagi 170-son;

– Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 25.03.2020 yildagi 182-son;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan ipoteka kreditlari ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.02.2021 yildagi 56-son;

– Aholiga ipoteka krediti va uy-joy sotib olish uchun subsidiya ajratish jarayonlarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.10.2022 yildagi 601-son;

– Davlat uy-joy fondidan foydalanish va uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 11.03.2024 yildagi 124-son.



4-rasm. Normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlanadigan hujjatlar

Kodeks. O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi (01.04.1999) Yangi tahrir (21.10.2021).

Nizomlar.

– Davlat uy-joy fondidagi turar joylarni ijaraga berish va hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom, 26.02.2019 yildagi 170-son;

– Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom, 25.03.2020 yildagi 182-son;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag‘lar hisobidan ipoteka kreditlari ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom, 05.02.2021 yildagi 56-son;

– Davlat uy-joy fondidan foydalanish va uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida nizom, 11.03.2024 yildagi 124-son.

Strategiya.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida, 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni bilan tadiqlangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida uy-joy bo‘yicha quyidagi maqsadlar belgilangan:

- Uy-joy kommunal xo‘jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.
- Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish. Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda eskirgan uylar o‘rniga 19 million kvadrat metrdan ortiq zamonaviy uy-joylarni barpo etish, 275 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko‘chib o‘tishi uchun sharoit yaratish.
- Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta‘minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash.
- Yosh oilalarni ma‘naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish.
- “Yangi O‘zbekiston massivlari” davlat dasturlari doirasida quriladigan uy-joy, ijtimoiy va tijorat obyektlarini qurishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchi qurilmalardan keng foydalanish.
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarini har yili imtiyozli ipoteka krediti asosida uy-joylar bilan ta‘minlash.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida uy-joy bo‘yicha quyidagi maqsadlar belgilangan:

- Ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish.
- Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta‘minlash darajasini oshirish.
- Hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo‘shimcha 200 mingta oilaga mo‘ljallangan uylarni barpo etish, respublikada kamida 140 ming oilaga mo‘ljallangan ijtimoiy uylarni barpo etish.
- Xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan massivlar va eskirgan uy-joylarni yangilash maqsadida keng jamoatchilik fikri asosida renovatsiya dasturlarini ishlab chiqish, aholi zich bo‘lgan hududlarda “bo‘yiga o‘stirish” tamoyili asosida ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish.

Uy-joy moliyasidagi turli huquqiy munosabatlarni bilishda qonun hujjatlarida ta‘riflangan asosiy tushunchalarni bilib olish maqsadga muvofiqdir.

Uy-joy fondi – inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylardan (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylardan) iborat bo‘lgan fond.

Uylarda joylashgan savdo, maishiy va nosanoat yo‘nalishidagi o‘zga ehtiyojlarga mo‘ljallangan, **yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar** uy-joy fondiga kirmaydi.

uylar;	kvartiralar;	xizmat turar joylari;	yotoqxonalar;	bolalar uylar;
vaqtinchalik uy-joy fondi uylari;	nogironligi bo‘lgan shaxslar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar uchun internat-uylar;		boshqa maxsus maqsadli uylar.	

5-rasm. Uy-joy fondi tarkibi

Uy-joy fondi quyidagilardan iborat:

- **xususi uy-joy fondlari:**

- yakka tartibda qurilgan uylar;
- xususiylashtirilgan kvartiralar va uylar;
- qurilgan kvartiralar va uylar;
- sotib olingan kvartiralar va uylar;
- xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari

hamda boshqa nodavlat yuridik shaxslarning mulki bo‘lgan va ularning mablag‘lari hisobidan qurilgan uylar.

- **davlat uy-joy fondlari:**

- mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo‘lgan munitsipal uy-joy fondi;
- davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga tegishli bo‘lgan idoraviy uy-joy

fondi;

- ijtimoiy jihatdan himoyalangan, kam ta‘minlangan fuqarolar uchun xususiylashtirish huquqsiz, ijara shartlari asosida foydalanishga berilgan aniq maqsadli kommunal uy-joy fondi.

Turar joylarni uy-joy fondiga kiritish. Uylar va turar joylarga nisbatan mulk huquqining kadastr idoralari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi ularning uy-joy fondiga kiritilganligining tasdig‘i hisoblanadi.

Turar joylarni uy-joy fondidan chiqarish. Quyidagi hollarda uylar va turar joylar uy-joy fondidan chiqariladi:

- avariya yoki yashash uchun yaroqsiz bo‘lgan hollarda;
- davlat va jamoat ehtiyojlari uchun buzilganda;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimlari qaroriga ko‘ra yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarga o‘tkazilganda.

Uy-joyni moliyalashtirish va uy-joy egaligi masalalari aholining asosiy ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli bu jarayonlardagi huquqiy munosabatlarda fuqarolar manfaatlarini himoya qilish juda muhimdir. Shubhasiz, davlat huquq sohasi vakolatli organlari ham ushbu sohadagi qonun hujjatlarini qabul qilishda ularning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari atroflicha ko‘rib chiqadi. Uy-joy huquqi bo‘yicha mavjud me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosan uy-joy egaligi va uni tasarruf qilish masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, moliyalashtirish bilan bog‘liq qoidalar ko‘proq ipoteka jarayonlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarda o‘z aksini topgan. Kelgusi tadqiqotlarda uy-joyni moliyalashtirish jarayoning tartibi va har bir bosqichdagi zaruriy rasmiylashtirish hujjatlarini tizimli tarzda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi (01.04.1999) Yangi tahrir (21.10.2021);
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida, 07.11.2019 yildagi O‘RQ-581-son. Kuchga kirish sanasi 01.08.2020;
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida. 05.08.2024 yildagi O‘RQ-937-son. Kuchga kirish sanasi 08.11.2024;

4. O'zbekiston Respublikasining qonuni, Ipoteka to'g'risida, 04.10.2006 yildagi O'RQ-58-son.
5. Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.02.2005 yildagi PQ-3-son.
6. Davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va fuqarolarga ijara shartnomasi shartlari asosida berishni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 26.02.2019 yildagi 170-son;
7. Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 25.03.2020 yildagi 182-son;
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joylashtirilgan mablag'lar hisobidan ipoteka kreditlari ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.02.2021 yildagi 56-son;
9. Aholiga ipoteka krediti va uy-joy sotib olish uchun subsidiya ajratish jarayonlarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.10.2022 yildagi 601-son;
10. Davlat uy-joy fondidan foydalanish va uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 11.03.2024 yildagi 124-son.
11. Davlat uy-joy fondidagi turar joylarni ijaraga berish va hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom, 26.02.2019 yildagi 170-son;
12. Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizom, 25.03.2020 yildagi 182-son;
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida, 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoni
15. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005
16. Imomov, N. O'zbekiston Respublikasi uy joy huquqi tushunchasi va tizimi. Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013 – 6-7 bet. ISBN 978-9943-05-607-7.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

THEORETICAL ASPECTS OF SUPPLY CHAIN MANAGEMENT IN SMALL BUSINESS ACTIVITY

Ergashev Jakhongir Bakhodirovich

Samarkand Institute of Economics and Service

Assistant of the department Marketing

jaxongirergashev727@gmail.com

Abstract. In small business activities, the management of the supply chain plays a very important role, since it develops enterprise activity by improving the supply system and chain for each enterprise. This in turn leads to both financial and material growth of enterprises. In addition, this article mentions two different types of the concept of efficiency.

Key words: efficiency, efficiency, technology, physical components, finance, human resources, inventory, modern technology, logistics, sales operations planning, personnel source, production, supply chain.

KICHIK BIZNES FAOLIYATIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING NAZARIY JIHATLARI

Ergashev Jahongir Baxodirovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Marketing” kafedrasida assistent-stajyori

Annotatsiya. Kichik biznes faoliyatida ta'minot zanjirini boshqarish juda muhim rol o'ynaydi, chunki har bir korxonaga uchun ta'minot tizimi va zanjirini takomillashtirish orqali korxonaga faoliyatini rivojlantiradi. Bu esa o'z navbatida korxonalarining ham moliyaviy ham moddiy tomonlarga o'sishga olib keladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada samaradorlik tushunchasining ikki xil turi aytilgan.

Kalit so'zlar: samaradorlik (efficiency), samaradorlik (effectiveness), texnologiya, jismoniy komponentlar, moliya, inson resurslari, inventarizatsiya, zamonaviy texnika, logistika, sotish operatsiyalarini rejalashtirish, xodimlar manbai, ishlab chiqarish, ta'minot zanjiri.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N12>

Kirish. Mamlakat rivojlanishining imkoniyatlari sifatida kichik biznesning o'rni va ahamiyati muhim mezonidir. Qolaversa, kichik biznes orqali ko'plab yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, uning bozor mexanizmlariga moslashish imkoniyatlari bozorning jozibadorligiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 15 noyabrda "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" [1]gi PQ-366-sonli Qarori ishlab chiqilgan bo'lib, kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, jumladan aholida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning biznes tashabbuslarini moliyalashtirish va loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish bo'yicha yaxlit tizim joriy etish iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Kichik biznesni rivojlantirish, ular faoliyatida ta'minot

zanrijini boshqarishning nazariy yondashuvlari o'rganish maqsadida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlari, ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlarning tahlili, tavsiflovchi usullar foydalanildi hamda ilmiy ekspeditsiya amalga oshirildi.


Mavzuning o'rganilganligi. Tadqiqot jarayonida «ta'minot zanjirini boshqarish» kategoriyasini tadqiq etish asosida kichik biznes faoliyatini takomillashtirish, kichik biznesda ta'minot zanjirini boshqarishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini aniqlash va tahlil qilishni zarurat etadi.

Jahonning ko'plab davlatlarida logistika masalalari, logistik tizimlarni rivojlantirish, kichik biznesda ta'minot zanjirini boshqarish masalalari: rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Yaponiya va boshqalar); Markaziy va Lotin Amerikasida (Meksika, Argentina, Braziliya va boshqalar); Osiyo, Avstraliya va Okeaniyada (Xitoy, Koreya Respublikasi, Tayvan, Singapur, OPEK davlatlari va boshqalar); Sharqiy Yevropada; MDHda (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog'iston, O'zbekiston, Moldaviya, Armaniston); Afrikada (Madagaskar, Kamerun, Zambiya, JAR) o'rganilmoqda va takomillashtirilmoqda [2].

J.J.Coyle, C.J.Langley, R.A.Novack, B.J.Gibson [3] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida keltirilgan bo'lib, ular ta'minot jarayonlarini boshqarish, ularning metodologiyasini ishlash, ta'minot zanjirlarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalarini yoritib bermoqda.

P.Wisnerning fikricha [4], ta'minot jarayonlarini boshqarishda ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish, firmaning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan bog'lash masalalari muhim omil deb qaraydi hamda kichik biznesda ta'minot zanjirlarini boshqarish metodlarini taklif qiladi.

Tahlil va natijalar. Kichik biznes egasi sifatida ta'minot zanjiringizni yaxshilash sizning inventarizatsiyani qanday va qayerda saqlayotganingizni baholash kabi oddiy narsani anglatishi mumkin, masalan, davom etayotgan ishlab chiqarish maqsadlarini tekshirish. Sizning biznesingiz ta'minot zanjirini yaxshilash uchun qila oladigan har qanday narsa harajatlarni minimallashtirishga yordam beradi va umid qilamanki, bundan keyin foyda marjasini oshiradi.



1-rasm. Ta'minot zanjiri ekotizimi [5].

Moliya – markazlashgan va markazlashmagan maqsadli pul fondlarini hosil qilish, jamlash, taqsimlash va qayta taqsimlash yoki ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarga aytiladi.

Sotish operatsiyalarini rejalashtirish – korxonalarining uzoq muddatli muvaffaqiyat

va barqarorlikka erishishda yordam beradigan asosiy biznes strategiyasidir.

Xodimlar manbai – har bir korxonalar uchun mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi bo'ladi, bu esa o'z navbatida korxonalar faoliyatiga ham judda katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham har bir korxonalar malakali va mutaxassis kadrlarni jalb etishi kerak.

Ishlab chiqarish – mehnat jarayonida ishlab chiqarish resurslari va mehnat qurollaridan oqilona foydalanib, belgilangan vazifani bajarish va yuqori samaradorlikka erishishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui, ishlab chiqarishning eng ma'qul usullarni, zarur asbob-uskunalarni tanlash, turli ishlab chiqarish sohalarining mutanosib va uzluksiz ishlashini ta'minlash, ishlab chiqarish grafigining buzilishiga yo'l qo'ymaslik, korxonalar va sexlarda ishlab chiqarish estetikasi, sanitariyasi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi talablariga mos keladigan sharoitlarni yaratish va boshlarda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarishni tashkil etishdan maqsad korxonalar uchun ajratilgan moddiy, moliyaviy va mehnat imkoniyatlaridan mumkin qadar yaxshiroq foydalanish, eng yuqori moliyaviy natijalarga erishishdir.

Zamonaviy texnika – zamonaviy texnologiyaning va insoniyatning ajralmas bir qismiga aylanib borayotgan internetning jamiyat ongiga salbiy va ijobiy ta'siri, oqibatlar va uning ta'siri nimaga bog'liqligi, kiber jinoyatlar, va virtual do'stlar haqida ma'lumotlar yozilgan, internetning ijobiy va salbiy natijalarining solishtirmalari haqida ham aytib o'tilgan.

Logistika – ushbu tushuncha yunonchadan olingan bo'lib, hisoblash, muhokama san'ati deyiladi. Logistikaning asl maqsadi kam harajat qilib, ko'p foyda olish va yetarli natijaga erishishdir.

Ta'minot zanjiri – bu kompaniyaga ishlab chiqarish maqsadlariga erishishda yordam berish bilan shug'ullanadigan korxonalar yoki shaxslar tarmog'i. Aslida, bu mahsulotlarni ishlab chiqarish va keyin ularni mijozlarga yetkazib berish jarayonida ishtirok etadigan har bir kishi va hamma narsa. Samarali ta'minot zanjiri bu barcha mavjud resurslardan maqbul foydalanish hisoblanadi, masalan:

- Jismoniy komponentlar.
- Texnologiya.
- Moliya.
- Inson resurslari.

Ushbu qismda biz kichik biznesning ta'minot zanjirlarida samaradorlik (efficiency) va samaradorlik (effectiveness) ni qanday oshirishni va sizning biznesingiz bunday o'zgarishlarni amalga oshirishdan qanday foyda olishini o'rganamiz.

Samaradorlik (Efficiency) va Samaradorlik (Effectiveness)

Oddiy qilib aytganda, ta'minot zanjirini boshqarish sizning biznesingiz logistikasini qanchalik yaxshi boshqarayotganingizga bog'liq. Bu ikkita asosiy maqsadga bo'linadi: samaradorlik va samaradorlik; va ular o'xshash bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ular ta'minot zanjiri kontekstida ikkita butunlay boshqacha narsadir.

Samaradorlik (Efficiency) - sizning resurslaringizdan foydalanish usuli bilan bog'liq; ular qanchalik yaxshi tashkil etilgan; ular qanday ishlatiladi; ular ishlatilganda va sizning jamoangiz ulardan qayerda foydalanish haqida.

Samaradorlik (Effectiveness) - bu sizning ishlab chiqarish oqimlaringiz, masalan, mijozlar ehtiyojini qondirish kabi kerakli natijalarni qanday ishlab chiqarishi haqida.

Mukammal muvozanat sizning biznesingiz ikkala idealga erishishi va zanjirdagi har bir kishining kutganidan yuqori yoki yuqori bo'lishi mumkin bo'lganda keladi. Bu ikki o'xshash tushunchalarni sizning ta'minot zanjiringiz samarali (efficient) bo'lishi mumkin, ammo samarali (effective) emas, yoki samarali (effective), ammo samarali (efficient) emas. Misol uchun, sizning logistikangiz ta'minot zanjiri ichida samarali ishlashi uchun o'rnatilganligini ta'minlagan bo'lishingiz mumkin, bu erda sizning mahsulotlaringiz tezda ishlab chiqariladi va mijozlarga yetkazib beriladi, ammo bu ushbu mahsulotlarning mijozning talablariga javob beradigan holatga kelishini ta'minlash bilan bir xil emas. Boshqa tomondan, agar siz doimo mijozlarning talablariga javob beradigan izchil, yuqori sifatli xizmat yoki mahsulotni taqdim

qilsangiz, u holda sizning ta'minot zanjiringiz samarali (effective) deb hisoblanadi, ammo yana bu uning samaradorligini (efficient) anglatmaydi.

Samarali (efficient) ta'minot zanjiri ishlab chiqarishning har bir jihati siz xohlagan tarzda amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha ichki tuzilmalaringizni ko'rib chiqishni talab qiladi. Samarali (effective) ta'minot zanjiri yetkazib beruvchining cheklovlari va mijozlaringiz tomonidan sizga qo'yiladigan talab kabi tashqi omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Agar siz o'zingizning biznesingiz **samarali (efficient) vs samarali (effective)** ishlashini ta'minlamoqchi bo'lsangiz, demak, siz resurslarni ta'minlashingiz zarur misol uchun bu yo'lda, vaqt va kapitalni foydalanilishi, ham talofatni qisqartiradi, ham xatolarni kamaytiradi. Bundan tashqari, siz har qanday tashqi aloqa nuqtalari, shu jumladan etkazib beruvchilar va mijozlar bilan doimiy muloqotda bo'lishingiz juda muhimdir.

Agar siz logistika bilan to'g'ri ishlayotgan bo'lsangiz va **samarali (efficient) vs samarali (effective)** ta'minot zanjirini birlashtirgan bo'lsangiz, u holda sizning biznesingiz moliyaviy muvaffaqiyatga erishish va mijozlarni ham xursand qilish uchun eng yaxshi shaklda ekanligini his qilish va asoslash kerak. Biroq, har doim logistikangizning yuqori qismida bo'lishingiz kerak bo'lgan boshqa yaxshi sabablar ham bor, masalan:

- Yetkazib beruvchilar ishlab chiqarish materiallarini qaytarishni minimallashtirishni xohlashadi.
- Agar "to'g'ri vaqt logistikasi" model bilan ishlayotgan bo'lsa, bu sizga yetkazib beruvchilarga jadval bo'yicha to'lash imkoniyatini beradi, sizning foydangizga ishlaydi, shuning uchun pul oqimini yaxshilaydi.
- Mijozlar o'z haridlarini ularga mos keladigan vaqt jadvalida bo'lishini kutishadi va siz o'zingizni bu vaqtda yetkazib berish uchun ajoyib holatga keltirasiz, sifat jihatdan hech qanday pasayishsiz.

Masalan, buyurtma qilingan ish yuritish buyumlarini ishlab chiqaradigan kichik biznes sifatida siz tayyor mahsulotni yetkazib berishingiz mumkin. Yoki siz, masalan, avtomobillar kabi yirik mashinalar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchisi sifatida ta'minot zanjirida boshqa rol o'ynashingiz mumkin. Biroq, ta'minot zanjirida qayerda bo'lsangiz ham, oxir-oqibat sizda yetkazib beruvchilar va mijozlar bor, ikkalasi ham muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi munosabatlarni saqlab qolishingiz kerak.

Xulosa va takliflar. Fikrimizcha, kichik biznes faoliyatida ta'minot zanjirlarini boshqarishda quyidagi nazariy tamoyillar asosida aniqlash mumkin.

1. Ta'minot zanjirlarining mohiyatidan foydalangan holda uning barqaror va uzluksizligini ta'minlash.
2. Kichik biznesni rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda logistik tizim elementlarini hisobga olish masalalari bilan uyg'unlashtirish.
3. Ta'minot yetkazib beruvchilar bilan online platformalar tashkil qilish.
4. Ta'minot zanjirlarini boshqarishda ta'minot zanjiri ekotizimidan foydalanishni takomillashtirish.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 15 noyabrdagi "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-366-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-6663044>
2. Anderson, D. L., Copacino, W. C., Lee, H. L., & Starr, C. E. (2003). *Creating and Sustaining the High-Performance Business: Research and Insights on the Role of Supply Chain Mastery*. Retrieved August 8, 2013
3. Coyle, J. J., Langley, C. J., Novack, R. A., & Gibson, B. J. (2013) *Supply Chain Management: A Logistics Perspective*. Mason, OH: South-Western Cengage Learning.

4. Wisner, P. (2011) Linking supply chain performance to a firm's financial performance. *Supply Chain Management Review*. Retrieved August 20, 2013
5. Tadqiqot natijasida muallif ishlanmasi.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN THE MARKET OF EDUCATIONAL SERVICES

Imomov Xolmurod Norqul ugli

Samarkand Institute of Economics and Service

Independent researcher

Abstract. In this article, today's educational services in our country and its opportunities, issues of development of the market of educational services, theoretical approaches to the development of public-private partnership in the market of educational services have been highlighted by the author, in addition, suggestions and recommendations for the development of public-private partnership developed.

Keywords: educational services, social development, service sector, public-private partnership relations.

TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Imomov Xolmurod Norqul o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim xizmatlari va uning imkoniyatlari, ta'lim xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari, ta'lim xizmatlari bozorida davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning nazariy yondashuvlari muallif tomonidan yoritib berilgan, qolaversa, davlat xususiy sherikligini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmatlari, ijtimoiy taraqqiyot, xizmatlar sohasi, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N13>

Kirish. Ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida inson rivojlanishining bosh maqsadi ularning farovonligini ta'minlash, sog'lom va ijodkor hayot kechirish uchun zarur bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamda ekologik muhitni shakllantirishdan iboratdir. Inson rivojlanishi konsepsiyasida ta'lim asosiy tarkibiy qismlardan biri sifatida e'tirof etiladi va jamiyatning asosiy muammolarini hal etishda muhim o'rin tutadi. Insoniyat taraqqiyotida ta'lim va ilm-fanning yuksak darajada rivojlanishi ijtimoiy, texnik va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi.

Iqtisodiyot nazariyasida ta'lim xizmatlari tushunchasi doim munozarali masala bo'lib kelgan. Iqtisodiyot fanlari ta'lim xizmatlari bozorining mohiyatini aniqlovchi xususiyatlar, segmentlar, marketing tadqiqotlari va boshqa masalalarni o'rganib kelmoqda. Biroq ta'lim xizmatlari bozorini yaxlit tavsiflaydigan tadqiqotlar kam uchraydi. Bu esa ta'lim xizmatlari bozori haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish va uning kategoriyasi sifatida tushunchasini aniq shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ta'lim xizmatlari bozori ta'lim xizmatlarini ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarida xizmat ko'rsatuvchilar, iste'molchilar va vositachilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Ta'lim xizmatlari bozorining mohiyati shundaki, bunda bilim, mahorat, tajriba va qobiliyat shaklidagi intellektual resurslar taklif etiladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu o'zgarishlar ishlab chiqarishning globallashuvi, kapitalning xalqaro miqyosda tarqalishi, mintaqalar va davlatlar o'rtasidagi raqobat kuchayishi hamda hamkorlik munosabatlarining rivojlanishi natijasida shakllanayotgan zamonaviy iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liqdir. Shu sababli, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida ko'plab davlatlar, shu jumladan, mamlakatimizda ham davlat-xususiy sherikligi (DXSh) kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 10 maydagi O'RQ-537-son "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" [1]gi Qonunining qabul qilinishining mamlakatimizda davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'rtasida iqtisodiy faoliyatning turli xil yo'nalishlarida munosabatlarni rivojlantirish va tartibga solishni nazarda tutadi. Mazkur qonunning asosiy maqsadi – davlat-xususiy sheriklik, shu jumladan konsessiyalar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim xizmatlari bozorida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga oid nazariy yondashuvlarni o'rganish maqsadida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlar tahlil qilindi, tavsiflovchi usullardan foydalanildi va ilmiy ekspeditsiya amalga oshirildi.

Mavzuning o'rganilganligi. Tadqiqot jarayonida «davlat-xususiy sheriklik» kategoriyasini tadqiq etish asosida davlat va xususiy tadbirkorlik o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlarini tashkil etish orqali, ushbu tushunchaning iqtisodiy mazmunini aniqlashni zarurat etadi.

Jahonning yuzdan ortiq davlatlarida DXSh qo'llanilmoqda: rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Yaponiya va boshqalar); Markaziy va Lotin Amerikasida (Meksika, Argentina, Braziliya va boshqalar); Osiyo, Avstraliya va Okeaniyada (Xitoy, Koreya Respublikasi, Tayvan, OPEK davlatlari va boshqalar); Sharqiy Yevropada; MDHda (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog'iston, O'zbekiston, Moldaviya, Armaniston); Afrikada (Madagaskar, Kamerun, Zambiya) qo'llanilmoqda [2].

DXShning konseptual asoslari J.M.Keyns [3] asarlarida keltirilgan bo'lib, bunda pul-kredit siyosati, xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish orqali uy xo'jaliklari daromadlarining eng tez o'sishiga erishish mumkinligi asoslab berilgan. Keyin «farovon davlat» nazariyasi paydo bo'ldi, uning asoschilaridan biri Dj.K.Gelbreyt hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotlarning keyingi rivojlanishi K.R.Makkonnell va St.L.Bryularning asarlarida keltirilgan. Ularning fikricha, raqobat muhitining shakllanishi uchun davlatning beshta iqtisodiy funksiyasidan foydalanish mumkin:

- 1) ijtimoiy muhit va qonunchilik asosini qo'llab-quvvatlash;
- 2) keskin raqobatni ta'minlash;
- 3) foyda va moddiy ne'matlarni taqsimlash;
- 4) resurslar taqsimlanishini nazorat qilish;
- 5) iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash [4].

Ushbu konseptual asoslarni hisobga olgan holda davlat va xususiy tadbirkorlikning hamkorlik munosabatlari shakllanishining ustuvor yo'nalishlari asoslanadi. Bunda davlat iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatining erkinligiga kafolat sifatida namoyon bo'ladi [5].

Tadbirkorlar o'z iqtisodiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish orqali maksimal foyda olishni maqsad qiladilar, bu esa davlatni ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga muhtoj qiladi. Shu sababli, davlat xususiy tadbirkorlikdan moliyaviy mablag'larni jalb qilishga majbur bo'ladi. Bu jarayonda davlatning faoliyat samaradorligi muhim rol o'ynaydi, chunki qo'shma loyihalarni amalga oshirishda xususiy tadbirkorlikni jalb qilish zarur.

Bunday hamkorlik tadbirkorlikning barqaror daromad olishiga va iqtisodiyotning ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlik qilish imkoniyatini yaratadi.

“Davlat-xususiy sherikchilik” tushunchasi esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikka asoslanganligi bilan alohida ta'kidlanishi kerak, bu mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinishi lozim.

O.A.Romanovanning fikricha [6], DXSh – bu muhim loyihalarni realizatsiya qilish maqsadlarida davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro manfaatli ittifoqdir. Bunda davlat xususiy biznes bilan ittifoq tuzib, nafaqat byudjet yakunini kamaytiradi, balki samarali loyihalarni boshqarish tizimini ham o'ziga oladi, biznes esa muayyan kafolatlar va imtiyozlar to'plamiga ega bo'ladi.

Ba'zi adabiyotlarda: DXSh – bu davlat va xususiy shaxslar o'rtasidagi uzoq vaqt davomida har qanday rasmiy munosabatlar bo'lib, unda ikkala tomon ham fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida aniq maqsadlarga erishish uchun resurslarni birgalikda investitsiya qilishidir.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining boshqa shakllaridan ajratib turadigan turli xil alohida xususiyatlari mavjud bo'lib, ular Rossiya Federatsiyasi Fanlar akademiyasining jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va qo'yidagilardan iborat [7]:

- uzoq muddatli shartnomalar (10 yildan 20 yilgacha, konsessiyada – 50 yilgacha);
- qo'shma moliyalashtirish orqali loyihalarni moliyalashtirishning o'ziga xos shakllari;
- keskin raqobat sharoitida hamkorlikni davom ettirish;
- sheriklar o'rtasida mas'uliyatni taqsimlashning o'ziga xos shakllari: davlat loyihalarni amalga oshirishni nazorat qiladi, xususiy sherik esa loyihani moliyalashtirishni o'z zimmasiga oladi;
- shartnoma bo'yicha tomonlar o'rtasida risklarni taqsimlash.

Shuningdek, IHTT DXShni tavsiflovchi oltita belgini ajratib ko'rsatadi:

1. Sheriklik ishtirokchilari ham davlat, ham xususiy sektor vakillari bo'lishi kerak.
2. DXSh ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi qonuniy asosga ega bo'lishi kerak.
3. DXSh ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi o'zaro teng munosabatlar asosida tashkil etilishi kerak.
4. DXSh ishtirokchilari yagona maqsadga va davlat manfaatlariga ega bo'lishi zarur.
5. DXSh ishtirokchilari qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'z harakatlarini yo'naltirishi zarur.
6. DXSh ishtirokchilari risklar va harajatlarni qayta taqsimlashlari kerak.

Ta'kidlash lozimki, DXSh mexanizmini shakllantirishda davlatning asosiy vazifalaridan biri — bu xususiy sektor bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Bu jarayon xususiy sektorga maksimal foyda olish imkonini beradigan DXShning o'ziga xos jihatlariga asoslanadi.


Davlat boshqaruvning yangi tushunchasiga o'tish J.Per va J.G.Peters tomonidan shakllantirilgan bo'lib, ular boshqaruvni transformatsiyalashuvining asosiy sabablarini ifodalovchi qo'yidagi omillarni tasniflaydilar:

- ustuvorliklar o'zgaradi: siyosiy faoliyatdan bozorga o'tish sodir bo'ldi;
- iqtisodiy inqirozlar davlatni strategik rejalashtirish bilan shug'ullanishga undaydi;
- siyosiy va iqtisodiy globallashtirish makrodarajada davlat boshqaruvi, ijtimoiy institutlar tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi;
- jamiyat muammolarini hal qilishda xususiy sektorni jalb qilish o'smoqda. Davlat bir o'zi jamiyat ehtiyojlarini to'liq qondirishga qodir bo'lmaydi;

- yangi davlat boshqaruvi g'oyasi (new public management) an'anaviy boshqaruvdan farqli o'laroq, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv uslubi rivojlanmoqda;
- boshqaruvda fuqarolarning ishtiroki va atrof-muhit muhit muammolariga qiziqishning ortishiga ustuvorlik beriladi;
- milliy institutlarning roli o'sadi va ko'p darajali boshqaruvga qiziqish ortadi;
- siyosiy jarayonlarda yangi ishtirokchilarning ta'siri kuchayadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va yondashuvlarga asoslanib, davlat-xususiy sherikligi kategoriyasining iqtisodiy mazmunini aniqlash uchun ta'rif ishlab chiqdik. Fikrimizcha, **davlat-xususiy sherikligi** — bu o'zaro manfaatli shartlar asosida davlat va ijtimoiy mulk obyektlari, shuningdek, turli ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida belgilangan muddatga qonuniy rasmiylashtirilgan, resurslarni birlashtirish va risklarni taqsimlash orqali ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun davlat va biznesning o'rta va uzoq muddatli hamkorligini ta'minlaydigan shakllar to'plamidir.

Davlat va xususiy biznes hamkorligi o'rtasida amalga oshiriladigan hamkorlikning asosiy xususiyatlari 1-rasmda keltirilgan. Ushbu hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun siyosiy iroda, tegishli huquqiy va me'yoriy bazaning mavjudligi, xususiy kompaniyalarni texnologik, sarmoyaviy va moliyaviy imkoniyatlar yaratishga qiziqtiradigan loyihalarning doimiy kafolatlanganligi, DXSh loyihalarini boshqarish uchun institutsional salohiyatning mavjud bo'lishi zarur.



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklikning asosiy xususiyatlari

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi fikrlarga asoslanib, ilmiy yondashuvlarning nazariy asoslari davlat-xususiy sheriklikning asosiy xususiyatlarini tizimlashtirish imkonini beradi. Ular quyidagilardan iborat:

- **DXSh** — davlat va xususiy biznes subyektlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-iqtisodiy (boshqaruv) munosabatlarining maxsus tizimi orqali shakllanadigan, faoliyat yuritadigan va rivojlanadigan institutsional va tashkiliy hamkorlik;

- **DXSh ishtirokchilari** o'rtasidagi hamkorlik sheriklik va tenglik xususiyatlariga ega bo'lib, u davlatning sa'y-harakatlari va xususiy sektor resurslarining kombinatsiyasiga asoslanadi;

- **moliyaviy risklar, xarajatlar va DXShda erishilgan natijalar** tomonlar o'rtasida tegishli bitimlar va shartnomalarda qayd etilgan kelishuvlarga muvofiq mutanosib ravishda taqsimlanadi;

- **DXSh** — davlat va xususiy sektorning uzoq muddatli va o'zaro manfaatlar asosida moddiy ne'matlarni yaratish yoki davlat xizmatlarini ko'rsatish (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalar) uchun moddiy va nomoddiy resurslarini birlashtiradi;

- **hamkorlikning institutsional asosini** davlat va tadbirkorlik zimmasiga majburiyatlarni yuklovchi shartnoma tashkil etadi.

Davlat-xususiy sheriklikning ushbu asosiy belgilari, amalga oshirish ko'lamidan qat'i nazar, uning barcha loyihalari, shu jumladan oliy ta'lim muassasalari ishtirokidagi loyihalari uchun o'zaro bog'liqdir. Ular bir tomondan davlat va oliy ta'lim muassasalari (OTM) hamda ikkinchi tomondan biznes o'rtasidagi har qanday o'zaro munosabatlarga xos emas. Shunga ko'ra, DXSh maqsadlari doirasi va nomlari sanab o'tilgan ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik sohalari ancha torroq, degan xulosaga kelish mantiqan to'g'ri keladi. Uning mazmuni tadqiqot ishida qo'yilgan vazifalarni, ya'ni oliy ta'limni rivojlantirishda DXSh talabi va rolini aniqlash, uning loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning zamonaviy amaliyotini baholashni izchil hal qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha, ushbu funktsiya muhim bo'lishiga qaramay, yagona hisoblanmaydi. Davlat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish sharoitida mahsulot, texnologik va tashkiliy innovatsiyalarni tadbiiq etish, shu bilan birga, alohida dolzarb qilib, konsalting va injiniring xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa funktsiyalarni keltirish mumkin.

Shu sababli, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga bo'lgan talabning tizimli tavsifini quyidagi nazariy tamoyillar asosida aniqlash mumkin:

1. **OTM ijtimoiy-iqtisodiy tizimning** quyi tizimlaridan biridir. Shunga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida uning ishtirokini belgilovchi ehtiyojlar ham tizimli, ham quyi tizim (oliy ta'lim muassasasi) darajasida shakllanadi.

2. **Davlat organlarining dasturiy hujjatlarida** aks ettirilgan hududdagi oliy ta'lim faoliyati bilan bog'liq inson kapitalini rivojlantirish, hudud innovatsion salohiyatini oshirish va iqtisodiyotning global darajada integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadlari, iqtisodiy o'sishni ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

3. **Oliy ta'limning davlat-xususiy sheriklikda** ishtirok etishga bo'lgan ehtiyoji tizimli va quyi tizim darajasida shakllangani sababli, DXSh loyihalarini amalga oshirish sohasi OTMlarining ichki va tashqi muhiti hisoblanadi.

4. **Quyi tizim darajasining ehtiyojlarini aniqlash** uchun hududdagi oliy ta'limning hozirgi holatini tahlil qilish zarur, bu esa, uni rivojlantirishdagi asosiy muammolarini diagnostika qilish imkonini beradi.

5. **Tizim darajasining ehtiyojlarini aniqlash** uchun hududdagi oliy ta'limning tashqi muhitini tahlil qilish zarur.

Ushbu yondashuv O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan taqdim etilgan oliy ta'lim rivojlanishining tendensiyalarini aks ettiruvchi statistik ko'rsatkichlar, inson kapitalini rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotga o'tish va uning raqobatbardoshligini oshirishga oid ma'lumotlar hamda hududdagi oliy ta'lim, davlat va biznes o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni baholovchi ekspert fikrlarini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 10 майдаги ЎРҚ-537-сон «Давлат-хусусий шериклик тўғрисида»ги Қонуни. <https://lex.uz/docs/4329270>
2. Попов Е. Частник – выгодный партнер / Е.Попова // Парламентская газета. – 2007. – 21 июнь.
3. Кейнс Дж. Общая теория занятости, процента и денег. Антология экономической классики. Т. 2. / Пер. англ. – М.: Экономика, 1992.
4. Макконнелл Кэмбелл Р., Брю Стенли Л. Экономика: Принципы, проблемы и политика. Т. 2. / Пер. с англ. -М.: Республика, 1992. - С. 200.
5. Кукура С.П. Теория корпоративного управления/ С.П.Кукура - М.: Экономика, 2004. - С. 105.
6. Романова О.А. Теория и практика развития частно-государственного партнерства/ О.А. Романова // Вестник Уральского государственного технического университета. - 2007. - № 3. - С. 41.
7. Государство и бизнес: институциональные аспекты. - М.: ИМЭМО РАН, 2006. - С. 40.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS FOR FINANCING INNOVATIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES

Atamuradov Sherzod Akramovich

Associate Professor of Navoi State University
of Mining and Technologies

E-mail: sher_zod@inbox.ru

Samadov Salokhiddin Ismatovich

Executive Director of the Public Works Fund under the Ministry of Employment and Labor
Relations of the Republic of Uzbekistan

Independent researcher at the Navoi State Mining and Technological University

E-mail: info@jamoat.uz

Abstract. The article provides information on the theoretical and methodological foundations of financing innovative entrepreneurial activity, as well as detailed definitions of innovative processes and concepts of innovative activity.

Key words: entrepreneurial activity, innovation, innovation activity, know-how, commercialization of innovations, intellectual property, modernization, invention.

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ- УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

Атамурадов Шерзод Акрамович

Навоий давлат кончилиги ва технологиялар
университети доценти

Самадов Салохиддин Исматович

Ўзбекистон Республикаси
Бандлик ва Меҳнат муносабатлари вазирлиги
хузуридаги Жамоат ишлари жамғармаси ижрочи директори
Навоий давлат кончилиги ва
технологиялар университети мустақил изланувчиси

Аннотация: Мақолада инновацион тадбиркорлик фаолиятини молиялаштиришнинг назарий-услубий асослари бўйича маълумотлар келтирилган, шунингдек, инновацион жараёнлар, инновацион фаолият тушунчаларига батафсил таърифлар берилган. Шунингдек, инновация ҳаёт циклининг асосий босқичлари келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: тадбиркорлик фаолияти, инновация, инновацион фаолият, ноу-хау, инновацияларни тижоратлаштириш, интеллектуал мулк, модернизация, ихтиро.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N14>

Кириш. Ривожланган давлатларнинг тажрибаси шуни кўрсатадики, мамлакат иқтисодиёти ва жамият тараққиёти кўп жиҳатдан инновацион фаолиятни жорий этишга йўналтирилган ислохотларга боғлиқдир. Шунинг учун, миллий иқтисодиёт самарадорлиги инновацион технологиялар ва ихтироларни ишлаб чиқаришга жорий этиш орқали оширилади. Ҳозирги кунда инновациялар ҳар бир мамлакат иқтисодиётининг муҳим таркибий қисмига айланиб, юқорида келтирилган фикрни қўллаб-қувватлайди.

Мамлакатимизда илм-фанни ривожлантириш бўйича олиб борилаётган ислохотлар натижасида давлат илмий-техника дастурларини мамлакат иқтисодиёти тармоқларининг энг долзарб масалаларини ечишга йўналтириш, илмий-техника лойиҳаларини экспертизадан ўтказишни бошқа давлатларда мавжуд бўлмаган – очиқ муҳокама тарзида ўтказиш, амалий тадқиқотлар ва инновация лойиҳаларини манфаатдор корхоналарнинг маблағларини жалб қилган ҳолда молиялаштириш каби механизмлар жорий қилинди[1].

Ҳозирги кунда инновация соҳасидаги ютуқларнинг аҳамиятини ошириш, шунингдек, мазкур соҳанинг ҳуқуқий ва назарий асосларини янада такомиллаштириш кун тартибидаги муҳим масалалардан бири сифатида қаралмоқда.

Шунингдек, инновация фаолияти, яъни илмий тадқиқотлар, тажриба-конструкторлик ишлари, янги қурилмалар, усуллар ва моддаларни яратиш ва улардан фойдаланиш, мавжуд қурилма ва усулларни янги йўсинда қўллаш мақсадида интеллектуал фаолиятнинг тан олинган натижаларини (патент, гувоҳнома, ноу-хау) яратиш ва фойдаланишга йўналтириш билан боғлиқ муносабатларни ҳуқуқий ва назарий тартибга солиш тизимини яратиш бугунги кунда муҳим аҳамиятга эга.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Б.Сантонинг фикрига кўра, инновация - бу юқори сифатли технологиялар яратилдиган техник, ижтимоий-иқтисодий жараён. Л.А.Баев ва Э.В.Шугуров фикрига кўра, “инновация” тушунчасини аниқлашда қуйидаги ёндашувлар мавжуд:

Объектга кўра ёндашувга асосан, илмий-техник тараққиётнинг натижаси - янги техника ва технология - инновациялар бўлиб хизмат қилади. Объект мезони қуйидагиларни алоҳида ажратиш кўрсатиш имконини беради:

базис инновациялар - йирик ихтироларни амалга оширишдан иборат, технологияларнинг янги авлодини яратишга сабаб бўлган инновациялар;

такомиллаштирувчи инновациялар, яъни илмий-технологик циклнинг барқарор ривожланиши босқичида кўп учрайдиган кичик ихтироларни амалга оширувчи инновациялар;

сохта инновациялар (рационализаторлик инновациялар) техника ва технологияларнинг эскирган авлодларини қисман такомиллаштиришга йўналтирилган бўлиб, одатда техник тараққиёт секинлашишига олиб келадилар, чунки улар жамиятга ҳеч қандай самара бермайди ёки салбий таъсир кўрсатади.

Объект-нафлилик ёндашувига кўра, инновация янги илмий-техник ютуқларни жорий этиш асосида ишлаб чиқарилган янги истеъмол қиймати сифатида таърифланади. Бу ерда инновациянинг нафлилик вазифаси устунлик қилади - жамиятнинг юқори нафлиликка эга бўлган эҳтиёжларини қондириш қобилияти.

Жараён-нафлилик ёндашуви доирасида объект-нафлилик ёндашувдан фарқли ўлароқ, “инновация” категориясига янги амалий воситани барпо этиш, тарқатиш ва қўллашнинг яхлит жараёни сифатида қаралади.

Жараён-молиявий ёндашув нуқтаи назаридан, инновация - бу янгиликларга сармоя киритиш, янги асбоб-ускуналар, технологиялар ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш учун молиявий ресурсларни инвестициялаш жараёни[4, 32-6].

И.Абдурахмоновнинг фикрига кўра, “Илм маблағга айланса, ана шу инновация” деб таърифлайди [7, 22-б].

Шу тариқа, “инновация” тушунчаси кўпинча тадқиқотчининг аниқ мақсади билан аниқланади. Ҳар қандай янгилик, ҳаттоки унчалик илғор бўлмаса ҳам, инновация сифатида назарда тутилишини мумкин.

Адабиётларда келтирилган “инновация” тушунчасининг турли таърифларига кўра, у янги ёки такомиллаштирилган маҳсулот ёки технологик жараён сифатида танилган ва инновацион фаолият самараси, бозорга кириш ва ишлаб чиқарилган товарлар ёки хизматларнинг сифатини ўзгаришини таъминлашга хизмат қилади (1-жадвал).

1-жадвалдаги маълумотлар инновацияларни тавсифлашда муаллифларнинг маҳсулот ёки хизматнинг такрор ишлаб чиқариши ва бозор жиҳатларига эмас, балки сифат-технологик ўзгаришларига асосий эътибор қаратадиганини кўрсатади. Эволюцион ёндашув инновацион жараённинг узлуксизлигини таҳлил қилишга қаратилган, ҳар бир инновациянинг иқтисодий мазмуни эса фақат иқтисодийнинг “инновацион сектори” нуқтаи назаридан кўриб чиқилади. Шунингдек, ишлаб чиқариш омилларининг янги бирикмаси ва ундан келиб чиқувчи товарлар ва хизматлар бозори таркибидаги сифатли ўзгаришлар инновацион жараёнларнинг аниқ кўриниши ҳисобланади.

1-жадвал.

Инновация категориясининг таърифларини таққослама таҳлили [12]

<i>Муаллиф</i>	<i>Таъриф</i>
<i>Пригожин А.И.</i>	Ташкилотлардаги янгиликлар кўриб чиқилган, улар янги барқарорлаштирувчи таркибий қисмларга киритилган маълум мақсадли ўзгаришлар деб тавсифланган (мақсадлари, технологиялари, тартиби ва бошқалар).
<i>Зуб А.Т.</i>	Инновацияни ташкилотда кейинчалик қўлланиладиган инновацион ғоялар, концепциялар ишлаб чиқиш жараёни сифатида белгилайди. Шу билан бирга, ўзгаришлар деганда шарт-шароитлар ўзгариши билан боғлиқ иш усулларидаги тезкор ва чуқур ўзгаришлар жараёни деб тушунтиради.
<i>Асайл А.Н., Карпов Б.М., Перевязкин В.Б., Старовойтов М.К.</i>	Муаллифлар инновацияларни илмий-техник тараққиётнинг ўзига хос намоиши, янгилик элементларига хос бўлган, бозор талабини қондирадиган, самара келтирадиган маҳсулот ёки хизматларни ишлаб чиқаришни таъминлаш қобилиятига эга технологик жараён, янги ёки модернизациялашган маҳсулот шаклидаги ижодий фаолият натижасидир.
<i>Орлов Л.И.</i>	Инновация тушунчасини янгилик ва ўзгариш тушунчаларига яқин деб ҳисоблайди. Инновацияни қарор қабул қилиш натижаси сифатида белгилайди. У турли хил ечимлар - мос равишда илмий-техник ва ташкилий ечимларга асосланган илмий-техник ва бошқарув инновацияларга кўпроқ эътибор беради.
<i>Молчанов Н.И.</i>	Инновацияни янги маҳсулот ёки хизмат сифатида, уларни ишлаб чиқариш усули, турли соҳалардаги янгиликлар - ташкилий, илмий-тадқиқот, молиявий ва бошқалар сифатида белгилайди. Инновацияни харажатларни тежамкорлигига ёки ушбу тежалишга шарт-шароитлар яратадиган ҳар қандай такомиллашув сифатида тушунади.

<i>Громеко В.И.</i>	Инновация деганда илмий ғоя ёки ихтиронинг иқтисодий самара берадиган амалий қўллаш босқичига олиб чиқилишини таъминлайдиган жараён тушунилади.
<i>Никсон Ф.</i>	Инновацияга янги ёки такомиллаштирилган саноат жараёнлар ва ускуналарни бозорда пайдо бўлишига олиб келадиган турли хил чора-тадбирларнинг (техник, ишлаб чиқариш, тижорат характерга эга) йиғиндиси сифатида таъриф беради.
<i>Санто Б.</i>	У инновацияни ижтимоий-иқтисодий жараён деб ҳисоблайди ва ихтиролар, ғояларни амалда қўллаш орқали такомиллаштирилган маҳсулотлар ва технологияларни яратишга олиб келади деб изоҳ беради. Баъзи ҳолларда (инновация фойдага, иқтисодий самарага йўналтирилган бўлса) унинг бозорга чиқиши қўшимча даромад келтириши мумкин.
<i>Шумпетер И.</i>	У инновацияни тадбиркорлик қобилиятига асосланган ишлаб чиқариш омилларининг янги илмий-ташкилий комбинацияси сифатида белгилайди.
<i>Морозов Ю.П.</i>	У иқтисодий самарага кўпроқ эътиборни қаратади ва инновацияларни янги технологиялар, маҳсулотлар, ижтимоий-иқтисодий, технологик ва ташкилий қарорлар шаклидаги янгиликларни самарали қўллаш сифатида белгилайди.
<i>Завлин П.Н., Казанцев А.К., Миндели Л.Э.</i>	Ишлаб чиқариш жараёни ва/ёки унинг натижаларини такомиллаштиришга қаратилган интеллектуал, биринчи навбатда, илмий-техник фаолият натижаларидан фойдаланиш инновация деб ҳисобланади.
<i>Аллен Ж.А.</i>	У инновацияларни янги маҳсулотлар, хизматлар, жараёнлар ёки хулқ усуллари жорий этилиши ва оммавий истеъмол қилиниши деб ҳисоблайди.
<i>Павитт К., Уолкер В.</i>	Инновация деганда янги ёки такомиллаштирилган маҳсулот ёки технологик жараённи бозорга чиқаришга қаратилган ҳаракатлар (техник, саноат ва савдо ҳаракатлари) мажмуи тушунилади.
<i>Твисс Б.</i>	Иқтисодий жиҳатларга эътиборни кўпроқ қаратади ва ихтиролар ёки янги ғоялар иқтисодий мазмунга эга бўлган жараённи инновация деб ҳисоблайди.
<i>И.Абдураҳмонов</i>	Ўзбекистонда кўплаб салоҳиятли олимлар, илмий ходимлар турли тадқиқот марказларда, институт ва университетларда фаолият олиб боради. “Уларда билим йўқ эмас, бор. Демак, аввало, пул берилган, сўнгра бу билимга айланди. Лекин шу билим ҳолатида турибди, агар биз билимни маблағга айлантиролсак, яъни knowledge based есоному десак, бу инновация бўлади

“Инновация” категориясининг турли талқин қилиниши, инновацион ҳодисаларнинг кўп қиррали табиати билан боғлиқ. Кенг маънода, “инновация” тушунчаси ишлаб чиқаришнинг технологик асосларини тубдан модернизациялаш натижасини акс эттиради. Бу янги таклиф бўлиши туфайли, биринчидан, маълум бир иқтисодий субъект учун юқори даражадаги ноаниқлик, иккинчидан, унинг ҳаётий цикли давомида узоқ муддатли самарага эришиш билан тавсифланади, яъни

инновацион жараённинг узлуксизлиги. Шунинг учун, инновация ўзига хослик ва доимийликни уйғунлаштиради.

“Инновация” ва “инновацион жараён” иқтисодий категориялари ўртасида ўхшашлик бўлса-да, улар бир хил эмас. Инновацион жараён — бу инновацияларни яратиш, ўзлаштириш ва тарқатиш каби босқичлар тўплами, яъни такрор ишлаб чиқарувчи инновация тизимининг зарурий таркибий қисми ҳисобланади.

Муҳокама ва натижалар. Янги билим ва технологияларга эга бўлиш, ижтимоий-иқтисодий ривожланишда улардан самарали фойдаланиш, давлатнинг жаҳон ҳамжамиятидаги ўрни ва роли, шунингдек, аҳолининг турмуш даражасини белгилаб беради.

Шу сабаб, давлатларнинг инновацион сиёсатини шакллантириш тажрибалари ва уларни амалга ошириш механизмларини ўрганиш, шунингдек, уларни Ўзбекистон шароитларига мослаштириш имкониятларини ҳам инobatга олиш долзарб аҳамиятга эга бўлиб бормоқда.

Давлат инновация сиёсати инновация фаолиятини ривожлантириш ва рағбатлантиришга йўналтирилган ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг таркибий қисми ҳисобланади. Иқтисодиётда янги ёки такомиллаштирилган технологик жараёнлар, илмий ишланмалар, тажриба лойиҳа ишлари ёки бошқа фан-техника ютуқлари амалиётга тадбиқ этилади. Бу маҳаллий маҳсулотнинг рақобатбардошлигини ошириш, барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, аҳолининг яшаш шароитини яхшилаш, шунингдек, мамлакатнинг мудофааси, технологик ва экологик хавфсизлигини таъминлаш учун инновация фаолияти устуворлигини тан олиш учун шакллантирилади ва амалга оширилади.

Бу жараён қуйидаги компонентлардан ташкил топади:

- маҳаллий маҳсулотнинг рақобатбардошлигини таъминлаш учун инновация фаолиятига экономик, ҳуқуқий ва ташкилий шарт-шароитларни яратиш, фан-техника натижаларидан самарали фойдаланиш ва ижтимоий-иқтисодий ривожланиш масалаларини ҳал қилиш;

- фан-техника салоҳиятини ривожлантириш, уни оқилона жойлаштириш ва самарали фойдаланиш, шунингдек, унинг тузилмасини шакллантириш;

- фан ва техниканинг мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда, муҳим ижтимоий вазифаларни тадқиқ этишда, моддий ишлаб чиқариш соҳасида илғор тузилмавий ўзгаришларни таъминлашдаги ҳиссасини, шунингдек, унинг самарадорлик ва рақобатбардошлик хусусиятларини ошириш;

- мамлакат мудофааси, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини ҳимоя қилиш.

Унинг қўйилган мақсадларга эришиш учун давлат инновация сиёсатининг қуйидаги вазифаларини ҳал қилиш муҳим:

- давлат инновация сиёсатининг устувор вазифаларини аниқлаш ва амалга ошириш;

- иқтисодиётда илғор тузилмавий ўзгаришларни таъминлаш;

- инновация фаолияти учун инфратузилмани яратиш ва ривожлантириш;

- маҳаллий инновация маҳсулотининг халқаро бозордаги мавқейини сақлаш ва ташқи иқтисодий инновация фаолиятини ривожлантириш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш;

- инновация фаолиятини ривожлантиришда илм-фан, таълим, ишлаб чиқариш ва молия-кредит соҳаларининг ўзаро ҳамкорлигини таъминлаш;

- иқтисодиётнинг халқ хўжалиги ва унинг тузилмавий балансини белгилаб берадиган бош йўналишларда ривожлантиришни барқарорлаштириш учун фан-техника салоҳиятидан самарали фойдаланишни таъминлаш.

Давлат органларининг инновация соҳасидаги асосий функцияларига шунларни киритиш мумкин:

- давлат инновация сиёсатини шакллантириш;
 - инноваторларнинг муаллифлик ҳуқуқлари ва интеллектуал мулкни ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий базасини яратиш;
 - инновацияларни ва ушбу соҳадаги рақобатни рағбатлантириш, инновационликни таваккал суғурталаш, ҳамда эскириб қолган маҳсулотларни чиқарганлик учун давлат санкцияларини жорий этиш;
 - инновация соҳасидаги инфратузилмани шакллантиришда иштирок этиш;
 - ижтимоий ва экологик йўналишларни ҳисобга олган ҳолда илм-фан, техника ва технологияларни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаш;
 - устувор илмий тадқиқотлар ва инновацияларга ресурслар ажратиш;
 - давлат тасарруфидаги ташкилотларда инновация жараёнларини институционал таъминлаш;
 - инновация ва илм-фан билан шуғулланувчи шахсларнинг ижтимоий мавқеини ошириш;
 - инновация соҳаси учун кадрлар тайёрлаш;
 - ҳудудларда инновация жараёнини йўлга қўйиш;
 - инновация жараёнларининг халқаро аспектларини ривожлантириш;
 - миллий инновацион тадбиркорлик манфаатларини ҳимоя қилиш.
- Давлат инновация сиёсатининг асосий тамойиллари:
- маҳаллий илмий салоҳиятга таяниш;
 - илмий ижод эркинлигини таъминлаш, илмий соҳани демократлаштириш ва илмий сиёсатни шакллантиришда ошкоралик;
 - фундаментал илмий тадқиқотларни ривожлантиришни рағбатлантириш;
 - утакчи маҳаллий илмий мактабларни сақлаб қолиш ва ривожлантириш;
 - илм-фан ва техника соҳасида соғлом рақобат ҳамда тадбиркорлик учун қулай шарт-шароит яратиш, инновация фаолиятини рағбатлантириш ва қўллаб-қувватлаш;
 - давлат мудофааси ҳамда миллий хавфсизликни таъминлаш мақсадида илмий тадқиқотлар ва ишланмаларни ташкил этиш учун шарт-шароит яратиш;
 - илм-фан ва таълим интеграциясини ривожлантириш, юқори малакали илмий кадрлар тайёрлашнинг яхлит тизимини яратиш;
 - тадқиқотчилар, ташкилотлар ва давлатнинг интеллектуал мулки ҳуқуқларини ҳимоя қилиш;
 - очик ахборотни тўсиқсиз олиш ва эркин ахборот алмашинуви ҳуқуқини таъминлаш;
 - мулкчиликнинг турли шаклларидаги илмий тадқиқот ва тажриба лойиҳалаш ташкилотларини ривожлантириш, кичик инновацион тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш;
 - илм-фан ютуқларидан кенг фойдаланиш учун иқтисодий шарт-шароитларни шакллантириш, мамлакат иқтисодиёти учун муҳим бўлган фан-техника ютуқларини тарғиб қилишга кўмаклашиш;
 - илмий иш нуфузини ошириш, олим ва мутахассисларнинг яшаши ҳамда ишлаши учун яхши шароитлар яратиш;
 - илм-фаннинг замонавий ютуқлари ва уларнинг аҳамиятини тарғиб қилиш.

Инновация сиёсатининг асослари давлатдаги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий вазиятга мос келадиган қонунчилик механизмларини қабул қилишдан бошланади. Бу механизмларда бошқарув субъектлари ва объектлари, уларнинг ҳуқуқ-мажбуриятлари ва масъулликлари аниқланади.

Давлат томонидан инновация фаолиятини бошқариш механизми барча манфаатдор томонларнинг фикрларини ҳисобга олиб, инновацияларни рағбатлантириш учун ҳамкорликда чора-тадбирларни амалга ошириш учун шарт-шароитларни яратиши лозим. Инновация сиёсатининг субъектлари сифатида давлат

ҳокимияти (марказий ва маҳаллий), давлат корхоналари ва ташкилотлар, мустақил ҳўжалик юритувчи тузилмалар, ижтимоий ташкилотлар, илмий ходимлар ва инноваторларнинг ўзи киритилади.

Саноат жиҳатидан ривожланган давлатларда ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) ўсишининг 80-95%и техника ва технологияларда мужассамлаштирилган янги билимлар ҳиссасига тўғри келмоқда. Миллий инновация тизимларининг яратилганлиги натижасида инновацион ривожланиш йўлига қадам қўйиш муваффақиятли амалга оширилди. АҚШдаги тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, миллий инновация тизимлари ХХ асрнинг муҳим ютуғи сифатида эътироф этилмоқда.

Иқтисодиётнинг шиддатли ривожланиши, капитал ва янги технологиялар бозорлари ўртасидаги мустаҳкам алоқалар, ижтимоий йўналишга эга янги технологияларнинг тобора ортиши, ҳамда билимлар, технологиялар, маҳсулот ва хизматларнинг кенг миқёсда яратилиши ва фойдаланилиши мамлакатнинг инновацион ривожланиши учун институционал асосларни яратишга ёрдам бериши. Глобал чақириқларга жавоб сифатида юзага келган бу жараёнларсиз бошланғич инновацияларни, инновация фаолиятининг субъект ва объектларини ягона тизимда уйғунлаштириш мумкин эмас.

МДҲ мамлакатларида (масалан, Украина, Беларусь, Қозоғистон) инновацион салоҳиятдан фойдаланиш механизми молиялаштириш масалалари ва инсон капитали, ишбилармонлик, тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш, интеллектуал мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва фан соҳасининг ривожланиш даражаси каби омилларга асосланади.

Шу билан бирга, мамлакатдаги инновацион салоҳиятдан фойдаланиш механизмларининг асосий камчилиги, инновацион фаолиятни амалга ошириш учун зарур бўлган тузилмага эга тизимли қонунчилик базасининг йўқлиги, давлат томонидан кўрсатилаётган ёрдам чораларининг етарли эмаслиги ва инновацион инфратузилма субъектлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорликнинг мавжуд эмаслиги ҳисобланади.

Миллий иқтисодиёт ва маҳсулот рақобатбардошлигини ривожлантириш, аҳолининг турмуш сифатини ошириш, ҳамда иқтисодиётнинг ривожланишини таъминлаш учун инновацион молиялаштириш механизмларини яратиш давлат ресурсларини тўплаш, инновацион молиялаштириш соҳасида иқтисодий хавфсизликни таъминлаш, шунингдек, инновацион молиялаштиришнинг талаблари ва натижалари тўғрисидаги ахборотни тўплаш ва уни оммалаштиришни ташкил этишдан иборат долзарб йўналишлар ҳисобланади. Давлат томонидан инновацион молиялаштириш соҳасини қўллаб-қувватлаш, қулай кредит, солиқ ва божхона сиёсати амалга ошириш, ҳамда халқаро ҳамкорликни фаоллаштиришга ёрдам беришни назарда тутиш зарур.

Хулоса ва таклифлар. Жаҳон тажрибасидан кўриш мумкинки, инновацион молиялаштиришга учун молиявий, бозор, техник ва баҳо каби бир қатор хатарлар хос. Соҳада ривожланиш ҳар қандай мамлакатнинг ялпи ички маҳсулот ҳажмининг ўсишига ижобий таъсир кўрсатади, бу эса жаҳон миқёсида инновацияларни қўллаб-қувватлашга бўлган катта эътиборни шартлаб қўяди. Таҳлил натижасида, инновацион молиялаштиришнинг таваккалчилик даражаси юқори экани, олдиндан даромад ёки зиённи аниқ кўриш имкони бўлмаган манбалар қаторида баҳоланиши аниқланди.

Инновацион молиялаштиришнинг назарий жиҳатлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

- инновацион молиялаштиришнинг иқтисодий моҳияти, мақсадлари ва вазифалари;
- инновацион молиялаштиришнинг предмети ва тадқиқот услублари;
- инновацион молиялаштиришнинг функциялари, тамойиллари ва ўзига хос хусусиятлари;

- инновацион молиялаштириш усуллари ва механизмлари;
- инновацион молиялаштиришнинг келиб чиқиши ва келажакка йўналтирилиши;
- инновацион молиялаштириш ривожланиш қонуниятлари;
- инновацион молиялаштиришни бошқариш ва назорат қилиш жараёнлари;
- инновацион молиялаштиришда рискларни аниқлаш ва баҳолаш;
- инновацион молиялаштириш сиёсати стратегияси ва тактикаси;
- инновацион молиялаштиришнинг турли бўғинлари;
- инновацион молиялаштиришда давлат бюджети, бюджетлараро трансфертлар, хўжалик субъектлари ва оила бюджетлари ўртасидаги уйғунлик ва фарқлар;
- инновацион молиялаштиришнинг молиявий ресурслар, давлат бюджети, корхоналар молияси ва оила бюджетларига таъсири;
- инновацион молиялаштиришнинг инвестицион муҳит ва хориждан келадиган пул оқимларига таъсири;
- инновацион молиялаштиришнинг молия бозорига таъсирини ўрганиш асосида ўқув-услубий қўлланмалар яратиш.

Шундан хулоса қилиш мумкинки, инновацион молиялаштириш соҳасида қўлланиладиган атамаларни ягона маънода тушуниш ва талқин қилиш учун аниқ тушунчалар ва меъёрларни ишлаб чиқиш жуда муҳимдир.

Хулоса қилиб айтганда, ҳозирги иқтисодий адабиётларда инновацион молиялаштириш тушунчасига ягона ёндашув мавжуд эмаслиги ва етарлича ёритилмаганлиги туфайли, мамлакатимиз манфаатлари, давлат сиёсатининг устувор йўналишлари ва инфратузилмаларига мос равишда инновацион молиялаштириш тушунчаси, унинг механизмлари, моҳияти ва иқтисодий мазмуни, объект ва субъектлари, ваколатлари, ҳуқуқ ва мажбуриятлари, фаолият турлари ҳамда муаммоларини назарий жиҳатдан тадқиқ қилиш ва назарий-услубий ишланмаларни ишлаб чиқиш зарур деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 майдаги “Фаол тадбиркорлик ва инновацион фаолиятни ривожлантириш учун шарт-шароитларни яратиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”гининг ПҚ-3697-сонли қарори.
2. Э.А.Уткин. Управление компаниями. Москва, 1997.-304 с.
3. Степанова И.П. Инновационный менеджмент. Учебник. 2014.
4. Л.Водачек, О.Водачкова. Стратегия управления инновациями на предприятии. Москва, Экономика, 1989.-167 с.
5. И.Н.Шумпетер Теория экономического развития. Москва, Прогресс, 2010. - 344 с.
6. Фатхутдинов, Р. А. Инновационный менеджмент: Учебник для вузов. 6-е изд. - СПб.:Питер, 2011. - 448 с
7. Дармилова, Ж. Д. Инновационный менеджмент: Учебное пособие для бакалавров / Ж. Д. Дармилова. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К°», 2013. - 168 с.
8. Атамурадов Ш. А. (2019). Турли минтақаларда венчур инвестицияси муҳити таҳлили ҳамда венчур бизнесини ўзбекистон иқтисодиётига жорий этиш муаммолари. Экономика и инновационные технологии, (6), 69–79. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11170
9. Атамурадов Шерзод Акрамович Инновацион фаолиятни венчурли молиялаштиришнинг халқаро моделларини жорий этиш самарадорлиги // Экономика и финансы (Ўзбекистан). 2019. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-faoliyatni-venchurli->

- moliyalashtirishning-hal-aro-modellarini-zhoriy-etish-samaradorligi (дата обращения: 09.01.2023).
10. Атамурадов Ш.А. (2022). Саноатда инновацион фаолиятни ривожлантиришда венчур инвестицияларини жалб қилиш масалалари. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1868>
 11. Атамурадов Ш. Хорижий мамлакатларда венчурли инновацион лойиҳалаштириш моделлари // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. – 2019. – №. 2.
 12. Улашев, И. О., and Ш. А. Атамурадов. "Корхона иқтисодиёти ва менежменти." Ўқув қўлланма. Тошкент-2013.
 13. Атамурадов Ш.А. Инновацион тадбиркорликда венчур инвестицияларини жалб қилиш муаммолари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2021. №1 (137). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-tadbirkorlikda-venchur-investitsiyalarini-zhalb-ilish-muammolari> (дата обращения: 09.01.2023).

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF ORGANISATIONS' DEVELOPMENT STRATEGY IN A COMPETITIVE ENVIRONMENT

Kodirov Muzaffar Muxitdinovich

Researcher at Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, the empirical and conceptual studies related to the issues of improvement of the methodological bases of the evaluation of the effectiveness of the strategy of development of organizations reflected in the scientific resources of a number of online databases were studied, and the scientific approaches in them were systematized. Based on the studied theoretical and practical approaches, methodological recommendations were developed for evaluating the development strategies of organizations in a competitive environment. During the research, an analysis of the external and internal environment of organizations was carried out using existing methodological approaches, including financial and non-financial methods, such as "SWOT" analysis, "PEST" analysis and balanced scorecard (BSC). As a result of the research, it was proved that the developed methodology for evaluating the effectiveness of the organization's development strategy in a competitive environment is an effective tool for increasing competitiveness and sustainable development.

Key words: competitive environment, organizational development strategies, performance evaluation, changing competitive environment.

РАҚОБАТ МУҲИТИДА ТАШКИЛОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

Қодиров Музаффар Мухитдинович

Тошкент Давлат иқтисодиёт университети
мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Мазкур мақолада бир қатор онлайн маълумотлар базаларидаги илмий манбаларда ўз аксини топган ташкилотларни ривожлантириш стратегияси самарадорлиги ҳамда уларни баҳолашнинг услубий асосларини такомиллаштириш масалаларига тааллуқли эмпирик ва концептуал тадқиқотлар ўрганилди ва улардаги илмий ёндашувлар тизимлаштирилди. Ўрганилган назарий ва амалий ёндашувлар асосида рақобат муҳитида ташкилотларнинг ривожлантириш стратегияларини баҳолаш бўйича услубий тавсиялар ишлаб чиқилди. Тадқиқот давомида "SWOT" таҳлили, "PEST" таҳлили ва мувозанатли кўрсаткичлар картаси (BSC) каби молиявий ва номолиявий усулларни ўз ичига олган мавжуд услубий ёндашувлардан фойдаланган ҳолда ташкилотларнинг ташқи ва ички муҳитини таҳлил қилиш амалга оширилди. Тадқиқот натижасида рақобат муҳитида ташкилотнинг ривожланиш стратегияси самарадорлигини баҳолашнинг ишлаб чиқилган методологияси рақобатбардошликни ошириш ва барқарор ривожланишнинг самарали воситаси эканлиги асосланди.

Калит сўзлар: рақобат муҳити, ташкилотларни ривожлантириш стратегиялари, самарадорликни баҳолаш, ўзгарувчан рақобат шароити.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N15>

Кириш. Тез ўзгарувчан бозор ва кучайиб бораётган глобал рақобат шароитида ташкилотлар ўзларининг ривожланиш стратегияларини доимий равишда таҳлил қилиш ва мослаштириш муаммосига дуч келмоқдалар. Стратегия самарадорлигини баҳолаш менежментнинг зарур элементига айланган, чунки у компанияга заиф томонларини тезда аниқлаш, ҳаракатларни тўғрилаш ва рақобатбардош позицияни сақлаб қолиш имконини беради. Стратегия самарадорлигини баҳолашнинг аҳамияти айниқса барқарор бўлмаган ташқи муҳитда кучаяди, бу ердаги муваффақият компаниянинг нафақат ўзгаришларга жавоб бериш, балки уларни башорат қилиш қобилияти билан ҳам белгиланади.

Кучли рақобат ва глобаллашув шароитида ташкилотни ривожлантириш стратегиясининг самарадорлигини баҳолаш барқарор муваффақиятга эришишнинг муҳим воситасига айланмоқда. Бозордаги динамик ўзгаришларни ҳисобга олмасдан ишлаб чиқилган стратегия рақобат устунлигининг йўқолишига, даромаднинг пасайишига ва пировардида бозордаги мавқеини йўқотишига олиб келиши мумкин. Масалан, стратегик бошқарув ёндашувлари ташқи муҳитни доимий равишда таҳлил қилиш ва стратегияни ушбу ўзгаришларга мос равишда мослаштириш муҳимлигини таъкидлайди[6].

Тадқиқотчилар, шунингдек, стратегия самарадорлигини баҳолашда услубий жиҳатдан асосланган ёндашувлар муҳимлигини таъкидлайдилар. Мунтазам баҳолаш, масалан, ташкилотнинг узоқ муддатли ривожланишини қўллаб-қувватлаш учун самарали рискларни бошқариш ва тўғри бошқарув қарорларини қабул қилишга имкон беради[8]. Фаолият самарадорлигини баҳолаш орқали ташкилот ва унинг ташқи муҳити ўртасидаги ўзаро боғлиқликни ҳисобга олиш, чунки рақобатбардош бозорда муҳим ресурсларни таъминлашда ташкилотнинг муваффақияти унинг умумий самарадорлигининг асосий кўрсаткичидир.

Замонавий ташкилотлар ўзларининг стратегик режалаштириш ва ривожланиш жараёнларига бевосита таъсир қилувчи кўплаб жиддий муаммоларга дуч келишмоқда. Энг таъсирли омиллар қаторида глобаллашув ҳодисаси ҳам борки, бу нафақат янги имкониятларни очиб беради, балки турли соҳаларда рақобатни кучайтиради. Мисол учун, ташкилотлар ўз стратегияларини янги глобал муҳитга мослаштиришлари керак, бу ерда муваффақият компаниянинг ўзгарувчан бозор шароитларига мослашувчан жавоб бериш қобилиятига боғлиқ [5]. Яна бир муҳим омил - технологик ўзгаришларнинг жадал суръати бўлиб, у бутун саноатни бузиши ва ташкилотларни рақобат устунликларини сақлаб қолиш учун доимий равишда инновацияларга ундаши мумкин[3]. Бундан ташқари, бозорни тартибга солиш каби омиллар таъсири остида рақобатнинг кучайиб бораётган тажовузкорлиги рақобат муҳитини ўзгартириб, илгари барқарор бўлган рақобат устунликларини камайтиради ва натижада фаолроқ ёндашувни қўллаш талаб этилади.

Истеъмолчиларнинг хоҳиш-истакларининг ўзгариши ва корпоратив ижтимоий масъулиятга бўлган талабларнинг ортиши ташкилотлар учун янги муаммоларни келтириб чиқаради. Бугунги истеъмолчилар компаниялардан нафақат сифатли маҳсулот ва хизматларни тақдим этишларини, балки ўз бизнесларини ахлоқий тарзда олиб боришларини ҳам кутишади. Бу экологик ва ижтимоий жиҳатларни ҳисобга олган ҳолда барқарор стратегияларни ишлаб чиқишни тақозо этади.

Шундай қилиб, рақобат муҳитида ривожланиш стратегиясининг самарадорлигини баҳолаш ҳар қандай ташкилот учун ҳаётий вазифадир. Бу ташқи ва ички чақириқларга ўз вақтида жавоб бериш, янги имкониятлардан самарали фойдаланиш ва ташкилотнинг узоқ муддатли ўсишини таъминлаш имконини беради.

Адабиётлар шарҳи. Ривожланиш стратегиясининг самарадорлигини баҳолашнинг асосий ёндашувларидан бири нуфузли стратег Майкл Портер томонидан баён этилган рақобат устунлиги тушунчасидир. Портер ўзининг “Рақобат стратегияси:

саноат ва рақобатчиларни таҳлил қилиш усуллари” номли илмий ишида ташкилот стратегиясини шакллантириш ва баҳолашда саноат динамикаси ва рақобат кучларини тизимли таҳлил қилиш муҳимлигини таъкидлайди [9]. Хусусан, у ташқи муҳитни ўрганиш ва берилган стратегиянинг муваффақиятига таъсир кўрсатиши мумкин бўлган омилларни аниқлаш учун беш омил (беш куч) моделидан фойдаланишни ёқлайди. Бундан ташқари, Портер рақобатбардош устунлигини таъминлайдиган учта асосий стратегияни ажратади: харажатлар етакчилиги, дифференциация ва диққат марказида ушлаб туриш (фокуслаш).

Ушбу стратегик ёндашувлар ташкилотлар томонидан уларнинг ривожланиш стратегиялари самарадорлигини баҳолаш учун ишончли асос сифатида кенг қабул қилинган [1]. Стратегия самарадорлигини баҳолашнинг яна бир нуқтаи назари фирманинг ресурсга асосланганлиги бўлиб, у ташкилотнинг ички ресурслари ва имкониятларини асосий роли сифатида таъкидлайди. Ушбу фикрга кўра, рақобат устунлигини сақлаб қолиш учун компаниялар технологик имкониятлар каби ноёб ресурсларини қунт билан бошқариши ва улардан фойдаланиши керак.

Барни каби тадқиқотчиларнинг фикрича, компаниянинг ички ресурслари ва имкониятлари стратегиянинг самарадорлигини белгиловчи асосий омиллардир. Барни ўзининг “Фирма ресурслари ва барқарор рақобат устунлиги” мақоласида фирманинг билим, технология ва ташкилий маданият каби ноёб ресурслари, агар рақобатчиларга тақлид қилиш ва нусха кўчириш қийин бўлса, узоқ муддатли рақобат устунлиги манбасига айланиши мумкинлигини таъкидлайди.

Тадқиқотчилар, шунингдек, рақобат муҳитида стратегиялар самарадорлигини баҳолаш усуллари фаол равишда ўрганмоқдалар. Масалан, улар стратегияларни баҳолашда атроф-муҳитнинг беқарорлигини ҳисобга олиш муҳимлигини таъкидлайдилар ва потенциал хавфларни ҳамда ташкилотнинг ривожланиш имкониятларини аниқлаш учун ички ва ташқи омилларни ҳисобга олган ҳолда, юқори ноаниқлик шароитида стратегияни самарали бошқаришда жуда муҳим бўлган сценарий таҳлили ва “SWOT” таҳлилидан фойдаланишни таклиф қиладилар [7].

Стратегия самарадорлигини баҳолашнинг услубий арсенали турли миқдорий ва сифат усуллари ўз ичига олади. Энг кенг тарқалган ёндашувлардан бири рентабеллик, инвестициялар рентабеллиги (ROI) ва иқтисодий қўшилган қиймат (EVA) каби молиявий кўрсаткичлардан фойдаланишдир. Ушбу кўрсаткичлар стратегиянинг компания қийматини ва унинг бозордаги барқарорлигини оширишга қанчалик ҳисса қўшишини баҳолаш имконини беради. Бироқ, Д. Нортон ва Р. Каплан “Balanced Scorecard” бўйича ўз ишларида таъкидлаганидек, молиявий кўрсаткичлар ҳар доим ҳам компаниянинг узоқ муддатли муваффақиятини акс эттирмайди ва мижозлар эҳтиёжини қондириш, инновациялар ва ички бизнес жараёнлари кўрсаткичлар каби молиявий бўлмаган кўрсаткичлар билан тўлдирилиши мумкин.

Молиявий усуллардан ташқари, “SWOT” таҳлили, “PEST” таҳлили ва сценарийни режалаштириш каби сифатли баҳолаш усуллари ҳам катта аҳамиятга эга. Ушбу усуллар нафақат стратегиянинг жорий самарадорлигини, балки ташқи муҳитни ривожлантиришнинг турли сценарийларида унинг барқарорлигини ҳам баҳолаш имконини беради. Масалан, бир гуруҳ иқтисодчи олимлар ўзларининг стратегик режалаштириш бўйича ишларида таъкидлайдики, сифатли усуллардан фойдаланиш бизга фақат миқдорий усуллардан фойдаланганда ўтказиб юборилиши мумкин бўлган яширин риск ва имкониятларни аниқлаш имконини беради [2].

Стратегия самарадорлигини баҳолаш методологияси соҳасидаги сезиларли ютуқларга қарамай, турли хил усуллар ва ёндашувларни бирлаштириш билан боғлиқ ҳал этилмаган муаммолар қолмоқда. Мавжуд методологиялар кўпинча ички ёки ташқи омилларга эътибор қаратади, бу эса стратегияни тўлиқ баҳолашга олиб келиши мумкин. Бундан ташқари, рақамлаштириш ва глобаллашув шароитида тез технологик

ўзгаришлар ва бозордаги ноаниқликнинг кучайишини ҳисобга оладиган янги ёндашувларни ишлаб чиқиш зарурати пайдо бўлди.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот методологияси рақобат муҳитида ташкилотларни ривожлантириш стратегияси самарадорлигини баҳолашга комплекс ёндашувга асосланади. Тадқиқот “SWOT” таҳлили, “PEST” таҳлили ва мувозанатли кўрсаткичлар картаси (BSC) каби молиявий ва номолиявий усулларни ўз ичига олган мавжуд услубий ёндашувларни таҳлил қилиш билан бошланади. Миқдорий ва сифат усулларида фойдаланган ҳолда ташкилотларнинг ташқи ва ички муҳитини таҳлил қилиш амалга оширилади. Тадқиқот учун эмпирик асос сифатида кучли рақобат шароитида ишлайдиган компаниялар маълумотларидан фойдаланилади. Стратегия самарадорлигини баҳолаш учун рентабеллик, бозор улуши, мижозлар эҳтиёжини қондириш ва инновацион салоҳият каби кўрсаткичлар қўлланилади. Бундан ташқари, стратегияни тузатиш учун риск ва имкониятларни аниқлаш учун эксперт баҳолаш усуллари қўлланилади. Тадқиқот натижалари аниқланган омиллар ва рақобат муҳитидаги прогноз қилинган ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда стратегияни такомиллаштириш бўйича тавсияларни шакллантириш имконини беради.

Таҳлил ва натижалар муҳокамаси. Ташкилотнинг ривожланиш стратегияси - бу ўз мақсадларига эришиш ва барқарор ўсишни таъминлашга қаратилган узоқ муддатли ҳаракатлар режаси. Бу устувор йўналишларни танлаш, ресурсларни аниқлаш ва рақобатдош устунликларга эришиш учун улардан фойдаланиш усуллари ўз ичига олган тадбирлар мажмуидир [10].

Ташкилотлар бозордаги мавқеи ва рақобат даражасига қараб фойдаланиши мумкин бўлган ҳар хил турдаги стратегиялар мавжуд. 1-расмда рақобат муҳитида стратегиялар таснифи кўрсатилган:

- Корпоратив стратегия: бутун ташкилот ривожланишининг умумий векторини белгилайди.
- Бизнес стратегия: Муайян саноат ёки сегментда рақобатдош устунликка эришишга қаратилган.
- Функционал стратегия: маркетинг, молия ёки ишлаб чиқариш каби индивидуал бизнес функцияларига эътибор қаратилади.



1-расм. Рақобат муҳитида ривожланиш стратегияларининг таснифи [12]

Стратегия самарадорлигини баҳолашнинг анъанавий ёндашувлари рентабеллик, самарадорлик каби молиявий кўрсаткичларни ва мижозлар эҳтиёжини қондириш ҳамда бозор улуши каби молиявий бўлмаган кўрсаткичларни таҳлил қилишни ўз ичига олади. 1-жадвалда анъанавий ёндашувларнинг таққосланиши келтирилган:

1-жадвал

Фаолиятни баҳолашнинг анъанавий ёндашувларини таққослаш [11]

№	Ёндашув	Молиявий кўрсаткичлар	Молиявий бўлмаган кўрсаткичлар
1	Рентабеллик	– Инвестицияларнинг даромадлиги (ROI)	– Мижозларнинг қониқиши
		– Активлар рентабеллиги (ROA)	– мижозларнинг содиқлиги
2	Фойда	– соф фойда	– бозор улуши
		– ялпи фойда	– компания обрўси
3	Иқтисодий қиймат	– иқтисодий қўшилган қиймат (EVA)	– ходимларнинг қониқиш индекси (ESI)

Стратегия самарадорлигини баҳолашнинг замонавий ёндашувлари балансланган кўрсаткичлар картаси (BSC), иқтисодий қўшилган қиймат (EVA) ва қўшилган бозор қиймати (MVA) каби усулларни ўз ичига олади. Ушбу ёндашувлар молиявий ва номолиявий кўрсаткичларни ҳисобга олади, бу эса янада кенгроқ баҳолаш имконини беради.

Ташкилотнинг ривожланиш стратегиясининг самарадорлигини баҳолашнинг кўплаб усуллари мавжуд бўлиб, уларнинг ҳар бири таҳлил қилиш учун турли ёндашувларни таклиф қилади. Уларнинг асосийлари молиявий таҳлил, “SWOT” таҳлили, “PEST” таҳлили ва мувозанатли кўрсаткичлар картасини (BSC) ўз ичига олади. Ушбу методлар баҳолаш мақсадига ва ташкилотнинг ўзига хос хусусиятларига қараб қўлланилади.

1-расмда асосий баҳолаш методологияларининг таққосланиши келтирилган:

Молиявий таҳлил: рентабеллик, даромадлилик ва ликвидлик кўрсаткичлари компаниянинг молиявий барқарорлигини объектив баҳолаш имконини беради. Бироқ, улар мижозлар эҳтиёжини қондириш ва инновациялар каби молиявий бўлмаган жиҳатларни ҳисобга олмайдилар.

“SWOT” таҳлили: компаниянинг кучли, заиф томонлари, имкониятлари ва таҳдидларини баҳолаш. “SWOT” таҳлилидан фойдаланиш осон, лекин ҳар доим ҳам миқдорий натижаларни бермайди.

“PEST” таҳлили: сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва технологик ўзгаришлар каби ташқи омилларни баҳолаш. Ушбу таҳлил узоқ муддатли режалаштириш учун фойдалидир, аммо маълумотларни шарҳлаш учун қўшимча маълумот талаб қилади.

“BSC”: молиявий ва номолиявий кўрсаткичларни ягона тизимга интеграциялашуви, бу стратегия самарадорлигини мувозанатли баҳолаш имконини беради. Бироқ, “BSC”ни амалга ошириш катта ресурслар ва вақтни талаб қилади.

Самарали услубий ёндашувни ишлаб чиқиш учун ривожланиш стратегиясининг асосий жиҳатларини акс эттирувчи мезон ва кўрсаткичларни танлаш муҳим аҳамиятга эга. Асосий мезонларга молиявий кўрсаткичлар (рентабеллик, даромадлилик) шунингдек, молиявий бўлмаган кўрсаткичлар (мижозларнинг қониқиши, инновацион фаолият) киради.

2-жадвал

Стратегия самарадорлигини баҳолашнинг асосий методологияларини таққослаш [13]

№		Молиявий таҳлил	“SWOT” таҳлили	“PEST” таҳлили	“BSC”
1	Асосий кўрсаткичлар	рентабеллик, даромадлилик ва ликвидлик	кучли, заиф томонлари, имкониятлар ва таҳдидларни баҳолаш	сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва технологик омилларни баҳолаш	молиявий, мижозларга йўналтирилган, ички жараёнлар, ўрганиш ва ўсиш
2	Афзалликлар	Молиявий кўрсаткичларни баҳолашда холислик	фойдаланиш учун қулайлик	узоқ муддатли режалаштириш учун долзарблик	мувозанатли баҳо
3	Камчиликлар	Молиявий бўлмаган жиҳатларни ҳисобга олмайди	Миқдорий баҳолашларнинг этишмаслиги	Қўшимча маълумотларни талаб қилади	Жорий этишда харажатлар юқорилиги

Баҳолаш модели ҳар комплекс бўлиши, ҳамда миқдорий ва сифат кўрсаткичларини ўз ичига олиши керак. 3-жадвалда турли мезонлар ва кўрсаткичлар бўйича баҳолаш модели мисоли келтирилган.

3-жадвал

Ривожланиш стратегиясини баҳолаш моделига мисол [13]


№	Мезон	Кўрсаткич	Баҳолаш усули
1	Молиявий кўрсаткичлар	Рентабеллик Даромадлилик	Молиявий таҳлил
2	Молиявий бўлмаган кўрсаткичлар	Мижозларнинг қондириш Инновацион фаолият	Сўровлар, CSI, Янги маҳсулотлар сони

Асосий миқдорий усулларга молиявий таҳлил, “SWOT” таҳлили ва “PEST” таҳлили киради. Ушбу усуллар рақамли маълумотларга асосланган стратегиянинг самарадорлигини объектив баҳолаш имконини беради. Мисол учун, молиявий таҳлил рентабеллик ва рентабелликни ҳисоблашни ўз ичига олади, “SWOT” таҳлили эса стратегиянинг кучли ва заиф томонларини, шунингдек, ташқи имкониятлар ва таҳдидларни аниқлашга ёрдам беради.

Эксперт баҳолари ва суҳбатлар каби сифатли усуллар стратегиянинг самарадорлигига таъсир этувчи омилларни батафсилроқ тушуниш имконини беради. Ушбу усуллар кўпинча мижозлар эҳтиёжини қондириш ёки ички бизнес жараёнлари каби молиявий бўлмаган жиҳатларни баҳолаш учун ишлатилади.

Кенг қамровли таҳлил стратегия самарадорлигининг умумий баҳосини олиш учун барча танланган мезонлар ва кўрсаткичларни бирлаштиришни ўз ичига олади. Ҳар томонлама баҳолаш ёндашувини таъминлаш учун миқдорий ва сифат маълумотларини ҳисобга олиш муҳимдир.

3-расм. Миқдорий ва сифат жиҳатидан баҳолаш усулларининг интеграцияси [4]



Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда рақобат муҳитида ташкилотларнинг ривожлантириш стратегиялари самарадорлигини баҳолашда улар фаолиятининг қуйидаги йўналишларини муҳим кўрсаткичлар сифатида кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир:

- 1) Молиявий жиҳат, яъни молиявий фаолият самарадорлиги (инвестиция қилинган капиталнинг рентабеллиги).
- 2) Истеъмолчиларнинг товарлар ва хизматлардан қониқиши.
- 3) Ички бизнес жараёнларининг натижалари (операцион самарадорлик).
- 4) Инновация даражаси ва уни такомиллаштиришга эътибор берилиши.
- 5) Кадрлар масаласи (меҳнат унумдорлиги).

Стратегияни молиявий нуқтаи назардан кўриб чиқишда асосий эътибор стратегияни амалга оширишдан молиявий самара кўрсаткичларига, харажатлар ва натижалар нисбатига қаратилади. Ҳисоблаш амалга ошириладиган асосий кўрсаткичлар стратегияни амалга ошириш харажатлари ва уни амалга ошириш самарасидир. Амалга ошириш самараси деганда компания ушбу стратегияни амалга оширгандан сўнг оладиган фойда (қўшимча фойда, харажатларни камайтириш ва бошқалар) тушунилади. Амалга ошириш харажатлари кўпинча стратегияни амалга ошириш учун зарур бўлган инвестициялар миқдори билан тавсифланади. Умуман олганда, натижалар ва харажатлар ўртасидаги бу боғлиқлик қуйидаги формула сифатида ифодаланиши мумкин.

$$Эс = \frac{Рс}{Зс}$$

бу ерда Эс - стратегиянинг самарадорлиги кўрсаткичи; Рс – стратегияни амалга ошириш натижаси; Зс - стратегияни амалга ошириш харажатлари.

Ушбу баҳолаш усули одатда бир нечта муқобил стратегиялар мавжуд бўлганда қўлланилади. Ушбу кўрсаткич стратегияни танлаш босқичида маълум бир корхона учун энг фойдали ва мақбул вариантларни танлаш имконини беради. Бироқ, бу формула кўп жиҳатларни ҳисобга олмайди ва шунинг учун фақат ушбу баҳолаш усулидан фойдаланган ҳолда стратегиянинг самарадорлиги тўғрисида аниқ маълумот олиш мумкин эмас, чунки баҳолаш фақат иккита кўрсаткич (харажатлар ва натижалар) бўйича амалга оширилади. Шунинг учун ташкилотнинг ривожланиш стратегиясининг самарадорлигини баҳолаш учун қуйидаги формуладан ҳам фойдаланиш таклиф этилади:

$$\text{Эс} = \frac{\Delta\text{Э}}{\text{С} + \text{Ен} + \text{И}}$$

бу ерда $\Delta\text{Э}$ - стратегияни амалга ошириш самарасининг йиллик ўсиши; С – йиллик харажатлар; Ен - стандарт самарадорлик коэффициенти; И - инвестициялар.

Ушбу формуладан фойдаланган ҳолда стратегияни баҳолаш аниқроқ натижа беради ва самарадорликни баҳолашнинг дастлабки босқичларида ушбу стратегиядан фойдаланишнинг оқилоналиги ҳақида хулоса чиқариш имконини беради. Бу усулнинг асосий афзаллиги шундаки, формулада стандарт самарадорлик коэффициенти ҳисобга олинади, у корхонанинг соҳасига қараб турли қийматларни олади.

Хулоса. Хулоса қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, рақобат муҳитида ташкилотнинг ривожланиш стратегияси самарадорлигини баҳолашнинг ишлаб чиқилган методологияси рақобатбардошликни ошириш ва барқарор ривожланишнинг самарали воситасидир. Анъанавий молиявий ва замонавий номолиявий кўрсаткичлар комбинациясига асосланиб, методология ташкилот стратегиясини ҳар томонлама баҳолаш, такомиллаштиришнинг асосий йўналишларини аниқлаш ва ўсишнинг яширин захираларини аниқлаш имконини беради.

Методологияни реал ҳолатларда қўллаш натижалари рентабеллик, мижозлар эҳтиёжини қондириш ва инновацион фаоллик каби асосий кўрсаткичларда сезиларли яхшиланишларни кўрсатди. Бу ташкилотларга ташқи муҳитдаги ўзгаришларга мослашувчанроқ муносабатда бўлиш ва ўз мақсадларига самарали эришиш имконини берувчи стратегияни баҳолашга комплекс ёндашув муҳимлигини тасдиқлайди. Методологиянинг амалий аҳамияти унинг кўп қирралилиги ва турли соҳаларда қўлланилишидадир. Стратегияни баҳолашга таклиф қилинган ёндашувни амалга ошириш бошқарув қарорларини янада аниқроқ ва ўз вақтида қабул қилишга ёрдам беради.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Aisyah, N, M. (2012) Peran Strategi, Sumber Daya serta Perubahan Teknologi dan Lingkungan Terhadap Penciptaan Keunggulan Kompetitif yang Berkesinambungan, Universitas Negeri Yogyakarta, 4(1). Available at: <https://doi.org/10.21831/jep.v4i1.620>.
2. Courtney, H., Kirkland, J. and Viguerie, P. (1997) Strategy under uncertainty., National Institutes of Health, 75(6), p. 66-79. Available at: <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/10174798>.
3. Day, V, D. and O'Connor, P. (2006) Getting to the source: Four perspectives on leadership, Wiley, 26(5), p. 7-22. Available at: <https://doi.org/10.1002/lia.1177>.
4. Fatonah, F. (2023) Literature Study On Competitive Advantage In Official Schools Which Is Influenced By Factors: Competitive Strategies, Leadership, And Competence, 4(5), p. 822-832. Available at: <https://doi.org/10.31933/dijms.v4i5.1736>.
5. Harvey, M., Novicevic, M. and Kiessling, T. (2023) Hypercompetition and the future of global management in the twenty-first century. Available at: <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/tie.1017>.
6. Leker, J. and Bauer, M. (2023) Strategic Analysis: Understanding the Strategic Environment of the Firm. Available at: <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/9781118858547.ch3>.
7. Lin, C. et al. (2020) Exploring differences in competitive performance based on Miles and Snow's strategy typology for the semiconductor industry, Emerald Publishing Limited, 120(6), p. 1125-1148. Available at: <https://doi.org/10.1108/imds-10-2019-0547>.

8. Peljhan, D., Sprčić, M, D. and Marc, M. (2018) Chapter 4 Strategy and Organizational Performance: The Role of Risk Management System Development, Emerald Publishing Limited, p. 65-91. Available at: <https://doi.org/10.1108/s1479-351220180000033004>.
9. Porter, M.E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. Free Press, 1980.
10. Rainey L,D. (2009) Strategic management: Formulation and implementation, Cambridge University Press, p. 241-242. Available at: <https://doi.org/10.1017/cbo9780511805943.008>.
11. Сергеева И.Г., Орлова О.П. Оценка эффективности стратегии инновационного развития организации // Экономика и управление (Санкт-Петербург). 2017. № 7(141). С. 35–40.
12. Кононова С.А. Формирование системы сбалансированных показателей как фактор стратегического развития предприятия // Вестник КемГУ. 2014. №4 (60), С. 262–266.
13. Сутягин В.Ю., Турлачева М.А. Сбалансированная система показателей как эффективный инструмент реализации стратегии развития предприятия // Социально-экономические явления и процессы. 2012. № 5–6. С. 112–117.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

ANALYSIS OF TOURISM SERVICE TYPE AND GENERAL CATERING TO INCREASE THE TRAFFIC AND TRAFFIC

Amiriddinova Muslima,

an independent researcher at “Silk Road” University of Tourism and Cultural Heritage and is an assistant teacher at “Silk Road” University of Tourism and Cultural Heritage.

E-mail: amiriddinovamuslima@gmail.com

Abstract. In the article, one of the services in the field of tourism, the need to improve and evaluate the efficiency of the catering industry, its important aspects, and a development model were developed. In order to analyze the efficiency of public catering establishments, an analysis of the age and gender of tourists was carried out, and a proposal for evaluation mechanisms was shown based on the analysis of which types of tourists visit catering establishments more often.

Key words: Tourism, restaurants, service, restaurant, restaurant activities, assessment models, age statistics, gender statistics, development mechanisms.

TURIZM SOHASIDA XIZMAT KO'RSATISH TURLARI VA UMUMIY OVQATLANISH SHOXOBCHALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH

Amiriddinova Muslima,

“Ipak Yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchi va “Ipak Yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti assistent-o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada turizm sohasida xizmatlardan biri bo'lmish umumiy ovqatlanish shoxobchalarining faoliyati samaradorligini oshirish hamda baholash zaruriyati va muhim jihatlari rivojlanish modeli ishlab chiqilgan. Umumiy ovqatlanish shoxobchalarini faoliyatini samaradorligini tahlil qilish uchun turistlarning yosh, gender tahlili olib borilgan bo'lib qaysi turdagi turistlar ko'proq umumiy ovqatlanish shoxobchalariga tashrif buyurishi bo'yicha tahlillar asosida baholashga oid mexanizmlar taklifi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, xizmat ko'rsatish, restoran, shoxobchalar faoliyati, baholash modellari, yosh statistika, gender statistika, rivojlanish mexanizmlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N16>

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy ovqatlanish shoxobchalarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 iyuldagi PQ-238-son qaroriga “Umumiy ovqatlanish shoxobchalari, shuningdek restoran va kafelarda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yanada oshirish, jahon standartlari talablari asosida ularning faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziriga “Mishlen” yulduzini O'zbekistonga jalb qilish bo'yicha muzokaralar o'tkazish va kolatini berish” va amalga oshirish shakli amaliy chora-tadbirlar hisoblanib, amalga oshirish muddati 2023-2024 yillarda

hamda moliyalashtirish mansabi Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va mahalliy budjet mablag'lari hisoblanib, mas'ul ijrochi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi" Aziz Abduxakimov [1-PQ-238-son]. Qarorga muvofiq mamalakatimizda umumiy ovqatlanish faoliyatini tahlil qilish hamda bu shoxobchalarining xizmat ko'rsatish darajani baholash keng ko'lamda tahlil qilinmoqda. Biroq, ko'pgina shoxobchalarda xizmat ko'rsatish sifati, gigiyenik talablarning bajarilishi va mijozlarni jalb qilishda muammolar mavjud. Shuningdek, bozorning yuqori segmenti (elita va lyuks restoranlari) va past segmenti (arzon kafe va oshxonalar) o'rtasida raqobat darajasi sezilarli. Umumiy oqatlanish shoxobchalarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi choralar ko'rish lozim. Mamlakatimizda restoran biznesi hududlarda turistik xizmatlar samaradorligini va sifatini oshirish mexanizmlari takomillashib bormoqda va so'nggi yillarda umumiy ovqatlanish shoxobchalariga tashrif buyurish darajasi sezilarli darajada o'sib bormoqda. Iqtisodiy o'sish, turizmning rivojlanishi va aholining daromad darajasining oshishi bu sohaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, turizm O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, hududlarda turistik xizmatlarning samaradorligini va sifatini oshirish mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hududiy turistik xizmatlarning asosiy muammolari sifatida xizmat ko'rsatish madaniyatining past darajasi, zamonaviy infratuzilmaning yetishmasligi va marketing strategiyalarining sustligi ko'rsatilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, turistlarga xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish va ular uchun barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik majmualar, mehmonxonalar, kempinglar, restoranlar, barlar, transport sohalari, qurilish uchun katta mablag'lar ajratilmoqda. Bunday sur'atda turizm sohasini rivojlantirish albatta umumiy ovqatlantirish korxonalar faoliyatini rivojlantirishga olib keladi. Chunki barcha turistlar ham xalqaro turistlar, ham ichki turistlar bo'lsin, umumiy ovqatlantirish korxonalaridan bo'lgan restoran xizmatidan foydalanadilar [6-21b]. Aks holda insonlar ovqatlantirish uchun barcha mahsulotlarni o'zlari bilan olib yurishi yoki uy sharoitlarida tayyorlab, iste'mol qilishi kerak bo'ladi. Ammo turistlarda bunday imkoniyatlar yo'q, shuning uchun ham ular ovqatlantirish xizmatidan foydalanishga majburdir va mana shu holatlarning mavjud bo'lishi turizmda umumiy ovqatlantirishni uyg'un holda rivojlantirishi uchun imkon beradi. Shuning uchun ham turizmda asosiy xizmat turlaridan birini ovqatlantirish xizmati tashkil etadi [5-12b].

Umumiy ovqatlanish xizmati turizm sanoatida hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu umumiy sayohat tajribasiga sezilarli ta'sir qiladi. U mehmonxonalarda, restoranlarda, tadbirlarda yoki reyslar va kruizlar kabi transportda sayyohlarga oziq-ovqat va ichimliklar xizmatlarini ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Umumiy ovqatlanish xizmatlari turistik tajribaga bevosita ta'sir qiladi [2-9b]. Yuqori sifatli oziq-ovqat va ajoyib xizmat ijobiy sharhlarga olib kelishi va biznesni takrorlashi mumkin. Tadqiqotchi professor Gupta tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ovqatlanish tajribasi sayyohlarning umumiy qoniqishida hal qiluvchi omil bo'lib, ularning yo'nalishlarga qayta tashrif buyurish va tavsiya etish niyatlariga ta'sir qiladi [3-8b]. Umumiy ovqatlantirish korxonalari-pazandalik mahsulotlarini tayyorlaydigan va ularni mijozlarga yetkazib berishni tashkil etadigan maskandir. Ishlab chiqarish faoliyati turiga qarab umumiy ovqatlantirish korxonalari quyidagilarga bo'linadi: restoran, kafe, bar, bufet, tamaddixon, oshxona va boshqalar. Korxonalar ishlab chiqarishni to'la amalga oshirgan holda xomashyoni qayta ishlaydi, chala tayyor va tayyor mahsulot ishlab chiqaradi, so'ngra o'zlari zallarda, bufet va taomlar magazinlarida ularni sotadi. Turlari, joylashgan joyi, moddiy – texnika jihozlanish darajasi va hajmiga qarab umumiy ovqatlantirish korxonalari turlar va sinflarga bo'linadi.

Restoran – bu oziq-ovqat mahsulotlarining barcha turlaridan keng assortimentda murakkab tayyorlash texnologiyasiga ega bo'lgan taomlarni, shu jumladan buyurtma bo'yicha tayyorlanadigan taomlarni, ekzotik taomlarni, hamirli konditer va bulochka mahsulotlarini

ishlab chiqaradigan, keng assortimentda alkogolli, issiq va sovuq ichimliklarni, sotib olingan mahsulotlarni, shu jumladan tamaki mahsulotlarini iste'molchilarga taklif qiladigan korxonalar [4-18b]. Restoranlarda yana individual buyurtmalar asosida ham juda ko'p salat va taomlar tayyorlashi bilan birga yevropacha hamda milliy ovqatlar ham tortiq qilinadi. Xizmatlar ko'rsatiladigan mehmonlarning soni bo'yicha restoranlar kichkina (10-15 kishigacha) va katta (500 kishi va undan ortiq) restoranlarga bo'linadi. Restoranlarda tushliklar va kechqurungi nonushta tashkil etiladi. Milliy oshxonaga ega bo'lgan restoranlar ham mavjud. Dunyoda italyanacha, xitoycha, grekcha, turkcha, inglizcha, amerikacha, hindcha, fransuzcha, nemischa kabi restoranlar juda mashhur [5-17b]. Ularning ayrimlari narxlarining juda arzonligi bilan ajralib tursa, ayrimlari esa qimmatligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridan kelib chiqib, umumiy ovqatlanish shoxobchalarining faoliyati tahlil qilish va baholashda avvalam bor mizojning xohish istaklarini va qayerda ochilgan lokatsiyasiga qarab tahlil qilsa bo'ladi va faoliyat tahlili natijasida insonlarga, turistlarga yengillik kirgizish maqsadida tashkil qilingan xizmat bo'lim ovqatga bo'lgan talabni sayohat davomida kamaytirish yoki yangicha mahalliy ovqatlardan tanovul qilish va qo'shimcha shart-sharoitlar yaratadi va buning uchun tahlil statistik tahlilni o'rganib baholash kerak bo'ladi.

Metodologiya. Tadqiqotimiz turizm sohasida umumiy ovqatlanish shoxobchalarining faoliyatini samaradorligini oshirish bo'yicha tendensiyalar hamda baholash maqsadida olib borilgan bo'lib, aniq vazifalar tahlillar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash, statistika va jadvallar yordamida tahlil ishlarini olib borilgan, undagi natijalar asosida aniq xulosa va takliflar bayon qilingan.

Tahlil va natijalar. Umumiy ovqatlantirish korxonalarini to'g'ri joylashtirish – aholini ish joyida, manzilida, dam olishida ovqatlantirishni to'la ta'minlashdan iborat. Umumiy ovqatlantirish korxonalarini ochishda quyidagi holatlar hisobga olinadi: aholining miqdori, uning tarkibi va ehtiyoj qobiliyati, geografik sharoit, ishlab chiqarish korxonasi va aholi yashaydigan joylarning uzoq-yaqinligi. Shundagina umumiy ovqatlantirish korxonasidan aholi yaxshi foydalanishi mumkin. Aholi zich joylashgan yirik shaharlarda xalqning qaysi tomonga qarab ko'proq harakat qilishi ham hisobga olinib, ovqatlantirish maskani ochiladi. Shuning bilan birga faqat shu atrofda yashaydigan aholi, yaqin-o'rtadagi korxonalar, muassasa xodimlarigina emas, balki keladigan mehmonlar ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Kundalik ehtiyoj, haridorlar sotib oladigan mahsulotlar ketishini, ayniqsa, ovqat magazini xodimlari bilishlari kerak. Bunday magazinlar shu hududda yashovchi aholiga juda qo'l keladi. Ayniqsa, yaqin o'rtada mehnat qiladigan kishilar tez ovqatlantirishi va kerakli mahsulotlarni uylariga olib ketishlari mumkin. Shuning uchun bunday magazinlar 5–10 daqiqalik masofada, 500 m radiusda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Aholi zich joylashmagan shaharlarda magazinlargacha masofa 800 m gacha bo'lishi, haridorlar 15 daqiqadan ortiq yurmasligi kerak.


Faoliyat samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilish choralari¹

¹ Muallif ishi

1. Sifat nazorati va gigiyenik me'yorlarga rioya qilish:	Xizmat ko'rsatish sifati va gigiyenik talablarga rioya qilishning qat'iy nazorati, tegishli organlar tomonidan muntazam tekshiruvlar o'tkazilishi kerak.
2. Kadrlar malakasini oshirish:	Oshpazlar va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar malaksini oshirish, ularni yangi taomlar tayyorlash texnologiyalari bilan tanishtirish zarur.
3. Mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish:	Shoxobchalar mijozlarning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilib, shunga mos xizmat ko'rsatish tizimini ishlab chiqishlari lozim.
4. Raqamli texnologiyalarni qo'llash:	Mobil ilovalar va onlayn buyurtma tizimlarini joriy qilish, mijozlar bilan aloqa qilishda raqamli vositalardan foydalanish zarur.
5. Menyuni diversifikatsiya qilish:	Har xil taom turlarini taklif etish va milliy taomlar bilan birga xalqaro taomlarni ham menyuga qo'shish orqali mijozlarni jalb qilish lozim

Yuqoridagi tahlil va takliflar O'zbekistonning restoran biznesi hamda umumiy ovqatlanish shoxobchalarining samaradorligini oshirishga, shuningdek, hududlarda turistik xizmatlar sifatini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.


Umumiy ovqatlanish shoxobchalari faoliyati samaradorligi bo'yicha so'rovnoma o'takazildi, ya'ni Samarqandga tashrif buyuruvchi turistlar o'rtasida bo'lib o'tib turistlarning 110 nafari so'rovnomada qatnashdi. Ushbu tadqiqotda asosiy tahlil umumiy ovqatlanish shoxobchalariga qaysi yoshdagi turistlar tashrif buyurilishi va yoshi, jinsini tahlil qilib sayohat paytida oziq-ovqat iste'mol qilishni afzal ko'rish bilan bog'liq savollar beriladi, ya'ni xatti-harakatlarni sotib olishni o'lchaydi va savollar tug'iladi: oziq-ovqat va ovqatlanish sayohat qilish uchun motivatsiya sifatida qanchalik muhimligi ko'zda tutilgan.



1

So'rovnoma asosida turistlarning talablari bugungi kunda klassik restoranga borib taomlanishga bo'lgan talabi ko'proqmi yoki tez xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish shoxobchalariga tashrif buyurishadi degan savolga turistlarining ko'p qismi ya'ni 110 ta turistlarning ya'ni 68% umumiy ovqatlanish shoxobchalariga tashrif buyurishadi.

Yosh tahlili. Statistik tahlilning keyingi qismida yosh darajasini tahlil qilish bo'lib, yosh potensial chalkash o'zgaruvchi sifatida baholandi. Namunaviy guruhni baholashda, 110 respondentlarning 59 yoki 53.6% 18-24 yoshda, 35 yoki 31.8% 25-40, 13 yoshda 41-56 va 57-75 yoshdan respondentlardan iborat ekanligi aniqlandi.



So'rovnoma asosida o'tkazilgan statistik tahlil natijasiga ko'ra quyidagi panel diagrammasini ko'rishimiz mumkin va bu diagrammaga asosan ko'pchilik, ya'ni 18-24 yosh oralig'idagi respondentlar umumiy ovqatlanish shoxobchalarida taomlanishni afzal ko'rishadi.

Xulosa. Tadqiqot doirasida hududlarda umumiy ovqatlanish shahobchalarining faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholash maqsadida turizm tarmoqlari statistikasini

¹ Muallif ishi

tahlil qilish. Ya'ni so'rovnomada qatnashgan respondentlarning umumiy ovqatlanish shoxobchalariga bo'lgan talab va istaklari yosh jihatdan, gender tahlil jihatdan, oilaviy statusi jihatidan va ta'lim sohasi bo'yicha qisqa statistik tahlil o'tkazildi. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki erkaklarning deyarli 18-24 yosh oralig'ida va oilaviy statusiday yolg'iz bo'lgan erkak respondentlar umumiy ovqatlanish shoxobchalariga borib tanovul qilishlikni afzal ko'rishar ekan.

Malakatimizda turistik mexanizmlarni oshirish bo'yicha ko'plab amallat bajarilmoqda, shu jumladan hududlarda turistik xizmatlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi mexanizmlarni takomillashtirish lozim va ular quyidagilardan iborat:

1. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish:	Yangi mehmonxonalar, restoranlar va dam olish maskanlarini qurish, mavjudlarini esa modernizatsiya qilish zarur. Bu turistlarga yuqori darajada xizmat ko'rsatishga imkon beradi.
2. Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish:	Xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydigan kadrlarning malakasini oshirish va xalqaro me'yorlarga mos keladigan xizmat ko'rsatish madaniyatini shakllantirish zarur.
3. Marketing va reklama strategiyalarini rivojlantirish:	Hududiy turizm obyektlarini reklama qilish, brending va marketing kampaniyalarini kuchaytirish orqali turistlarni jalb qilish lozim.
4. Mahalliy aholi bilan hamkorlik:	Mahalliy aholini turistik xizmatlarni ko'rsatishga jalb qilish va ularni turizmning foydasi haqida xabardor qilish zarur. ¹

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 iyuldagi PQ-238-son "Umumiy ovqatlanish shoxobchalari, shuningdek restoran va kafelarda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yanada oshirish, jahon standartlari talablari asosida ularning faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziriga «Mishlen» yulduzini O'zbekistonga jalb qilish bo'yicha muzokaralar o'tkazish vakolatini berish" gi Qarori.
2. Hall, C. M., & Mitchell, R. D. (2001). Wine and food tourism. In: Douglas N, Douglas N, and Derrett R (eds) Special Interest Tourism. Milton, Queensland: John Wiley and Sons Australia, Ltd., pp. 307–329.
3. Gupta, S., McLaughlin, E., & Gomez, M. (2007). Guest satisfaction and restaurant performance. Cornell Hotel and Restaurant Administration Quarterly, 48(3), 284-298.
4. Gyimóthy, S., & Mykletun, R. J. (2009). Scary food: Commodifying culinary heritage as meal adventures in tourism. Journal of vacation marketing, 15(3), 259-273.
5. Muhammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. //Monografiya. S.: "Zarafshon" nashriyoti, 2017. – 300 b
6. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2016. 184 b.
7. Tuxliev I.S., Qudratov G'X., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2010. – 238 b.

¹ Muallif ishi

09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

DARWIN'S AND MARX'S TEACHINGS AS A CONCLUSION OF OBJECTIVIST INTERPRETATION OF HUMAN EXISTENCE

Yuldashev Tazabay Niyetbayevich

Research Doctoral Candidate at Karakalpak State University

E-mail: yuldashevtazabay@gmail.com

Abstract. This article explores the teachings of Charles Darwin and Karl Marx in the context of objectivism, which considers humans as objects within broader biological and social systems. On the other hand, Karl Marx's philosophy focuses on social relations, labor, and alienation, presenting humans as a product of societal conditions. The article critically analyzes how these two thinkers contributed to understanding human nature from both biological and social viewpoints, discussing the implications of their ideas in modern science and philosophy.

Key words: Darwinism, objectivism, natural selection, evolution, social relations, alienation, biological anthropology, sociogenesis.

DARVIN VA MARKS TA'LIMOTI INSON BORLIG'INI OBYEKTIV TUSHUNTIRISHNING XULOSASI SIFATIDA

Yuldashev Tazabay Niyetbay o'g'li

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch-doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Charlz Darvin va Karl Marksning ta'limotlari obyektivizm nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Boshqa tomondan, Karl Marksning falsafasi ijtimoiy munosabatlar, mehnat va begonalashuvga e'tibor qaratib, insonni ijtimoiy sharoitlar mahsuli sifatida talqin qiladi. Ushbu maqolada ushbu ikki mutafakkirning inson tabiatini biologik va ijtimoiy jihatdan tushuntirishdagi hissalarini tahlil qilinadi hamda ularning g'oyalari zamonaviy fan va falsafaga ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Darwinizm, obyektivizm, tabiiy tanlanish, evolyutsiya, ijtimoiy munosabatlar, begonalashuv, biologik antropologiya, sotsiogenez.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N17>

Kirish. Insonni obyekt sifatida o'rganish uslubi ilm-fan tarixida muhim ahamiyatga ega. Bu uslub vakillari, xususan, Charlz Darvin va Karl Marks, insonning biologik va ijtimoiy aspektlarini izohlashda yirik rol o'ynagan. Ularning ta'limoti, insonning rivojlanishi va mavjudligini umumiy borliqning bir qismi sifatida tushuntiradi. Darvin biologik evolyutsiya jarayonini asoslab, turlar o'rtasidagi farqlar va atrof muhitga moslashuv jarayoniga e'tibor qaratgan. Karl Marks esa insonning ijtimoiy munosabatlar natijasi ekanligini ta'kidlab, begonalashuv nazariyasini ishlab chiqqan. Ushbu maqola Darvin va Marksning ta'limotini tahlil qilib, ularning insonni obyekt sifatida tushuntirish borasidagi hissasini baholaydi. Bu uslubning eng yirik namoyandalari sifatida insonni biologik tur sifatida ko'rsatgan olim Charlz Darvin va

insonni ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida izohlagan Karl Marks qarashlariga alohida to'xtalib o'tish zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Britaniyalik olim Charlz Robert Darvin (1809—1882) avvaliga tibbiyot, teologiya, tabiiy fanlar (biologiya) bilan shug'ullangan. Yosh olim 1831-yilda Bigl kemasida deyarli besh yil davom etgan sayohatga chiqdi. Mana shu sayohat davomi-da uning hayot shakllari va umuman hayot to'g'risidagi tasavvurlarida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Sayohatgacha u biologik turlar o'zgarimaydi, degan fikrda edi. Biroq mana shu sayohat davomida to'plangan Janubiy Amerika va Tinch okeandagi orollarga oid boy materiallar uning bu fikrni o'zgartirdi. Masalan, Galapagos arxipelagining turli orollaridagi qushlarning qarindosh turlari orasidagi tafovutlarni, Janubiy Amerikada toshga aylanib qolgan qarindosh sutemizuvchilarning turlari qoldiqlarini o'rganish natijasida u quyidagi xulosaga keldi. Har xil turlar va ularning yashash muhiti o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib beradigan eng yaxshi faraz turlar abadiy va o'zgarmas emas, ularning atrof muhitga moslashish jarayonidagi tadriji haqidagi farazdir. Mana shu faraz asosida kelib chiqqan nazariya darvinizm, deb ataladi.

Bu farazni olg'a surish va u bo'yicha material to'plash davrida Darvin hali yosh edi va uni ishlab chiqish va asoslash uchun ko'p vaqt kerak bo'ldi. Mana shu vaqt ichida u aholining o'sishi to'g'risidagi Tomas Maltus tomonidan olg'a surilgan nazariya bilan tanishdi. Bu nazariyaga ko'ra, aholining o'sishi geometrik progressiyada yuz bersa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish faqat arifmetik progressiyada yuz berishi mumkin. Bundan esa, har doim mavjud zaxiralar boqishi mumkin bo'lgan miqdordan ko'ra ko'proq odam tug'iladi, degan xulosa qilish mumkin. Demak, quyi sinflar qashshoqlikda yashashga mahkum etilgan. Maltus nazariyasi Darvin uchun turlarning evolyutsiyasini tushuntirishga asos bo'lib xizmat qildi: hayotga eng yaxshi moslashganlar yashab qoladi.

1859-yilda Darvin o'zining "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi yoki hayot uchun kurashda qulay irqlarning saqlanib qolishi" nomli juda keskin munozaralarga sabab bo'lgan ishini yozib tugatdi. Darvin o'zi munozaralardan chetda turishni ma'qul ko'rdi.

Tabiiy tanlanish va odamning kelib chiqishi Darvingacha tabiiy-biologik turlarning o'zgarimsligi haqidagi fikrlar hukm surardi. Muayyan turlar (otlar, qoramol, echki va boshqalar) o'zlariga xos shakl va funksiyalarga ega bo'lib, ular aynan mana shu ko'rinishda shakllanadi. Bunday nuqtai nazar Aristotel va Aflotun tomonidan taqdim etilgan bo'lib, turlarni xudo yaratgan, deguvchi cherkov tomonidan taqdim qilingan edi.

Inson turlarning biri va u shu sifatda boshqa turlarga nisbatan unikal va o'zgarmas deb tushunilar edi. Darvinizm esa bu masalaga boshqacharoq qaraydi. Barcha turlar rivojlanish yo'li bilan kelib chiqadi va bu jarayonda ular o'zlarini o'rab turgan muhitga moslashadi. Demak, turlar o'rtasida qarindoshlik aloqalari mavjud. Shu nuqtai nazardan qaraganda, turlar o'rtasida, odam ham bundan istisno emas, hatto juda muhim tafovutlar bo'lsa ham, birorta ham tur unikal mavqega ega emas.

Darvinizm ta'kidlashicha, organik hayot tadrijiy rivojlanib boradi. Turlar muhitga moslashish yordamida kelib chiqadi va shakllanadi. Shunga asoslanib biz turlarning xilma-xilligini ular yashayotgan muhit turli-tumanligi bilan izohlashimiz mumkin.

Darvin evolyutsiya jarayoni amalga oshuvchi mexanizmni ham taklif etdi. Bu tabiiy tanlanish edi. Bu mexanizm populyatsiyalar uzoq vaqt davomida qanday qilib o'zgarishi, ya'ni yashaydigan muhitlariga yaxshiroq moslashishlarini mantiqiy va go'zal ifodalab bergandi. Darvinning tabiiy tanlanish tushunchasi bir nechta muhim kuzatishlarga asoslangan edi:

- **Belgilar ko'pincha irsiylanadi.** Tirik organizmlarning aksariyat xususiyatlari irsiylanadi, ya'ni ota-onadan bolalarga o'tadi. Belgi-xususiyatlar genlar orqali nasldan naslga o'tishini Darvin bilmasa ham, belgilar irsiylanishidan xabardor edi.

- **Turlar yashab qolishi mumkin bo'lganidan ko'ra ko'proq nasl qoldiradi.** Organizmlar ularning yashash muhiti ta'minlashi mumkin bo'lganidan ko'ra ko'proq nasl

qoldirishga qodir. Shuning uchun har bir avlodda cheklangan resurslar uchun doimo kurash bo'ladi.

- **Bolalar o'zlarining irsiy belgilari bilan farq qiladi.** Har qanday avlodagi bir organizm boshqasidan belgilariga ko'ra biroz farqlanadi (rangi, o'lchami, ko'rinishi va b.) va bu belgilarning ko'pchiligi irsiylanish xususiyatiga ega.

Ushbu tadqiqot asosan tahliliy uslubga asoslanadi. Darvin va Marksning ilmiy ishlari va ularning ta'limotlari ilmiy manbalarda keltirilgan dalillar asosida o'rganildi. Shuningdek, falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan o'zaro bog'liq g'oyalar tahlil qilindi. Maqolada mavjud ilmiy manbalar, shuningdek, ulardagi falsafiy qarashlar tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan ko'rib chiqildi.

Muhokama. Ayni paytda har bir individ mana shu turga mansub boshqa individlarning xususiyatlaridan birmuncha farq qiladigan genetik belgilangan xususiyatlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, barcha tirik mavjudotlar muhit bo'lishi mumkin bo'lgandan ko'ra ko'proq nasl qoldirishga moyil bo'ladi. Shuning uchun ham naslning bir qismi halok bo'ladi. Natijada yashash uchun kurash boshlanadi va uning natijasi tasodifiy bo'lmaydi. Vaqt o'tishi bilan mazkur muhitga eng yaxshi moslashgan individlar yashab qoladi. O'zlarining mazkur muhitga eng yaxshi moslashgan irsiy xususiyatlarga ega bo'lgan individlar biologik «g'oliblar» bo'lib chiqishadi va shu xususiyatlarni o'zlarining nasllariga qoldiradi. Shunday qilib, vaqt o'tishi bilan tabiiy tanlanish ham yuz beradi. U individning shu turdagi boshqa individlarga qaraganda muhitga yaxshiroq moslashish imkonini beradigan qulay xususiyatlarni irsiy yo'l bilan o'tkazishni nazarda tutadi. Uzoq vaqt davomida va unikal hayot sharoitida (masalan, alohida orolda) alohida yangi tur kelib chiqishi mumkin.

Yuqoridagi oddiy kuzatishlar asosida Darvin quyidagicha xulosaga keldi:

- Biror populyatsiyadagi ba'zi individlarda yashab qolishga va ko'payishga yordam beradigan irsiy belgilar bo'lishi mumkin (muhitdan kelib chiqqan holda, masalan, yirtqichlardan himoyalaniish va ozuqa topish kabi). Foydali xususiyatlarga ega organizmlar o'zlaridan ko'proq nasl qoldirishadi. Foydali xususiyatlar turlarning yashab qolishi va ko'payishi uchun qulaylik yaratadi.

- Foydali xususiyatlarning irsiylanuvchan bo'lgani va shunday xususiyatga ega organizmlar ko'p nasl qoldirishi sababli ushbu belgilar keyinchalik populyatsiya ichida keng tarqaladi.

- Avlodlar almashinuvi davomida populyatsiyalar muhitga moslashadi. O'sha muhitda foydali xususiyatga ega individlar qolganlariga qaraganda ko'proq nasl beradi.

Darvinning tabiiy tanlanish natijasi bo'lgan evolyutsiya modeli unga sayohati davomida duch kelgan qonuniyatlarini izohlashga imkon berdi. Darvinning evolyutsion nazariyasini tushunishda adaptatsiya, mutatsiya, tabiiy tanlanish tushunchalari orqali biz so'z etmoqchi bo'lgan antropogenez jarayoniga o'tamiz. Insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanib borishi ham evolyutsion jarayonlarning ajralmas qismi sanaladi. Darvingacha bo'lgan davrda ham evolyutsiya haqida qarashlar mavjud edi, lekin, Darvin bu qarashlarni tabiatning o'zidan olingan ko'plab artefaktlar, dalillar bilan asoslab, nazariya ko'rinishiga keltira oldi desak bo'ladi. Shuning uchun ham Darvinni fanda revolyutsiya qila olgan evolyutsionist deb atash ham mumkin. Darvin va Lamark ishlab chiqqan Homo Sapiensgacha bo'lgan davrda insonlarning primatlarga oid turdan millionlab yillar davomida shakllangani haqidagi "simil gipoteza"si keyingi davr arxeologlari, antropologlari, biologlari tomonidan o'z isbotini topib kelmoqda.

Darvin evolyutsion nazariyasida insonlar nega hayvonot dunyosidan ajralib chiqqanligi haqidagi savollarga javob bermaydi. Bu savolga javobni biz Fridrix Engelsning ta'limotida ko'rishimiz mumkin.

Engelsning fikricha, inson tarzli primatlarning ayrim turlari tabiiy iqlim holatlarining ta'sirida o'zlarining yashash tarzini o'zgartirishga majbur bo'lishgan. Ular millionlab yillik evolyutsiya davomida daraxtlardan yerga tushib, buning natijasida ularning oldingi qo'llarining

vazifasi orqadagilarining vazifalaridan farq qila boshlagan. Asta-sekinlik bilan rivojlanayotgan qo'llar mehnat qurollarini paydo qiladigan va foydalanadigan organga aylangan. Ushbu mehnat qurollarini yaratish va foydalanishdagi mehnat faoliyati esa miyaning rivojlanishiga, ong va tilning paydo bo'lishiga olib kelgan. Shunday qilib, Engelsning ta'limotida Darvinning antropogenez konsepsiyasi sotsiogenez jarayoni bilan to'ldiriladi va inson antroposotsiogenez jarayoni mahsuli deya tushuntiriladi.

Ilm-fanning XX asrda rivojlanishi antroposotsiogenez jarayonini o'zaro chambarchas bog'langan faktorlar bilan izohlaydi. Bular qatoriga tabiiy, iqtisodiy, antropologik va ijtimoiy faktorlar kiradi. Insonni biologik mavjudotdan ham ko'ra ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida tushuntirish Karl Marksning falsafasida ko'zga tashlanadi.

Marks olmon klassik faylasuflari Gegel va Feyerbaxning g'oyalari ta'sirida begonalashuv nazariyasini ishlab chiqdi. Marks begonalashuvning diniy, siyosiy va ijtimoiy, iqtisodiy darajalarini ajratib ko'rsatadi. Obyektiv tarixiy jarayonda mehnat faoliyati kapitalistik jamiyatda begonalashuvni vujudga keltirdi. Hayvonlardan farqli o'laroq odamlar yashash uchun qo'shimcha mahsulotlar yaratadi. Shuning uchun odam va tabiat munosabati dialektik aloqada bo'lib, undagi tomonlarning har biri ikkinchisini o'zgartiradi. Tarix ayna ana shunday rivojlanishning ortga qaytmas dialektik jarayoni bo'lib unda tabiat inson mehnati tufayli o'zgarib boradi. Kapitalistik jamiyatda odamlar o'zlarini fabrikalar va shaharlar bilan o'rab oldi. Inson va uning mehnati mahsulotlari o'rtasida bo'linish yuz berib inson endi o'zi yaratgan narsalarning xo'jayini bo'lmay qoldi. Marks Aristotelning odamga hamjamiyatdagi odam sifatida qarashni qo'llab-quvvatlaydi. Odam aynan jamiyatda o'zini turli ijtimoiy guruhlarda ro'yobga chiqarish orqali o'zligini anglashga muvofiq bo'ladi. Marks mehnatga Arastudan ko'ra ijobiyroq baho beradi. Mehnat vositasida, deydi Marks, ijtimoiy institutlar shunday o'zgarib ketadiki, yangi tarixiy bosqichlarda insonning boshqa jihatlari ro'yobga chiqishi mumkin. Kapitalizm davrida yashayotgan odamlar shahar-davlatda yashagan odamlarga nisbatan boshqa sifatlarni namoyon qilishi mumkin. Tarix – bu formativ jarayon bo'lib, uning vositasida insoniyat o'zini ro'yobga chiqaradi. Tarixni o'rganar ekanmiz, biz insoniyat va o'zimiz bilan tanishamiz.

Natijalar. Charlz Darvin o'zining evolyutsion nazariyasida biologik turlar o'rtasidagi farqlarni va ularning muhitga moslashuvini tushuntirdi. Tabiiy tanlanish jarayoni orqali turlar yashash sharoitlariga moslashadi, va eng moslashganlar omon qoladi. Bu qarash Darvining ilmiy sayohatlari davomida olingan kuzatishlar asosida rivojlangan. Karl Marks esa insonni ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida ko'rsatdi va kapitalizm davrida mehnat faoliyati natijasida yuzaga kelgan begonalashuvni tushuntirdi. Marksning nazariyasiga ko'ra, inson jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo'lib, bu uni individuallikdan ajratib qo'yadi.

Xulosa. Marksning ta'limoti ideologiya bilan qorishib ketgan bo'lib, unda kapitalistik jamiyatdagi degumanizatsiyalanish jarayoni tasvirlanadi. U insonning jamiyatdan ajralishning sabablarini, uni bartaraf etish yo'llarini, inson manfaatlarini qanoatlantirish va uni har tomonlama rivojlantirish holatlarini tadqiq qiladi. Uning ta'limotida inson emas jamiyat ustunlikka ega bo'ladi. Insonning ijtimoiy munosabatlar mahsuli sifatida tushuntirilishi uning jamiyatga nisbatan ikkilamchi borliqqa aylanishiga asos bo'ladi. Bu qarashlar ma'lum darajada o'z asosi va haqiqatiga ega. Sababi odam ko'plab ijtimoiy munosabatlarga (dastlab oilasi bilan, keyin do'stlari bilan, qandayda bir millat, davlat va hokazo sotsiumlarning a'zosi bo'lishi bilan) kirishsa inson bo'ladi. Insonning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy munosabatlarga absolyut darajada singdirib yuborilishi uning individuallik xususiyatlarning yo'qolishiga olib keladi. Jamiyatning mahsuliga aylangan inson o'zining unikalligi, o'z-o'zini anglash jihatlari yo'qotadi. Insonga maqsad sifatida emas, vosita sifatida qarash boshlanadi. Shu ma'noda inson o'zidan yuqori turuvchi ijtimoiy mexanizmning oddiy bir elementiga aylanish konsepsiyasi kelib chiqadi. Davlat va jamiyat inson uchun emas, aksincha inson davlat va jamiyat uchun yashashni va xizmat qilishni boshlaydi.

Darvin va Marksning ta'limotlari bir-biridan farq qilsa-da, ularning qarashlari insonni obyekt sifatida tushuntirishda bir-birini to'ldiradi. Darvin insonni biologik tur sifatida izohlar ekan, uni tabiat bilan chambarchas bog'laydi. Marks esa ijtimoiy munosabatlarni asos qilib oladi va insonni jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy munosabatlar natijasi sifatida ko'radi. Ikkala ta'limot ham insonning biologik va ijtimoiy tomonlarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Ularning g'oyalari hozirgi zamonaviy antropologiya, sotsiologiya va falsafa fanlarida keng qo'llanilmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Darwin, Ch. R. (1859). Turlarning kelib chiqishi. London: John Murray.
2. Engels, F. (1876). Insonning mehnat orqali rivojlanishi. Moskva: Progress nashriyoti.
3. Marks, K. (1867). Kapital: Sanoat jamiyatining tanqidi. Germaniya: Otto Meissner.
4. Maltus, T. (1798). Aholi to'g'risidagi nazariya. London: J. Johnson.
5. <https://uz.khanacademy.org/science/biology/her/evolution-and-natural-selection/a/darwin-evolution-natural-selection>

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF PHILOSOPHICAL VIEWS ON YOUTH RESPONSIBILITY IN THE EAST

Sultanov Ogabek

Mamun University NTM teacher

Abstract. In this article, it is stated that a special priority to bring up responsible student youth, for this, first of all, considered a great responsibility, that is, a free-thinking, intellectually person who can protect himself and the interests of the people in New Uzbekistan. Many comments are given about the need to focus our attention on education.

Keywords: Higher education, Third renaissance, Abu Nasr Farabi, responsibility, Qutadgu bilig, small world, Confucianism, humanity.

SHARQDA YOSHLAR MAS'ULIYATIGA DOIR FALSAFIY QARASHLAR RIVOJI

Sultanov Og'abek Sultan o'g'li

Ma'mun universiteti NTM o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda mas'uliyatli talaba yoshlarni voyaga yetkazishni o'ziga xos ustuvor vazifa qilib olinganligi, buning uchun birinchi navbatda buyuk mas'uliyatni, ya'ni erkin fikrlovchi, ma'nan yetuk o'zi va xalqning manfaatlarini himoya qilaoladigan shaxsni tarbiya qilishga e'tiborimizni qaratishimiz zarurligi haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, Uchinchi renessans, Abu Nasr Farobiy, mas'uliyat, Qutadg'u bilig, kichik olam, Konfutsiylik, insoniylik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N18>

Kirish. Yangi O'zbekiston Oliy ta'limida ilm-fan rivojiga katta e'tibor qaratilayotgan sharoitda, talaba yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish eng muhim vazifalardan biriga aylangan. Chunki, Uchinchi renessans davrida talaba yoshlar va ziyolilar qatlami muhim ustun hisoblanadilar. Talabalarning ijtimoiy mas'uliyati, ilmiy faoliyatda fazilatlarining ortib borishi, ularning qusurlarini kamayishiga sababchi bo'ladi. Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida yoshlar tarbiyasiga maqtov va tanqid ta'sir qilishi to'g'risida fikrlarini bildirgan, "- Madhiya va tanqidni eshitish, agar u qonun talab qilganiday haqqoniy bo'lsa, yoshlarning qalblariga jo bo'lib, kurash orqali xayrli ishlarga sazovor bo'lishga undaydi, uning ra'yini kuchaytiradi, ko'ngillarini to'q etadi va jasoratlarini oshiradi"[1].

Yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etayotgan hozirgi sharoitda ilm ahllarining yuqori mas'uliyati, ilm-fan rivojiga bo'lgan fidoyiligi, vatan va xalqimizga sadoqat kabi fazilatlarini muhim ahamiyatga ega. Uchinchi renessans davriga o'tish uchun, ilm ahllarining jamiyat oldidagi mas'uliyatini ham oshirdi. Ya'ni, olimlar bir tomondan voqelikka xolislik bilan yondashish va ilmiy haqiqatni to'g'ri aks ettirish, boshqa tomondan esa, vatan va millat oldidagi

mas'uliyat, ajdodlar ruhini e'zozlash hamda kelgusi avlodlarga qarzdorlikni his etish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

Adabiyotlar tahlili. Talaba yoshlarda ijtimoiy mas'uliyatni qaror toptirish oiladan boshlanadi. Chunki oila boshlang'ich mas'uliyatni shakllantirishdagi ilk bosqich hisoblanadi. Bunga XI asrda yashab ijod qilgan, davlat arbobi, mutafakkir, shoir Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ya'ni "Saodatga yo'llovchi bilim" kitobida ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq holatlarni maxsus boblarida uchratishimiz mumkin. Mutafakkir o'zining qarashlarida, har bir inson uchun farzandli bo'lish va unga tarbiya berish buyuk mas'uliyatligi, ularsiz hayotning ma'nosi yo'qligini aytib o'tgan [2].

Yurtimiz kelajagi mamlakatimizda yashovchi xalqlar, ayniqsa, yoshlarning tarixiy mas'uliyatni anglab yetishi, yuksak vatanparvarligi, bilimga intilishi, ma'naviy rivojlanishi va g'oyaviy yetukligi bilan ko'p jihatdan bog'liqdir.

Farzand mas'uliyati sharqda urf-odatlar va an'analarga sidqidildan amal qilish orqali amalga oshiriladi. Masalan Xitoyda, Konfutsiylik ta'limotida quyidagicha izoh berilgan, oilaviy jarayonlarda farzandlarning ota-onaga izzat-ikrom ko'rsatishi Xitoy davlatining hamma yerida qonuniy tan olingan, hayotiy qoidaga aylangan, insoniylik namunalari esa tahsin-u taqlidlarga loyiq deb topilgan. "Lunyuyning" birinchi bob 6-hikmatida shunday naql bor:

"Muallim aytadi:-Bolalar uyda ota-onalarini hurmat qiladilar, ko'chada kattalarning gapiga kiradilar, ehtiyotkor va adolatli bo'ladilar hammani sevadilar, muruvvatli kishilarga yaqin bo'ladilar. Imkoniyati bo'lsa, ilm o'rganishga intiladilar". Shundan bilishimiz mumkinki, ota-onaga bo'lgan mas'uliyatning insoniylik ibtidosiga borib taqaladi: ota-onani hurmat qilgan odam nafaqat uydagilarini balki ko'chadagilarni ham, yaqinlarni ham, butun insoniyatni hurmat qilgan sanaladi. Ota-onani hurmat qilish, mutafakkirning fikri bo'yicha insoniylikning birinchi belgisi. Masalan, u aytadi:

"-Farzandlik mas'uliyatini biladigan va kattalarning gapiga kiradigan odam kamdan-kam hukmdorning ra'yiga qarshi boradi. Hukmdorning ra'yiga qaraydigan odamda isyonkorlik bo'lmaydi. Olijanob inson o'z nasli haqida o'ylaydi; ildiz mustahkam bo'lsa, yo'l ham ravon bo'ladi, mas'uliyatning ildizi shu emasmi?" Konfutsiylik ta'limotiga ko'ra, olijanob inson beshta xususiyatga ega.

Birinchi-jen-insoniylik. Urf-odat adolatdan kelib chiqsa, adolat insoniylikdan kelib chiqadi. Demak, insoniylik hamdardlik, xayrixohlik, rahm-shafqatli bo'lish, odamlarni sevish, ularni g'amxo'rlik hissidan iborat.

Ikkinchisi-u-adolat. Insoniylik nuqtai nazaridan olganda, diniy marosimlar, taomillarga amal qilish gunoh emas. Konfutsiy shogirdlariga "Olijanob inson adolatni angelaydi. Avomlargina faqat foyda ko'rishni o'ylaydi" deb uqtiradi.

Uchinchisi-li-taomil, ko'proq diniy urf-odat, odatga aylangan rasm-rusum, marosimlar, Konfutsiy ta'limotida, asosan, ota-onaga va davlat boshliqlariga nisbatan izzat-hurmat ko'rsatish. Ideal, insonlar orzu qiladigan eng yaxshi jamiyat qurishga yo'naltirgan har qanday faoliyat ham ana shu li-taomil tushunchasini to'ldiradi [3].

«Qobusnoma»da aytilishicha, insonning insoniy xususiyatlaridan biri-hamma ishda adolatli bo'lishdir. «Hamma ishda adolatli bo'l. Har kishi adolatli bo'lsa, unga qozining keragi yo'q». Adolatdan yiroq insonda na himmat va na saxovat belgilari bo'lmaydi. Adolatni o'zining insoniy burchiga aylantirgan kishi bag'ri keng, nazar-u himmati baland, jamiyatda o'matilgan tartib-intizomga rioya qiladi. Kaykovusning ta'kidlashicha, inson mas'uliyatining yo'qolishiga muhim alomatlaridan biri-qing'irlik, yolg'onchilikdir. Xuddi shuning uchun ham, qing'irlik, yolg'onchilikni o'ziga odat qilib olgan kishining oldiga bormaslik, uning suhbatida bo'lmaslikni maslahat beradi. Chunki qing'ir, yolg'onchi odam hech qachon rost so'zlamaydi. Bunday odamni faqat zo'rlik bilan yo'qotmoq zarur; «Nedinkim bir daraxt egri bo'lsa, to uni chopib yo'nmaguncha u to'g'ri bo'lmas», deb yozadi.

Muhokama. Konfutsiyning qarashlaridagi bu jihatlari ideal jamiyatni ifodalamoqda, shuningdek Farobiydagi fozil jamiyat tushunchasiga o'xshash. Jamiyatimizning har qaysi

a'zosini yuksak ma'naviyat va ma'rifat sohibi qilmasdan turib, kishilarning Vatan va xalq oldidagi o'z huquqi, burchi va mas'uliyatini puxta bilmasdan va uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamasdan turib, ular ongini, tafakkurini o'zgartirmasdan turib haqiqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Hozirgi davr ijtimoiy ong sohasida sifat o'zgarishlarini, iqtisodiy madaniyat va mafkuraning zamonaviy turini hosil qilishni, shaxsda yuksak mas'uliyat, ishchanlik, intizom, omilkorlik fazilatlarini tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini o'rta qo'yadi. Mehnat jamoalarining huquqlarini kengaytirish xo'jalik yuritishning yangi usullarini hayotga birin-ketin joriy etmoqdaki, bularning hammasi inson omili ta'sirchanligini kuchaytirish hamda shaxs faolligini oshirish imkoniyatini beradi.

Tarixiy jarayonda xalq ommasining, ayniqsa, yoshlarning qanchalik faol ishtirok etishi, g'ayrat va tashabbus ko'rsatishi moddiy va ma'naviy boyliklar ijodkori bo'lgan mehnatkash insonning shijoatiga, onglilik darajasiga, o'ziga topshirilgan ishlariga qanchalik mas'uliyat bilan yondasha bilishiga, ijodiy tashabbuskorligiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Inson mas'uliyat hissidan qochib qutulmaydi. U gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina shunday vaziyatdan chiqqa oladi. Inson nihoyatda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot bo'lib, uning mohiyatini anglash uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abduxoliq G'ijduvoni insonni "kichik olam" deb hisoblagan. Falsafada bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir[4].

Burhoniddin Marg'inoniy inson har qadamda ro'baro' keladigan dolzarb hayotiy muammolar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, burch va mas'uliyatga taalluqli muammolari islom axloqi va huquqi mezonlari nuqtai nazaridan hal etib berdi. O'zining «Nikoh kitobi»da yoshlar tarbiyasida milliy urf-odatlarining ahamiyati haqida to'xtalib, qadimgi milliy an'analarimizdan biri bo'lgan nikoh bo'lg'usi kelinning moddiy manfaatlarining kafolatlanishiga e'tiborni qaratish zarur, degan g'oyani ilgari surdi. Burhoniddin Marg'inoniyning fikriga ko'ra, jamiyatning negizi ham, inson ruhiy-ma'naviy olamining beshigi ham oiladir. Shuning uchun ham o'rta asrning mashhur fiqhshunos olimi oilani har tomonlama mustahkamlashga zamonasining hukmdorlarini, butun ilm ahlining e'tiborini qaratadi. Oilani mustahkamlashga qaratilgan bir qator qoidalar ishlab chiqadi va uni shariat qonunlari orqali rasmiylashtiradi. Burhoniddin Marg'inoniyning e'tirof etishicha, oila qurayotgan kuyov va uning ota-onalari ham bir talay majburiyatlarni o'z zimmlariga olishlari zarur. Burhoniddin Marg'inoniy inson ma'naviyatiga doimiy ozuqa berib turadigan qudrat - ilm va ma'rifatdir, deb tushuntirdi. Shuning uchun ham jamiyat ma'naviy kamoloti uchun mas'uliyatni ilm ahliga yukladi. o'zining ilmiy-intellektual salohiyatini xayrli, xususan, odamlar orasida do'st-u birodarlikni targ'ibot qilish, ma'rifat tarqatish ishlariga baxshida etgan olim-u fozillarni ulug'ladi. Kishilarga ma'rifat tarqatish ishlariga sarflanmagan bilim yoki ilm ahlining ishini buzg'unchilik deb baholadi. Shuning uchun ham marg'ilonlik fiqhshunos alloma nafaqat olim-u fuzalolar, balki oddiy fuqarolar orasida ham cheksiz hurmat-izzatga sazovor bo'ldi. Odamlar Marg'inoniyini "Hidoya yo'lining sarboni" deb atay boshladilar. Musulmon olamida esa u "Burhoniddin val milla", ya'ni "din va millatning hujjati" degan yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi.

Mirza Bedil inson Olloh tomonidan yaratilgan o'ziga xos, tengi yo'q mo'jiza ekanligini ta'kidlab, "uni o'zligini bilishga da'vat etadi. Inson bisotida mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlar - yaxshilik, ezgulikka xizmat qilmog'i darkor. Insonning o'zligini anglashi jamiyat, xalq oldidagi mas'uliyatini tushunib yetishga olib kelmog'i zarur, deb hisoblaydi" [4].

Natijalar. Yangi O'zbekiston falsafasi – yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha fuqarolarning falsafasi bo'lib, u har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat va el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qanday ado etayotganini ifodalaydigan ma'naviy dunyodir. Fuqarolar falsafasining kuchi, ularning yashash manfaatining qanchalik kuchliligiga bog'liqdir. Shuning uchun bu falsafa ijtimoiy adolat, erkinlik va inson huquqlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular bilan uyg'unlik kasb etadi. Fuqaro qanchalik ongli, mustaqil fikrlovchi va o'z taqdirini yurt va xalq taqdiri bilan bog'laydigan bo'lsa, milliy falsafa shuncha ma'noli, jozibador, ta'sirchan va

kuchli, yaratuvchan bo'лади. Inson mas'uliyat hissidan qochib qutulmaydi. U gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina shunday vaziyatdan chiqa oladi. Inson nihoyatda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot bo'lib, uning mohiyatini anglash uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abduxoliq G'ijduvoni insonni "kichik olam" deb hisoblagan. Falsafada bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir.

Konfutsiy o'zining suhbatlarida jamiyat boshqaruv iplarini qo'lida ushlab turgan "Hikmatli zot"ning beshta insoniy xislatlar: burch, adolat, mardlik, urf-odatlariga rioya qilish, bilimdonlik bezab turmog'i lozim, deydi. "Hikmatli zot" fuqarolarga nisbatan muruvvatli, xizmat vazifasini sidqidildan bajaruvchi, egallab turgan lavozimidan o'ziga shon-shuhrat orttirish uchun emas, balki jamiyat a'zolari farovonligini ta'minlashga qaratmog'i darkor. Uning xatti-harakatlari ohista va xotirjam, tabiatiga dag'allik va fahmsizlik begona, kiyinishlari ozoda va o'ziga munosib, jamiyatda o'rnatilgan ma'naviy-axloqiy qoidalarning mohiyatini chuqur anglab yetuvchi, boylik va martabani "taqdir in'omi" deb, ularga atayin intilmaydigan, xayr-u saxovatli, lekin isrofgarchilikka yo'l bermaydigan, halollik bobida sobitqadam va duch kelgan guruhga qo'shilib ketavermaydigan kishidir. Konfutsiy bunday xislatlar sohibi bo'lgan kishini "Go'zal inson", deb biladi. Jamiyatni, davlatni shunday "Go'zal inson"lar boshqarsa, shubhasiz, unday yurtda farovonlik ta'minlanadi.

Xulosa. Yoshlar mas'uliyatiga doir falsafiy qarashlar sharqda tarixiy ildizlarga ega bo'lib, turli davrlarda ular ko'plab olimlar tomonidan muhokama qilgan. O'zgaruvchan dunyo sharoitida bu jarayonlar yoshlarning rolini yanada ahamiyatli qilib qo'yadi. Maqolada yoshlarning mas'uliyatini rivojlantirishda an'anaviy tarbiya usullari va zamonaviy ta'lim tizimlarining o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Falsafiy nazariyalar va amaliy misollar yordamida madaniyatning yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashdagi ahamiyatini yoritadi. Bundan tashqari, yoshlar orasida mas'uliyat hissini oshirishda oila, ta'lim muassasalari va davlat siyosatining hamkorlikdagi roli muhokama qilinadi. Sharq falsafasi kontekstida yoshlarning mas'uliyatiga doir qarashlarning rivojlanishi nafaqat tarixiy va madaniy masalalarni, balki global va zamonaviy muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Shunday qilib, maqola yoshlarni ijtimoiy va madaniy mas'uliyatlarni anglash va bajarishga tayyorlashda falsafiy qarashlarning ahamiyatini yana bir bor ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarni ijtimoiy va madaniy mas'uliyatlarni anglash va bajarishga tayyorlashda Sharq falsafasining chuqur ildizlarga ega qarashlari naqadar muhimligini yana bir bor ta'kidlaymiz. Ushbu falsafiy qarashlar yoshlarni zamonaviy dunyoda faol va mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abu Nasr Farobiy.Fozil odamlar shahri.-T.: "Yangi asr avlodi" -2004.58-b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. -T.: "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi"-, 2007. 86-b.
3. Конфуций. Хикматлар. -Т.: "Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси" -2010.6 б.
4. Abduxoliq G'ijduvoni. Maqsad mustahkam. -B.17
5. Бедил. Куллиёт. «Чор унсур». Литогр. нашр., Бомбей, 1299 й. X., 101-бет
6. Og'abek S. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers //Academicia Globe. 2021. -Т. 2. – №. 08. -С. 39-42.
7. Og'abek S. Some thought-provoking problems of analysis of the concept of moral obligation. – 2021.
8. Odilbek o'g'li S. V. Tarbiya fanini o'qitishni takomillashtirishda o'qituvchining o'rni.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

IN HADITH ABOUT THE BEAUTIFUL QUALITIES OF A PERSON

Tursunkulova Shakhnoza Tuychievna,

“Alfraganus University”

Associate Professor of the Department of Social Sciences

Abstract. The article presents philosophical opinions about the beautiful human qualities, analyzes the human qualities recorded in the hadiths and their characteristics. The formation of beautiful human qualities in the family, during parental upbringing is revealed using the examples of sources.

Keywords: Person, beautiful quality, parents, children, hadiths, morality, manners.

HADISLARDA INSONNING GO‘ZAL FAZILATLARI XUSUSIDA

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

“Alfraganus university”

Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Maqolada, insoniy go‘zal fazilatlar to‘g‘risida falsafiy fikr-mulohazalar berilgan bo‘lib, hadislarda yozilgan insoniy fazilatlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Insoniy go‘zal fazilatlarining oilada, ota-ona tarbiyasi orqali shakllanishi manbalar misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inson, go‘zal fazilat, ota-ona, farzand, hadis, axloq, odob.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N19>

Kirish. Inson va uning go‘zal fazilatlarini xususida hadislarda ko‘p ma‘lumotlar mavjudki, ularni tub mohiyatini anglash uchun hadislarni har bir kishi o‘qib chiqsa, hayotiy xulosalar chiqarishi mumkin. Hadislarda insonning o‘ziga, o‘zligiga, ota-onasiga, yor-qarindoshlariga, do‘stlariga, farzandlariga, katta va kichikka, bemor va noumidga, nochor va noshudga, boy va mansabdorga shuningdek, turli masalalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lish kerakligi ham uqtirilgan. Insoniyat tarixidan ma‘lumki, hamma insonlarning hayotida, madaniy turmush tarzida din va diniy manbalarning o‘rni kattadir. Ayniqsa musulmonlar hayotida, turmush tarzida, insoniy go‘zal fazilatlarini shakllantirishda hadislar juda muhim ahamiyatga ega. Musulmonlar hayotining o‘ziga xosligi, hayotiy uslublari, madaniy turmush tarzi, urf-odatlarini, an‘analarining yuzaga kelishi bevosita hadislar ta‘sirida shakllanganligining guvohimiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda ma‘naviyat, ma‘rifatli jamiyat, ma‘rifatli inson konsepsiyalari ilgari surilayotgan bir davrda mamlakatimizdagi islohotlarning tub mohiyatini chuqur anglash masalalari (Sh.M.Mirziyoyev, 2021), insonning axloq-odobiga oid hadis namunalari (Hikmatullayev H., Mansurov F. 1990.), yoshlarga oid hadislar, go‘zal axloq va oliy fazilatlariga muhabbat quyish (Lubobul hadis. 2019.), hikmatlarning aql nuri va qalb tuyg‘ularini aks ettirib, insonni ezgu ishlarga chorlovchi va ilhomlantiruvchi ta‘sirlari (Termiziy allomalardan oltin o‘gitlar. 2020.) tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Hadislarda tinchliksevarlik, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, nafsni tiyish va shu kabi ezgu g'oyalar aks etadi. Bu g'oyalar insonning ma'naviy taraqqiyotiga, milliy o'zligini anglashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonsh, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir"[1.267]. Darhaqiqat, "Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolotga yetishga intilishiga e'tibor qaratish g'oyat birlamchi vazifamizdir"[2.277]. Hadislarda ham insonni yaxshi xulq-atvorli, odob-axloqli bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy ahamiyatga ega ma'lumotlar mavjud.

O'rta Osiyoda islom dini VIII asrdan keyin keng tarqala boshlagan, ilohiyot qatori hadisshunoslik, kalom ilmi ham ildam rivojlangan. Shunisi e'tiborga loyiqki, islom olamida mashhur va eng ishonshli deb e'tirof etilgan hadislar to'rlami mualliflarining aksariyati O'rta Osiyodan shiqqanlar. Masalan, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (194/810 – 256/870), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/824 – 279/892), Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy (181/797 – 255/868) va Kasriybo'yi xalqlaridan Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja (209/824 – 273/886) va boshqalar hadis ilmining taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Lekin ularning barsha adabiy merosi arab tilida ekanligi tufayli o'tmishda faqat arab tilini puxta bilgan ulamolargina ulardan xabardor bo'lgan, keng xalq ommasiga mo'ljallangan to'liq tarjimalar bo'lmagan. Bizgasha bir qancha katta-kishik kitobshalarda turkiy va eroniy tillarga tarjima qilingan hadis namunalari, jumladan, "Ming bir hadis"ning tatar tilidagi va "Qirq hadis"ning o'zbek tilidagi izohli tarjimalari yetib kelgan"[2.2].

Hadislarda aks etgan insoniy go'zal fazilatlarga qanday xususiyatlar kiradi. Bu haqda tarixdan allomalar, mutasavvuflar juda ko'p purma'no qarashlarini o'z asarlarida yozib qoldirishgan. Jumladan, Jaloliddin Suyutiyning "Lubobul hadis" kitobida keltirilgan insoniy go'zal fazilatlar va bunday fazilatlarni shakllantirish xususida nimalar haqida yozilganlarini ko'rib o'tamiz[3.157]. "Lubobul hadis"ning 30-bobida ota-onaga yaxshilik qilishning go'zal fazilat ekanligi aytilgan. Farzand uchun ota-onaning ulug'ligi, qadrliligi, qadrlash zarurligi, qanday qadrlashi kerakligi rivoyatlar asosida yaxshi ko'rsatib berilgan. Ba'zida, bolalarini boqib katta qilgan, voyaga yetkazgan ota-onalarning farzandlaridan zulm ko'rishi, qarigan chog'larida, farzandlariga muhtoj bo'lib qolgan damlarida tahqirlanishi, ma'naviy va moddiy tomondan qiynalib yurishlari uchrab turadi.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi mehirsizlik, qadrsizlik muammolari insoniyat tarixining har bir davrlarida tarixiy makon va zamonning dolzarb muammolaridan bo'lib kelganligini hadislar va boshqa asarlardagi ota-onaga to'g'ri munosabatda bo'lish to'g'risida yozilgan ma'lumotlar ko'rsatadi. Inson murakkab harakterga ega bo'lib, u buyuk ishlarga qodir bo'libgina qolmasdan eng tuban ishlarga ham qo'l uradi. Bu masala islom dinida juda go'zal qilib tushuntirilgan, yaxshi insonlar uchun jannat eshiklari, yomon insonlar uchun do'zax eshiklari ochilishi ta'kidlangan. Bu masala deyarli barcha hadislarda keltirib o'tilgan. Jumladan, "Lubobul hadisda" bu haqda shunday yozilgan: "Kimning ota-onasi yoki ulardan biri undan rozi bo'lgan holda tong orttirsas, u uchun jannat eshiklari ochiladi. Kimning ota-onasi yoki ulardan biri undan g'azablangan holda kunni o'tkarsa, uning uchun jahannam eshiklari ochiladi."[3.160]

Shuningdek, farzandning ota-onasiga nisbatan qilayotgan har bir ishining javoblari va oqibatlari borligini ta'kidlaydi. Quyidagi hadislarda shunday deyiladi:

- "Kimki, mazali bir taomni uyida saqlab, ota-onasiz esa, Alloh taolo uni jannat taomlari lazzatidan mahrum qiladi."
- "Ota-onaga yaxshilik qilish umrni ziyoda qiladi. Yolg'on rizqni kamaytiradi va duo balolarni qaytaradi."
- "Kimki ota-onasidan birini urish uchun qo'lini ko'tarsa, qiyomat kunida uning qo'li shol bo'lgan holda bo'yniga kishanlanadi."[3.160-162]

Farzandning ota-onasi oldida ko'plab mas'uliyat va burchlari bo'lib, bular ham dinda, ham qonunlarda mustahkamlangan. Oiladagi ko'plab kelishmovchiliklar farzandning ota-onasining qalbini og'ritishi, maslahatlariga kirmasligi, hurmatini joyiga qo'ymaslik oqibatida kelib chiqadi. Oilada ota-onasi bilan birga yashaydigan farzandning yashirib o'qatlanishi, topganini ular bilan baham ko'rmaslik, salomlashmaslik, yetarlicha sharoit bilan ta'minlab bermaslik holatlari uchrab turadi. Ota-onasi bilan gaplashmaslik, ularni fikrlarini inobatga olmaslik, gap qaytarish, ko'pchilik oldida ota-onasini nomini yomonga chiqarish, tanishlariga yomonlash, ularni aldash, yolg'on gapirish va boshqa xunuk ishlarni ota-onaga ravo ko'rishadi.

Inson odobidan go'zalroq fazilat bo'lmasa kerak, inson odobi uni atrofidagi kishilarga yoqimli his-tuyg'ular beribgina qolmasdan, yon-atrofidagi kuzatuvchilarga ham ushbu odoblilikni yuqtiradi. Oilada kim qanday vazifani bajarsa-da bir-biriga odobli munosabatni shakllantirishi va unga qat'iy rioya qilish zarur. Zero, "Ey insonlar! - deyilgan hadisda, – Tadbirdek hayot yo'q. Aziyat yetkazishdan tiyilishdek taqvo yo'q. Odobdan yuksak muhabbat yo'q. Tavbadek shafolat qiluvchi yo'q. Ilmdan ibodat yo'q. Allohdan qo'rqishdek salotu salovot yo'q. Aqldan chiroyliroq ziynat, ilmdan mehribonroq hamroh yo'q." [4.19]

Insonning go'zal fazilatlari uning odobi, xulq-atvori, axloqi va go'zal amallari bilan belgilanadi. "Ey odam farzandi! Agar so'zing muloyim, amaling qabih bo'lsa, u holda sen munofiqning raisisan. Agar zohiring chiroyli, botining xunuk bo'lsa, u holda sen halokatga duchor bo'lguvchilardansan. Ular Allohni aldamoqchi bo'ladilar, ammo o'zlari sezmaganda faqat o'zlarinigina aldaydilar." [4.17]

Odob – "tarbiyalilik", "xushmuomala" va "nazokatli" ma'nolarini anglatib, go'zal fazilatlardan iborat maqto'vga sazovor ish va so'zga nisbatan ishlatiladigan atamadir. Inson bunga tarbiya orqali erishadi. Hadislarda "Solihlik Allohdan, odob – otalardan" deyilishiga qaraganda, ota-onalar farzandlariga go'zal axloqni ajdodlar merosi, an'analari, urf-odatlarini, tarbiyaviy tajribalariga suyangan holda oilada singdiradi. Ular farzandda eng katta boyliklari bo'lgan insoniy fazilatlarni shakllantirishga urinadilar. Go'zal insoniy fazilatlarga ega bo'lgan farzandlar esa tom ma'noda eng boy kishilardir. Farzandlarning odoblarini go'zal qilish, go'zal tarbiyalash orqali fahm-farosat, aql-zakovatlari mustahkamlanadi.

Xoja Samandar Termiziy hikmatlarida shunday deb aytadi:

Tarbiyadan tuproq gavhar bo'ladi.

Nof ichra qon mushki asg'ar bo'ladi.

Qiyamsiz qora bir temirni iksir,

Tarbiya aylagach sof zar bo'ladi [5.39].

Darhaqiqat, olingan va berilgan tarbiya orqali bola yetuk shaxs bo'lib yetishadi. Albatta dastlab, bu tarbiya oilada ona orqali berilishi hammaga ma'lum. Shu ma'noda, "go'zal odob", "axloqiy tarbiya", "o'zlikni anglash" birinchi onadan olinadi. Bir hikmatda "al-ummu madrasatun – ona maktab" deyilgan. Ona uyida bolalari bilan ko'p vaqtini birga o'tkazganligi tufayli bolalariga go'zal tarbiyasini ko'rsatib, namuna bo'lib ularning shaxs bo'lib shakllanishida uchmas iz qoldiradilar. Shuningdek hikmatlarda, "bolalarning tarbiyasi – maktablarda, qaroqchilarniki – qamoqxonalarda, ayollarniki uylarida, yoshlarniki ilmda, keksalarniki esa masjidlardadir", ham deyilgan [5.15]. Tarixdan ma'lumki, buyuk insonlarning orqasida doimo soliha bir ayol bo'lgan. Ayol jamiyatning shu ma'noda haqiqiy me'mori maqomini oladi. Farzandlarini go'zal fazilatlar ila tarbiyalab, butun hayotini farzandlar uchun bag'ishlagan onalar darhaqiqat – maktabdirlar [6].

Odamlar ya'ni, yaqin qarindosh, aka-uka, opa-singil, do'st-yorlar, ota-ona, farzandlar va boshqa qarindoshchilik rishtalarini ulagan insonlar o'rtasida dilozorlik, xiyonat, sotqinlik, yolg'onchilik bo'lmasa, ularning munosabatlarida barqarorlik hukm suradi. Oilalarda hukm surgan tinchlik-totuvlik, mehr-oqibat, muhabbat va ishonch albatta jamiyat ijtimoiy hayotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Hadislarda sadaqa ulashishsa rizqning ko'payishi, qarindoshlar bilan yaqinlikni uzmasa umrini ziyoda qilishi hamda tinchlik tanholikda, ixlos rag'batda, boylik qanoatdadir, deyiladi. Jumladan, islomiy manbalarda insonning go'zal fazilatlari go'zal

qadriyatlar sifatida tasavvufiy manbalarda ham juda chuqur tadqiq etilgan[7]. Hadislarda inson va uning go'zal fazilatlarini xususida juda katta ma'lumotlar mavjud, ular inson uchun hozirgi vaqtda ham qadrlil va ahamiyatga egadir[8].

Xulosa. Hadislar birinchidan, musulmonlar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, hadislarini bilish va ularga amal qilish musulmonlar uchun qadriyat hisoblanadi, ikkinchidan, har qanday hadis u yoki bu ma'noda go'zal fazilatlarini ifodalab keladi, shu bilan birga ularga amal qilishning muhimligi bilan harakterlanadi, uchinchidan, hadislarda axloqiy qonunlar diniy qadriyatlar bilan mustahkamlanib unga amal qilish sunnat deb belgilanadi, to'rtinchidan, hadislarda ko'p sohalarga oid, ya'ni unda san'at, tibbiyot, pedagogika, estetika, tarix, madaniyat, huquq, siyosat, til va boshqa ko'plab ma'lumotlar mavjud.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – 267 б.
2. Hikmatullayev H., Mansurov F. Axloq-odobga oid hadis namunalari. – Тошкент: Fan, 1990. - 2 б. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Лубобул Ҳадис. / Суютий, Жалолиддин. (таржимон: О.Юсупов.) –Тошкент. Фафур Ғулум номидаги нашриёт матбаа ижодий ўйи, 2019. - 228.
4. Имом Ғаззолий. Қирқ қудсий ҳадис/Масъул муҳаррир Анвар қори Турсун; - Тошкент: Sano-standart, 2017. – 48 б.
5. Термизий алломалардан олтин ўғитлар. (мусанниф: Б.Парпиев.) – Тошкент. Yoshlar matbuoti, 2020. – 48 б.
6. BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA SAN'ATNING O'RNI. (2024). Ustozlar Uchun, 57(4), 550-552. <https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/2664>
7. Шахноза Туйчиевна Турсункулова. (2022). РАЗВИТИЕ МИСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ, ЕГО НАУЧНО-ФИЛОСОФСКОЕ СУТЬ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК И МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 8.036 , 11 (08), 77–81.
8. ТУРСУНКУЛОВА ШАХНОЗА ТУЙЧИЕВНА. (2023). ПРОБЛЕМА ДУХОВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА В ИСЛАМСКИХ ЦЕННОСТЯХ. Международный журнал философских исследований и социальных наук , 3 (3), 112–116. Получено с <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/484>.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

THE “TEACHER” PHENOMENON IN THE HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL SPACE OF CULTURE

Khushbokov Oybek Uralovich,

Senior teacher, Department of German language, Faculty of Tourism,
Chirchik state pedagogical university

Abstract. The article explores aspects of the sociocultural phenomenon of a teacher regarding spiritual life. The problem of studying the phenomenon of “Teaching” is a very important aspect within the framework of the development of society. In each culture the teacher has his own characteristics related to historical, cultural and social factors.

Keywords: Teacher, education, cultural orientation, spiritual culture, teacher’s mission.

ФЕНОМЕН «УЧИТЕЛЬ» В ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ КУЛЬТУРЫ

Хушбоков Ойбек Уралович,

Старший преподаватель кафедры немецкого языка, факультет Туризма,
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация. В статье исследованы аспекты социокультурного феномена учителя относительно духовной жизни. Проблема изучения феномена «Учительства» является очень важным аспектом в рамках развития социума. В каждой культуре учитель имеет свои особенности, связанные с историческими, культурными и социальными факторами.

Ключевые слова. Учитель, образование, культурологическая ориентация, духовная культура, миссия учителя.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N20>

Введение. В данной статье акцентируется внимание на определение феномена «Учитель» в социокультурной реальности.

Учитель как феномен может быть проанализирован в социокультурной реальности. Феномен «Учитель» может быть понят не только в контексте его педагогических проявлений, но и как конструкт многомерной социальной реальности, как духовно-жизненный феномен.

Великий узбекский поэт и мыслитель А. Навои отмечал весомую социальную значимость педагогов еще в XV веке и полагал, что деятельность учителя довольно трудна, предполагает личностную ответственность, не только за обучение, но и воспитание детей. В учениях восточных мыслителей Ибн Рушда, Насреддина Туси, Омара Хайяма, Алишера Навои осмысливается высокая миссия учителя, аксиологическое содержание его деятельности.

« Аль Фараби очень глубоко разбирался в содержании учений Платона и Аристотеля. Указывая на стремление этих двух великих мыслителей древности к установлению истины, к поднятию авторитета философии как науки, как теории изучения мира, Аль-Фараби неоднократно подчеркивает различие взглядов, подходов Платона и Аристотеля к философским проблемам. При этом он явно симпатизирует натурфилософскому, естественнонаучному методу Аристотеля, неоднократно называет его «мудрым учителем».

В истории мировой науки немало трудов великих ученых древнего Турана, Моворуннахра, Туркестана и Хорасана, написанных золотыми буквами. Имам Мухаммад ибн Исмаил Бухари, Имам Термизи, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Ахмад Фаргани, Мухаммад Муса Хоразми, Абу Наср Фараби, Имам Мотуриди, Бурхануддин Маргилани, Амир Темур, Мирза Улугбек, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур внесли большой вклад для развития человечества[2; 61-62-С.].

По мнению узбекского просветителя Абдуллы Авлони: «Богатство знаний и широта мировоззрения человека прежде всего зависят от учителя». Учителя и наставники играют ни с чем не сравнимую роль в достижении высоких целей. Образование и воспитание имеют решающее значение не только в сегодняшней жизни, но и для будущего любого государства и общества.[1; 327-С.].

Учитель как феномен может быть проанализирован в социокультурной реальности. Феномен «Учитель» может быть понят не только в контексте его педагогических проявлений, но и как важный конструкт многомерной социальной реальности, как духовно-жизненный феномен. И данный феномен способен транслировать и трансформировать нашу человеческую культуру. И таким образом учитель должен всегда приспосабливаться к новым условиям, ограничениям и вызовам.

Методы исследования и обзор литературы. В качестве основных методологических подходов для написания данной статьи использованы объективно-исторический, социально-философские и др., что позволило учесть объективные факторы и социальные аспекты в изучении и анализе концепта «Учитель» в историко-философском пространстве культуры.

Фараби в X веке выделял важность роли учителя в формировании нравственных принципов, практических навыков у молодых людей: развитии творческих начал. В его взгляде на учителей отражалось понимание их ответственности в рамках формировании ценностных ориентиров будущего поколения. Согласно его позиции, педагоги должны выполнять свою профессиональную роль с должным вниманием и ответственностью[3; 320-С.].

Значительные научные открытия, сделанные в XX веке практически во всех областях гуманитарного знания, заставили современных исследователей иначе взглянуть на мир и обратиться к антропоцентрической научной парадигме. Возникла реальная потребность в самом понимании картины мира, что способствовало появлению научной, обыденной картины мира и осознание того, что мир можно воспринимать многообразно, в зависимости от используемого инструментария.

В этом постоянно меняющемся мире современный учитель берет на себя многогранную ответственность не только за передачу знаний, но и за воспитание важнейших жизненных навыков. Роль учителя выходит за рамки классной комнаты и распространяется на развитие характера, прививая чувство любознательности, критическое мышление и способность к адаптации. Наделение учащихся способность различать надежные источники знаний и воспитание любви к учебе становятся основополагающими аспектами их миссии. Современный учитель может быть призван исполняющим несколько ролей: педагога, воспитателя, организатора жизни и проводника культуры. Хотя достижение такой универсальности может показаться большинству утопией, каждый учитель должен обладать этими качествами, в той или

иной степени. Учителя должны адаптироваться к быстрому развитию технологий и умело внедрять их в свою практику. Следовательно, их мастерство больше не будет ограничиваться трансляцией знаний, а расширится до глубокого понимания педагогических подходов в цифровом ландшафте, где интернет играет ключевую роль.

По мысли Канта, всякое человеческое познание начинается с созерцаний, переходит от них к понятиям и заканчивается идеями[7; 527-С.].

Ситуация, сложившаяся в настоящее время, показывает, что учительство занимает важнейшее место как социально-профессиональное сообщество, занимающееся воспитанием, обучением, развитием, социализацией и профессиональной ориентацией молодых людей. Оно служит движущей силой для решения жизненно важных социальных и общекультурных задач. Совесть, как основополагающий компонент духовности учителя, играет глубокую роль в формировании не только его личной жизни, но и взаимодействия в обществе участие. Она включает в себя проявление их гражданской позиции, эстетических чувств и профессиональных качеств, тем самым являясь примером их профессионализма. Гражданская позиция учителя, сформированная под влиянием его совести, побуждает его активно участвовать в жизни общества, отстаивая те вопросы, которые соответствуют его моральным ценностям. Будь то участие в общественных инициативах, решение проблем социального неравенства или содействие инклюзивности, учителя с сильной совестью становятся катализаторами позитивных изменений в сообществах. В современном образовательном ландшафте роль учителя остается чрезвычайно важной, как и в прошлом. Однако сложность их работы значительно возросло, и теперь перед ними стоят дополнительные задачи по нравственному воспитанию и формированию у учащихся прочной системы ценностей. В сегодняшних реалиях эти задачи становятся все более сложными и ответственными. Сегодня учителя сталкиваются с множеством тонкостей и сложностей, которые не были столь распространены в прежние времена. Стремительное развитие технологий, распространение информации и развитие социальной динамики создали совершенно иную образовательную среду.

«Такая задача – пишет Макс Вебер в своем труде, - мне представляется отнюдь не маловажной, даже для чисто личной жизни. Если какому-нибудь преподавателю это удастся, то я бы сказал, что он служит «нравственным» силам, поскольку вносит ясность»[4; 715-725 С.].

Можно говорить и о некотором совпадении позиции Макса Вебера с точкой зрения Эмиля Дюркгейма, который также обнаруживает проявление феномена «Учитель», правда только в сфере научной деятельности и не заметил его проявлений в иных сферах человеческой культуры-религии, философии и пр. Но если Э. Дюркгейм высказывает только догадку относительно социокультурной учительской феноменологии в науке, то М. Вебер уже предпринимает хотя и неявную, но все-таки различимую попытку методологической типологизации учетного-исследователя как учительского феномена в качестве социального деятеля.

В Америке отношение к учителю по другому чем в Европе или Азии. Американский ученик учится несравненно меньше европейского. Школьник-немец учится в школе очень много. Американскому мальчику нужен диплом, фиксирующий результаты экзамена и служащий входным билетом в мир человеческой карьеры.

«Учителя, которым дети обязаны воспитанием, почтеннее, чем родители, которым дети обязаны лишь рождением: одни дарят нам только жизнь, а другие – добрую жизнь»[6; 193. С].

Великий китайский мыслитель Конфуций всегда почитался и почитается китайцами и как выдающийся Учитель, наиболее ярко воплотивший в своем учении специфику китайской цивилизации, как «Отец китайской нации».

Великий древнегреческий философ Сократ совершил поворот в развитии философии, впервые поставив в центр философствования человека, его сущность, внутренние противоречия его души. Благодаря этому познание переходит от философского сомнения «я знаю только то, что ничего не знаю» к рождению истины посредством самопознания. Для Афинского философа все вопросы этики были в центре его внимания. Сократ стремился доказать целесообразность и разумность как мира, таки и человека.

«В отличие от своих современников и оппонентов – новоявленных «учителей мудрости», именуемых софистами, Сократ не брал денег за обучение, да и вообще не считал, что он кого-то чему-то учит. Он сам искренне хотел научиться у окружающих. Однако если Учитель – не тот, кто учит, а тот, у кого учатся, то тогда Сократ, несомненно, были великим Учителем – в условиях нравственного кризиса и крушения всех ценностей, искавшим истину, испытывавшим на прочность все старые представления и верования»[5; 93-С.].

Современниками Сократа были софисты – платные учителя мудрости, которые учили всех желающих философии, логике и особенно, риторике (науке и искусству красноречия). Сократ учил неформально, подводя людей к мысли о необходимости познания самих себя. Софисты учили за деньги, как добиться успеха в практических делах. Слово «софист» означает что-то вроде мудреца. Поскольку Сократ тоже был учителем, неудивительно, что в народе его называли софистом.

«В то время когда в Греции почти не было, если не сказать-не было совсем, систематического обучения, софисты выполняли роль учителей. Они были странствующими учителями, которые давали знание или воспитание на профессиональной основе»[8; 83-С.].

Иммануил Кант – основоположник немецкой классической философии. Не только ф философии, а и в конкретной науке Кант был глубоким, проницательным мыслителем. Учение Канта явилось поворотным моментом в философии нового времени и оказало решающее воздействие на всю последующую философскую мысль. Необходимо отметить, что вся жизнь Канта прошла в Пруссии и была отдана преподаванию в университете и созданию философских сочинений. В мировой цивилизации роль каждого Учителя велика.

Важно отметить, что настоящий Учитель учит не столько словами или речами, сколько собственным примером, поступками и судьбой. И это является важной миссией каждого Учителя.

1. O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy asoslarini o'rganish;
2. Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil o'tkazish;
3. Elektron shartnomalarning amaliyotdagi qo'llanilishini tadqiq etish;
4. Mavjud muammolarni aniqlash va tahlil qilish;
5. Qonunchilikni takomillashtirish va amaliyotni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Elektron shartnomalar mavzusi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, O'zbekistonlik huquqshunos olimlar M. Mamasiddiqov [1], X. Raxmonqulov [2] va boshqalar o'z asarlarida elektron shartnomalarning huquqiy jihatlari, ularning fuqarolik huquqidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etishgan.

M. Mamasiddiqov o'zining «Fuqarolik huquqida shartnomalar tizimi» nomli monografiyasida elektron shartnomalarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan. Uning fikricha, «elektron shartnomalar an'anaviy shartnomalardan shakli jihatidan farq qilsa-da, huquqiy mohiyati bo'yicha bir xil yuridik kuchga ega» [1, 156-bet].

X. Raxmonqulov esa «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi» darsligida elektron shartnomalarning fuqarolik huquqidagi o'rnini ko'rsatib o'tgan. U «elektron shartnomalar fuqarolik huquqining yangi instituti sifatida shakllanmoqda va bu jarayon qonunchilikni doimiy takomillashtirishni talab qiladi» degan xulosaga kelgan [2, 287-bet].

Xorijiy olimlardan A. Murray [3], C. Reed [4] kabi tadqiqotchilar elektron shartnomalarning xalqaro huquqiy tartibga solinishi masalalarini chuqur o'rganishgan. Ularning ishlarida elektron tijoratning huquqiy jihatlari, xavfsizlik masalalari va nizolarni hal etish mexanizmlari tahlil qilingan.

A. Murray o'zining «Information Technology Law: The Law and Society» nomli kitobida elektron shartnomalarning xalqaro miqyosda tartibga solinishi masalalarini ko'rib chiqqan. U «elektron shartnomalar sohasidagi qonunchilikni unifikatsiya qilish global elektron tijoratning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega» degan fikrni ilgari surgan [3, 324-bet].

C. Reed esa «Internet Law: Text and Materials» asarida elektron shartnomalar bilan bog'liq yuridik muammolarni tahlil qilgan. Uning ta'kidlashicha, «elektron shartnomalarning xavfsizligini ta'minlash va ular bo'yicha nizolarni hal etish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy huquqning dolzarb vazifalaridan biridir» [4, 178-bet].

Shu bilan birga, O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibini kompleks o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini taklif etish bo'yicha yetarli tadqiqotlar o'tkazilmagan. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Tizimli tahlil usuli – elektron shartnomalarning huquqiy tartibini yaxlit tizim sifatida o'rganish uchun qo'llanilgan. Bu usul yordamida elektron shartnomalar bilan bog'liq huquqiy normalar, institutlar va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik aniqlangan. Qiyosiy-huquqiy usul - O'zbekiston qonunchiligini xalqaro tajriba bilan taqqoslash uchun foydalanilgan. Bu usul orqali O'zbekiston va rivojlangan davlatlarning elektron shartnomalar sohasidagi qonunchiligi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlangan, ilg'or tajribalar o'rganilgan. Formal-yuridik usul - huquqiy normalarning mazmunini tahlil qilish uchun qo'llanilgan. Bu usul yordamida O'zbekiston qonunchiligidagi elektron shartnomalar bilan bog'liq normalarning mazmuni, tuzilishi va o'zaro aloqadorligi o'rganilgan. Statistik usul – elektron shartnomalarning amaliyotdagi qo'llanilishini miqdoriy jihatdan baholash uchun foydalanilgan. Bu usul orqali O'zbekistonda elektron shartnomalarning qo'llanilishi dinamikasi va tendensiyalari aniqlangan. Sotsiologik usul – elektron shartnomalar sohasidagi mutaxassislar va amaliyotchilar bilan suhbatlar o'tkazish orqali mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari bo'yicha ma'lumotlar to'plash uchun qo'llanilgan.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, xalqaro-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va statistik ma'lumotlar o'rganilgan. Shuningdek, elektron tijorat sohasidagi ekspertlar va amaliyotchilar bilan suhbatlar o'tkazilgan.

O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy asoslarini quyidagi asosiy qonun hujjatlari tashkil etadi:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi [5]
2. «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonun [6]
3. «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonun [7]
4. «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonun [8]

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi elektron shartnomalarning umumiy huquqiy asosini belgilaydi. Kodeksning 366-moddasida shartnomalarning yozma shaklda tuzilishi mumkinligi ko'rsatilgan bo'lib, elektron shartnomalar ham yozma shaklda tuzilgan shartnomalar sifatida tan olinadi. 367-modda esa elektron hujjat almashinuvi orqali tuzilgan bitimlarning yuridik kuchini tasdiqlaydi.

«Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonun elektron hujjatlarning, jumladan elektron shartnomalarning yuridik kuchini belgilaydi. Qonunning 5-moddasiga ko'ra, «Elektron hujjat qog'ozdagi hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega va u bilan teng ahamiyatlidir» [6]. Bu norma elektron shartnomalarning an'anaviy shartnomalar bilan teng maqomga ega ekanligini ta'minlaydi.

«Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonun elektron tijoratda shartnomalarni tuzish tartibini, tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Qonunning 11-moddasida elektron tijoratda shartnoma tuzish tartibi batafsil yoritilgan. Unga ko'ra, «Elektron tijoratda shartnoma elektron hujjat tarzida tuziladi va u elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi» [7].

«Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonun esa elektron raqamli imzoning huquqiy maqomini va uning qo'llanilish tartibini o'rnatadi. Qonunning 7-moddasiga asosan, «Elektron raqamli imzo imzo chekuvchining o'z qo'li bilan qo'ygan imzosiga tenglashtiriladi» [8]. Bu norma elektron shartnomalarning yuridik kuchini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu qonunlar elektron shartnomalarning huquqiy asosini ta'minlasa-da, amaliyotda bir qator muammolar mavjud. Xususan, elektron shartnomalarning haqiqiylikini aniqlash, xavfsizligini ta'minlash va nizolarni hal etish masalalari to'liq tartibga solinmagan.

Masalan, «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonunda elektron shartnomalar bo'yicha nizolarni hal etish tartibi aniq belgilanmagan. Bu esa amaliyotda muammolarga olib kelmoqda. Shuningdek, xalqaro elektron tijorat bilan bog'liq masalalar ham yetarlicha tartibga solinmagan.

Bulardan tashqari, elektron shartnomalarning ma'lum turlari, masalan, smart-kontraktlar uchun maxsus huquqiy tartibga solish mexanizmlari mavjud emas. Bu esa innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekistonda elektron shartnomalarning qo'llanilishi so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sdi. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda elektron tijorat hajmi 2022-yilga nisbatan 30% ga oshgan [9]. Bu o'sish, albatta, elektron shartnomalarning keng qo'llanilishi bilan bevosita bog'liq.

Amaliyotda elektron shartnomalar asosan quyidagi sohalarda qo'llanilmoqda:

1. Chakana savdo (online do'konlar): Elektron tijorat platformalari orqali tuzilayotgan oldi-sotdi shartnomalari elektron shartnomalarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Masalan, «Uzum Market», «Aliexpress O'zbekiston» kabi yirik onlayn-do'konlarda har kuni minglab elektron shartnomalar tuzilmoqda.
2. Bank xizmatlari: Banklarning mobil ilovalar va internet-banking xizmatlari orqali mijozlar bilan tuzilayotgan shartnomalar ham elektron shaklda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Markaziy bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 25 million nafardan oshgan [10].
3. Sug'urta xizmatlari: Ko'pgina sug'urta kompaniyalari o'z veb-saytlari orqali onlayn sug'urta polislarini sotishni yo'lga qo'ygan. Masalan, «Gross Insurance» kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda ularning onlayn sotuvlari umumiy sotuvlarning 15% ini tashkil etgan [11].

4. Kommunal xizmatlar: Elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti kabi kommunal xizmatlar uchun shartnomalar ham endi elektron shaklda tuzilmoqda. «E-kommunal» tizimi orqali 2023-yilda 3 milliondan ortiq elektron shartnoma tuzilgan [12].
5. Transport xizmatlari: Aviachipta va temir yo'l chiptalarini onlayn xarid qilish ham elektron shartnomalar asosida amalga oshirilmoqda. «Uzbekistan Airways» ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda sotilgan aviachiptalarning 40% i onlayn platforma orqali sotilgan [13].

Misol uchun, «Payme» to'lov tizimi orqali 2023-yilda 10 milliondan ortiq elektron shartnomalar tuzilgan [14]. Bu raqamlar elektron shartnomalarning amaliyotda tobora keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatishda ham elektron shartnomalardan foydalanish kengaymoqda. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali ko'rsatilayotgan xizmatlarning aksariyati elektron shartnomalar asosida amalga oshirilmoqda. 2023-yilda bu portal orqali 5 milliondan ortiq elektron shartnomalar tuzilgan [15].

Biroq, elektron shartnomalarning amaliyotdagi qo'llanilishida bir qator muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan:

Elektron shartnomalarning xavfsizligi bilan bog'liq muammolar. Kiberfiribgarlik holatlari ko'payishi natijasida fuqarolar va tashkilotlar zarar ko'rmoqda. Markaziy bankning ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda kiberfiribgarlik orqali yetkazilgan zarar miqdori 50 milliard so'mdan oshgan [16].

Elektron shartnomalar bo'yicha nizolarni hal qilish muammolari. Sudlarda elektron shartnomalar bilan bog'liq nizolarni ko'rishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda elektron shartnomalar bilan bog'liq 1000 dan ortiq nizo ko'rib chiqilgan [17].

Elektron shartnomalarning yuridik kuchi bilan bog'liq tushunmovchiliklar. Ayrim hollarda davlat organlari va boshqa tashkilotlar elektron shartnomalarning yuridik kuchini tan olishda muammolarga duch kelmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda elektron shartnomalarning amaliyotdagi qo'llanilishi jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Biroq, bu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ularni hal etish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish va amaliy mexanizmlarni rivojlantirish talab etiladi.

Tadqiqot natijasida O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

1. Elektron shartnomalarning haqiqiylikni aniqlash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu muammo ayniqsa xalqaro elektron tijoratda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Masalan, chet el kompaniyalari bilan tuzilgan elektron shartnomalarning haqiqiylikni tasdiqlash va ularni O'zbekiston hududida ijro etishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.
2. Elektron tijoratda nizolarni hal qilish tartibi aniq belgilanmagan. «Elektron tijorat to'g'risida»gi qonunda bu masala yetarlicha yoritilmagan. Natijada, elektron shartnomalar bilan bog'liq nizolarni hal qilishda sudlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar qiyinchiliklarga duch kelmoqda.
3. Elektron shartnomalarning xavfsizligini ta'minlash masalalari to'liq hal etilmagan. Kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolar, jumladan, elektron imzolarning qalbakilashtirilishi, ma'lumotlarning o'g'irlanishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa elektron shartnomalarning ishonchliligiga putur yetkazmoqda.
4. Elektron shartnomalar bo'yicha isbotlash jarayoni murakkab. An'anaviy shartnomalardan farqli o'laroq, elektron shartnomalar bo'yicha dalillarni to'plash va sudga taqdim etish jarayoni murakkab. Bu esa nizolarni hal qilish jarayonini sekinlashtirmoqda.

5. Xalqaro elektron shartnomalar tuzishda qonunchiliklar o'rtasidagi nomuvofiqliklar mavjud. O'zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlarga to'liq moslashtirilmaganligi sababli, xorijiy kompaniyalar bilan elektron shartnomalar tuzishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.
6. Elektron shartnomalarning ma'lum turlari, masalan, smart-kontraktlar uchun maxsus huquqiy tartibga solish mexanizmlari mavjud emas. Bu esa innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.
7. Elektron shartnomalar sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi mavjud. Ko'pgina yuristlar va sudyalalar elektron shartnomalar bilan ishlash bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emas.

Bu muammolar elektron shartnomalarning keng qo'llanilishiga to'sqinlik qilmoqda va ushbu sohaning rivojlanishini sekinlashtirmoqda. Ularni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi, jumladan qonunchilikni takomillashtirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish va kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilash zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolarni hal etish va O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Elektron shartnomalar bo'yicha maxsus qonun qabul qilish. Bu qonun elektron shartnomalarning barcha jihatlarini, jumladan ularning haqiqiylikni aniqlash, xavfsizligini ta'minlash va nizolarni hal etish masalalarini to'liq qamrab olishi kerak. Qonunda xalqaro elektron shartnomalar bilan bog'liq masalalar ham o'z aksini topishi lozim. Elektron tijoratda nizolarni hal qilish uchun onlayn platformalar yaratish. Bu platformalar tez, samarali va kam xarajat talab qiladigan nizolarni hal qilish mexanizmini ta'minlashi mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqidagi «Online Dispute Resolution» (ODR) platformasi tajribasidan foydalanish mumkin. Elektron shartnomalar xavfsizligini ta'minlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etish. Masalan, blokchain texnologiyasidan foydalanish elektron shartnomalarning xavfsizligini va ishonchligini oshirishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, firibgarlikni aniqlash tizimlarini yaratish mumkin. Elektron shartnomalar bo'yicha sud amaliyotini umumlashtirish va tegishli yo'riqnomalar ishlab chiqish. Bu sudyalarga va huquqni muhofaza qilish organlariga elektron shartnomalar bilan bog'liq nizolarni ko'rishda yordam beradi. Oliy sud tomonidan maxsus plenum qarori qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish. Bu xalqaro elektron shartnomalar tuzishda qonunchiliklar o'rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etishga yordam beradi. UNCITRAL Model qonuni asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish mumkin. Smart-kontraktlar va boshqa innovatsion elektron shartnoma turlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani yaratish. Bu yangi texnologiyalarning rivojlanishiga va ularning amaliyotda keng qo'llanilishiga yordam beradi. Elektron shartnomalar sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish. Oliy ta'lim muassasalarida «Elektron tijorat huquqi» kabi maxsus kurslarni joriy etish, amaliyotchi yuristlar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Elektron shartnomalar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish. Bu baza orqali elektron shartnomalarning haqiqiylikni tekshirish, ularning ijrosi ustidan monitoring olib borish imkoniyati paydo bo'ladi. Elektron shartnomalar bo'yicha fuqarolar va tadbirkorlarning huquqiy savodxonligini oshirish. Bu maqsadda ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, maxsus qo'llanmalar va yo'riqnomalar nashr etish maqsadga muvofiq. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibini takomillashtirishga, ularning keng qo'llanilishiga va pirovardida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar elektron shartnomalarning huquqiy asosini ta'minladi. Amaliyotda elektron shartnomalarning qo'llanilishi keng tarqalmoqda, ayniqsa elektron tijorat, bank xizmatlari, sug'urta va transport sohalarida.

Biroq, bu sohada hali ham bir qator muammolar mavjud. Xususan, elektron shartnomalarning haqiqiylikini aniqlash, xavfsizligini ta'minlash, nizolarni hal etish kabi masalalarda qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Shuningdek, xalqaro elektron shartnomalar tuzishda qonunchiliklar o'rtasidagi nomuvofiqliklar, innovatsion shartnoma turlari uchun huquqiy bazaning yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud.

Ushbu muammolarni hal etish uchun kompleks chora-tadbirlar ko'rish zarur. Jumladan, maxsus qonun qabul qilish, nizolarni hal etish uchun onlayn platformalar yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibini takomillashtirishga va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelajakda bu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish, xususan, elektron shartnomalarning alohida turlari (masalan, smart-kontraktlar) bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq. Bunday tadqiqotlar O'zbekistonda elektron shartnomalar sohasining yanada rivojlanishiga va takomillashishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda elektron shartnomalarning huquqiy tartibi rivojlanish bosqichida bo'lib, bu jarayonni jadallashtirish uchun davlat organlari, xususiy sektor va ilmiy hamjamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga, elektron tijoratning kengayishiga va fuqarolar hamda tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilishiga olib keladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik huquqida shartnomalar tizimi. – T.: TDYU, 2019. – 320 b.
2. Raxmonqulov X.R. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi. – T.: Adolat, 2018. – 456 b.
3. Murray A. Information Technology Law: The Law and Society. – Oxford University Press, 2022. – 662 p.
4. Reed C. Internet Law: Text and Materials. – Cambridge University Press, 2020. – 452 p.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 21.12.1995.
6. «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 29.04.2004.
7. «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 22.05.2015.
8. «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 11.12.2003.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik hisobot. 2023.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistika ma'lumotlar to'plami. 2023.
11. «Gross Insurance» kompaniyasi. Yillik moliyaviy hisobot. 2023.
12. «E-kommunal» axborot tizimi. Statistika ma'lumotlar. 2023.
13. «Uzbekistan Airways» kompaniyasi. Yillik hisobot. 2023.
14. «Payme» to'lov tizimi. Yillik hisobot. 2023.
15. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. Hisobot. 2023.
16. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Kiberxavfsizlik bo'yicha hisobot. 2023.
17. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Sud statistikasi. 2023.
18. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce. United Nations, 1996.
19. Directive 2000/31/EC of the European Parliament and of the Council on certain legal aspects of information society services, in particular electronic commerce, in the Internal Market. 8 June 2000.
20. Tapscott D., Tapscott A. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World. – Portfolio, 2018. – 384 p.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

SPECIFIC ASPECTS OF COPYRIGHT OBJECTS AND SERVICE WORKS CREATED ON THE BASIS OF A STATE ORDER

Orazbayev Laziz Shukhrat o'gli

Bureau of Compulsory Enforcement under the General Prosecutor's Office,

Chilonzor district department - state executive

E-mail: lazizbekorazbayev@gmail.com

Abstract. In this article, the recognition of copyright in relation to copyright objects and service works created on the basis of the state order, the distribution of personal non-property rights and property rights in relation to the copyright object between the parties, the differences between the author's contract and the contract of order and similar aspects are analyzed from a legal point of view.

Keywords: copyright, property rights, personal non-property rights, order contract, intellectual property right, state order, "work for hire" concept, service work, intellectual property object created on the basis of state order.

DAVLAT BUYURTMASI ASOSIDA YARATILGAN MUALLIFLIK HUQUQI OBYEKTLARINING HAMDA XIZMAT ASARINING O'ZIGA XOS JIHLARI

O'razbayev Laziz Shuxrat o'g'li

Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining

Chilonzor tuman bo'lim - davlat ijrochisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari hamda xizmat asariga nisbatan mualliflik huquqining e'tirof etilishi, mualliflik huquqi obyektiga nisbatan bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va mulkiy huquqlarning tomonlar o'rtasida taqsimlanishi, mualliflik shartnomasi va buyurtma shartnomasi o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlari huquqiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, mulkiy huquqlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, buyurtma shartnomasi, intellektual mulk huquqi, davlat buyurtmasi, "work for hire" tushunchasi, xizmat asari, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan intellektual mulk obyekti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N30.2>

Kirish. Bugungi kunda mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan bo'lgan mulkiy huquqlar va shaxsiy nomulkiy huquqlarning o'rni va ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, mualliflik huquqi obyektlarini yaratgan subyektlar o'z huquqlaridan oldingi yillarga nisbatan kengroq ravishda foydalanmoqdalar, shu bilan birga buzilgan huquqlarini sud orqali himoya qilish, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan buzilgan huquqlarning himoya qilinishi mualliflik huquqi obyekti hisoblanadigan asarlarning qadrini orttirmoqda.

Hammamizga ma'lumki, mualliflik huquqi obyektlari hisoblanuvchi asarlar odatda muallifning o'z xohish-irodasi asosida yaratiladi, ammo shunday holatlar mavjudki, ushbu asarlar muallif ish faoliyat olib boruvchi tashkilot yoki davlat buyurtmasi asosida ham

yaratilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni [1]ng 34-moddasida hamda Fuqarolik kodeksi[2]da xizmat asarlari yoritilgan bo'lib, unga ko'ra xizmat vazifalarini yoki xizmat topshirig'ini bajarish tartibida yaratilgan asar (xizmat asari) deb yuritiladi. Yuqoridagi Qonuning 41-moddasida hamda Fuqarolik kodeksining tegishli moddasida buyurtma asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari haqida so'z yuritiladi, unga ko'ra muallif tomonidan buyurtmachining buyurtmasi asosida yaratilgan asar buyurtma asar hisoblanadi. Ko'pchilik holatlarda xizmat asari va davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlar chalkashlikni vujudga keltiradi, ya'ni xizmat asarlarining hammasini davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asar deb hisoblash holatlari amaliyotda uchrab turadigan holat hisoblanadi, aslida, xizmat asarlari bilan davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlar bir-biridan farq qiladi. Chunki, xizmat asarlari ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida yaratiladi, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlar bo'lsa, muallif va buyurtmachi, yani davlat o'rtasida tuzilgan buyurtmaning mualliflik shartnomasi asosida yaratiladi. Shunday holatlar mavjudki, ushbu holatlarda xizmat asari bir vaqtning o'zi davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektini hisoblanuvchi asar va xizmat asari bo'lishi mumkin. Quyida xizmat asari va davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari haqida batafsil so'z yuritimiz.

ASOSIY QISM. Xizmat asari – bu xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida yoki ish beruvchining aniq topshirig'i asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektini, ya'ni xodimning mehnat shartnomasi doirasida yoki lavozim majburiyatlari asosida yaratilgan intellektual faoliyat mahsuli hisoblanadi. Xizmat asari ish beruvchining topshirig'i yoki roziligi asosida xodimning ish vaqtida va ish beruvchining resurslaridan foydalangan holda yaratiladi, shuningdek, bunday turdagi asarlar ish beruvchining faoliyat sohasiga tegishli bo'ladi. Xizmat asarlarining huquqiy maqomiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu asarlarga tegishli bo'lgan mulkiy huquqlar odatda ish beruvchiga tegishli bo'ladi, muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari (masalan, muallif sifatida tan olinish) kabi huquqlari o'zida saqlanib qoladi, ya'ni mulkiy huquqlar odatda ish beruvchiga o'tadi, shaxsiy huquqlar muallifning o'zida saqlanib qoladi[3]. Xizmat asarlari uchun to'lanadigan kompensatsiya asosan ish haqi doirasida qoplanadi, ba'zi hollarda qo'shimcha mukofot belgilanishi holatlari ham kuzatilishi mumkin. Ish beruvchi asardan o'z xohishiga ko'ra foydalanish huquqiga ega hisoblanadi, lekin muallif (xodim) odatda asardan foydalanishda cheklangan huquqlarga ega hisoblanadi. Xizmat asarini yaratish uchun mehnat shartnomasi, lavozim yo'riqnomasi, ichki tartib-qoidalar yuridik asoslar hisoblanadi. Xizmat asarlarining asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

- Ilmiy-texnik hujjatlar;
- Dasturiy ta'minot;
- Dizayn loyihalari;
- Marketing materiallari;
- Texnik ixtirolar.

Xizmat asarlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, xodimning ish vaqtidan tashqari yaratgan asarlari xizmat asari hisoblanmasligi mumkin, ya'ni xodim ish vaqtidan tashqari, ammo o'z ish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asarni yaratgan taqdirda bunday asar xizmat vazifalarini amalga oshirish jarayonida yaratilgan asar hisoblanmaydi, chunki xodim ushbu asarni yaratishda ish beruvchining resurslaridan emas, balki o'z shaxsiy resurslaridan foydalangan bo'ladi. Shuningdek, xizmat asari tushunchasi mualliflik huquqi va mehnat huquqi kesishgan nuqtada joylashgan murakkab masala hisoblanadi. Shuning uchun, xodim va ish beruvchi o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar fuqarolik hamda mehnat munosabatlari hisoblanishi natijasida har ikkala huquq doirasida amalga oshiriladi, shuningdek, ularning chegaralari qonunchilik asosida aniqlanadi.

Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning huquqiy maqomi ham birmuncha murakkab. Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari - bu davlat organlari yoki

muassasalari tomonidan maxsus shartnoma asosida, davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan adabiyot, san'at va ilm-fan asarlari hisoblanadi. Unga quyidagi asosiy turlar misol bo'la oladi:

- Ilmiy maqolalar va monografiyalar;
- Badiiy adabiyot asarlari;
- Musiqa asarlari;
- Kino va televideniye asarlari;
- Ta'lim materiallari va darsliklar;
- Komputer dasturlari;
- Ma'lumotlar bazalari;
- Tasviriy san'at asarlari.

Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlarini yaratilishi uchun huquqiy asos sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni;

- Fuqarolik kodeksi;
- Davlat buyurtmalari to'g'risidagi nizomlar.

Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan muallifda mualliflik huquqi (shaxsiy nomulkiy huquq sifatida), asar muallifligini tan olish huquqi, asardan o'z ismi bilan foydalanish huquqi, asarning daxlsizligi huquqi, mukofot olish huquqi (shartnoma shartlariga ko'ra) kabi huquqlar tegishli hisoblansa, davlatga asardan foydalanish huquqi, asarni tarqatish huquqi, asarni o'zgartirish huquqi (ko'p hollarda muallif roziligi bilan), asarni tijoratlashtirish huquqi tegishli hisoblanadi. Odatda, mulkiy huquqlar davlatga o'tadi, lekin bu shartnoma shartlariga bog'liq, ba'zi hollarda muallifga cheklangan mulkiy huquqlar qoldirilishi ham mumkin. Ko'p hollarda davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari erkin foydalanish uchun ochiq bo'ladi, shuningdek, davlat manfaatlari uchun keng qo'llaniladi va ba'zi hollarda maxfiylik rejimi ham qo'llanilishi mumkin.

Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyekti va xizmat asari o'rtasida bir qator o'xshash va farqli jihatlarga to'xtalib o'tamiz.

O'xshash jihatlar:

1. Yaratilish maqsadi: Har ikkala turdagi asar ham muayyan topshiriq yoki buyurtma asosida yaratiladi.

2. Muallifning shaxsiy huquqlari: Har ikki holda ham muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari (masalan, muallif sifatida tan olinish huquqi) saqlanib qoladi.

3. Shartnoma asosida: Ikkala holda ham asar yaratish uchun shartnoma tuziladi.

4. Mulkiy huquqlar: Ko'p hollarda mulkiy huquqlar buyurtmachi (ish beruvchi yoki davlat)ga o'tadi.

Farqli jihatlar:

1. Buyurtmachi:

- Davlat buyurtmasi: Davlat organlari yoki tashkilotlari;
- Xizmat asari: Xususiy kompaniya yoki tashkilot (ish beruvchi).

2. Moliyalashtirish:

- Davlat buyurtmasi: Davlat mablag'lari hisobidan;
- Xizmat asari: Xususiy kompaniya mablag'lari hisobidan.

3. Huquqiy asos:

- Davlat buyurtmasi: Davlat shartnomasi yoki maxsus qaror asosida;
- Xizmat asari: Mehnat shartnomasi yoki lavozim majburiyatlari doirasida.

4. Foydalanish doirasi:

- Davlat buyurtmasi: Odatda keng jamoatchilik foydalanishi uchun;
- Xizmat asari: Ko'pincha faqat ish beruvchi tashkilot ichida foydalanish uchun.

5. Huquqlarning o'tishi:

- Davlat buyurtmasi: Mulkiy huquqlar to'liq davlatga o'tishi mumkin;

- Xizmat asari: Mulkiy huquqlar ish beruvchiga o'tadi, lekin ba'zi hollarda cheklovlar bo'lishi mumkin.

6. Maqsad:

- Davlat buyurtmasi: Ko'pincha ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlar uchun;
- Xizmat asari: Asosan kompaniyaning tijorat maqsadlari uchun yaratiladi.

7. Haq to'lash tizimi:

- Davlat buyurtmasi: Ko'pincha bir martalik to'lov asosida haq to'lanadi;
- Xizmat asari: Odatda ish haqi doirasida qoplanadi, qo'shimcha haq kam hollarda beriladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, xizmat asari bilan davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektini hisoblanuvchi asarlar ikki xil turdagi mualliflik huquqi obyektini hisoblanadi, bir qarashda bir xildek ko'rinsa ham ular yaratilish jarayoni, tomonlarning huquq va manfaatlari jihatidan farq qiladi. Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari asosan davlat manfaatlari uchun yaratiladi hamda ulardan foydalanish ko'pchilik holatlarda omma uchun erkin hisoblanadi. Asosan ta'lim materiallari hisoblanadigan maktab darsliklari, oliy ta'lim uchun o'quv qo'llanmalar, maxsus ta'lim muassasalari uchun metodik materiallar, ilmiy asarlar, davlat ilmiy institutlari tomonidan tayyorlangan tadqiqot hisobotlari, davlat buyurtmasi asosida yozilgan ilmiy monografiyalar, davlat ahamiyatiga molik mavzularda yozilgan dissertatsiyalar, davlat ahamiyatiga molik tarixiy shaxslar haqida yozilgan biografik asarlar, milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi badiiy asarlar, davlat bayramlari uchun yaratilgan she'riy to'plamlar, davlat madhiyasi, davlat tadbirlari uchun maxsus buyurtma asosida yaratilgan musiqalar davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlarining xilma-xilligini ko'rsatadi. Har bir holatda, ushbu asarlarning mualliflik huquqlari va ulardan foydalanish shartlari alohida shartnomalar bilan tartibga solinadi.

Xorijiy tajribalar. Davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari xorijiy davlatlarda ham muhim ahamiyatga ega va turli mamlakatlarda bu masala turlicha hal etiladi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari masalasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy qonun bu Federal mualliflik huquqi qonuni[4] (17 U.S.C.) hisoblanadi va ushbu qonunda "Work for hire" (ish beruvchi uchun yaratilgan asar) doktrinasi nazarda tutiladi. AQSH huquqiy tizimida "work made for hire" asarlarning turlari juda ko'p bo'lib, bizning milliy qonunchiligimizdagi xizmat asarlari, shuningdek davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlar, ya'ni umumiy ma'noda aytadigan bo'lsak, har qanday turdagi buyurtma asosida yaratilgan asarlar uning tarkibiga kiritiladi.

AQSH qonunchiligiga ko'ra ikkita holatda asar xizmat asari hisoblanadi:

- a) Xodim tomonidan ish doirasida yaratilgan asar;
- b) Maxsus buyurtma asosida yaratilgan va yozma ravishda xizmat asari sifatida kelishilgan asar[5].

AQSH qonunchiligida milliy qonunchiligimizdan farqli ravishda ish beruvchi yoki buyurtmachi asarning mualliflik huquqi egasi hisoblanadi, ya'ni muallif emas, balki ish beruvchi yoki buyurtmachi "asar muallifi" deb hisoblanadi.

Shuningdek, oddiy asarlardan farqli o'laroq, xizmat asarlarining mualliflik huquqi AQShda 95 yil davomida yoki nashr etilgan sanadan boshlab 120 yil davomida himoyalanaadi. AQShda shaxsiy nomulkiy huquqlar tushunchasi cheklangan, asosan tasviriy san'at asarlariga qo'llaniladi.

AQShda federal hukumat tomonidan yaratilgan yoki buyurtma qilingan asarlar alohida maqomga ega sanaladi. AQSh federal hukumati xodimlari tomonidan o'z lavozim majburiyatlari doirasida yaratilgan asarlar mualliflik huquqi bilan himoyalana olmaydi va bunday asarlar jamoat mulki (public domain) bo'lib erkin foydalanish uchun ochiq hisoblanadi. Shuningdek, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlarning o'zlari ham federal hukumat tomonidan yoki shtatlar va mahalliy hukumlar tomonidan buyurtma qilinganligiga qarab huquqiy jihatdan bir-

biridan farq qiladi. Odatda Federal hukumat tomonidan yaratilgan asarlar mualliflik huquqi bilan himoyalangan va u jamoat mulki hisoblanadi, biroq, AQSH qonunchiligiga ko'ra federal hukumat shartnoma asosida xususiy shaxslar yoki tashkilotlardan buyurtma qilgan asarlar mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi mumkin hisoblanadi. Umuman olganda, federal hukumat xodimlari tomonidan o'z vazifalari doirasida yaratilgan asarlar mualliflik huquqi bilan himoyalangan va bunday asarlar jamoat mulki (public domain) hisoblanadi va hamma ulardan erkin foydalanishi mumkin hisoblanadi. Agar asar mustaqil pudratchi tomonidan yaratilgan bo'lsa, u holda mualliflik huquqi masalasi shartnomada belgilanadi. Ko'p hollarda, bunday asarlarning mualliflik huquqi federal hukumatga o'tkaziladi. "Work for hire" doktrinasi davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlarga ham qo'llanilishi mumkin. Agar asar "work for hire" sifatida yaratilgan bo'lsa, mulkiy huquqlar to'g'ridan-to'g'ri buyurtmachiga (bu holda davlatga) tegishli bo'ladi. Federal hukumatdan farqli ravishda, shtat va mahalliy hukumatlar o'zlari yaratgan yoki buyurtma bergan asarlarga nisbatan mualliflik huquqiga ega bo'lishlari mumkin. Ba'zi federal agentliklar o'zlari yaratgan yoki buyurtma bergan asarlarni jamoat mulki sifatida e'lon qilishni afzal ko'radilar. Hatto federal hukumat mualliflik huquqiga ega bo'lmagan hollarda ham, u bunday asarlardan keng foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Milliy xavfsizlik yoki boshqa muhim manfaatlar tufayli ba'zi davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlar ommaga e'lon qilinmasligi va maxfiy saqlanishi mumkin. Federal hukumat, odatda, o'zi egalik qilgan mualliflik huquqi obyektlarini tijoratlashtirmaydi, biroq, u bunday asarlardan xususiy sektor foydalanishiga ruxsat berishi mumkin. AQSh hukumati tomonidan yaratilgan asarlar AQShda mualliflik huquqi bilan himoyalansa ham, boshqa mamlakatlarda himoyalaniishi mumkin, shuningdek, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlar bo'yicha nizolar federal sudlarda ko'rib chiqiladi.

AQSH federal hukumati, shtatlar va mahalliy hukumatlar tomonidan buyurtma asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlariga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- NASA tomonidan olingan kosmik tasvirlar;
- Qishloq xo'jaligi departamenti tomonidan tayyorlangan tadqiqot hisobotlari;
- Milliy sog'liqni saqlash institutlari tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy maqolalar.

AQSH qonunchiligiga ko'ra: "work for hire" asarlar uchun mulk huquqi umuman olganda, davlat IP huquqlariga egalik huquqini saqlab qoladi, ammo milliy qonunlar va maxsus shartnomalar asosida o'zgarishlar kiritilishi mumkin va ayrim yurisdiksiyalarda ijodkorlar muayyan huquqlarni saqlab qolishlari mumkin, ya'ni ma'naviy huquqlar (ularni tan olgan mualliflik huquqi tizimlarida), ixtirochi nomini olish huquqi (patent tizimlarida), potentsial royalti yoki kompensatsiya (shartnoma bo'yicha) olish huquqlari ijodkorga tegishli hisoblanadi. IPdan foydalanish va undan foydalanish huquqi, IPni litsenziyalash yoki o'tkazish huquqi, IP huquqlarini buzuvchilarga nisbatan qo'llash huquqi davlatga tegishli huquqlar hisoblanadi[6]. Ko'pgina yurisdiksiyalar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan IP-ga jamoatchilik kirishini ta'minlaydi, ba'zi asarlar darhol jamoat mulkiga kirishi mumkin. IPni davlat tijoratlashtirish siyosati turlicha ba'zan xususiy sektorga tijoratlashtirish uchun litsenziyalar berilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, AQShda xizmat asari tushunchasi ancha keng va murakkab, maxsus buyurtma asosida yaratilgan asarlarni ham o'z ichiga oladi. Federal hukumat asarlari avtomatik ravishda jamoat mulkiga aylanadi, bu boshqa mamlakatlardagi amaliyotdan farq qiladi. Bu tizim AQShning o'ziga xos huquqiy an'analari va mualliflik huquqiga yondashuvini aks ettiradi. Boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda, AQShda davlat asarlariga nisbatan ochiqlik tamoyili kuchliroq, ammo xizmat asarlari bo'yicha ish beruvchilar huquqlari kengroq himoyalangan.

Xulosa. Intellektual mulk huquqi obyekti hisoblanadigan xizmat asari va davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlarga nisbatan mulkiy huquqlar ish beruvchi yoki davlatga tegishli hisoblansa, shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga tegishli hisoblanadi. Ularning har ikkalasini yaratish uchun tomonlar o'rtasida shartnoma tuziladi, xizmat asari uchun tuzilgan

xodim va ish beruvchi o'rtasidagi shartnoma mehnat munosabatlarining bir qismi hisoblansa, davlat buyurtmasi asosida asar yaratish uchun tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma fuqarolik munosabati hisoblanadi va bu ular o'rtasidagi asosiy farqlardan biri hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish davomida qonunchiligimizda xizmat asari haqida maxsus moddalar mavjud va uning xususiyatlari ochib berilganligi, ammo davlat buyurtmasi asosida yaratilgan mualliflik huquqi obyektlari to'g'risida ma'lumotlar umumiy asoslarda yoritilganligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun taklif bildirib qolamizki, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida yuqori ta'sir ko'rsatadigan intellektual mulk huquqining obyekti hisoblanuvchi davlat buyurtmasi asosida yaratilgan asarlarning huquqiy maqomini atroflicha yoritib beradigan, davlat va muallifning huquq va majburiyatlarini, ulardan foydalanish shartlarini o'zida mujassamlashtiruvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqilishi amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi
3. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ; Илмий шарҳлар. Т 3. / Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. — Тошкент: Baktaria press, 2013. 412 б.
4. <https://www.bitlaw.com/source/17usc/index.html>
5. John M. Garon & Elaine D. Ziff, The Work Made for Hire Doctrine Revisited: Startup and Technology Employees and the Use of Contracts in a Hiring Relationship, 12 MINN. J.L. SCI. & TECH. 489 (2011).
6. Copyright Law of the United States and Related Laws Contained in Title 17 of the United States Code. december 2022. 7-10 p.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

ISSUES OF REGULATION OF INTELLECTUAL PROPERTY RIGHTS IN PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Arslonkulova Aziza

Assistant Lecturer of the Department of
International Law and Human Rights

Abstract. In the article, the author describes intellectual property rights, protection of intellectual property rights and intellectual property relations in private international law, the principle of territoriality of intellectual property protection, issues of ensuring intellectual property protection in complicated relations with foreign elements, issues of improving intellectual property agreements in private international law and issues of improving national legislation in complex relations with foreign elements in intellectual property ownership are covered.

Keywords: Intellectual property right, private international law, foreign element, contractual relations, principle of "territoriality", "principle of reciprocity", Hague Convention.

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI XALQARO XUSUSIY HUQUQDA TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Arslonkulova Aziza O'tkir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va
inson huquqlar kafedrasida o'qituvchi -yordamchisi

Annotatsiya. Muallif tomonidan maqolada intellektual mulk huquqining tavsifi, intellektual mulk huquqining himoyasi va xalqaro xususiy huquqda intellektual mulk munosabatlari, intellektual mulk himoyasining hududiylik prinsipi, intellektual mulk himoyasini chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarda ta'minlash masalalari, xalqaro xususiy huquqda intellektual mulkka oid shartnomalarni takomillashtirish masalalari va intellektual mulk mulkda chet el elementu bilan murakkablashgan munosabatlarda milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Intellektual mulk huquqi, xalqaro xususiy huquq, chet el elementi, shartnomaviy munosabatlar, "hududiylik" prinsipi, "o'zarolik prinsipi", Gaaga Konvensiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N30.3>

Intellektual mulk huquqlari hududiy chegaralarda qo'llaniladi, ammo ular tobora ko'proq zamonaviy savdo munosabatlari tufayli turli bozor operatsiyalari, turli transchegaraviy subyektlar va faoliyat turlarini o'z ichiga olmoqda. Nomoddiy kapitalning ya'ni yangi texnologiyalar, brendlar, adabiy va badiiy asarlar kabi intellektual mulk obyektlarining chegaralararo harakati globallashtirilmog'da.

Milliy chegaralar orqali xususiy shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan xalqaro xususiy huquq normalari tijorat bitimlarining global tabiati va intellektual mulk obyektlarining yuqori mobilligi tufayli bir qator to'siqlarga yuzlashmoqda.

Intellectual mulk va xalqaro xususiy huquq o'rtasidagi bunday kesishuv tabiiy ravishda chegaralararo munosabatlarni, xususan, intellektual mulk huquqining xalqaro xususiy huquqdagi himoyasi masalalarini ommaviylashtiradi.

Xalqaro xususiy huquqning asosiy uch elementi mavjud. Bular: muammoli vaziyatda qo'llaniladigan qonun, tanlanadigan yurisdiksiya, chet el sudlarining qarorlarini ijroga qaratish. Ushbu elementlar intellektual mulk munosabatlarida qanday qo'llanilishi intellektual mulkning xalqaro xususiy huquqda himoyasini ta'minlashning asosiy prinsipidir.

Xalqaro xususiy huquq doirasida intellektual mulkka oid munosabatlarni tartibga solish, umuman, intellektual mulkka oid munosabatlar sohasida intellektual mulkning o'zni masalalarida xalqaro xususiy huquq uchun an'anaviy bo'lgan savollarning intellektual mulk doirasini ham qamrab olishini ko'rishimiz mumkin.

1. Intellectual mulk bo'yicha transchegaraviy nizolarni qaysi sud hal qilish vakolatiga ega?

2. Intellectual mulkka oid transchegaraviy nizolarda qaysi qonun qo'llaniladi?

3. Xorijiy intellektual mulkka oid sud qarorlari tan olinishi va ijro etilishi qanday mexanizm tomonidan tartibga solinadi?

Xalqaro tashkilotlar, mos ravishda xalqaro xususiy huquq va intellektual mulk bilan bog'liq holda, Xalqaro Xususiy Huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi va Butunjahon Intellectual Mulk Tashkiloti birgalikda xalqaro xususiy huquq va Intellectual mulkning kesishishi masalalarini hal qilish zarurligini tan olgan [1].

Intellectual mulk bo'yicha ish yuritish bilan bog'liq murakkab masalalar - masalan, intellektual mulk huquqining amal qilish doirasi, intellektual mulkka egalik qilish, intellektual mulkka oid huquqbuzarliklar kabi elementlar xalqaro xususiy huquqda ya'ni chet el elementi bilan murakkablashgan muhitda bo'lsa, xalqaro xususiy huquq intellektual mulkda nizolarni muqobil hal etish vositalarining *institutsiyalashuvi*, ya'ni *tomonlarni ko'p yurisdiksiyali nizolarni bir protsessda hal qilish imkonini beruvchi arbitraj yoki boshqa nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarini tanlashga* olib kelishi lozim. Bu esa yurisdiksiya yoki amaldagi qonunchilikdagi to'siqlarni minimallashtiradi.

Xalqaro xususiy huquqda intellektual mulkka xos muammolar mavjud. Bir tomondan, intellektual mulk fuqarolik huquqining nomoddiy obyekt bo'lib, intellektual mulk bugungi kunda tobora globallasadi va intellektual mulk vertual dunyoda hech qanday chegara bilmaydi.

Boshqa tomondan, intellektual mulk muhofazasi hududiydir: Intellectual mulkni himoya qilish doirasi milliy yoki mintaqaviy intellektual mulk qonunlari bilan belgilanadi. Bundan tashqari, bir qator intellektual mulk huquqlari davlat ma'muriy organlarini jalb qiladigan ro'yxatga olish yoki patent kabi rasmiyatchiliklar orqali vujudga keladi. Intellectual mulkning ushbu xususiyati, uni himoya qiluvchi davlatning suvereniteti yoki davlat siyosati maydoni bilan chambarchas bog'laydi, bu intellektual mulk va mulk huquqining hududiylikini ta'kidlaydi.

Chet el elementi odatda xorijiy joylashuvni o'z ichiga olgan bir yoki ikkala tomon; himoyalangan intellektual mulk huquqi; intellektual mulk huquqlarini buzuvchi faoliyat; yoki huquqbuzarlik faoliyatining ta'siri yoki zarari bo'lishi mumkin. Himoya qilinadigan intellektual mulk huquqining tabiati - xususan, u ro'yxatdan o'tish yoki patentlash (masalan, patentlar, ro'yxatdan o'tgan tovar belgilari yoki ro'yxatdan o'tgan sanoat na'munalari) kabi davlat ma'muriy organlarini jalb qiladigan rasmiyatchiliklar orqali vujudga keladigan huquq bo'lishi va ommaviy foydalanish hech qanday rasmiyatchilikka (masalan, mualliflik huquqi, ro'yxatdan o'tmagan tovar belgilari yoki ro'yxatdan o'tmagan sanoat na'munalari) kabi intellektual mulk obyektlarining himoyasini xalqaro xususiy huquq normalari bilan himoya qilish mumkin.

Xalqaro intellektual mulk huquqida normalarni ishlab chiqish turli forumlarda amalga oshiriladi. XIX asrning oxiridan boshlab asosiy joy Jahon intellektual mulk tashkiloti ("WIPO")

bo'ldi. U 1893-yildagi intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha Birlashgan Xalqaro byurosining vorisi hisoblanadi.

1974-yilda u Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan agentligiga aylandi. Hozirgi vaqtda BIMT 26 ta shartnomani boshqaradi, eng qadimgisi 1883-yilda qabul qilingan Parij Konvensiyasidir. Mavjud shartnomalarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini tuzish bo'yicha muzokaralar bugungi kungacha davom etmoqda.

Ushbu hujjatlarning "formati" Ahdlashuvchi davlatlar fuqarolariga kafolatlanishi kerak bo'lgan moddiy minimal huquqlarni ta'minlashning an'anaviy yondashuviga, shuningdek, kamsitmaslik majburiyati va o'zaro munosabatlar qoidalari asosida muayyan himoyani to'xtatib turish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu xalqaro intellektual mulk tizimining ikkita "bosh" shartnomasi, sanoat mulkni himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi (1883) va adabiy va san'at asarlarini himoya qilish bo'yicha Bern konvensiyasi (1886) tizimidir. Bundan tashqari BIMTda patentlar (Patent hamkorlik to'g'risidagi shartnomaning PCT tizimi), savdo belgilari ("Madrid tizimi") va dizayn ("Gaaga tizimi") kabi turli sanoat mulki huquqlarini xalqaro ro'yxatga olish uchun "yagona oyna" mexanizmlari mavjud. Qisqacha aytganda, ushbu tizimlar korxonalariga bir vaqtning o'zida bir nechta shtatlar uchun intellektual mulk huquqini olish imkonini beradi. Bu odatda hududiy jihatdan cheklangan milliy huquqlar (yoki mintaqaviy huquqlar mavjud bo'lsa, masalan, Yevropa Ittifoqi kabi) "to'plami" deb ataladigan narsaga olib keladi.

"Yevropa Ittifoqi" savdo belgisi yoki Hamjamiyat dizayn huquqlari). Ro'yxatdan o'tish ijrochilar (musiqachilar, aktyorlar, aktyorlar) uchun mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlar uchun asosiy talab emas.

Ushbu huquqlar qonun bilan yaratilgan yoki birinchi marta ommaga ma'lum qilingan paytdan boshlab vujudga keladi. Bern konvensiyasi va undan keyingi konvensiyalar shartnoma tuzuvchi davlatlarga mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni olish sharti sifatida ro'yxatdan o'tish kabi rasmiyatchiliklarni o'rnatishni aniq taqiqlaydi. Shu bilan birga, sanoat mulki huquqlari singari mualliflik huquqi va turdosh huquqlar ham ko'lami bo'yicha hududiy hisoblanadi, ya'ni huquq faqat qonunlari asosida vujudga kelgan davlat hududida amal qiladi.

Xalqaro xususiy huquq ("Private International Law") va intellektual mulk (Intellectual Property Law) huquqining o'zaro ta'siri bilan bog'liq muammolar yangi emas. Biroq, raqamli muhitda intellektual mulkdan foydalanishning ko'payishi xalqaro xususiy huquq muammolarini keltirib chiqaradigan intellektual mulk huquqlarni buzish chastotasini oshirdi va bu o'z navbatida ushbu sohadagi muammolarni yanada keskinlashtirdi. Shu sababli, so'nggi o'n yil ichida transchegaraviy intellektual mulk nizolarini hal qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar kuzatilgani ajablanarli emas.

Xalqaro huquq, "Internetga tegishli bo'lgan nizolarni yanada samaraliroq hal qilishga ko'maklashish va milliy va xalqaro qonunchilik tashabbuslari uchun na'muna bo'lish uchun" tavsiyalar to'plamini taqdim etishga qaratilgan yo'riqnomalar (International Law Association's Committee on Intellectual Property and Private International Law "ILA yo'riqnomalari")ning ishlab chiqilganligi, shuningdek, 2011-yilda sud qarorlari to'g'risidagi xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi ("Gaaga sudlari to'g'risidagi konvensiya") ishining qayta tiklangani ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi [2].

Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi Gaaga konferensiyasi doirasida tuzilgan 30 ta konvensiyalarning hech biri bevosita intellektual mulk bilan bog'liq emas. Intellektual mulk to'g'risidagi yagona aniq havola 2005-yil 30 -iyundagi Sud bitimlarini tanlash to'g'risidagi Gaaga konvensiyasida topiladi [3].

Intellektual mulk huquqi butun dunyoda tan olingan hududiy tamoyil bilan tavsiflanadi. Hududiylik taxmin qilinadi va milliy va xalqaro huquqning maxsus qoidalari asosida bekor qilinishi mumkin. Ammo hududiylik prinsipidan istisnolar mavjud. Masalan, sanoat mulkni himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi (Parij konvensiyasi); Belgilarni xalqaro ro'yxatga

olish to'g'risidagi Madrid kelishuvi (Madrid kelishuv); Bern Adabiy va badiiy asarni himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (Bern konvensiyasi) [4].

Hududiylik bir qator intellektual mulk sohasiga oid xalqaro konvensiyalar, shartnomalar, bitimlar bundan tashqari davlatlarning milliy qonunchiligi orqali tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksida Shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish masalasi yoritilgan.

Shaxsiy nomulkiy huquqlarga nisbatan bunday huquqlarni himoya qilish to'g'risidagi talab uchun asos bo'lib xizmat qilgan harakat yoki boshqa holat sodir etilgan mamlakat huquqi qo'llaniladi [5].

Bundan ma'lum bo'ladiki, intellektual mulk huquqi hududiylik asosida qo'llanilganligi tufayli huquqlari buzilgan shaxs qaysi davlatda huquqi buzilganligini yoki buzilayotganligini aniqlasa, sud mamlakati qonuni o'sha davlatning qonuni hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksida intellektual mulk huquqiga doir modda mavjud bo'lib, Intellektual mulkka bo'lgan huquqlarga nisbatan bu huquqlarni himoya qilish so'raladigan mamlakat huquqi qo'llaniladi.

Intellektual mulkka bo'lgan huquq haqidagi shartnomalar kollizion normalar shartnoma majburiyatlari to'g'risidagi qoidalariga muvofiq belgilanadigan huquq bilan tartibga solinadi [6].

Umuman olganda, intellektual mulk munosabatlarini xalqaro xususiy huquqda tartibga solishning asosiy mexanizmlaridan biri xalqaro xususiy huquqdagi shartnomalar hisoblanadi.

Intellektual mulk munosabatlarida chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga solish tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, intellektual mulkning xalqaro himoyasi va rivojlanishini ta'minlash maqsadida mamlakatlar tobora xalqaro shartnomalarga a'zo bo'lish jarayonlarini takomillashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, keyingi tendensiya mamlakatlar *mintaqaviy shartnomalar*, va *mintaqaviy tashkilotlarga a'zo bo'lish* jarayoni bugungi kunda ham davom etmoqda. Mintaqaviy tashkilotlar tomonidan qabul qilinayotgan direktivalar, aktlar intellektual mulkning himoyasini ta'minlash masalalarining rivojlanishiga keng yo'l ochmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda Jahon Savdo Tashkilotiga qo'shilish yo'lida bir qator harakatlar amalga oshirilayotgan bir jarayonda Intellektual MulK Huquqining Savdo Aspektlari to'g'risidagi Bitimga qo'shilishi muhimdir. Ushbu tendensiyada O'zbekiston Respublikasi Sanoat na'munalarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Gaaga bitimining Jeneva aktiga (Jeneva, 1999-yil 2-iyul) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.06.2024-yildagi O'RQ-929-son Qonun bilan, Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirish tashkilotlari huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga (Rim, 1961-yil 26-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.06.2024 yildagi O'RQ-930-son Qonun bilan qo'shildi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. When private international law meets intellectual property law. A guide for judges. Dr. A. Bennet and Mr. S. Granata. WIPO and HCCH 2019. World Intellectual Property Organization. 34, chemin des Colombettes, P.O Box 18
2. Private international law principles for ubiquitous intellectual property infringement – a solution in search of a problem? Andrew F. Christie
3. Private international law issues of intellectual property: The online dimension in Belarus E. Leanovich
4. Private international law principles for ubiquitous intellectual property infringement – a solution in search of a problem? Andrew F. Christie

5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi-modda, 1179-modda
6. Intellectual property: patents, copyright, trade marks and allied rights. W.Cornish, L.Llewelyn and T.Aplin. Seventh edition. 2021
7. Ricketson, The Law of Intellectual Property. Law Book, Sydney, 2014 p. 599.
8. A human rights perspective on intellectual property, scientific progress, and access to the benefits of science. Audrey R. Chapman. Washington D.C. United States of America . 2017
9. The impact of globalization on the enjoyment of economics, social and cultural rights in OESD countries” K.Tomasevski. American Association for the Advancement of Science, 1997
10. Anthony Wanis-St. John, 'Implementing ADR in Transitioning States: Lessons Learned from Practice' (2000) 5 Harv. Negotiation L. Rev. 339, 340
11. An international Guide to Patent Case Management for Judges. Justice Klaus Grabinski, Judge Petyer Tochtermann, Thorsten Bausch, Marcus Grosch, Klaus Haft, Julia Nobbe. WIPO-2023.
12. WIPO National Workshop for Judges: The role of the judiciary and public prosecution in the enforcement of intellectual property Rights. Mr. Henry Olsen, Judge at the Court of Appeal, and Special Government Adviser, Ministry of Justice, Stockholm. 2004.

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI – PEDAGOGICAL SCIENCES

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE ROLE OF SCHOOLS AND UNIVERSITIES IN THE EDUCATION OF WESTERN YOUTH

Saidova Kamola Uskanbaevna

Professor of the Tashkent International
University of Education

Abstract. This article presents a comparative analysis of the roles of schools and universities in the education of young people in Western countries. It examines the key functions of these educational institutions and their impact on the development of personal qualities, values, and social skills among young people. Various aspects, including educational approaches, cultural, and social contexts, as well as economic factors that influence the educational process, are considered.

Key words: education, training, comparative approach, pedagogy, school, university, education, culture, civilization, East and West.

КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ РОЛИ ШКОЛЫ И УНИВЕРСИТЕТА В ВОСПИТАНИИ ЗАПАДНОЙ МОЛОДЕЖИ

Саидова Камола Усканбаевна

Профессор международного университета
Tashkent International University of Education

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ роли школы и университета в воспитании молодежи в странах Запада. Исследуются ключевые функции каждой из этих образовательных институций и их влияние на формирование личностных качеств, ценностей и социальных навыков у молодых людей. Рассматриваются различные аспекты, включая образовательные подходы, культурные и социальные контексты, а также экономические факторы, влияющие на процесс воспитания.

Ключевые слова: воспитание, обучение, компаративный подход, педагогика, школа, университет, образование, культура, цивилизация, Восток и Запад.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N31>

Введение. В современном обществе образование играет ключевую роль в формировании личности и ценностных ориентиров молодежи. Школа и университет представляют собой две основные институции, отвечающие за воспитание подрастающего поколения, однако их функции и подходы существенно различаются. Школа, как первая ступень в образовательной системе, закладывает фундаментальные знания и навыки, формируя у детей социальные и моральные нормы. Университет, в свою очередь, предоставляет более глубокие и специализированные знания, а также способствует развитию критического мышления и независимости.

В данной статье будет проведен сравнительный анализ роли школы и университета в воспитании молодежи в странах Запада. Мы рассмотрим не только образовательные аспекты, но и влияние культурных, социальных и экономических факторов на процесс формирования личностных качеств. Целью исследования является выявление особенностей взаимодействия этих двух уровней образования и их вклад в развитие молодежной идентичности, ценностей и навыков, необходимых для успешной адаптации в быстро меняющемся мире. В рамках анализа будут использованы примеры из различных стран, что позволит сделать выводы о существующих тенденциях и возможностях для улучшения системы образования.

Обзор литературы и методология. В рамках данного сравнительного анализа роли школы и университета в воспитании западной молодежи были применены такие методы, как компаративный анализ, направленный на сопоставление роли школы и университета в воспитании молодежи Запада. Также были использованы феноменологический подход, направленный на и зучение восприятия участниками образовательного процесса своей роли и значимости как школы, так и университета в их воспитании; исторический анализ, направленный на и зучение исторического контекста развития школьного и университетского образования в Западных странах, их эволюции и изменений в роли воспитания; системный подход, связанный с рассмотрением школы и университета как элементов более широкой образовательной системы, изучение их взаимосвязей и влияния на воспитание молодежи.

Проблему роли школы и университета в воспитании молодежи Запада исследуют такие зарубежные специалисты, как А.Джуринский, Д.Аникеев, М.Балсамо, К.Сокс, Х.Марфан, Х.Вейнштейн, К.Рифф и другие. В отечественной педагогике проблематику, поставленную в данной статье, разрабатывают такие ученые, как Р.Каримов, Н.Азизходжаева, Ф.Мухитдинова, Р.Бекбаев, А.Усманова и другие.

Анализ и результаты. Современное общество сталкивается с рядом сложностей и вызовов в воспитании молодёжи. Существенным значением обладают школы с университетами, которые играют важную роль в формировании личности и социализации молодых людей на Западе. Развитие их потенциала и возможностей являются ключевыми факторами для успешной адаптации и будущего карьерного развития молодёжи [1, 88]. Школы и университеты обладают существенным функционалом в воспитании западной молодежи. Они предоставляют учащимся не только академические знания, но и формируют их мировоззрение, ценности и социальные навыки.

Роль школы в воспитании западной молодёжи имеет глубокие исторические корни, которые простираются на протяжении веков. Школьная система в Западной Европе развивалась и трансформировалась в соответствии с изменяющимися потребностями общества и прогрессом в области образования. Именно школа предоставляет молодым людям не только знания и умения, но и возможности для социального взаимодействия, развития коммуникативных навыков и формирования ценностных ориентаций. Здесь мы рассмотрим исторический обзор школьной системы в Западной Европе, чтобы лучше понять, каким образом школа влияла на воспитание молодёжи.

Необходимо отметить, что «в средние века в Западной Европе образование было доступно только лишь ограниченному кругу лиц, преимущественно аристократии и духовенству [2, 55]. Церковь играла важную роль в образовании, и школы были преимущественно религиозными учреждениями. Однако, с развитием городов и возникновением новых профессий, возникла потребность в более широком доступе к образованию» [3, 19]. Это было связано с тем, что новые виды деятельности требовали определённых знаний, навыков и умений, которых не хватало у населения. В результате этого возникла потребность в создании более эффективных систем образования,

которые могли бы обеспечить более широкий доступ к необходимой информации.

В эпоху Возрождения в XVI-XVII веках в Западной Европе началась революция в образовании. Образование стало считаться важным фактором развития общества, и школы стали появляться не только в городах, но и в сельской местности. В этот период школы стали приобретать более секулярный характер, и «в них начали преподавать не только религиозные предметы, но и гуманитарные науки, математику и естественные науки» [4]. Это позволило учащимся получать более широкое школьное образование и подготовиться к жизнедеятельности в самых различных областях.

В XVIII-XIX веках школьная система в Западной Европе продолжала развиваться. В это время были созданы государственные школы, которые стали бесплатными и обязательными для всех детей. Это был важный шаг в направлении всеобщего образования и воспитания молодёжи. В это время «школы стали стандартизированы, в них начали преподавать универсальные знания, необходимые для успешной адаптации в обществе» [5, 48]. Это включало в себя изучение различных научных дисциплин, социальных наук, искусства и физической культуры. Также в школах начали уделять больше внимания развитию критического мышления и решению проблем.

В XX веке школьная система в Западной Европе продолжила своё развитие. В этот период школы стали всё более специализированными, предлагая различные программы обучения в зависимости от потребностей учащихся. Были созданы школы с углубленным изучением определённых предметов, таких как математика, искусство или естественная наука. Это позволило учащимся выбирать образовательную программу, которая соответствовала их интересам и способностям.

Современная школьная система в Западной Европе продолжает развиваться и адаптироваться к современным вызовам. Сегодня школы стараются обеспечить холистическое (целостное) образование, и которое включает не только академические знания, но и развитие социальных и эмоциональных навыков. Школы также стараются развивать критическое мышление и творческие способности учеников, чтобы они могли успешно справляться с вызовами современного мира.

Школа играет важную роль и в современном воспитании западной молодёжи, поскольку она предоставляет молодым людям не только знания, но и ценности, навыки и нравственные принципы. Школа помогает формировать личность учащегося и подготавливает его к жизни в обществе. Школьная система в Западной Европе ставит перед собой цель развить учеников как личности, обеспечивая им не только образование, но и возможности для саморазвития и самореализации.

Роль современной школы в воспитании западной молодёжи заключается в том, что она является основным местом, где дети и подростки проводят большую часть своего времени в течение учебного года. Школа не только обеспечивает учащимся необходимые знания и навыки, но и формирует их социальные навыки, участвуя в процессе социализации. Школьная среда предоставляет возможность для общения с ровесниками, развития коммуникативных навыков, а также формирования ценностей, моральных установок и социокультурных принципов.

Влияние современной школы на социализацию молодёжи заключается в том, что школьная среда создаёт условия для развития социальных навыков, умения работать в коллективе, адаптироваться к различным ситуациям и общаться с людьми из разных социальных групп [6, 30]. Школа также играет важную роль в формировании и закреплении ценностей и норм поведения, которые будут влиять на дальнейшую жизнь молодых людей.

В целом, школа играет важную роль в воспитании западной молодёжи, исторически развиваясь и адаптируясь к меняющимся потребностям общества. Школьная система в Западной Европе стала всеобщей и обязательной, предоставляя детям возможность получить образование и развиваться как личности. Сегодня школы

стремятся не только передавать знания, но и развивать социальные и эмоциональные навыки учеников, чтобы они могли успешно справляться с вызовами современного мира.

Однако, в ходе исследования мы можем выявить проблемы и вызовы школьного воспитания на Западе. Одной из главных проблем является недостаточная подготовка учителей к работе с молодёжью, отсутствие оптимальных методов обучения и недостаточное внимание к развитию личности учащихся. Также порой проявляются проблемы, связанные с низким уровнем мотивации самих учащихся, недостатком внимания к индивидуальным потребностям и способностям каждого ученика.

Обратимся к роли университетов в воспитании западной молодёжи, которая заключается в том, что они предоставляют студентам возможность получить более глубокие знания в выбранной области, развить профессиональные навыки и подготовиться к будущей карьере. Университет также является местом, где студенты могут расширить свой кругозор, общаться с единомышленниками и развивать свои таланты и интересы.

Влияние университета на карьерное развитие молодёжи заключается в том, что образование, полученное в подобном учебном заведении, является одним из ключевых факторов при поиске работы и дальнейшем профессиональном росте. Университеты предоставляют студентам особую возможность получить специализированное образование, которое необходимо для работы в определённых сферах деятельности.

Однако, в ходе исследования мы можем выявить проблемы и вызовы университетского воспитания на Западе. Одной из главных проблем является коммерциализация образования, когда университеты ставят прибыль выше образовательных целей. Также можно обозначить проблемы, связанные с недостаточным вниманием к практическому обучению, слабой подготовкой студентов к реальным профессиональным задачам и недостатком гибкости в самом образовательном процессе. Здесь же для эмпирического исследования поставленной проблемы мы предлагаем следующую формулу:

$$U = w_1 \cdot S + w_2 \cdot H + w_3 \cdot E$$

где:

U – общий уровень воспитания молодёжи,

S – качество образования в школе (оценка на основе успеваемости и развития социальных навыков),

H – качество образования в университете (оценка на основе академической успеваемости и развития критического мышления),

E – влияние внешних факторов (социальные, экономические и культурные аспекты),

w₁, w₂, w₃ – значимость каждого фактора.

Данная формула позволяет провести количественный анализ уровня воспитания молодёжи, что помогает увидеть численные значения и сравнения между различными группами или регионами. Кроме этого, она помогает определить, какие из рассматриваемых факторов (качество образования в школе, университете или влияние внешней среды) имеют наибольшее значение. Это позволяет сосредоточить усилия на наиболее влиятельных аспектах. И также данная формула позволяет сравнивать уровни воспитания в разных странах или регионах, что может способствовать лучшему пониманию различных образовательных систем и их эффективности.

В условиях же глобализации и стремительных изменений в сфере образования вопрос о роли школы и университета в воспитании молодёжи становится особенно

актуальным для многих стран, включая Узбекистан. Узбекистан активно реформирует свою образовательную систему, стремясь интегрировать современные подходы к обучению и воспитанию. Сравнительный анализ ролей школы и университета в других странах Запада может предоставить полезные модели и практики, которые можно адаптировать к местным условиям. Кроме этого, в условиях растущей конкуренции на международной арене важно, чтобы молодежь обладала не только знаниями, но и необходимыми социальными и моральными навыками. Изучение опыта западных стран в данной области может помочь в разработке программ, направленных на комплексное воспитание. Понимание того, как школа и университет взаимодействуют в вопросах воспитания, позволит разработать программы, которые учитывают культурные и социальные особенности Узбекистана, а также способствуют интеграции молодежи в глобальное общество.

Таким образом, сравнительный анализ роли школы и университета в воспитании молодежи на Западе представляет собой ценное исследование, которое может внести значительный вклад в развитие образовательной системы Нового Узбекистана. Оно позволит не только улучшить качество образования, но и подготовить молодежь к вызовам современного мира.

Заключение. Основываясь на выявлении роли школы и университета в воспитании западной молодежи, мы можем выделить следующие аспекты:

Во-первых, школа и университет являются основными институтами образования на Западе, которые формируют базовые знания у молодежи. Здесь обучаемые получают фундаментальные сведения из различных дисциплин, таких как математика, науки о природе, история, литература и многие другие. Всё это помогает им развивать критическое мышление, аналитическую способность и умение решать проблемы.

Во-вторых, школы и университеты играют достаточно важную роль в формировании ценностей и установок у учащихся. В процессе обучения они сталкиваются с различными культурными, религиозными и социальными взглядами. Данный критерий помогает им понимать многообразие мира и сформировать свою собственную систему ценностей. Кроме того, эти институты образования, как правило, способствуют развитию толерантности и уважения к другим людям, что особенно важно для создания гармоничного общества в целом.

В-третьих, школы и университеты являются местами, где молодые люди сталкиваются с различными социальными ситуациями и находятся в постоянном общении со сверстниками. Здесь они учатся работать в группе, решать конфликты, развивать лидерские навыки и общаться с разными людьми. Это помогает им стать социально адаптированными и готовыми к будущим профессиональным вызовам.

Таким образом, можно констатировать, что школа и университет играют значимую роль в воспитании западной молодежи. Они помогают формировать не только академические знания, но и ценности, навыки и социальные умения, что является важным фактором для личностного и профессионального роста молодых людей.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev R. The Phenomenon of Education in the Context of an Intercultural Philosophical Approach // Wisdom. – 2022. – №4(24). – P.84-90.
2. Бекбаев Р.Р. Теории познания. – Ташкент, 2023.
3. Аникеев Д.М. Формирование современных концепций физического воспитания в странах Западной Европы во II половине XX - начале XXI века // Физическое воспитание студентов. – 2012. – №. 4. – С. 9-12.

4. Balsamo M. The Influence of the Renaissance on Current Teaching Methods. In BSU Honors Program Theses and Projects. Item 208. 2017. Available at: http://vc.bridgew.edu/honors_proj/208.
5. Джуринский А.Н. История педагогики и образования: учебник для бакалавров / 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2012. — 675 с.
6. Давыдова Р. Фасилитация обучения в контексте трансформации традиционной системы образования // Acta Education. – 2024 – №1(1). – С.29-33.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

TO TEACH SOCIO-HUMANITIES IN HIGHER EDUCATION THE NEED FOR A CREATIVE APPROACH

Jumaniyozova Muhhayo Tajiyevna,
doctor of Pedagogical Sciences, UzSWLU
E-mail: m.jumaniyozova@uzswlu.uz

Abstract. This article will discuss the peculiarities of teaching social and humanitarian sciences in the higher education system, pedagogical functions, current problems of social and humanitarian sciences, and the need for a creative approach to their solution.

Keywords. Functions of the socio-humanitarian Sciences, thinking, creative approach.

OLIY TA'LIMDA IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHGA KREATIV YONDASHUVNING ZARURATI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna,
pedagogika fanlari doktori (DSc)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-gumanitar fanlar pedagogik funksiyalari va dolzarb muammolari hamda ularni hal etishga kreativ yondashuvning zarurati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-gumanitar fanlarning funksiyalari, tafakkur, kreativ yondashuv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N32>

Kirish. Zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilish konsepsiyasi ta'lim muassasalaridan yuqori madaniyatli, ma'lumotli, izlanuvchan, raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlashni talab qiladi. Har qanday yo'nalish mutaxassisida yuqori umumiy madaniyatning mavjudligi nafaqat kerakli tashqi sifat, balki kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan xususiyat bo'lib, u maxsus maqsadli shakllanishni talab qiladi va bu jarayonda puxta o'ylangan ijtimoiy-gumanitar ta'lim hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki: umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida olingan bilimlarni to'ldirishi va rivojlantirishi; milliy g'oya va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e'tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi; ta'limning tarix, falsafa, xalq an'analari, urf-odatlar bilan uzviy birligini, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ta'minlashi; insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminallik ruhini

rivojlantirishi; ta'lim va tarbiya jarayonida mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishni ta'minlashi lozim.

Ijtimoiy-gumanitar ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchining o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini, bugungi kunda eng zarur bo'lgan mustaqil fikrlash, turli ma'lumotlar bilan ishlash, bilimni o'zlashtirish va uni kundalik hayotda qo'llay olish, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada va jamiyatda o'zini tutish, yozma va og'zaki muloqot madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ijtimoiy-gumanitar fanlar hamma zamonda inson va jamiyat hayotida asosiy rol o'ynagan va rivojlangan fuqarolik, zarur axloqiy ko'rsatmalar, yosh avlodda zamonaviy ijtimoiy hodisalarni obyektiv baholash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

Ta'lim-tarbiyaning samaradorligi va ta'sirchanligini yanada oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi demokratik o'zgarishlar, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sohalaridagi islohotlar pirovard natijada odamlar farovonligini oshirib borishga, har bir fuqaroning kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilganini atroflicha tushuntirish muhim vazifalardandir.

“Inson va jamiyat hayotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni, ularni ta'lim tizimida o'qitishning nazariy va uslubiy masalalari barcha davrlarda dunyo olimlarining e'tiborida bo'lib, bu borada o'ziga xos ilmiy qarash, nazariya va ta'limotlar yaratilgan. Oliy ta'limda ta'lim-tarbiyaning asosiy strategik maqsadi – faqatgina u yoki bu soha uchun mutaxassis-kadrlar tayyorlash emas, balki keng ma'noda, insonni tarbiyalash, ya'ni ijtimoiy hayot va taraqqiyot talablariga mos insoniy xislat va fazilatlarini kamol toptirishdir. Ta'lim tarbiya tizimidagi asosiy masala faqat matematik, fizik, ximik yoki injener, vrach, o'qituvchi kabi turli sohalar bo'yicha mutaxassis-kadr yetishtirish bo'lib qolmasligi kerak, negaki, jamiyat uchun, ijtimoiy hayot va taraqqiyot uchun avval u yoki bu kasb-hunar yoki alohida bir ixtisoslikka oid bilim, malaka va ko'nikma emas, chin insoniy xislat va fazilatlar muhimroq. Ya'ni odamzod injener, vrach yoki agronom bo'lishdan oldin inson bo'lish kerak. Chunki injener, vrach yoki agronomdan inson emas, balki insondan injener, vrach yoki agronom etishib chiqadi”¹[183].

Bugungi kunda jahonning turli nuqtalarida notinchlikning saqlanib qolishi, ziddiyat va zo'ravonliklarning ortib borishi inson, uning turmush darajasi va sifatini oshirishga bo'lgan alohida diqqat-e'tiborni talab qilmoqda. “Tarixchi va futurolog Yuval Noy Harari “XXI – asr odami ma'lumotlar ummoniga g'arq bo'lish orqali, muhim va nomuhim narsalarni bir-biridan farqlashni o'rganishi, uzuq-yuluq ma'lumotlardan dunyoning umumiy manzarasini yaratishi kerak. To'rt ko'nikma: tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va kreativlikni o'qitishga alohida e'tibor qaratish kerak. O'zgarishlar tezligi oshgani sayin nafaqat iqtisodiyot, balki qanday qilib inson bo'lish g'oyasi ham mutatsiyaga uchraydi. Odamlar tobora ko'proq yangiliklar bilan hisoblashishlari va deyarli har o'n yilda o'z ixtisosliklarini o'zgartirishlariga to'g'ri keladi. Noma'lumlik hukm surgan dunyoda omon qolish (ayniqsa, muvaffaqiyatga erishish) uchun kuchli ruhiy moslashuvchanlik va hissiy muvozanat kerak bo'ladi”² [212], – deb ta'kidlaydi.

Muhokama. Oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar pedagogik jihatdan quyidagi uchta funksiyasi bajarishga xizmat qiladi (1.2-jadvalga qarang):

1-jadval

1

2

Oliy ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy funksiyasi

1. Ta'lim oluvchini intellektual rivojlantirish funksiyasi (<i>mental developer function</i>)				
Milliy madaniyat, urf-odatlar, turmush tarzi, diniy e'tiqod, til xususiyatlariga tayangan holda mentalitetni shakllantirishi	Madaniy makonda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish vositasi	Sivilizatsiya komponenti - odamlarning iqtisodiy faoliyat natijasi sifatida	Ijtimoiy-psixologik komponent-milliy xarakter, din, axloqni shakllantirishi	Faoliyat komponenti -haqiqatni tushunish va axborotni idrok etish, uzatish usullarini anglash
2. Madaniyatlararo yondashuv asosida ijtimoiy-gumanitar tafakkurni shakllantirish funksiyasi (<i>function of the formation of socio-humanitarian thinking</i>)				
Ta'lim oluvchi shaxsida iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish	Insonparvarlikka yo'naltirilgan pedagogik dunyoqarashni rivojlantirish	Ta'lim oluvchining atrof olamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish	Faoliyatni mustaqil tanlash va qarorlar uchun javobgarlik ko'nikmasi	Madaniy dunyo bilan hamkorlik qilish ko'nikmalari
3. Ta'lim oluvchida ijtimoiy-gumanitar intizomni shakllantirish funksiyasi (<i>socio-humanitarian discipline</i>)				
Individual kreativlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish	Axborot jamiyatini ta'lim jamiyati sifatida shakllantirish	Ta'limni ta'lim oluvchi psixologiyasi va axloqiga yaqinlashtirish	Ko'p faktorli qat'iyatlilik	Gumanitar fikrlashning dialogik xususiyati

Ta'lim oluvchini intellektual rivojlantirish funksiyasi (*mental developer function*) yetakchi strategik funksiya sifatida yosh avlod mentalitetini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, uning markazida mentalitet tushunchasi yotadi. Mentalitet o'tgan asrning ikkinchi yarmida zamonaviy gumanitar fanlardagi fanlararo tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida fanga kirgan integral tushuncha bo'lib, inson hayotining turli jihatlarini aks ettiruvchi urf-odatlar, turmush tarzi, diniy e'tiqodlar, tilni ma'lum bir tartibda birlashtiradi va madaniyat mentalitet tuzilishida ustuvor hisoblanadi. Mentalitet aslida dunyoqarash sifatida inson xulq-atvorining chuqur asoslarini o'zida mujassam etadi hamda ta'lim oluvchi mentalitetini shakllantirish nafaqat ijtimoiy-gumanitar fanlarning balki, butun ta'lim tizimining vazifasi hisoblanadi.

Intellektual shakllanish deganda biz ta'lim oluvchilar ongida mentalitetning asosiy tamoyillari va o'ziga xosligini mujassam etgan jamiyatning eng barqaror ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini mustahkamlashni nazarda tutamiz.

Biz "madaniyat" tushunchasining uchta yetakchi komponentini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: sivilizatsiya, ijtimoiy-psixologik jarayon va faoliyat. Sivilizatsiya madaniyatning tarkibiy qismi sifatida jamiyat rivojlanishining ma'lum bir bosqichiga muvofiq odamlarning iqtisodiy faoliyati natijasini nazarda tutadi. Ijtimoiy-psixologik komponentga milliy xarakter, din, axloq kiradi. Faoliyat komponenti esa haqiqatni to'g'ri anglash, axborotni idrok etish va uzatish usullarini anglatadi. Madaniyat tushunchasi tarix bilan bog'liq bo'lib, har doim avvalgi tajribani saqlashni, inson, jamiyat va insoniyatning axloqiy, intellektual, ma'naviy hayotining davomiyligini nazarda tutadi.

Alohida olingan shaxslar (boshqa millat vakillari), ijtimoiy guruhlar va butun sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot tajriba, ma'lumot va an'analar almashinuviga olib keladi.

Boshqacha qilib aytganda, turli madaniyatlarni o'rganar ekan, ta'lim oluvchilar nafaqat falsafiy fikrlar va siyosiy asarlarni, arxitektura va san'at yodgorliklarini, she'riyat va adabiyot asarlarini o'rganish asosida bizdan boshqacha yashaydigan insonlar olamini his qiladi.

Madaniyat nafaqat obyektlar, odamlar, borliq mavjudligi haqidagi yangi bilimlarni tushunishga imkon beradi, balki yangi ijodiy tajriba, yangi fikrlash tarziga ega bo'lishga olib keladi. Ya'ni, madaniyat tushunchasining universalligi uning yaxlitligi va uzluksizligi tufayli shakllanayotgan mentalitetning o'zaro bog'liq, tizimli, integrativ ekanligini anglatadi. Mentalitet, birinchi navbatda, madaniyat, til, psixologiyada aks etadi. Demak, mentalitet o'tmish, hozirgi va kelajak avlodlarning ma'naviy birligi, aloqasi va mavjudligining asosi, zaruriy komponenti bo'lib xizmat qiladi [45].

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning intellektual va axloqiy rivojlantirish funksiyasi jamiyatdagi barcha hodisalar va jarayonlarning uzluksizligi, o'zaro bog'liqligiga yo'naltirilgan ijtimoiy bilimlar, o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Madaniyatlararo yondashuv asosida ijtimoiy-gumanitar tafakkurni shakllantirish funksiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlarning xilma-xil mazmunini birlashtirish va tizimlashtirishga imkon beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga madaniyatlararo yondashuvni kiritish talabalarida iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy fikrlashning asosiy elementlarini shakllantirishga, bag'rikenglik va dinlararo munosabatlar madaniyatini tarbiyalashga olib keladi. Madaniy bilimlar ijtimoiy-gumanitar ta'limning o'zini sezilarli darajada o'zgartiradi. U madaniy jarayonning alohida tomoniga emas, balki madaniyatning yagona va bo'linmas hodisasiga aylanadi. O'quv jarayonining mohiyati bir vaqtning o'zida ijtimoiy tajribani shaxsiy tajribaga maqsadli ravishda o'zgartirishga olib keladi, bu esa talabalarga insoniyat madaniyatining butun boyligini tushunishda yordam beradi.

Har qanday kasbda mutaxassislikning o'zi yetarli emas, mutaxassis madaniy dunyo bilan hamkorlik qilishda boshqalarni tushunishi, muloqotga kirishishni bilishi talab etiladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida talabalar darslik mualliflarining fikriga yoki adabiy tanqidchilarning hukmlariga, o'qituvchining bayonotlariga mustaqil munosabatini aniqlashga urinmasdan osongina rozi bo'lishi talabaning bilim saviyasini anglatmaydi. Tayyor ma'lumotlarni yozishga odatlangan talabalar o'rganilayotgan materialni o'ziga xos tarzda baholashga jur'at etmasliklari, fikrlashning rivojlanmaganligi, dangasalik, ta'limning monologik tizimi, talabaning muayyan fan doirasida fanning mohiyati va ma'nosini tushunmasdan tayyor bilimlarni olishi natijasida savol berishni o'rganmaganligi sababli sodir bo'ladi.

Ta'lim oluvchida ijtimoiy-gumanitar intizomni shakllantirish funksiyasi gumanitar fikrlashning dialogik tabiatiga bog'liq holda kontent integratsiyasi muammosini hal qilish talab etiladi, ya'ni talabalarining o'z darajasidan kelib chiqib gumanitar bilimlarning umumiyliги asosida ta'lim olishi dialogik yo'nalishga moslashishi lozim. O'quv dasturlari sintez qilinishi, gumanitar fanlarning ajralmas qismi bo'lgan madaniyatlarning tinimsiz muloqotdagi o'zaro ta'siri, adabiyot, tarix, lingvistik fanlarni o'qitishda integral fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradigan obyekt yoki hodisalarni tizimli tahlil qilishga yo'naltirilishi kerak.

Talabaning gumanitar dunyoqarashi rivojlangan estetik did bilan boyitilgan bag'rikenglikni shakllantirishga, o'tmish madaniyatlarining xilma-xilligini qabul qilishga va hozirgi sharoitda uni tushunishga yordam beradi.

Dialogik yondashuv ta'limning mazmuni sifatida shaxsning o'z faoliyatiga yangicha qarashini nazarda tutadi va uning dunyo bilan munosabatlarini ya'ni odamlar bilan aloqa o'rnatish qobiliyatini, insonlarning ma'naviy va axloqiy jihatlarini anglash qobiliyatini, shaxslararo muloqotda aloqalarni o'rnatish va boshqalarga samarali ta'sir o'tkazishni, moslashish qobiliyatining yaxshiroq rivojlanganligi (haqiqatni baholash, moslashuvchanlik)ni, xulq-atvorni boshqarishni, boshqalar fikriga qaramlikni kamaytirishni, tashqi ta'sirlarda qadriyatlar va xatti-harakatlar birligini saqlab qolishni, ijtimoiy javobgarlikni, talabalar o'rtasida ijtimoiy intellektni rivojlantirishga yordam beradi.

Natijalar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning intellektual shakllantiruvchi imkoniyatlari ularning integral salohiyati bilan belgilanadi. Bu integratsiya o'quv fanlarining yaqinlashishi yoki birlashishi sifatida emas, balki integratsiyalashgan fanlar tarkibining bir-birini to'ldirishini ta'minlovchi shart sifatida, o'quv materialining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik usuli sifatida, bilimlarni mustahkamlash va to'plash omili sifatida ko'rib chiqilayotgan muammoning ko'p o'lchovli xususiyatini ochib beradi.

Talabalarni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish imkoniyati ta'lim muassasasida ijtimoiy va gumanitar fanlarni kompleks o'rganishning obyektiv shartlari bu fanlar mazmunining yaqinligi, tadqiqot usullarining umumiyliigi, umumiy qonuniyatlar va nazariy tushunchalarning mavjudligi, foydalaniladigan toifalar va manbalarning umumiyligida ko'rinadi. Ushbu fundamental haqiqatlarga tayanish talabalarga har bir xalqning tarixi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatidagi umumiy, maxsus va o'ziga xos dialektikani tushunishga yordam beradi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos pedagogik imkoniyati sifatida ijtimoiy-kognitiv moslashuvchanlikni keltirib o'tish lozim, ya'ni talabaning ijtimoiy bilimlarga tayanib, muammolarni hal qilishda aql-idrok, kognitiv, hissiy va xulq-atvor normalariga amal qilishini anglatadi. Ijtimoiy qoidalarni bilish; boshqa odamlarni tushunish; ijtimoiy xotira; ijtimoiy sezgi va his-tuyg'ularni baholash; qat'iyatlilik, kayfiyat, harakatlar motivlarini tushunish, kuzatilganlarni yetarli darajada idrok etish qobiliyati, ijtimoiy kontekstdagi xatti-harakatlar va ijtimoiy prognozlash, o'z harakatlari uchun rejalar tuzish, ularni amaliy rivojlantirish ijtimoiy kognitiv moslashuvchanlik asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmuni bo'lgan badiiy matnlar, tarix, ijtimoiy tadqiqotlar, tegishli o'zgarishlar, rivojlanish uchun asos bo'ladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonidagi eng muhim omil talaba o'zining rivojlanish trayektoriyasini amalga oshirish uchun gumanitar fanlardan o'z faoliyatini rivojlantirishda foydalangandagina yuqorida keltirib o'tilgan funksiyalar samarali natija beradi.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlarni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi bir tomondan, an'anaviy fanlar doirasida yangi intizomiy tuzilmalarning paydo bo'lishi, ikkinchi tomondan, barcha ilmiy bilimlarning faol davom etayotgan integratsiya jarayonlarida (bu ayniqsa yuqori mahsuldorlikka ega bo'lgan fanlararo maydonlarni shakllantirishda) ifodalanadi.

Ijtimoiy-gumanitar ta'lim bugungi kunda zamonaviy talablarga javob berishi uchun u o'zining yuqori ixtisoslashgan intizomiy sohasini yaxshi biladigan mutaxassislarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularni malakasini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Zamonaviy dunyoda turli sohalarda to'plangan ilmiy bilimlar va ma'lumotlarning katta miqdori hamda rivojlanishning yuqori sur'atlari tufayli entsiklopedist bo'lishning iloji yo'q. Ammo ijtimoiy-gumanitar ta'lim kelajakda huquqshunoslar, iqtisodchilar, siyosatshunoslar, biznesmenlar, injenerlarda barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarning uzviy bog'liqligi haqidagi g'oyani shakllantirishi kerak, chunki ular birgalikda global jamiyat kabi o'ta murakkab tizim obyektini tavsiflaydi.

Zamonaviy axborot muhiti gumanitar bilimlar tizimiga yangi talablarni qo'yadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlarda o'qitishning usullari va axborot texnologiyalari an'anaviy materiallarni qayta ishlash, saqlash va tahlil qilish uchun qo'llaniladi, biznes bilan integratsiyada gumanitar tadqiqotlarning mustaqil obyektiga aylanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni mazmuni har bir oliy ta'lim muassasasida o'ziga xos xususiyatga egaligi sababli, ta'lim mazmunini shakllantiruvchi komponenti sifatida axborot jamiyatida ijtimoiy rivojlanishning ustuvor omiliga aylanadi va axborot jamiyatini ta'lim sohasidagi sifatlarini shakllantiradi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganish jarayonida ta'lim oluvchilar ko'p komponentli ijtimoiy tizimlarning ishlashi va rivojlanishining eng murakkab, qarama-qarshi jihatlarini, ko'p faktorli qat'iyatlilik, ko'tarilishlar va pasayishlar bilan rivojlanishning maxsus dinamikasi, inqirozlar va xavflarning davriy yuzaga kelishi haqida bilim oladi.

Demak, ijtimoiy-gumanitar fanlarning madaniyatlararo yondashuv asosida tahlil qilish barcha gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni qamrab oladigan, jamiyat va insonni yaxlit tushunishga hissa qo‘shadigan dunyoning yagona gumanitar rasmini shakllantiradi. Ijtimoiy va gumanitar bilimlar shaxs va jamiyatni yo‘naltirishning universal usuli sifatida yosh avlodning ijtimoiy xotirasini saqlash vazifasini bajaradi.

Zamonaviy oliy ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish samaradorligini yanada oshirish, bunda zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish, mavjud kadrlarni malakasini oshirish, ularni yangi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, pedagogik mahoratini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlarning sintezi axborot manbalarining birligi, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunining yaqinligi, tadqiqot usullari, umumiy qonuniyatlar va nazariy tushunchalarning mavjudligi, foydalaniladigan toifalarning umumiyliigi tufayli mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni integratsion o‘rganishni amalga oshirishning asosiy pedagogik shartlari sifatida o‘quv materialini tanlash va tuzishda madaniyatlararo yondashuv; integratsiyaning o‘zaro faoliyat modeli konsepsiyasini ishlab chiqish; shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasini joriy etish, raqamli texnologiyalar vositasida o‘qitishni belgilash mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda integral yondashuvni amalga oshirish bu fanlar uchun umumiy bo‘lgan ajralmas ta‘lim makonini belgilash, real o‘quv vaqtida integratsiyalashgan o‘quv fanlari mazmunining mosligini belgilaydigan taqvim va tematik rejalarini yaratish, o‘zaro faoliyat tushunchalarini, aniq bo‘limlarni va mavzularni ajratib ko‘rsatish orqali ta‘minlanadi, integrativ xarakterdagi o‘quv va kognitiv vazifalar to‘plamini tuzishga qaratiladi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-gumanitar fanlarning pedagogik xususiyatlari bu fanlarni o‘qitish jarayonida integratsiyasini amalga oshirilishi mutaxassislarning keng kasbiy savodxonligi va intellektual harakatchanligini ta‘minlash sharti sifatida qaralishi lozim.

Oliy ta‘lim muassasasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning tizimli modeli alohida fanlarning o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlaydigan yagona jarayon shaklida ishlab chiqilishi, talabalar o‘rtasida dunyoning yagona ijtimoiy-gumanitar manzarasini yaratishga hissa qo‘shadigan madaniyatlararo yondashuvga asoslangan ijtimoiy-gumanitar bilimlar mazmunini o‘qitishda kreativ yondashuvni bosqichma-bosqich shakllantirishi kerak.

Bugun ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha dars beradigan o‘qituvchilar oldida gumanitar fanlar bo‘yicha darslarda ularning kerakliligi to‘g‘risida shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan umumiy nazariy bilimlarni berish emas, balki nazariy savollar asosida amaliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladigan funksional savodxonlikni shakllantirish vazifasi asosiy hisoblanadi.

Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishda dars beradigan professor o‘qituvchilar texnika va tabiiy fanlar yo‘nalishida mutaxassis tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlarida ma‘ruza matnlarini yozishda, seminar darslar rejalarini tuzishda asosiy e‘tiborini tayyorlanadigan mutaxassislarning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olib, gumanitar fanlar ularning kasbiy shakllanishiga yordam berishga qaratishi lozim.

Oliy ta‘lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarning vazifa va funksiyalari bu nafaqat ixtisoslashgan bilim berish, balki moslashuvchan, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. O‘zbekiston Respublika Prezidentining “Ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884 sonli Qarori. 2020 yil 6 noyabr. <https://lex.uz/docs/5085887>.
2. Богданова А.А. Менталеобразующие функции социально-гуманитарного знания // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 5.

3. Барышева Т.А. Креативность. Диагностика и развитие: Монография. – СПб.: РГПУ, 2002. – 205 с.
4. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2002. – 320 с.
5. Брушлинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение. – М.: Институт практической психологии; Воронеж: НПО «Модэк», 1996. – 392 с.
6. Вяземский Е.Е. Методические рекомендации учителю истории: основы профессионального мастерства: Практическое пособие. – М.: Владос, 2000. – 159 с.
7. Gordon W.I. Synectics: the development of creative imagination. – New-York, Harper and Row, 2001. – 180 pg.
8. Гершунский Б.С. Философия образования для XXI века. – М.: Просвещение, 1998. – 608 с.
9. Гусева Н.В. Культура. Цивилизация. Образование: Социально-философский анализ оснований развития человека в контексте цивилизации и культуры. – М.: Экспертинформ, 1992. – 286 с.
10. Epstein R. Generativity theory and creativity. In M. A. Runco & R.S. Albert (Eds.), Theories of creativity. Newbury Park, CA: Sage Publications; Cresskill, NJ: Hampton Press, 2005. – P. 116-140.
11. Tajiyevna J. M. Impact of creative thinking on teacher professional development //International Journal of Pedagogics. – 2024. – Т. 4. – №. 06. – С. 76-80.
12. Jumaniozova M. Methods of determining the integrative creativity of socio-humanitarian teachers. – 2022.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

DEFINITION OF THE MAIN CRITERIA FOR FORMATION AND IDENTIFICATION OF LITERARY AND LANGUAGE COMPETENCIES OF PRIMARY CLASS STUDENTS

OSMANOVA DILOROMKHAN ZIYODINOVNA

Andijan State Pedagogical Institute, PhD student

Abstract. In Uzbekistan, in addition to current issues of state and public importance, special attention is paid to the issue of improving the quality of education and adequate preparation for international assessment processes. An important process was the formation of literary and speech competence of students, the search for its content, expansion and development. At the same time, the creation of a “National Program” for assessing the level of knowledge of students, preparing for tests and monitoring them when determining their level meets modern requirements. This article is about that.

Key words: PISA, PIRLS, graphics, graphic sign, phoneme, language means, speech, assessment criteria, methodological requirements.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ADABIY-NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH VA TASHXISLASHNING ASOSIY MEZONLARINI ANIQLASH

O'SMANOVA DILOROMXON ZIYODINOVNA

Andijon davlat pedagogika instituti

II bosqich tayanch doktoranti

dusmonova860@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonda davlat hamda jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar bilan bir qatorda, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'quvchilarining adabiy-nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish, uni tarkib toptirish, kengaytirish va rivojlantirish muhim jarayonga aylandi. Shu bilan birga uni qay darajada ekanini aniqlagan holda o'quvchilarning bilim darajasini baholash, sinovlarga tayyorlash va monitoring qilishning “Milliy dasturi”ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Ushbu maqolada shu haqida so'z yuritiladi.


Kalit so'zlar: PISA, PIRLS, grafika, grafik belgi, fonema, til vositalari, nutq, baholash me'zon, metodik talablar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N33>

Kirish. Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta'lim sifatini baholash bo'yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan,

TIMSS, PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi [1; B.1-,7-,14.]. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq. Undagi ishtirok nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan, ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Afsuski 2022-yilgi PISA natijalarining tahlilida o'rtacha 60 balldan 14 ball to'plagan O'zbekiston o'quvchilari ijodiy fikrlash bo'yicha OECD o'rtacha ko'rsatkichidan ancha past (33) ball oldi. O'quvchilarning ijodiy fikrlash bo'yicha nisbiy natijalari, matematik ko'rsatkichlari kutilganidan past; (1-ilova) ya'ni ularning o'qishdagi faoliyatiga nisbatan ishlashi kutilganidan xalqaro baholash jarayonida pastroq.



O'zbekistonda ijodiy fikrlash ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarning 41 foizi matematika ko'rsatkichlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu OECD o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori. O'zbekistonda o'quvchilarning ijodiy fikrlashi va matematik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik 0,67, ijodiy fikrlash va o'qish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik 0,63 (OECD o'rtacha ko'rsatkichlari: 0,67 va 0,66). Taqqoslash uchun, OECD

mamlakatlari bo'yicha o'rtacha hisobda o'quvchilarning matematikasi va o'qish ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiya (o'zaro munosabat) 0,80 ni tashkil qiladi [2; B.3].

PIRLS natijalari esa pandemiya sharoitida tashkil qilinib, bir qancha jihatlar tahlil qilingan. bulardan biri 2021-yildagi "pandemiya"ning xalqaro baholashga ta'siri qanchalik ekani ko'rib chiqilgan. Albatta boshqa ko'p davlatlarning o'quvchilari qatori bizning o'quvchilarimizga ham sezilarli ta'sir qilganini turli diagrammalarda, jadvallarda ko'rsatib o'tgan. Eng yuqori ballarni olgan davlat bu Singapur davlati bo'lib, aynan pandemiyaning ta'siri bo'lmaganini grafiklarda aks etgan. Ammo ta'limga berilayotgan imkoniyatlarni inobatga oladigan bo'lsak, bu juda yomon natija. Maktablarga mablag'larning ajratilishi, kerakli jihozlarning berilishi, o'qituvchilarning ilmiy salohiyatining oshirilishi, yetarli ustamalarning ajratilishi hammasi ta'lim sohasining rivojiga qaratilgani barchamizga sir emas. Pedagoglarimiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining dastlabki mashg'ulotlardan oq darslarning samarasiga, unumdorligiga hamda nutq o'stirishdagi to'rt yo'nalishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Muhokama. Xalqaro baholashdagi topshiriqlar tushunarli, o'quvchi salohiyati yeta oladigan va natijalarni kutilganidek bo'lishi uchun ularni o'quvchilarimizga moslashimiz emas, balki o'quvchilarning salohiyatini oshirishimiz kerak. Dars jarayonining elementar qismidan tortib to mavzu materialining kichik qismigacha o'quvchiga tushunarli qilishni ta'minlashga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shundagina yuqoridagi ustuvor vazifaning ijrosini ta'minlashga erishamiz. Bir necha ming yillik tarixiy tajriba va mulohaza, qarashlardan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, insoniyat madaniy taraqqiyotda tobora yuqorilay boshlagach, fikrni tinglovchiga yetkazuvchi boshqa bir vositani, ya'ni yozuvni yuzaga keltirdi. Bunda endi nutq tinglanmaydi, balki o'qiladi. Tinglovchi qatorida endi o'quvchi yaratildi. Yozuvda ma'lum so'z

bir necha belgilar orqali o'z ifodasini topishi mumkinki, o'sha belgilar fanda **grafika** deb ataladi. Lekin grafika tildagi faqat fonemalarni ifodalovchi yozuv belgilari emas. Agar shunday bo'lganda, u harf deb nomlangan bo'lar edi. Misol uchun kirill yozuviga asoslangan o'zbek grafikasida yumshoqlik — «b» va qattqlik (ayirish) — «bl» belgilari bor. Ular fonemani bildirmaydi, biroq grafika qatoridan joy oladi. Yana ye, yo, yu, ya grafemalari ham grafik belgidir. Shu belgilarning har biri esa ikkitadan (bir undosh va bir unli) fonemani o'zida ifodalaydi. Masalan e-ye, ë-yo, ю-yu, я-ya.

Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab, berib bo'lmaydi". Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug'at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o'stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchining fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi.

Tinish belgilar ham ma'lum til yozuvi uchun belgilangan grafika tizimiga kiradi. Chunki har bir tinish belgi nutqdagi talaffuz me'yorining ayrim tomonlarini ko'rsatib turadi. Ular ham o'z xususiyatiga ko'ra yumshoqlik va qattqlik belgisiga o'xshashdir. Masalan, *Ahmad keldi?* gapining oxiriga so'roq belgisini qo'ysangiz, u so'roq ohangida, nuqta qo'ygan bo'lsangiz, xabar ohangida talaffuz etiladi. Birinchisida kesim keskin va ta'kidlanib, ikkinchisida cho'zib va past qayd qilinadi. Ta'lim beruvchi o'quvchida adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g'ri talaffuzni o'rganishini, nutq va uslubiy elementlarni egallashiga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Fikrlash bevosita nutqqa bog'liq. Chunki fikrlay olish qobiliyati kishi ko'zidan yashirin bo'lgan narsalarni anglash, voqealar orasidagi ichki bog'liqlikni ilg'ab olish imkoniyatini beradi. Ayni mana shu fikrlay olish qobiliyati o'z insonni yer yuzidagi eng buyuk mavjudotga aylantiradi.

Yangi tug'ilgan go'dak fikrlay olishga o'rganish imkoniyati mavjudligi bilan hayvon bolasidan farqlanadi. Bolaning markaziy nerv sistemasi va uning asosiy bo'limi – bosh miya katta yarim shari po'stlog'i shunga moslangan holda tuzilgan. Bu bo'limni ba'zan "fikrlash organi" deb ham atashadi. Tabiat tomonidan berilgan imkoniyat fikrlay olish qobiliyatiga

aylanishi uchun ko'pgina shart-sharoitlar zarur, lekin bularning ichida eng muhimi bola kishilar jamiyatida bo'lishi lozim. Agar bolani odamlardan mutlaqo ajratib qo'yilsa, u hech qachon fikrlashni o'rgana olmaydi, nutqqa ham ega bo'lmaydi.

Fikr inson oldida eng oddiy bo'lsada, biror muammo yoki vazifa turganda paydo bo'ladi. Fikrlay olish bolalar o'yinlarida ham, o'qishda ham, mehnatda ham

Illustration Titles
Question 2 / 2


Refer to the illustration on the right. Type your answers to the question in the text boxes below.

Write **3 different titles** for the illustration on the right. The titles should be as different from each other as possible.

Title 1

Title 2

Title 3



rivojlanadi. Bunda ko'p narsa insonning o'ziga, uning qat'iyati va faolligiga bog'liq. Muhimi fikrlashdan erinmaslik, murakkab vazifalarni bajarayotganda astoydil harakat qilishdan qo'rqmaslik kerak. (2-ilova)

Inson hayotda nima bilan mashg'ul bo'lmasin, hamisha quvonch, tashvish, muhabbat, nafrat, g'am-qayg'u kabi xilma-xil hissiyotlarni boshidan kechiradi. Inson hissiyotlarini ifoda etuvchi barcha so'zlarni sanash uchun sahifalar yetmaydi. Bu so'zlarning shu qadar ko'pligi esa kechinmalarimizning boyligi va rang-barangligini bildiradi. Ya'ni har bir insonning kechmishi har xil, dunyoqarashi turli tumandir. Miyya faoliyatimiz bizga atrof-olamni idrok etish, harakatlanish, ko'rgan narsalarimiz va qilgan ishlarimizning hammasini xotirada saqlab qolishga imkon beradi. U nutqimizni, fikrlarimizni boshqaradi. Shu sababdan bir jarayon haqida har kim turlicha fikr yuritadi. (3-ilova)

Example A	Example B	Example C
Title 1 The big book	Title 1 The lonely tree	Title 1 The freedom of a story
Title 2 The giant book	Title 2 The written trail	Title 2 Life is a story waiting to be read
Title 3 The large book in a field	Title 3 The perfect story	Title 3 The power of a story

Nutq va uni o'stirish tushunchasi. Nutq–kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Bundan tashqari savod o'rgatish davridagi har bir dars jarayonida nutq o'stirish ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shundagina o'quvchilarda adabiy nutq (shevalar ta'sirisiz, adabiy me'yor asosidagi nutq) ko'nikmalari shakllanadi va malakaga aylanadi.

Nutq o'stirish o'zi nima? Agar o'quvchi faoliyati va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi faoliyati ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni muhim aktiv egallashlariga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llash tushuniladi. O'qituvchi o'quvchilar nutqi uchun qayg'urish, darsda adabiy til nuqtai nazaridan to'g'ri, ifodali, obrazli, aniq nutqqa erishish lozim. Maxsus metodik talablardan darsda nutq madaniyati hukmron bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilar adabiy tilda so'zlashishlari kerak

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur: [3; B.60].

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon etishi, xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq aylanmasi (oborotlari) yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli

o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin.
2. Nutqda mantiqiylik bo‘lsin.
3. Nutq aniq bo‘lsin.
4. Nutq til vositalariga boy bo‘lsin.
5. Nutq tushunarli bo‘lsin.
6. Nutq ifodali bo‘lsin.
7. Nutq to‘g‘ri bo‘lsin.
8. Nutq madaniyatli bo‘lsin.

Nutq o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda muhim vositadir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish, mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o‘sadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirish yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning ko‘pchiligi o‘z fikrini ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon qila olmaydi, bog‘lanishli jummalarni noto‘g‘ri yoki noo‘rin tuzadi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o‘zaro bir-birlari bilan bog‘lanish shartlaridan xabardor emas. Shuning uchun “O‘qish” darslarida amalga oshirilayotgan o‘quvchilarda nutq o‘stirish borasidagi harakatlarning “Ona tili” darslarida matn ustida ishlashga oid mashqlar bilan uzviy bog‘lab olib borilishini ta‘minlash maqsadga muvofiqdir. Uzluksiz ta‘limning har bir bosqichi muayyan vazifaning hal qilinishini ta‘minlaydi.

Savodga o‘rgatish nutqning tovush xususiyatini anglashning asosiy bosqichlaridan biridir. Shunga bog‘liq holda maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolada so‘zning tovush tarkibini tahlil qilishga qiziqishlar yuzaga keladi. Bola ayrim tovushlarni farqlay olsa-da, ularni so‘z tarkibida mustaqil tahlil eta olmaydi. Shu sababli savodga o‘rgatish davrida bunday tahlilni amalga oshirish tovushlarni anglashning yangi bosqichni yuzaga keltiradi.

Ma‘lumki, savod o‘rgatish davrida an‘anaviy, azaliy ammo juda samarali, eskirmas jarayon, ya‘ni *savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodi* mavjud. Ushbu metodga rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan [4; B.29-,292]. **Analitikda** yaxlitdan maydaga, **sintetikda** maydadan yaxlitga o‘tiladi. Analitik mashqda nutq gaplarga, gap so‘zlarga, so‘z bo‘g‘inlarga, bo‘g‘in tovushlarga bo‘linadi: gap—so‘z—bo‘g‘in—tovush. Sintetik mashqda tovushlardan bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zlardan gap, gaplardan bog‘lanishli nutq hosil qilish haqida tushuncha beriladi.

Natijalar. Boshlang‘ich sinf darslarda adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi bunday jarayonlarning nazariy jihatini kuchli tahlil qilishimiz, metodik jihatlarini ishlab chiqilishiga alohida e‘tibor berishimiz zarur. Shu jumladan maktabda ta‘lim va tarbiya olayotgan o‘quvchilar; ma‘lum bir kasb egasi bo‘layotgan yoshlarning tahliliy yondashuv asosida, buni yangi tizim orqali ham aniqlab olsak bo‘ladi. Bu tizim xalqaro baholash dasturlarini O‘zbekistonga joriy qilgan holda o‘quvchilarning bilim darajasini turli yo‘nalishlar asosida tahlil qilishni va mezonlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

PISA–o‘quvchilarni ta‘lim sohasidagi yutuqlarini jahon davlatlaridagi maktab o‘quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo‘llay olish mahoratini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib, asosiy maqsadi: 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko‘rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni hosil qilishga undashdir. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo‘lib, har uch yilda bir marta o‘tkazib

kelinadi. PISA dasturi ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatib, har bir davlat o'tkazgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyini taqqoslaydi. Ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishda o'z strategiyasini belgilab oladi.

2008-yilda Timss Advanced monitoring tadqiqotlari matematika va fizikani chuqur o'rganadigan maktablarning o'quvchilari o'rtasida o'tkazgan. Bu ikki predmet o'sib kelayotgan avlodning yangi texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirish qobiliyatlarini hamda mamlakatning intellektual potensialini baholashda ustuvor soha hisoblanadi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn (badiiy matn, axborot beruvchi matn)ni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. PIRLS – tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayyorgarlik ko'rishiga mo'ljallab joriy qilingan mashq daftaridagi savol va topshiriqlarni baholash me'zoni yo'riqnomasidagi baholash jarayonida "0", "1", "2", "3" ballik tizim hamda "0", "8" va "9" kodlari bilan kodlash tizimi xususida so'z yuritiladi. Mashq daftaridagi matnlar yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular necha ballik ekanligi haqidagi eslatmalar bilan belgilangan.

- ✓ Javobi tanlanadigan savollar (testlar)da to'g'ri javobga "1" ball, noto'g'ri javobga "0" ball beriladi.
- ✓ Ochiq savollarni baholashda 1, 2 va 3 ballik baholash me'zonlari qo'llaniladi.

Bir ballik savollarni baholash me'zoni:

1 ball	0 ball
berilgan javobning qabul qilinganligini anglatadi hamda ushbu javoblar savolning matn jihatidan o'quvchi tomonidan tushunilganini namoyon etadi.	qabul qilinmaydigan javob. O'quvchi tomonidan berilgan javoblar mazmuniga ko'ra javoblar savolning matn jihatidan tushunilganini namoyon etmaydi.

Ikki ballik savollarni baholash me'zoni

To'liq tushunish	Qisman tushunish	Mutlaqo tushunmaslik
2 ball.	1 ball.	0 ball.
Ushbu turdagi javoblar savol yuzasidan o'quvchining matnni to'liq tushunganligini namoyon etadi.	Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qisman tushunilganligini ko'rsatadi. Ular savolda talab qilinadigan elementlarning barchasini emas, balki bir nechtasini o'z ichiga olishi mumkin.	Ushbu turdagi javoblar savol yuzasidan matnni tushunilmaganligini ko'rsatadi.

Uch ballik savollarni baholash me'zoni

Keng tushunish	Qoniqarli tushunish	Minimal tushunish	Qoniqarsiz tushunish
3 ball.	2 ball.	1 ball.	0 ball.
Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni keng tushunilganligini namoyon etadi.	Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qoniqarli tushunilganligini namoyon etadi.	Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni minimal darajada	Ushbu javoblar savol yuzasidan matnni qoniqarsiz tushunilganligini namoyon etadi. Shuningdek,

		tushunilganligini namoyon etadi.	savollarga javob berilmagan hollarda ham “0” ball beriladi. Bunga chizilgan va o‘chirilgan urinishlar, o‘qishga yaroqsiz va topshiriqqa doir bo‘lmagan javoblar, chizmalar kiradi.
--	--	----------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Har besh yilda o‘tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. O‘qish savodxonligi o‘quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o‘shishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassirlarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqishlarini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim, tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, PISA tadqiqotining xorijdagi ekspertchilarining fikriga ko‘ra, natijalari yomon o‘quvchilarning aksariyati kichik yoshda maktabgacha ta’limga jalb qilinmagani aniqlangan [5; B.6]. Savod o‘rgatishga tayyorgarlik bosqichida og‘zaki nutq va grafik tasvirlangan nutqning garmonik birligi boshlanadi. Bu o‘quvchilarga keyinroq og‘zaki nutqdan yozma nutqqa o‘tishda yengillik tug‘diradi. Shu bois savod o‘rgatish bo‘yicha har bir darsda bog‘lanishli og‘zaki nutqni rivojlantirishga e’tibor qaratish talab qilinadi. Bunday darslar og‘zaki nutqni rivojlantirish bilan birga o‘quvchilarning lug‘at boyligini orttirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ona tili darslari grammatik-orfografik materialni nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog‘lash uchun keng imkoniyatlarga ega. Bunday ishni tashkil qilish nafaqat nutq o‘stirishga doir zarur malakalarni shakllantirishni ta’minlaydi, balki ona tilini o‘rganishga qiziqish, unga nisbatan hurmat va muhabbat uyg‘otadi. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash me’zonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Davlatimizga ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
2. OECD (2024), *PISA 2022 Results (Volume III): Creative Minds, Creative Schools*, PISA, OECD Publishing, Paris.
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent “NOSHIR” nashriyoti. 2009.
4. B.X.Xodjayev. “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. “Sano-standart” nashriyoti Toshkent. 2017.
5. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2022. OECD, 2022

Elektron manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy ba'zasi:
<https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/618>
3. <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/>
4. <https://www.lex.uz/uz/>
5. <https://uz.wikipedia.org/>
6. <https://doi.org/10.1787/765ee8c2-en>.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

WORK TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF PHYSICS TRAINING IN HIGHER MILITARY EDUCATION BASED ON MOBILE APPLICATIONS AND ELEMENTS OF ROBOTICS

Dadakhon Komiljonovich Nasriddinov,

postgraduate student of the National University of Uzbekistan,

Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD), Associate Professor

E-mail: dadahon20172019@mail.ru

Abstract. This article highlights the work done to improve the efficiency of teaching physics in higher military education based on mobile applications and elements of robotics.

Key words. elements of robotics, educational technology, the study of physics, robotics in teaching and physical practice, training modules in robotics, educational projects in robotics.

OLIY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR.

Dadaxon Komiljonovich Nasriddinov,

O'zbekiston Milliy Universiteti mustaqil izlanuvchisi,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy harbiy ta'limda fizika o'qitish samaradorligini mobil ilovalar va robototexnika elementlari asosida takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. robototexnika elementlari, ta'lim texnologiyasi, fizika fanini o'rganish, robototexnik o'quv-fizik tajriba, robototexnika bo'yicha o'quv modullari, robototexnika bo'yicha o'quv loyihalari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N34>

Kirish. Oliy harbiy ta'limda fizika o'qitish samaradorligini mobil ilovalar va robototexnika elementlari asosida takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari dunyoning bir qator oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarida, masalan University of Nevada (AQSh), University of Bayreuth (Germaniya), University of Kent (Angliya), Nord University, Bude, (Norvegiya), National University of Singapore (Singapur), Ufa davlat universiteti (Rossiya), Xokkaydo universiteti (Yaponiya), Belorussiya davlat universiteti (Belorusiya)da fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyoda oliy harbiy ta'limda fizika o'qitish samaradorligini mobil ilovalar va robototexnika elementlari asosida takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, xususan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: fizika fanini o'qitishda robototexnika elementlaridan foydalanish asoslari (Perm davlat gumanitar-pedagogika universiteti), oliy ta'lim muassasalarida robototexnika elementlari bo'yicha ta'lim texnologiyalarini loyihalash va joriy etish metodikasi (L.N.Gumilyeva nomidagi Yevrosiyo milliy

universiteti), fizika fanini o'qitishda robototexnika elementlaridan foydalanish imkoniyatlari (Perm davlat gumanitar-pedagogika universiteti), oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'rganish metodologiyasida ko'rsatilgan komponent o'laroq fan yuzasidan nazariy ma'lumotlarni yoritib berishda kurs robototexnika elementlaridan foydalanish (Orenburg davlat pedagogika universiteti) [1,2,3,4] metodikasi ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mashhur psixolog olim R.Gottsdanker "Har qanday eksperimental tadqiqotning maqsadi cheklangan miqdordagi ma'lumotlarga asoslangan natijalarning eksperimentdan tashqarida qolishiga ishonch hosil qilishdir" – deb fikr bildirgan edi.

Yana bir olim B.Ananev ta'kidlaganidek, tadqiqot xususiyatlariga tayanib, quyidagi usullarni qo'lladik:

1. Tashkiliy (solishtirish, umumlashtirish).
2. Empirik:
 - a) kuzatishga oid metodlar (kuzatish va o'z-o'zini kuzatish);
 - b) o'qitish eksperimenti metodi;
 - v) psixoanaliz metodlar (standartlashtirilgan va loyihalashtirilgan testlar, anketalar, intervyu va suhbatlar);
 - g) amaliyotga oid metodlar (tavsiflash, ishlarni baholash);
 - d) modellashtirish metodi (matematik va b.);
 - e) biografik metodlar (pedagogik jarayon va dalillarni tahlil qilish).
3. Miqdor (matematik-statistik) va sifat jihatdan tahlil metodi.
4. Olingan natijalarni izohlash metodi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlarni amalga oshirishda fizika fanining barcha bo'limlaridan olingan bilimlar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda fizika fanini o'rganishda robototexnika elementlari hamda mobil ilovalardan foydalanish yuqori samaradorlikni ko'rsatib beradi.

Muhokama. Jahon oliy ta'lim tizimida robototexnika elementlaridan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlarda mutaxassislar tayyorlashda fizika fanidan mobil ilovalar hamda robototexnik tizimlarni loyihalash usullarining ilmiy pedagogik asoslari, mobil ilovalar hamda robototexnik tizimlarda muhandislik loyihalash masalalari, oliy harbiy ta'limda mobil ilovalar hamda robototexnika elementlari fizika fanini o'rganish obyekti sifatida ekanligi (National Institute Of Technical Teachers Training And Research (Hindiston)); mobil ilovalar hamda robototexnika elementlarining oliy harbiy ta'limda fizika eksperimentlarida qo'llanilishi hamda oliy harbiy ta'lim jarayonida mobil ilovalar hamda robototexnika elementlaridan keng foydalanish orqali fizika fanidan ilmiy-texnik tadqiqotlarni tashkil etish masalalari (Shaansi Normal University (Xitoy)); fizika fanini o'qitishda mobil ilovalar hamda robototexnika elementlaridan foydalanish orqali bo'lajak harbiylarning kasbiy mahoratlarini oshirish masalalari mazmuni ishlab chiqilgan (Princeton university (AQSh)) [5,6,7].

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlarida oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qitish metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, talabalar kompetentligini rivojlantirishga oid ta'limning yangi (hamkorlikda, turli darajali, rivojlantiruvchi, dasturlashtirilgan o'qitish) metodik ta'minotini ishlab chiqish, fizika o'qitish metodikasini innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish va sifatini baholash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.


Natijalar. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida oliy harbiy ta'lim tizimida fizika fanini o'qitish samaradorligini oshirish yuzasidan bir nechta mobil ilovalar hamda robototexnik laboratoriyalar ishlab chiqildi. Shulardan ayrimlarini ta'kidlab o'tamiz:


"Fizika (Elektromagnetizm)" mobil ilovasi. Ushbu mobil ilovada fizika fanining "Elektromagnetizm" bo'limi yoritilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kursant va tinglovchilari uchun mo'ljallangan.

Mobil ilovada fizika fanining “Elektromagnetizm” bo‘limiga oid 9 bobdan tashkil topgan bo‘lib, jami 50 paragrafdan iboratdir.

Shu bilan bir qatorda ushbu mobil ilovada fizika fanining “Elektromagnetizm” bo‘limiga oid bo‘lgan qonuniyatlarning favqulodda vaziyatlar sohasiga tatbiqlari yoritib berilgan.

Mobil ilovaning tuzilishi bilan tanishtirib o‘tamiz:





1-rasm. “Elektromagnetizm” mobil ilovasining koʻrinishi.

“Fizika (Optika. Atom va yadro fizikasi)” mobil ilovasi[8].

Ushbu mobil ilovada fizika fanining “Optika” hamda “Atom va yadro fizikasi” boʻlimlari yoritilgan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kursant va tinglovchilari uchun moʻljallangan.

Mobil ilovada fizika fanining Elektromagnetizm boʻlimiga oid 6 bobdan tashkil topgan boʻlib, jami 40 paragrafdan iboratdir.

Shu bilan bir qatorda ushbu mobil ilovada fizika fanining “Optika” hamda “Atom va yadro fizikasi” boʻlimlariga oid boʻlgan qonuniyatlarning favqulodda vaziyatlar sohasiga tatbiqlari yoritib berilgan.

Mobil ilovaning tuzilishi bilan tanishtirib oʻtamiz:



KITOBGA KIRISH

MUALLIF HAQIDA

DASTUR HAQIDA



1-BOB: FOTOMETRIYA
YORUGʻLIK OQIMI. YORUGʻLIK KUCHI. YORITILGANLIK.
YORQINLIK VA RAVSHANLIK. YORITILGANLIK
QONUNLARI. FOTOMETRLAR VA ULARNING



2-BOB: GEOMETRIK OPTIKA
YORUGʻLIK NURINING TOʻGʻRI CHIZIQ BOʻYLAB
TARQALISHI. YORUGʻLIKNING QAYTISH QONUNI.
NURNING UCHBURCHAK PRIZMADAN OʻTISHI ...

3-BOB: TOʻLQIN OPTIKASI
YORUGʻLIKNING TOʻLQIN TABIATI. YORUGʻLIK
DIFRAKSIYASI. DIFRAKSION PANJARA. SPEKTRAL
ASBOBLAR ...

4-BOB: KVANT OPTIKA
YORUGʻLIK KVANT TABIATINING VUJUDGA KELISHI.
YORUGʻLIK KVANTLARI. FOTOEFFEKT HODISASI
FOTOEFFEKT QONUNLARI. FOTOEFFEKT HODISASI

5-BOB: ATOM FIZIKASI
ATOMNING TUZILISHI. TOMSONNING ATOM MODELII.
REZERFORD TAJRIBASI VA UNING FORMULASI.
ATOMNING PLANETAR MODELII VA UNING
KAMCHILIKLARI. BOR POSTULATLARI. ENERGETIK
SATHLAR ...

6-BOB: YADRO FIZIKASI
ATOM YADROSINING TARKIBI. ATOM YADROSINI
XARAKTERLOVCHI ASOSIY KATTALIKLAR. YADRONING
ZARYADI, MASSASI VA RADIUSINI ANIQLASH USULLARI.
YADRO KUCHLARI. YADRO MODELARI HAQIDA
TUSHUNCHALAR



2-rasm. “Fizika (Optika. Atom va yadro fizikasi)” mobil ilovasining ko‘rinishi.


Ushbu ishlab chiqilgan mobil ilovalar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi o‘quv jarayonida samarali foydalanib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida Akademiya kursant va tinglovchilarining fizika fanidan nazariy, amaliy hamda eksperimental bilimlarni o‘zlashtirishlarida katta ahamiyat kasb etmoqda.


O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kursant va tinglovchilarining fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida bir qancha robototexnik laboratoriya ishlari ishlab chiqilgan bo‘lib, quyida ushbu robototexnik laboratoriya qurilmalari hamda ularning grafikli dasturiy ta‘minoti bilan tanishib chiqishingiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasida o‘quv jarayonida foydalanish maqsadida fizika fanidan iqtidorli kursantlar bilan ishlash to‘garagida quyidagi ko‘rinishdagi robototexnik laboratoriya qurilmalari ishlab chiqildi:

1. Haroratning o‘zgarishini ko‘rsatib beruvchi qurilma. Ushbu qurilma 1 soniya, 1 daqiqa hamda 5 daqiqa vaqtlar davomidagi ixtiyoriy muhitda haroratning o‘zgarishini -50°C dan +125°C gacha bo‘lgan oraliqda ko‘rsatib beradi[104].



Qurilma va uning grafigi ko‘rinishi.







Ushbu qurilmadan olingan natija qurilma displeyida hamda mobil ilova (Bluetooth Electronics) yordamida olinishi imkoniyati ishlab chiqilgan.

2. Tovush to'liqlarining o'zgarishini ko'rsatib beruvchi qurilma. Qurilma va uning grafigi ko'rinishi.



Ushbu qurilmadan olingan natija qurilma displeyida hamda mobil ilova (Bluetooth Electronics) yordamida olinishi imkoniyati ishlab chiqilgan.



3. Yorug'lik nurining o'zgarishini ko'rsatib beruvchi qurilma. Qurilma va uning grafigi ko'rinishi.



4. Is gazi va ortiqcha issiqlikdan xonadon egasini ogohlantiruvchi qurilma.



5. Ko‘rish imkoni bo‘lmagan quyuq tutunli maydonlarda to‘siqqacha bo‘lgan masofani aniqlash qurilmasi.



6. Elektromagnit induksiya hodisasini o‘rganish qurilmasi.



Xulosa. Oliy harbiy ta’limda fizika fanini mobil ilovalar va robototexnika elementlari orqali o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Oliy harbiy ta’limda mobil ilovalar hamda robototexnika elementlari fizika fanini o‘zlashtirish vositasi sifatida ko‘rib chiqildi.
2. Oliy harbiy ta’limda mobil ilovalar hamda robototexnika elementlari fizika fanini o‘rganish obyekti sifatida ilmiy-tadqiqot ishlari keng ko‘lamda olib borilayotganini ko‘rsatmoqda.
3. Mobil ilovalar hamda robototexnika elementlarining oliy harbiy ta’limda fizika eksperimentlarida qo‘llanilishi muammosining hozirgi holati o‘rganildi va tahlil etildi.

Oliy harbiy ta'lim jarayonida mobil ilovalar hamda robototexnika elementlaridan keng foydalanish orqali fizika fanidan ilmiy-texnik tadqiqotlarni tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Пузырная Е.В., Пророкова А.А. Методические аспекты внедрения основ робототехники в образовательный процесс. [Электронный ресурс] Режим доступа URL: <http://robot.edu54.ru/publications/105/>
2. Параскевов А.В. Левченко А.В. Современная робо-тотехника в России: реалии и перспективы // Поли-тематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. 2014. № 104(10). URL: <http://ej.kubagro.ru/2014/10/pdf/116.pdf>.
3. Тузикова И.В. Изучение робототехники – путь к инженерным специальностям [Текст] / И. В. Тузикова // Школа и производство. – 2013. – №5. – С. 45-47.
4. Василенко Н.В. Никитан, К.Д. Пономарёв В.П. Смолин А.Ю. Основы робототехники – Томск: МГП «РАСКО», 1993. – 470 с.
5. Гребнёва Д.М. Изучение элементов робототехники в базовом курсе информатики [Электронный ре-сурс]: <http://festival.1september.ru/articles/623491>.
6. Белиовская Л.Г. Система LEGO Mindstorms NXT в современном физическом эксперименте. URL: http://www.ros-group.ru/content/data/store/images/f_4404_28202_1.pdf (дата обращения: 10.11.2014).
7. Ершов М.Г. Проектирование учебных модулей для школьного физического практикума с применением учебных наборов по образовательной робототехнике / Д.А. Антонова, А.Ю. Дерюшев, М.Г. Ершов, О.Н. Чурилов // Вестник ПГПУ. Серия «ИКТ в образовании». – 2014. – вып.10. – С. 154 -165.
8. Данчук И.И. Методическая подготовка в вузе как фактор профессионально-педагогического становления будущего учителя технологии. Новосибирск, 2016. 104 с.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

THE MAIN DIRECTIONS OF THE DEVELOPMENT OF MEDIA COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Fayzieva Dildora Khayatovna,

PhD student of Bukhara State University

Rajabova Gulchehra Salomovna,

Bukhara State Pedagogical Institute

teacher of the Department of Mathematics and informatics

Abstract. Currently, the issue of organizing the professional activities of teaching staff through information and communication technologies in daily work at a professional level is relevant. It is also important to prepare instructional content for them on the use of various software products, especially taking into account the activity of students on social networks. In particular, the fact that employees with higher education at a professional level use modern ICT (information and communication technologies) in their daily work contributes to increased productivity in the field in which they work. The article considers examples of the development of media competence within the framework of the science of using information technology in professional activities through various video tasks, as well as quiz test tasks using social networks.

Keywords: technology, communication, media, network, system, program, function, method, process.

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING MEDIA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Fayziyeva Dildora Hayotovna,

Buxoro davlat universiteti (PhD) doktoranti

Email:dildora13.fayziyeva@gmail.com

Rajabova Gulchexra Salomovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti

Matematika va informatika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda pedagog-xodimlarning professional darajada kundalik ishlarda axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali kasbiy faoliyatini tashkil etishi dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, talaba-yoshlarning ijtimoiy-tarmoqlarda faolligini inobatga olgan holda ular uchun turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma kontentlar tayyorlash ham muhimdir. Xususan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar professional darajada kundalik ishlarida zamonaviy AKT (axborot kommunikatsion texnologiyalar)dan foydalanishi ular ishlayotgan sohada ish unumdorligini oshishiga xizmat qiladi. Maqolada axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash fani doirasida turli video topshiriqlar hamda ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalanib quiz test topshiriqlari orqali media kompetentlikni rivojlantirish misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, kommunikatsiya, media, tarmoq, sistema, dastur, funktsiya, metod, jarayon.

Kirish. Ma'lumki bugunki kun, ya'ni ayni davrning dolzarb talabi har bir soha vakilidan axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini talab etadi. Ixtiyoriy soha vakillaridan o'z kasbiy faoliyatlariga doir bilimlarni bilish barobarida, ofis, grafik dasturlaridan foydalanib, media kompetentlik ko'nikmalariga ega bo'lgan holatda kasbiy faoliyatini olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarining axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini bir qator metodlar orqali rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etib, amaliy mashqlar asosida, turli topshiriqlarni bajarib ko'rishlari hisobiga mediakompetentlik, ya'ni zamonaviy dasturiy mahsulotlar hamda texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasi rivojlantiriladi. Ayniqsa, talaba-yoshlarning ijtimoiy-tarmoqlarda faolligini inobatga olgan holda ular uchun turli dasturiy mahsulotlardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma kontentlar tayyorlash ham muhimdir. Xususan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar professional darajada kundalik ishlarida zamonaviy AKT (axborot kommunikatsion texnologiyalar)dan foydalanishi ular ishlayotgan sohada ish unumdorligi oshishi butun dunyo mamlakatlari miqyosida tan olingan fakt hisoblanadi[2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlar tahliliga qaraydigan bo'lsak, ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish sohasida quyidagi tadqiqotlar olib borilgan:

Qozog'istonlik olim K. Zabiyeva o'z tadqiqotlarida bo'lajak matematika o'qituvchilarini web texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish, ta'limning interaktiv shakllari, xususan, web-texnologiyalar, (web-quest) WebQuest, ya'ni web so'rovlarga asoslangan dars formatida o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash, onlayn dasturlar va turli xil messengerlardan foydalanish bo'yicha metodlar ishlab chiqilgan.

Г. Ж. Смагулова , Г. Б. Саржанова , Г. К. Тлеужанова, N. Stanchular chet tili bo'yicha multimedia o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish sohasida bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish mavzusidagi tadqiqotlarida, ta'limni raqamlashtirish kontekstida multimedia chet tili bo'yicha o'quv qo'llanmalar haqiqiy audio va video materiallarni tashkil etish va ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, bo'lajak chet tili o'qituvchilariga samarali multimedia ta'lim mahsulotlarini yaratishni o'rgatish va multimedia, raqamli kompetensiya masalalari yoritilgan.

Ukrainalik olim Viktoriya Hrynko ijtimoiy tarmoqlar, raqamli kompetensiya haqidagi tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv, ijodiy, kommunikativ va hamkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun elektron ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish, elektron ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning hozirgi motivatsiyasini aniqlash uchun olingan natijalarni tahlil qilish, taqqoslash va sintez qilish usullari va ularni o'quv jarayonida ham talabalar, ham o'qituvchilar o'qituvchilarini o'qitish va o'qitish faoliyatida qo'llash ko'nikmalarini aniqlash uchun anketa, so'rov, kuzatish, etnografiya kabi usullardan foydalanilgan, Muallif tomonidan raqamli ta'lim texnologiyalarini loyihalash kontseptsiyasi asosida bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarini tayyorlash, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalari, zamonaviy axborot texnologiyalari kurslarini o'rganishda o'qituvchilarni kognitiv (fikrlash, tajriba va his-tuyg'ular orqali bilim va tushunishni egallashning aqliy harakati yoki jarayoni), ijodiy, kommunikativ va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun elektron ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga o'rgatishni o'z ichiga olgan eksperimental dastur ishlab chiqilgan.

Tolmachova Iryna Heorhiivna (Rossiya) bo'lajak boshlang'ich maktab mutaxassislarining media kompetensiyalarini shakllantirish mavzusidagi ishida bo'lajak o'qituvchilarning media kompetensiyasi konsepsiyasini retrospektiv tahlil qilingan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining media savodxonligini shakllantirish bo'yicha o'qituvchi-innovatorlarning dizayn yondashuvini o'rganish hamda mualliflik media mahsulotlarini yaratish va ommaviy axborot vositalarining ta'lim imkoniyatlari bo'yicha o'zini

takomillashtirish, o'zini rivojlantirish uchun motivatsion va axborot materiallarini kadrlar bilan ta'minlash kabi masalalar tahlil qilingan.

Sultan Qaboos Universiteti professori Ahmed Yousif Abdelraheemning (Arab davlati) mobil ijtimoiy media ilovalarining talabalar hayotiga ta'siri mavzusidagi ilmiy tadqiqoti birinchi navbatda so'rov yordamida miqdoriy yondashuv bilan amalga oshirilgan. Mobil ijtimoiy texnologiyalar ijtimoiy ta'lim muhitini yaratish uchun yangi va innovatsion usullarni taqdim etib, muayyan masalalarda hamkorlik qiladigan talabalarning onlayn jamoalarini yaratish uchun ijtimoiy aloqalar uchun chat, kanal kabilarda ishlash imkonini berishi kabi xulosalarga kelingan.

Shvetsariyalik olim Carina Granberg ta'lim, AKT, rekontekstualizatsiya (nutqdan kontekstni ajratib olish jarayoni) haqidagi tadqiqotining maqsadi o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida o'qitish uchun axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bir nechta tashabbuslar amalga oshirish jarayonini sinchkovlik bilan o'rganish va pedagogik ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan o'qitish usullaridan foydalanish va tarqatish hisoblanadi. Tadqiqotda axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llab-quvvatlaydigan uchta o'qitish va o'qitish usullari tanlangan: individual rivojlanishni raqamli rejalashtirish (IUP), bloglar va elektron portfolio. O'qituvchilar va talabalarning AKTdan pedagogik foydalanishni joriy etish bo'yicha tajribalarini to'plash uchun 115 ta intervyu o'tkazilgan va to'rt yillik davrda (2006-2010) to'rtta so'rovnoma o'tkazilgan, bloglar va elektron portfolio kabi AKT tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan metodikalar AKT nutqlari va loyihalari ijtimoiy jihatdan ishlab chiqilgan rekontekstualizatsiya jarayoni orqali kontekstda o'z aksini topgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish sohasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. **J.O. Hakimov** bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirish ("Kompyuterli loyihalash" o'quv fani misolida) mavzusidagi tadqiqotida "Kompyuterli loyihalash" o'quv fanini fanlararo o'quv moduli asosida o'qitish orqali bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirish jarayoni modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash maqsadida kasb ta'limining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashtirishga imkon beruvchi ilmiy-metodik adabiyotlarni metodologik va nazariy tahlil etish, kasbiy bilim, ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirishga tizimli yondashuv; tajriba materiallarini tahlil va sintez qilish; kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, talabalarning bilim, ko'nikma va amaliy malakalar hamda kasbiy muhim sifatleri darajasini tashxis qilish, pedagogik tajriba-sinovdan olingan ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan kompleks foydalangan. Kasb ta'limi yo'nalishlari talabalarining kompyuterli loyihalash vositalari bo'yicha axborot kommunikatsion tayyorgarligi darajalarini (kognitiv, protsessual, faoliyatli) tashxislash tahlili, loyihalash-konstruktorlik, amaliy test, darajali topshiriqlarni bosqichli bajarish komponentlari funksiyalarini integrativ muvofiqlashtirish orqali obyektiv baholash imkoniyatlari ochib berilgan.

T.N. Jo'rayev raqamli texnologiyalar asosida talabalar o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish metodikasi (Ta'limda axborot texnologiyalari fani misolida) mavzusidagi tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim texnologiyalari va bulutli dasturlash servislardan foydalanib o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish maqsadida Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, tashxislash, so'rovnoma, test), tajriba-sinov, olingan natijalarini matematik va statistik qayta ishlash metodlardan foydalanib, ta'limda axborot texnologiyalari fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni matnli, video va animatsiya yordamida kasbiy faoliyatga yo'naltirib o'qitish mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladigan raqamli ta'lim uchun metodik ta'minot yaratilgan; fanni o'qitishda raqamli ta'lim muhitini hosil qiluvchi mobil ta'lim va elektron axborot resurslari bulutli dasturlash

xizmatlaridan foydalanib yaratilgan, ulardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan; baholash mezonlari asosida bulut texnologiyasidan foydalanib, interfaol testlar ishlab chiqilgan va ta'lim jarayoniga joriy etilib, o'zlashtirish samaradorligi aniqlangan.

G.T. Yuldasheva klasterli yondashuv asosida talabalarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi (informatika o'qitish metodikasi fani misolida) tadqiqotida informatika o'qitish metodikasi fanini o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislarining "kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash", nazariy jihatdan asoslash maqsadida tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqa) kabi usullar majmui qo'llab, bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetentligini ta'lim shakllarining klasterli muhitida rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodlari (smart, sindikat, scamper, diamond)dan samarali foydalanilgan va dasturiy vositalar ustuvorligini ta'minlagan holda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Informatika o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

R.U. Umarova tomonidan ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va bu jarayonning metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, sintez, taqqoslash, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o'rganish, so'rovnoma, pedagogik eksperiment va materiallarning matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mezonlari va me'yorlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, "Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish" nomli uslubiy qo'llanma amaliyotga joriy etilgan, "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan interfaol amaliy mashg'ulot ishlanmalari yaratilgan, va iSpring Quiz Maker ilovasidan foydalanishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

F.P. Raxmonqulov raqamli texnologiyalar yordamida bo'lajak informatika o'qituvchilarining web-dizayn bo'yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan. Bu metodika talabalarda web-dizayn bo'yicha kompetentlikni rivojlantirish uchun motivatsion va variativ yondashuvlarga asoslangan kasbiy axborotlarga ishlov berishni, shuningdek, kreativ rejalashtirishning differensial bosqichlarini shaxsiy xususiyatlar bilan integratsiyalashni ko'zda tutadi. Shuningdek, fanlararo aloqalarga asoslangan pedagogik, ijtimoiy va psixologik tashxis orqali kompetensiyaviy mezonlarni optimallashtirishga qaratilgan. Bu jarayon kasbiy tayyorgarlik sifatini barqaror ta'minlash uchun grafik topshiriqlarni raqamli tahlil muhitida moslashuvchan va takroriy intervalda qo'llashni talab qiladi. Ushbu amaliy takliflar va tavsiyalar "Kompyuter grafikasidan videodarslar" nomli elektron o'quv qo'llanmasi mazmuniga kiritilgan.

G.B. Quzmanova tomonidan olib borilgan "O'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi (8-sinf misolida)" nomli tadqiqotida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini oshirishga qaratilgan tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov ishlari, so'rovnoma, test, suhbat, bahs-munozara, onlayn monitoring, hamda natijalarni matematik-statistik usullardan foydalanib qayta ishlash va tahlil qilish metodlari qo'llanilgan. Ushbu jarayonda ta'limda ijtimoiy media marketing vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantiruvchi model yaratilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali to'garak mashg'ulotlarini o'tkazish uchun elektron platforma ishlab chiqilgan (Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan olingan № DGU 19480 - sonli guvohnoma) va amaliyotga tatbiq etilgan.


J.H. Hamrayevning “Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga informatika fanini o‘qitish metodikasi (“Texnologik ta’lim” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi misolida)” nomli tadqiqotida telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida talabalarga informatika fanini o‘qitish maqsadida nazariy, psixologik, pedagogik, tabiiy-ilmiy (informatika), umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga oid adabiyotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosi va fanlararo uzviylik nuqtai nazaridan o‘rganilib, malaka talablarining tahlili amalga oshiriladi. Empirik usullar sifatida kuzatish, suhbat va statistik metodlar – so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinovi va matematik-statistika usullari qo‘llaniladi. Natijada, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining informatika fanini o‘qitish orqali kasbiy kompetensiyalari komponentlarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida informatika o‘qitishning metodik modeli yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Informatika” fani uchun dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

P.T. Abduqodirova tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi bo‘yicha tadqiqot olib borilgan. Ushbu tadqiqotda psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili, muammoga doir asosiy tushunchalar tahlili, prognozlash, modellashtirish, retrospektiv tahlil, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinov, test va matematik-statistik tahlil usullari qo‘llanilgan. Tadqiqot natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni baholash uchun diagnostik vositalar ishlab chiqilgan hamda ularni rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlangan. Diyorimizda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida nomutaxassis yo‘nalishlar o‘quv rejalariga “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fani tanlov fan sifatida kiritilgan. Shu fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar kesimida turli topshiriqlar yaratilishi, talabalar media kompetentlik ko‘nikmasini takomillashtirishga hissa qo‘shadi.

Bo‘lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish maqsadida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fani doirasida quyidagi metodlar ishlab chiqildi:

1. Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash fani doirasida amaliy topshiriqlar tayyorlash
2. Amaliy topshiriqlar bajarilishi ko‘rsatilgan video qo‘llanmalar yaratish
3. Talabalarining nazariy bilimlarini tekshirish maqsadida test (Quiz testlar) tuzish
4. Amaliy topshiriqlar bajarilish davomiyligini vaqt mezonida baholash
5. O‘rganuvchilarning topshiriqlarni mustaqil bajara olish imkoniyatini yuqori baholash


Amaliy topshiriqlarning bajarilish jarayonida talabalarining foydalanilayotgan dasturning imkoniyatlarini qo‘llashda texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasi maksimal darajada kengayadi. Topshiriqlarning video qo‘llanmasini talabalarga tarqatilishi, ularga ixtiyoriy o‘zlariga qulay fursatda video qo‘llanmalarni qayta-qayta ko‘rish orqali vazifani bajarish imkoniyati berilishi, topshiriqni bajara oladiganlar jamoasini kengaytiradi.



The screenshot shows the profile of a Telegram channel named "Information technology_buxdpi" (@dildorafayziyeva6292). The profile includes a circular profile picture of a woman, the channel name, and statistics: 23 subscribers and 8 videos. There are buttons for "Настроить вид канала" and "Управление видео". Below the profile, there are navigation tabs for "Главная" and "Видео". The main content area is titled "Все видео" and shows a grid of video thumbnails with titles and view counts. The titles are: "Word dasturida sahifalarni ixtiyoriy betdan boshlab...", "Rasmdan keraksiz detalni olib tashlash", "yozuvni rasmdan ajratib olish", "Word dasturida faylni pdf formatda parol qo'yib saqlash", and "Word dasturida jadvallarni tahrirlash".

1-rasm Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash fani doirasida tayyorlangan video qo'llanmalar.

Tayyorlangan video qo'llanmalarni talabalarga tushunarli, oson bo'lishi muhim sanaladi, qolaversa video qo'llanmalarning qisqa hamda mazmunli bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Bundan tashqari, Telegram ijtimoiy tarmog'ida Buxoro davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash maqsadida guruh tashkil etilgan. Ushbu guruhda turli ko'rinishdagi test topshiriqlari ishlab chiqilmoqda. Sifatli test topshiriqlarini tayyorlashda telegram messengerining imkoniyatidan unumli foydalanilgan.



2-rasm. Telegram ijtimoiy tarmog'ida yaratilgan quiz testlardan namunalar

Yuqoridagi 2-rasmda berilgan ko'rinishdagi quiz testlar talabalar bilim, ko'nikma va malakalarining rivojlanishiga, tezkor javob berish qobiliyatining kengayishiga, amaliy topshiriqlar bajarilish jarayoniga sarflanadigan vaqtni qisqartirishiga xizmat qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Turli video qo'llanmalar orqali amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmasi bu mediani samarali boshqarish va undan foydalanish qobiliyatidir. Axborot izlash, manbalarni tekshirish va turli media vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarga media platformalardan malakali foydalanuvchi bo'lishga yordam beradi. Masalan, talabalarga onlayn manbalar, kitoblar va intervyulardan foydalangan holda ma'lum bir mavzuni tadqiq qilish topshirilishi mumkin. Ushbu faoliyat talabalarga ishonchli ma'lumotni qanday topish va ishonchli manbalar va soxta

yangiliklar o'rtasidagi farqni tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, amaliy muammolar ijodkorlik va media ishlab chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Talabalar podkastlar, videolar yoki ijtimoiy media tarmoqlaridagi kabi o'zlarining mutaxassisliklari doirasida media kontentlarni yaratishlari mumkin[5]. Ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqarishning barcha jarayonida faol ishtirok etib, talabalar nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradilar, balki xabarlarini samarali muloqot qilish qobiliyatini ham oshiradilar. Bu ularga ommaviy axborot vositalarining passiv iste'molchisi emas, balki faol ijodkor va ishtirokchi bo'lish imkoniyatini beradi. Video topshiriqlarni, testlarni bajarishda ishtirok etish jamoada ishlash, hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ko'pincha media-loyihalar talabalardan guruhlarda ishlashni, fikr almashishni, topshiriqlarni topshirishni va ularning natijalarini taqdim etishni talab qiladi. Ushbu hamkorlik orqali o'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini samarali tarzda ifoda etishni, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilishni va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilishni o'rganadilar. Bunday ko'nikmalar nafaqat ommaviy axborot vositalari sohasida, balki turli professional va shaxsiy kontekstlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Maqolada taqdim etilgan video qo'llanma shaklidagi vazifalar va "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" telegram guruhidagi test topshiriqlarini amalda bajarish ko'nikmalarini o'zlashtirgan o'rganuvchilar kelajakda kasbiy faoliyati mobaynida mazkur ko'nikmalarni qo'llab, vaqtni samarali boshqarishga erishadilar.

Xulosa. Amaliy vazifalar bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har xil vazifalar talabalarga olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va media muhitida faol ishtirok etish imkonini beradi. Amaliy tajriba orttirish orqali talabalar mediasavodxonlik haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar va ommaviy axborot vositalarining murakkab olamida faol bo'lishga yaxshiroq tayyorlanishadi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida media kompetensiyasini rivojlantirishga yordam berish va ularni ommaviy axborot vositalariga asoslangan jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash maqsadida ta'lim dasturlariga amaliy mashg'ulotlarni joriy qilish juda muhimdir. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda media kompetentlik malaka va ko'nikmalarining mavjudligi, ularning kasbiy pedagogik faoliyatini tashkil etishda va kreativ yondashuvni qo'llashda muhim vosita bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Ahmed Yousif Abdelraheem. The Impact of Using Mobile Social Network Applications on Students' Social-Life. *International Journal of Instruction*, v11 n2 p1-14 Apr 2018
2. Carina Granberg. Social software for reflective dialogue: Questions about reflection and dialogue in student teachers' blogs. *Technology, Pedagogy and Education*. 2010. 19(3), 345-360
3. D.KH Fayziyeva, G.KH. Turayeva. Artificial intelligence in modern projects //Universum: tekhnicheskiiye nauki 2023.// № 4 (109) — 52-54 betlar
4. D.KH Fayziyeva. B.N.Takhirov. Z.M. Adizova. Obucheniye programmirovaniyu s pomoshch'yu geymifikatsii//Vestnik nauki i obrazovaniya 2022 //№ 6 (126).Part 2. 33-37- betlar
5. D.KH Fayziyeva. SH.T. Yakhyayeva. Vliyaniye tsifrovogo obrazovaniya na uspekhi uchashchikhsya //Universum: tekhnicheskiiye nauki 2022.// № 5 (98) — 48-51 betlar
6. Fayzieva D.Kh. About the theory of multiple intelligence. *Vestnik nauki i obrazovaniya* 2020. № 19 (97), Part 2. 85-88- betlar
7. Fayzieva D.Kh. Using software for teaching foreign languag using software for teaching foreign languages. *Academy* 2020. № 9 (60). 13-17 betlar

8. Fayziyeva D.KH. Ustanovleniye razgovornogo trakta v IP-telefonii // Molodoy uchenyy. 2017. №4. 113-114 betlar
9. P.T. Abduqodirova. Maktab informatika kursini mobil texnologiyalar asosida o'qitish. Science and innovation. 2022. №2. 165-167-betlar

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

NATIONAL EDUCATION AS A PROBLEM IN THE EDUCATIONAL WORKS OF BUKHARA JADIDS

Marhabo Sayfulloyevna Ashurova,

Bukhara State University, senior teacher of the primary education department,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract. Bukhara madrasas have enjoyed their prestige from time immemorial and have been instrumental in shaping the spiritual image of students. This is to preserve the traditions, traditions, customs, decency of our people, historical national values that have been formed for thousands of ears. Helped educate students as humble, courteous, honest, noble, patient, honest. Religious and secular subjects were taught in harmony, and enlightened scientists, statesmen matured. But these achievements in the madrasa education system have been covered nonlinearly for more than seventy ears in the history, scientific heritage of our country. One of the responsible tasks faced by today's researchers is to study the history of our country in its original way and bring it to the younger generation.

Key words: Education, National Education, jadidism, madrasa, Higher School, usuli savtia School, Organization of young bukharians

BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID ASARLARIDA MILLIY TARBIYA MUAMMO SIFATIDA

Marhabo Sayfulloyevna Ashurova,

Buxoro davlat universiteti, boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Buxoro madrasalari qadimdan o'z nufuziga ega bo'lib, talabalarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa, xalqimizning ming yillar davomida shakllangan an'analari, urf-odat, axloq-odob me'yorlari, tarixiy milliy qadriyatlarini saqlab qolishga. Talabalarni kamtar, xushmuomalali, rostgo'y, olijanob, sabr-toqatli, halol qilib tarbiyalashga yordam berdi. Diniy va dunyoviy fanlar uyg'unlikda o'qitilib, ma'rifatparvar olimlar, davlat arboblari yetishib chiqdi. Ammo madrasa ta'lim tizimidagi ushbu yutuqlar yurtimiz tarixi, ilmiy merosi yetmish yildan ortiq davr mobaynida noxolis yoritilib kelindi. Bugungi kun tadqiqotchilari oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan biri - bu yurtimiz tarixini asl holicha o'rganib, yosh avlodga yetkazishdan iborat.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, milliy tarbiya, jadidchilik, madrasa, oliy maktab, usuli savtiya maktabi, Yosh buxoroliklar tashkiloti

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N36>

Kirish. Buxoro madrasalari qadimdan o'z nufuziga ega bo'lib, talabalarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa xalqimizning ming yillar davomida shakllangan an'analari, urf-odat, axloq-odob me'yorlari, tarixiy milliy qadriyatlarini saqlab qolishga. Talabalarni kamtar, xushmuomalali, rostgo'y, olijanob, sabr-toqatli, halol qilib tarbiyalashga yordam berdi. Diniy va dunyoviy fanlar uyg'unlikda o'qitilib, ma'rifatparvar olimlar, davlat arboblari etishib chiqdi. Ammo madrasa ta'lim tizimidagi ushbu yutuqlar

yurtimiz tarixi, ilmiy merosi yetmish yildan ortiq davr mobaynida noxolis yoritilib kelindi. Bugungi kun tadqiqotchilari oldida turgan mas'uliyatli vazifalardan biri - bu yurtimiz tarixini asl holicha o'rganib, yosh avlodga yetkazishdan iborat.

Mustabid sovet tuzumi davridagi darsliklar va tarixga oid asarlarda Turkiston xalqining asosiy qismi savodsiz bo'lgan, aholining bor-yo'g'i ikki foizgina o'qish-yozishni bilgan, degan noxolis iddaolarga ko'p duch kelinadi. Masalan, Dmitriy Gramenitskiy "Musulmonlar hayotida boshlang'ich maktablar ko'p bo'lishiga qaramay, savodli kishilar juda kam", deb uqtiradi. Yana bir rus olimi V.Vyatkinning so'zlari ham hamkasblarinikidan farq qilmaydi: "Ibtidoiy maktablar barcha qishloqlarda bor, ammo xalq qanchalik o'qimasin, baribir savodsizligicha qolavergan", desa, K.E.Bendrikov "Maktabdagi o'quvchilarning aksariyati tabiat qonunlari, jamiyat hayoti hamda aqliy tafakkur ilmidan xabarsiz madrasada tahsil olgan imomlar edi", deya ta'riflaydi. Bu kabi ilm ahli uchun bildirilgan salbiy fikrlarni N.S.Kulchanov, V.P.Nalivkin, M.N.Virskiylarning tadqiqot va maqolalarida ham uchratish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Islom olamining mashhur ilm-fan va madaniyat o'choqlaridan biri sifatida jahonga yuzlab daho olimlarni yetishtirib bergan yurt xalqi mustamlaka bo'lmasdan oldin ham yalpi savodsiz emasligini tarixiy dalillardan anglash mumkin. "Qomus ul-a'lom" da keltirilishicha, o'n to'qqizinchi milodiy asrda birgina Toshkentning Eski shahar qismida 13 mingta xonadon, 18 ta madrasa, 60 ta boshlang'ich maktab (kuttob) bo'lgan. K.E.Bendirikovning yozishicha, ota-onalar farzandlarini 6 yoshga to'lmasdanoq maktabga ta'lim olgani berishgan.

1878-yili Farg'ona vodiysiga kelgan akademik A.Middendorf 3 oy mobaynida aholining savodxonlik darajasini o'rgangach, bu yerdagi musulmon aholining yoppasiga savodxonligi haqida xulosaga keladi va bu holat Rossiyaning xalq maorifi arboblari katta malomat ekanini yozadi. Gasprinskiy Toshkentga kelganda, ziyolilar bilan uchrashadi. Buchrashuv asnosida uning Turkiston haqidagi barcha tasavvurlari tubdan o'zgaradi. Ismoilbey matbuotda turkistonliklarni "savodsiz va johil" sifatida ayblab, bong urayotgan xabar va ma'lumotlari asossiz ekanligiga amin bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, mustamlakachilar xalqning savodxonlik darajasini aniqlashda ming yillar mobaynida shakllangan va islomiy bilimlar asosiga qurilgan ta'lim tizimini butunlay inkor qilishgan hamda o'zlari ochgan rus- tuzem maktablarida tahsil olganlarnigina savodli deb hisoblashgan.

Qariyb bir asr o'tmishi buzib talqin etilgan yurt farzandlari oldida o'z tarixini bevosita o'rganishdek Mas'uliyatli hamda mashaqqatli vazifa turibdi. Bu borada ko'plab tadqiqotlar ham amalga oshirilib kelinmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlar kelajagi haqida qayg'urib, ma'rifatparvarlik harakati boshida turgan ana shunday buyuk siymolardan biridir. Turkiya, Misr, Arabiston, singari davlatlarda Yevropa usulidagi maktab, bilim yurtlari bilan tanishgan adibning maorif sohasida o'zi guvohi bo'lgan natijalarini o'lkada tatbiq etish bilan birga mulohazalarini "Buxoroda usuli jadid", "Yoshlarga murojaat", "Sayohat xotiralari" kabi ko'plab maqolalari orqali ommaga yetkazish borasidagi sa'y-harakatlari alohida e'tiborga molik.

Behbudiyning "Islohi tahsil" maqolasida maktab va madrasalar hayoti aks ettirilgan. Unda bolalarning chalasavodligi dalillar asosida ko'rsatiladi: o'n yil bir sinfdan o'qib, zo'rg'a xat savodi chiqqan bolaning mulla deb atalishi muallif g'ashini keltiradi. Shu sababdan "U g'aribni oldiga forsiy, turkiy, kitob yoki qozixona va tijoratxona xatlaridan ko'rsa, o'qib, ma'ni chiqara olmaganini" achinarli hol sifatida qayd etadi. Yozuvchi maktabdorlarning talabalarga Bedil, Xo'ja Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Sa'diy asarlari va "Chahor kitob"ni shunchaki o'qiyotganlariga haqli e'tiroz bildiradi: aytilishi, aniqrog'i talaffuzigina tahlil qilinib, mazmuni tushuntirilmashligini maktabdorlarning o'quvsizligiga yo'yadi. Shu singari dolzarb muammolarni qalamga olgan Behbudiy muallim va mudarrisning nodonligi, bolalarga mehrsizligi va oqibatsizligining bosh sababchisi-mahalliy xalqning yoppasiga omi ekanligini achinib ta'kidlaydi.

Ayniqsa, turkistonlik yoshlar hayoti o'zga millat bolalarining ilm va turmush darajasi bilan qiyoslab o'rganganligi diqqatga sazovor: "Shahri yahud, arman, rus bolalari oppoq kiyinib,

qo'ltuq-qo'ltuq kitob ila maktablar ketar ekan, bizni bolalarimiz na uchun kir va yirtiq kiyim, oyoq yalang bir holda eshikba – eshik mehnat axtarur. Bir karra diqqat ila shaharlarga qaralsun, 25 sanadan beri naqadar moliklarimiz naqadar savdo va kasbimiz boshqalarga o'tdi. Ular bizdan urib olmadilar, o'qib oldilar, 25 sana so'ngra na bo'lur? Moziy istiqbolning tarozisidir, har kim o'lchasun-da, bilsun".[19]

Muhokama va natijalar. Mustamlakachilar ta'biri bilan aytganda "ikki foizgina o'qish-yozishni bilgan aholi" orasidan qanchadan-qancha shoir, olim, davlat arboblari va mudarrislar yetishib chiqdi. Ammo ularning aksariyatini taqdiri ayanchli xotima topganini mustaqillikka erishgandan so'ng anglab yetdik. Qo'yida o'rta va oliy ta'lim maskani hisoblangan madrasalarda ilm ziyosini tarqatib, ko'plab olimlarni yetishtirgan mudarrislar xususida so'z boradi.

Mudarris arabcha (dars beruvchi) madrasa o'qituvchisi hisoblanib, madrasalarda o'qitiladigan-muayyan fandan dars bergan. O'qituvchilik – mudarrislik Mas'uliyatli va sharafli kasb hisoblangan. Iste'dodli, barcha bilimlardan xabardor va hurmat-e'tibor qozongan allomalar maxsus komissiya sinovidan o'tib, mudarrislik vazifasiga tavsiya etilgan. Ayrim mudarrislar sinovdan o'tmaganligi sabab o'z lavozimidan mahrum etilgan.

Madrasalarda dars beradigan mudarrislarining o'zi ham biror madrasani tugallagan bo'lishi shart bo'lgan. Madrasada dars berishi uchun mudarrislikka tayinlanish tartibiga ko'ra kichik madrasalarning mudarrisini qozi kalon tayinlasa, yirik madrasalarning mudarrisini esa, amir tomonidan tayinlangan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Fitrat oxund, mufti, mudarrislik martabalari amir tomonidan qozi kalon vositasida, ya'ni qozi amirga arz qilgandan so'ng ular nomiga yorliq kelishini keltiradi. O'zRMDAda ushbu mavzudagi hujjatlar ko'plab saqlanmoqda. Jumladan, Mir Badriddin qozikalonning amirga yozgan arizasiga "Jafarxoja" madrasasining mudarrislaridan biri Mullo Ubaydullohning vafoti sababli "Jo'ybori Kalon" madrasasi mudarisi Mullo Maxmudxo'jani uning o'rniga tayinlab, ellik besh tillo maosh belgilash qayd etilgan. Ushbu hol boshqa xonliklarda ham shu tartibda amalga oshirilgan. Buni Qo'qon xonligini mudarris tayinlash haqidagi qo'yidagi farmoni misolida ham ko'rish mumkin.

Mirzo Ulug'bek davridan boshlab mudarris lavozimiga nomzod maxsus ulamolar hay'atiga imtihon topshirishi, ya'ni o'z bilimlarni isbotlamog'i lozim bo'lgan. Biroq, keyinchalik bu an'anadan bir oz chekinilgan va XIX asrning boshlariga kelib mudarris lavozimiga ko'proq xonga qarashli shaxslar tayinlana boshlagan. O'quv jarayonini tashkil etish odatda mudarrislarining zimmasiga bo'lib, ular qo'yidagi uch toifaga bo'lingan:

Birinchi toifa- a'lo darajali mudarrislar. Bunga qozi -ul quzot, raisi kalon, shayx ul- islom, oxund, a'lam, mufti, askar kirgan.

Ikkinchi toifa- o'rta darajali mudarrislar. Bu toifadagi mudarrislarini kiygan kiyimlariga qarab "banoraspo'sh" deb atashgan. Ayni shu toifadan chiqqan ilmi mudarrislar muftiylik lavozimiga erishgan. Mazkur toifadagi mudarrislar taxminan 200 nafar bo'lib, ularni yana "o'rta mudarrislar" deb ham atalgan.

Uchinchi toifa - quyi darajadagi mudarrislar. Bu toifadagilarni mudarrislar, imom mudarrislar, ba'zan beqasabapo'sh deb atalgan. Imom mudarrislar soni 300 dan ortiqroq bo'lgan.

Ayniy esa Buxoro mudarrislarini 3 toifaga ajratgan:

1.O'zi kursni tugatmasa ham ammo, ta'lim berish qobiliyatiga ega shaxslar. Ular boshlang'ich kurslarga dars bergan.

2. Quyi mudarrislar. Ularning oyligi harajatlarni qoplamagan.

3. Katta mudarrislar. Ko'p yillar ta'lim berib madrasa vaqfidan oylik oladigan. Ko'zga ko'ringan mudarrislar.

Shuni ta'kidlash joizki, madrasalarda mudarrislar soni ta'lim oluvchilar soniga qarab belgilangan. Turkiston madrasalarida ta'lim beruvchi mudarrislarining soni II asr boshlarida taxminan 800 nafar deb ko'rsatiladi.

Ahmad Donish mudarrislik kasbining mashaqqatlari haqida: "Kunduz kuni muallim o'z o'quvchilari bilan mashg'ulotda band bo'ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg'ulotlarga

tayyorlanadi, xullas u umr bo‘yi o‘qiydi va o‘z kasbi bilan muttasil, tanaffussiz shug‘ullanadi”, degan fikrlarni bayon etadi.

Tadqiqotchi Abdusattor Jumanazar Buxoro madrasalari, xususan Ko‘kaldosh madrasasi haqida yozar ekan, madrasaning ta‘lim tizimini bir necha qismlarga bo‘lib o‘rgangan.

Jumladan, Oxund oliy ta‘lim sohasida oliy daraja. Dastlabki “oxund” o‘sha davrning eng yuksak maqomdagi ilm dargohi bo‘lgan. “Abdullaxon madrasasi”da dars bergan. Bu so‘z shu vaqtdan ta‘lim sohasidagi rasmiy atamaga aylanadi. Qisqa vaqtda oxund “Ko‘kaldosh madrasasi”ga o‘tadi va bu dargoh sho‘rolar inqilobiga qadar uning diniy o‘rni bo‘lib qoladi.

A‘lam: ta‘lim tizimida atama sifatida “oxund” bilan qariyb bir vaqtda shakllangan. Muntazam ravishda “oxund”ning o‘rinbosari bo‘lib kelgan va Gavkushon madrasasida dars bergan.

Mufti: jamiyatdagi har qanday murakkab masala yechimi yuzasidan xulosa chiqarishga ilmi etadigan olim. Ularning soni Buxoro shahri oliy ta‘limi sohasida 10, ba‘zan 11 kishidan iborat bo‘lgan. A‘lamning o‘rni bo‘sh qolganda maxsus tanlov asosida ulardan biri saralab olingan.

Banoras to‘nli: Ta‘lim sohasida ushbu qatlam va atama qachon paydo bo‘lganini hozircha aniq ayta olmaymiz 19 asrda ularning soni qirq- qirq bir nafar atrofida edi. Ular zarurat bo‘lganda belgilangan sinovlar natijasiga ko‘ra mufti darajasiga ko‘tarilgan. Muarrixlarning ta‘kidlashicha, banoras to‘nli ushbu toifaga mansub bo‘lmagan boshqa olim yo ustozlar kiyishi ta‘qiqlangan. Bu sharafga erishish uchun xizmat qilish lozim edi. Ushbu toifadagi olimlar oxund rahbarligida Ko‘kaldosh madrasasida yig‘ilib, jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq ilmiy suhbat va munozaralar o‘tkazib turgan. Bunday yig‘inlarda ba‘zan qo‘shni xonliklardan kelgan taniqli olimlarni ham ko‘rish mumkin edi.

Mazkur toifalardan keyin ta‘lim tizimining yana bir alohida zanjirli halqasi boshlanadi. Bu oliy ta‘lim sohasining qo‘yi qismidir. Ular orasida fanning qaysidir turiga ixtisoslashgan o‘quv dargohlari ham uchraydi. Masalan ba‘zi madrasalarda “Tahzib”chi, “Hidoya”chi, “Salovat”chi, “Mulla Jalol”chi, “Hikmat”chi kabi mudarrislar dars o‘tgan. “XX asr boshlarida ushbu ikki toifadagi o‘quv maskanlari Buxoro shahri va uning atrofida uch yuzga yaqin edi, deb keltiradi.

Madrasadagi birinchi darajali oxund 25 ming tanga maosh olgan, agar u yaxshi olim bo‘lsa, yana 10 ming tanga maosh qo‘shilgan. Mudarrisarga amir yoki qushbegi tomonidan turli tadbirlarda sovg‘a – salomlar berib turilgan.

Mudarrislar ham bunday e‘tibordan mas‘uliyatli his qilgan holda o‘z ustilarida muttasil ishlagan. Ya‘ni, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratganlar. Murakkab asarlarning turli usullarini yaratganlar. Ular tomonidan yaratilgan o‘qitish usullari qo‘yidagilardan iboratdir. Bu usullar asrlar davomida shakllangan va amaliyotda keng qo‘llanilgan:

1. Usuli hijoiya (savtiya)- bo‘g‘inga bo‘lib o‘qish.
2. Ilmi sharh – tafsir.
3. Ilmi tahlil – munozara, bahs, munosabat ifodasi.
4. Ilmi munozara – munozara, bahs, munosabat ifodasi.
5. Ilmi qiroat – (ohang va so‘z talaffuzi orqali qiroat).
6. Ilmi fasohat (ilmi balog‘at) – chiroyli, o‘rinli so‘zlarni qo‘llash.
7. Ilmi bayon – nozik ma‘nolarni bayon qilish (ritorika).
8. Ilmi g‘ariba (g‘arib) – kam so‘z keng ma‘noni ifodalash, aks ettirish.
9. Ilmi maoniy – bayon etish bo‘lib, biror narsa yoki hodisaning mohiyatini, mazmunini yechib beruvchi ilm.
10. Ilmi nasr va insho – yozma ish turi. Uslubi, maktub, yozuv savodxonligi.
11. Ilmi muhozirot – latifago‘ylik, hozirjavoblik, zukkolik.
12. Ilmi muammo – badiiy san‘at turi bo‘lib, she‘riyatdagi masala va ramzlarni yechish usuli.
13. Ilmi mantiq – so‘z ma‘nosidagi mazmun.

14. Ilmi kalom – naqliy masalani aqliy dalillash, isbot qilish.

1910-yilda Buxoroda 350 ga yaqin an’anaviy (boshlang’ich) maktablar faoliyat ko’rsatgan[1]. Boshlang’ich maktablarda o’quvchilarning soni 10 nafardan 50-60 nafargacha bo’lgan[2]. O’g’il bolalar maktabxonasida o’rtacha 30-40 nafar bola o’qigan[3] bo’lsa, ovul maktablarida o’quvchilar soni 10 nafardan oshmagan[2]. Qizlar o’qiydigan maktabxonalaridagi o’quvchilar soni o’g’il bolalarga nisbatan 25-30 foizni tashkil etgan[5].

Maktablar idora qilinishi va ta’minoti jihatidan umumiy va xususiyga bo’lingan[1]. Ularning asosiy farqi – maktab binosining kim tomonidan qurilishi va ta’minlanishida edi. Xususiy maktablar alohida shaxslar, ya’ni mansabdor, davlatmand kishilar tomonidan qurilgan bo’lsa, umumiy maktablar jamoatchilik tomonidan qurilgan. Maktablar davlat tomonidan mablag’lashtirilmagan, saxovatli kishilar tomonidan qilingan xayr – ehsonlar, ijtimoiy jamg’armalar, shuningdek, o’quvchilarning o’z ota-onalari hisobidan ta’minlangan[4].

Maktabxonada o’qishga qabul qilish yoshi Buxoroda 5-12 yoshgacha bo’lgan davrni tashkil etgan[7]. Sadridin Ayniy o’zi yashagan uch yuz xonadonlik qishlog’ida to’rt yashardan 12 yashargacha bo’lgan bolalar maktabning shogirdlari hisoblanganligi haqida ma’lumot beradi[8]. An’anaviy boshlang’ich maktablarda o’quvchi besh yildan kam o’qimagan[6]. Yoz oylari va ramazon oyida o’quvchilar ta’tilga chiqishgan[9]. Maktabxonada tahsil oladiganlar o’qishining davomiyligi bir qator omillarga, ya’ni domlanning mahorati, o’quvchining zehni hamda oiladagi muhitga bog’liq bo’lgan.

Qiz bolalar uchun o’qish 7 yoshdan boshlanib, 13 yoshgacha, ayrim hollarda 10-11 yoshgacha davom etgan[3]. Odatda qiz bolalarga uyda ta’lim berish tajribasi keng tarqalgan. Umuman olganda, ayollarning maktabda o’qishi qiyin kechgan, faqat boy xonadonlarning qizlarigina o’qib, savodini chiqara olgan,[9] qishloqlarda o’qigan qizlar juda kamchilikni tashkil etgan.

Maktabxonalarda olib borilgan o’qish muddati to’rt yildan 10 yilgacha davom etgan. XIX asrning o’rtalarida Buxor amirligidagi maktablarda o’rtacha o’qish muddati 7 yil deb ko’rsatilgan[7]. Fitrat ham maktablardagi o’qish muddatini 7 yildan 10 yilgacha deb ko’rsatgan[10].

O’sha davr matbuoti – “Oyina” jurnalida qayd etilishicha, “Muddati tahsil ko’p uzoq bo’lganligi uchun ko’p kishilar bolalarini 8-10 yil maktabga qo’ya olmagan”[1]. Aslida maktablarda bolalarning o’qish muddati ularning iqtidori va qobiliyatiga qarab belgilangan, qobiliyatli, tirishqoq o’quvchi maktab kursini 4 yilda, qobiliyatsiz o’quvchi uzog’i bilan 10 yilda tamomlagan.

Maktabxonalardagi darslar ertalab quyosh chiqishidan asr namozigacha (soat 17:00) davom etib, juma va bayram kunlari o’quvchilar darsdan ozod qilingan[6]. O’qituvchi (domla) yil bo’yi sabr toqat bilan maktabxonani ochib, o’quvchilarini kutib o’tirgan. Aksariyat maktablarda jismoniy, estetik, tarbiya masalalariga deyarli e’tibor berilmagan, bolalar berilgan vazifani boshini tebratib o’qish yoki takrorlash bilan band bo’lgan. Bola ruhiyatini yaxshi biluvchi domlalar har bir yarim- ikki soatda tanaffus e’lon qilib turgan[11].

Maktabxonalarning ko’pchiligi odatda masjidlar yonida yoki uning qoshida tashkil etilgan. XX asr boshida Buxoro shahrida 218 ta masjid bo’lib, o’rtacha hisobda bir masjid huzuridagi maktabda 40 nafargacha bola o’qishiga imkon bor edi[12]. Madrasalar qoshida ham maktabxona tashkil etilgan (Ahmadjon Po’stindo’z madrasasi Buxoro shahridagi Asiriy guzarida joylashgan bo’lib, 1705 yilda qurilgan. U 110 hujradan iborat bo’lgan)[6]. Masalan, Ahmadjon Po’stindo’z madrasasida bir vaqtning o’zida Qur’on suralari ham o’rgatilgan va bu madrasa vaqf mulkidan qurilgan. Xuddi shunday maktablardan yana biri Zomucha ko’chasidagi 1815- yilda qurilgan Domla Sher Muhammad ibn Nur Muhammad madrasasi qoshida tashkil etilib, uning ta’minoti ham madrasa vaqfi hisobidan bo’lgan.

Maktabxonalarda ta’lim jarayonining tashkil etilishi bir xil bo’lmagan. An’anaviy boshlang’ich maktablarda dars jadvali, qat’iy dastur va muayyan o’quv kursi bo’lmagan. Ta’lim

berish sinf-dars tizimida bo'lmagan, bir domladan saboq oluvchilarning barchasi bir xonada o'qishgan.

Barcha maktablarda sharq va musulmon pedagogikasining yorqin manbai bo'lgan Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asari keng o'qitilgani ham ma'lumdir.

Keyingi bosqichda maktabxonalarda Xoja Hofiz Sheroziyning "Devon"iga o'tilgan. Madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan "Devon"da lirik she'rlar o'rin olgan bo'lib, ilohiylik va dunyoviylik uyg'unlashgan yosh bolalarni axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Ko'p maktabxonalaridagi asosiy o'quv kursi shu bilan yakunlangan. Kitoblarni yakunlash, navbatdaxisini boshlash ham o'ziga xos tarzda nishonlab turilgan. Masalan, Buxoro maktabxonalarida yosh o'quvchi kichik-kichik suralarni yod olganidan keyin "haftiyak"ni o'qishga kirishish marosimini o'tkazish odatga aylangan. Ayniyning yozishicha, Buxoro maktablarida bulardan tashqari, arab grammatikasiga katta e'tibor qaratilib, "Bidon", "Zanjoni", "Muizziy" kabi kitoblar ham o'qitilgan[13]. "Bidon" – fors-tojik tilida yozilgan arab tili grammatikasi bo'lsa, "Zanjoni" – arab tili sintaksisiga dir kitob bo'lgan. "Mu'izziy" – arab tili morfologiyasiga doir kitob bo'lib, har uchala kitob ham madrasa tahsiliga qadar maktabxonada o'qitilgan[14]. Buxoroda maktab o'quvchilari fors-tojik va o'zbek tilida so'zlashishlari nazarda tutilib, ularga arab tilini fors tili orqali o'rgatuvchi darsliklar ham bo'lgan. Masalan Mullo Abdul-G'ofurning "Arab leksikologiyasi" deb nomlangan darsligi arab imlosida, ammo fors tilida yozilgan. Unda so'z ma'nosi, shakli va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari, ibora to'g'risida tushunchalar berilgan. Yana bir arab tili grammatikasiga taalluqli bo'lgan darslik "To'plam" (1848-1849 yillarda yozilgan) risolasi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida arab tili grammatikasi to'g'risida ma'lumot berilgan bo'lsa, ikkinchi qismida esa fors tili grammatikasi haqida ma'lumot berilgan[14]. Ammo o'zbek tili grammatikasi maktabda o'rgatilmagan. Maktablarda o'qish jarayonida Alisher Navoiyning ijodiga mansub "Devoni Navoiy", "Devoni amir Navoiy", "Amir Navoiy", "mavloni Amir Navoiy", "Kulliyoti devoni Amir Navoiy" kabi nomlar bilan shuhrat qozongan she'riy to'plamlar ham o'qitilgan. Bu to'plamlar noma'lum kishilar tomonidan, asosan "G'aroyius-sig'ar" va qisman "Navodir-ush-shabob" devonining o'zi ham o'qitilgan.

Maktablarda badiiy adabiyotga, ayniqsa, she'riyatga alohida e'tibor berilishi talabalarning ichki dunyosini boyitib, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatgan va estetik did egasi qilib tarbiyalagan.

Boshlang'ich maktablarda yuqorida qayd etilgan badiiy adabiy namunalar, darsliklar soni yoki o'rganish tartibi turlicha bo'lsada, asosiy uch kitob, ya'ni "Xaftiyak", "Chahor kitob" va "Sabot ul - ojizin" albatta o'qitilgan[15].

Faqat o'qishni o'rgatishga mo'ljallangan an'anaviy maktablar ham ko'p bo'lgan. Bu maktablarda o'qigan bolalar bir qancha suralarni o'qiy oladigan yoddan aytadigan bo'lib, shariat qoidalarini o'zlashtirgach, o'qishni yakunlagan. Ammo o'qish va yozuvni ham o'rgatadigan boshlang'ich maktablar soni unchalik ko'p bo'lmagan. Yozuv mashqlari odatda o'quvchi o'qishni o'zlashtirib bo'lgach boshlangan. Yozuvga o'rgatishda o'qituvchilar "Badoi' ul-Insho", "Munshaot", "Dastur ul-kuzzot" kabi ko'plab qo'llanmalar kabi darslik va kitoblaridan foydalanganlar. Ularda husnixat usullari bayon etilgan.

Boshlang'ich maktablarda yozuv mashg'ulotlarida Said Salohiddinxo'ja ibn Olloviddinxo'janing fors tilida yozilgan "Mufradot" (harflarni alohida shakllarda yozish) deb nomlangan darsligi o'rgatilgan. Harflarni namuna- nusxaga alfavit tartibida katta qilib yozish mufradot (sarxat), husnixatni anglatgan, ba'zan mufradot yozish bir-ikki yilga cho'zilgan.

Mufradot mashqidani keyin murakkabot, ya'ni harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi boshlangan. Harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi bir necha bosqichga bo'linib, harf birikmalarining ma'no anglatishi yoki anglatmasligi mutlaqo e'tiborga olinmagan. Asosan harflar bir-biriga qanday qo'shilishini mashq qilishga urg'u berilgan. Ko'pgina boshlang'ich maktablarda harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashqi "abjad yozish" bilan tugallangan. Yozuvni o'rganishda abjad hisobi ham o'rgatilgan.

Ma'lumki arab alifbosidagi har bir harf raqamlar singari son qiymatiga ega bo'lib, alifbodagi 28 ta harf hech qanday ma'noni bildirmaydigan 8 ta so'zga jamlangan. Shundan keyin muqattaot mashqi, ya'ni bayt, qit'a va ruboiylarni ko'chirib yozish mashqi boshlangan.

Boshlang'ich maktabda muqattaotga, ya'ni parchalarni ko'chirib yozishga juda ko'p vaqt sarflangan. Muqattaot me'yoriga yetgandan keyin insho, duoyi salom (salom xati) va o'zaro xatlar yozishga o'rgatilgan. O'quvchi duoyi salomni yozishni bilsa, uni xati chiqqan deb hisoblashgan. Shunday qilib, maktabda yozishga o'rgatishni ikki bosqichga bo'lish mumkin: birinchi bosqichda harf va birikmalarning yozilishi o'rgatilgan. Bu husnixat bilan boshlanib, abjad yozish bilan tugallangan. Ikkinchi bosqichda so'z va gaplar yozilgan. Bu davr ma'noli so'zlarni yozish bilan boshlanib insho – duoyi salom bilan tugallangan[16]. Maktablarda asosan nasta'liq yozuvi ishlatilgan.

Shu tariqa boshlang'ich maktablarda o'quvchi arab va fors alifbosining o'rgangan. Diniy va badiiy adabiyotning asosiy qismi shu tillarda bitilgan edi.

Ayrim maktablarda qobiliyatli o'quvchilarga arifmetikaning to'rt amali o'rgatilgan. Buxoro Davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi qo'lyozma fondida saqlangan "Xulosat-ul-hisob", "Usuli hisob" risolalarida hisob-kitoblar bayon etilgan.

Amirlikdagi xalq ta'limi tizimida tarbiya masalalari juda muhim ahamiyat kasb etgan va diniy e'tiqodni mustahkamlashga, iymon va axloqiy poklikka e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich maktab o'qish va yozish, hisob-kitob qoidalari qatorida o'quvchining ma'naviy qiyofasini islom ta'limoti doirasida shakllantirish vazifasini ham bajargan.

Qizlar maktabida o'qitish o'g'il bolalar o'qiydigan masjidlar huzuridagi maktabxonadagi o'qitishdan bir muncha farq qilar edi. O'zining savodini qizlar maktabida chiqargan Sadridin Ayniy ushbu maktabni qo'yidagicha ta'riflaydi: "Otinbibi o'zining butun vaqtini saboq beruvga sarf etar, har bir bolani navbat bilan o'z oldiga chaqirib dars berar va bu bilan bir kunlik o'qish o'tar edi. Otinbibining bir kunlik dars vaqti ertangi nonushtadan to soat o'n ikkigacha davom etar, u bolalarni masjiddagi domladay ertadan kechgacha bir xonada qamab qo'yib zeriktirmas edi. Shogirdlari erta bilan nonushtani o'z uylarida eganlaridan keyin maktabga kelardilar, saboq olish va olingan saboqni o'qish bilan shug'ullanar edilar"[8].

O'g'il bolalar o'qitiladigan maktablarda farqli ravishda, qizlar maktablarida mumtoz shoirlar ijodini o'rganish bilan birga qizlar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari, chunonchi, uy-ro'zg'or tutish, pazandalik, pokizalik, sharqona odob-axloq ham o'rgatilgan. Bu o'rinda Faxriddin ibn Rizouddinning "Tarbiyali xotun", Olimat rul- banotning "Muosharat odobi" kabi kitoblarining ahamiyati katta bo'lgan. "Muosharat odobi" 1898 va 1899 yillarda Sank-Peterburgda ikki marta nashr etilgan. Risolada odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va oilaviy munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat haqida g'oyat ibratli maslahatlar beriladi[17]. Bundan tashqari qizlar maktabida Aliy Nazimoning besh kitobdan iborat "Ta'lim-i banot" ("Qizlar tarbiyasi") asari sharqona axloqiy darslik sifatida o'qitilgan[18].

Maktabdorlar bolalardan "buyra puli", "ko'mir puli", "supurgi puli" kabi turli xil o'ziga xos "to'lovlar" ham olib turgan. O'quvchilar tomonidan har payshanba kuni keltiriladigan "payshanbalik noni" maktabdor domlaning asosiy haqi hisoblangan. "Payshanbalik"dan boshqa, Qur'on suralaridan "qulya"ga o'tganda quymoq, "amma"ga o'tganda bo'g'irsoq, "yosin"ga o'tganda yupqa keltirish ham rasm bo'lgan.

Qishloq maktabdoriga nisbatan shaharlardagi maktabdorlar ancha bilimli va tajribali bo'lishgan. Yaxshi tajribali maktabdor domla o'z o'quvchilariga husnixatni, ya'ni yozish-chizishni hamda og'zaki hisoblashni qisqa vaqtda o'rgata olgan. An'anaviy maktabga boylarning bolasi muntazam qatnab, o'qish va yozishni ham o'rganib olgan. Ammo ko'p kambag'al oilalarning bolalari maktabga vaqtda qatnay olmay, xat-savodsiz qolib ketgan.

Xulosa. XIX asr oxiri XX asrning dastlabki yillarida Buxoro amirligida faoliyat ko'rsatgan boshlang'ich maktablar o'z ish tartibi, tashkil etilishi va moliyaviy-xo'jalik ta'minoti jihatidan o'tgan asrlar an'anasi va darajasini saqlab qolgan edi. Maktablar xalqning savodini chiqarish, arab imlosida o'qib-yozishni, arifmetik hisobni o'zlashtirishga o'rgatuvchi maskan sifatida bu

davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Maktablarning o'quv dasturi boshlang'ich diniy ta'lim, islom asoslari, diniy ibodat, axloqiy tarbiyaga yo'naltirilgan, atrof-muhit, jamiyat haqida ham tushunchalar bergan. Ammo maktabxonalaridagi ta'lim usuli, ularning moddiy-moliyaviy ta'minoti, o'qish muddatlari, sanitariya- gigiena sharoitlari talabga javob bermasligi, ularning ko'pchiligi xayriya hisobidan yoki xususiy va jamoat mablag'lari asosida ish yuritishi va davlat tomonidan ta'minlanmaganligi, o'quv dasturida dunyoviy bilimlarga e'tiborsizlik, o'qituvchilarning bilimi yetarli emasligi ularni zamon talablariga hamohang bo'lishiga imkon bermadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Niyoziy Rajabzoda. Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taqqiyning yo'li// Oyina, 1914.-№38.
2. O'zR MDA, 47-fond, 1-ro'yxat, 333-ish, 11 - varaq.
3. Наливкин В. Школа у туземцев Средней Азии// Туркестанские ведомости, 1898. – 8 августа.
4. O'zR MDA, 47-fond, 1-ro'yxat, 333-ish, 11 - varaq.
5. Solijonova G. Maktabxona // O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. V- jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 412-413.
6. O'zR MDA, 47-fond, 1-ro'yxat, 333^a-ish, 12- varaq.
7. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 211.
8. Ауний S. Eski maktab // Asarlar VIII tomlik. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1965. IV- tom. - B.140.
9. O'zR MDA, 1010-fond, 1-ro'yxat, 66-ish, 18- varaq.
10. Fitrat A. Munozara // Sharq yulduzi, - Toshkent, 1997. - №1. – B.121.
11. Dolimov U. Eski maktab // Tafakkur. – Toshkent, 2010. - №1. – B.66-73.
12. Сухарева О.К. Истории городов Бухарского ханства. – Ташкент: Изд. АН Уз ССР, 1958. – С.212.
13. Ауний S. Вухоро inqilobi tarixi uchun materiallar//Asarlar. -Toshkent: Badiiy adabiyot, 1963. 1- tom. – B.352
14. Вухоро Davlat me'moriy-badiiy muzey-ko'riqxonasi ko'lyozma fondi. 25563/11 inventar.
15. Билялов Г.М. Из истории культуры и просвещения в Хорезме. - Ургенч, 1957. – С.39
16. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o'rgatish, - B.64.
17. Olimat ul-Banot. Muosharot odobi. - Toshkent: Mehnat, 1991.- B.4.
18. Nazimo A. Qizlar tarbiyasi // T.Ziyoev tarjiması. – Toshkent: kamalak, 1994.- B.64.
19. Behbudiy M.Tahsil oyi // Samarqand.-1913.- №41.3-sent.

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

THE IMPORTANCE OF CREATIVE EDUCATION IN SOCIETY

Yusupov Lutfullah Sayitturaevich,

Andijan State Pedagogical Institute

independent researcher

AndQXAI academic lyceum director

Email: nikedle@gmail.com

Abstract. The word 'creativity' has come into widespread use in all areas today, largely due to the desire of companies and organisations to be more competitive and the need for schools to move students towards thinking-based learning rather than testing-based learning. Educators around the world are calling for greater emphasis on developing students' creativity and imaginative abilities in the curriculum of all subjects taught in mainstream schools and believe that the effectiveness of educational reforms depends on the extent to which these competencies are developed. For example, the UK's recent annual report concluded that the UK's economic prosperity and social cohesion depend on the development of a national strategy for creative and cultural education [1].

Key words: creativity, creativeness, creative competence, creative thinking, divergent thinking.

КРЕАТИВ ТАЪЛИМНИ ЖАМИЯТ РАВНАҚИДАГИ АҲАМИЯТИ

Юсупов Лутфуллоҳ Сайиттураевич,

Андижон давлат педагогика институтида

мустақил тадқиқотчи

АндҚХАИ академик лицей директори

Аннотация. «Ижодкорлик» сўзи бугунги кунда барча соҳаларда кенг қўлланила бошланди, бу асосан компаниялар ва ташкилотларнинг рақобатбардош бўлишга интилиши ва мактабларнинг ўқувчиларни тестга асосланган таълимга эмас, балки фикрлашга асосланган таълимга ўтказиш зарурати билан боғлиқ. Бутун дунё ўқитувчилари умумтаълим мактабларида ўқитиладиган барча фанлар ўқув дастурида ўқувчиларнинг ижодкорлиги ва тасаввур қобилиятини ривожлантиришга кўпроқ эътибор қаратишга чақирмоқда ва таълим соҳасидаги ислохотларнинг самарадорлиги ушбу компетенцияларнинг қай даражада ривожланганлигига боғлиқ деб ҳисоблайди. Мисол учун, Буюк Британиянинг яқинда эълон қилинган йиллик ҳисоботида Буюк Британиянинг иқтисодий фаровонлиги ва ижтимоий ҳамжиҳатлиги ижодий ва маданий таълим бўйича миллий стратегияни ишлаб чиқишга боғлиқ деган хулосага келди [1].

Калит сўзлар: ижодкорлик, ижодкорлик, ижодий компетенция, ижодий фикрлаш, дивергент фикрлаш.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N37>

Кириш. Ҳозирги кунда юқори салоҳиятли, касбий билим ва зарурий компетенцияларга эга ёш авлодни тарбиялаш нафақат юртимиз учун, балки дунёдаги барча давлат ва жамият олдида турган энг устувор вазифа ҳисобланади. Энг ривожланган ғарб давлатлари ҳам таълим муассасаларида юқори самарадорликка эришиши учун ҳар йили таълим тизимини модернизация қилиб боради, дарсларга охириги инновацион технологияларни интеграция қилиш билан бирга ўқувчиларни

мустақил ва танқидий фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш ҳамда креатив компетенцияларини шакллантиришга эътиборини қаратади. Чунки технология тараққиёти, ишлаб чиқаришдаги инновацион ёндашувлар ва умуминсоният тараққиёти учун таклиф қилинаётган қулайликлар ва инновацион ечимлар, айнан ностандард фикрловчи шахслар ҳиссасига тўғри келиши ҳаммага бирдек аён. Сўнгги йилларда креативликнинг табиати ва таъсири бўйича тадқиқотлар ва назариялар деярли барча фанлар ва соҳаларда, хусусан, санъат, адабиёт, мода ва дизайн каби ижодкорликка хос бўлган йўналишлардан ташқари бизнес ва менежмент каби соҳаларда ҳам тобора кенгроқ ёйилмоқда.

Давлатимиз раҳбари аввало мактабларда ўқув юкмаси ва дарслар сонини қайта кўриб чиқиш, ўқувчиларни фақат ёдлашга эмас, балки фикрлашга чорлайдиган методика яратиш зарурлигини таъкидлаган ва бу борада умумий саводхонлик, табиий фанлар ва математика бўйича дунёда энг илғор мамлакатлардан бири бўлган Финляндия тажрибасини ўрганиш ва таълим муассасаларида жорий қилиш бўйича ўз тавсияларини берган. Президент Ш. Мирзиёев таълим тизимининг ислоҳоти фақат таълим муассасаларининг моддий техника базасини мустаҳкамлаш ёки синфларни замонавий компьютер ускуналари билан жиҳозлаш орқали амалга ошириб бўлмаслигини, балки таълим муассасаларида ўқувчиларга фанларни ўқитиш методикасини яхшилаш ҳамда ўқувчиларни билим олишга рағбатлантириш орқали тизимда бўлаётган ислоҳотларни самарадорлигини ошириш мумкинлигига урғу бериб, қуйидагиларни таъкидлаган “Мактабда ўқитиш методикаси ўзгармаса, таълим сифати ҳам, мазмуни ҳам, муҳит ҳам ўзгармайди [2].” Дарҳақиқат, жаҳонда кетаётган кескин глобаллашув жараёнида мамлакат ва жамиятларни бир маромда тараққий этиб боришлиги, ана шу жамиятда ўсиб келаётган ёш авлодни қандай камол топаётганлигига ҳар томонлама боғлиқдир. Бу эса ўз навбатида таълим ислоҳотини жадаллаштириш, ёш авлодни креатив компетенциясини шакллантириш, уларни танқидий фикрлаш, мустақил қарор қабул қилиш қобилиятларини ривожлантириш, билан бирга ўқувчилар руҳиятига азалий диний ва маданий қадриятларини сингдириб бориш алоҳида эътиборга молик жараён ҳисобланади. Ана шу нуқтаи-назардан илғор хорижий тажрибалар асосида замонавий касбий таълим мазмунини модернизациялаш, инновацион таълим муҳитини шакллантириш, интерфаол ўқитиш методлари ва технологияларини амалиётга кенг татбиқ этиш асосида ўқувчиларда креативлик қобилиятларини ривожлантиришнинг педагогик механизмларини янада такомиллаштириш муҳим ўрин тутаяди.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Креативлик масаласи ўтган асрдан бошлаб бугунги кунга қадар кўплаб ғарб мамлакатларида ҳамда Россия ва мустақил ҳамдўстлик давлатларида турлича таҳлил этилган ва ўрганилган. Масалан, Н.Н. Нечаев, Я.А. Пономарев, Б.М. Теплов, Д.В. Ушаков, Богоявленская сингари олимлар креативлик масаласини умумий тарзда ўрганган бўлсалар, Н.А. Бердяев, В.С. Библер, В.Н. Дружинин, П.А. Флоренскийлар креативликнинг маънавий, психологик жиҳатларини таҳлил этган. Л.Виготский, А.Леонтев Э.Ю.Артемева, А.Ю. Агафонов, М.М. Бахтинларнинг илмий ишларда креативлик шахсият сифатида таҳлил этилиб, креативликни ташҳис қилиш масалалари ўрганиб чиқилган. Креативликни ташҳис қилиш методларини ишлаб чиқишда эса хусусан Э.П.Торрансе, Гилфорд, Маслоу каби хорижий олимлар ўзларининг салмоқли ҳиссаларини қўшишган[3]. Бундан ташқари, педагогика ва психологияда креативлик муаммоси устида Г. Эйзенк, Д.Векслер, Х.Груббер, Ж.Гилфорд, А.Маслоу, С.Медник, Г.Оллпорт, К. Рожерс, В. Смит, К. Тейлор, Э. Торренс, Х. Трик, М. Уолач, Д.Хелперн каби кўплаб хорижий олимлар ишладилар ҳамда креативликни шакллантириш ва ривожлантириш масаласи юзасидан кўплаб тадқиқотлар ўтказдилар[4]. “create” – яратиш, “creative” – яратувчи, ижодкор каби маъноларни англатади. Истилох жиҳатидан эса шахснинг янги ғояларни ишлаб чиқаришга

тайёрликни тавсифловчи ва мустақил омил сифатида иқтидорлиликнинг таркибига кирувчи ижодий қобилият маъносида қўлланилади. Гарднер ўз тадқиқотларидан келиб чиққан ҳолда тушунчани шундай изоҳлайди: “креативлик – шахс томонидан амалга ошириладиган амалий ҳаракат бўлиб, у ўзида муайян янгиликни акс эттириши ва маълум амалий қийматга эга бўлиши лозим”. Эмебайлнинг нуқтаи назарига кўра, креативлик “муайян соҳа бўйича ўзлаштирилган пухта билимлар билан бирга юқори даражада ноодатий кўникмаларга ҳам эга бўлиш” демакдир [5]. Дорон фикрига кўра, креативлик одамларда туғилган ички истеъдод эмас; креативлик – бу амалиёт ва тажрибалар орқали ривожланиши ва такомиллаштирилиши мумкин бўлган қобилиятдир.

Муҳокама. Креативлик феномени бўйича кўплаб тадқиқотлар ўрганилаётган ҳодисаларнинг хилма-хиллиги ва кўп қирралилиги билан ажралиб туради. Кўпгина психологик конструкциялар креативлик билан таққосланди, улар орасида шахсий ва интеллектуал хусусиятлар мавжуд. Креативликни интеллектуал хусусиятлар билан боғлиқ ҳолда ўрганишнинг бошланиши, дивергент тафаккурни аниқлаган Ж. Гилфордга тегишлидир [6]. Стернберг ва Лубарт креативлик назарияларида асосий концепция муаммони ҳал қилишдир. Муаммоларга сезгирлик яъни интуиция креативлик жараённинг асосидир. Тадқиқотчилар креативлик ва ақлни тенглаштирамайдилар. Бироқ, уларнинг фикрича, интеллектуал қобилиятлар билим, мотивлар ва шахсий хусусиятлар билан бирга креативлик манбаи бўлиб хизмат қилади. Гилфорд креативликнинг олти мезонига асосланади:

1. муаммоларни аниқлаш ва шакллантириш қобилияти;
2. “фикрнинг равонлиги” (вақт бирлигида юзага келадиган фикрлар сони);
3. ўзига хослик (умумий қабул қилингандан фарқ қиладиган ғояларни ишлаб чиқиш қобилияти, қарашлар, ностандард огоҳлантиришларга жавоб бериш);
4. мослашувчанлик - турли ғояларни ишлаб чиқариш қобилияти;
5. деталарни кўшиш орқали объектни яхшилаш имконияти;
6. муаммоларни ечиш қобилияти, яъни таҳлил ва синтез қилиш қобилияти[7].

Шунингдек, Гилфорд креативликни (дивергент фикрлаш) умумий ижодий қобилият деб ҳисоблаган. Креатив фикрлаш фақат дивергент фикрлаш билан белгиланмаган бўлса-да, у дивергент фикрлаш билан боғлиқ ва дивергент фикрлашни ўргатиш мумкин. Дивергент фикрлаш талабалардан фақат битта тўғри фикр мавжуд бўлганда конвергент фикрлашдан фарқли равишда кўплаб турли ғоялар ҳақида ўйлашни талаб қилади. Креативлик учун иккаласи ҳам зарур: талаба муаммо ёки муаммога турли ечимларни ишлаб чиқиш учун дивергент фикрлашдан фойдаланади ва кейин қайси бири энг яхши натижаларни беришини ҳал қилиш учун конвергент фикрлашдан фойдаланади.

Патти Драпеау ҳам ушбу ғояни қўллаб қувватлайди ва дивергент ва конвергент тафаккур хусусида куйидаги фикрларни билдиради: “ - креатив фикрлаш, энг аввало, муайян масала юзасидан ҳар томонлама фикрлаш саналади. Ҳар томонлама фикрлаш талабалардан ўқув топшириғи, масаласи ва вазифаларини бажаришда кўплаб ғояларга таянишни талаб этади. Бундан фарқли равишда бир томонлама фикрлаш эса биргина тўғри ғояга асосланишни ифодалайди.” [8].

Креатив кўникмасини ҳам бошқа кўникмалар каби шакллантириш ва ривожлантириш мумкин. Бу академик лицей ўқувчиларга ҳам таалуқдир. Ўқувчиларнинг масалаларга креатив ёндашуви, уларни ностандард фикрлашларига ёрдам беради. Ўқувчиларни рағбатлантириш ҳамда креатив фикрлашга ундаш ўқитувчининг тажриба ва малака даражасига бевосита боғлиқдир. Шунинг учун ўқувчиларнинг креатив компетенциясини шакллантириш ҳамда ривожлантиришда ўқитувчининг роли айниқса аҳамиятлидир. Агар ўқитувчининг ўзида креативликка хос бўлган ҳислатлар мавжуд бўлмаса ўқувчиларда креативликни шакллантира олмайди

Чунки Патти Драппеау айтганидек креативлик ҳам юқумлилик ҳарактерига эга бўлиб, ижодкорлик қобилияти ўзида бўлсагина бу “касаллик”ни атрофдагиларга юқтира олади. Синфдаги муҳит ҳам ўқитувчининг шу ва шунга ўхшаш ҳислатлар замирида вужудга келади. Ўқитувчи хосил қилган муҳитда ўқувчи шаклланади, агар муҳит эркин, илмий ва ижодий бўлса ўқувчи тафаккури ҳам шунга қараб шаклланади. Патти Дрепрау, ўқитувчининг креативлик салоҳияти унинг умумий хусусияти сифатида акс этишлигини ҳамда креатив салоҳият негизида ҳар бир мутахассиснинг шахсий қобилиятлари, табиий ва ижтимоий қуввати яхлит холда намоён бўлишлигини таъкидлайди.

Натижалар. Креатив муҳитда таълим олаётган ўқувчиларда аста секин креатив вазифаларни бажаришга нисбатан қизиқиш ортади, шунингдек креатив сифатларга эга ўқитувчини кузатиш натижасида ўқувчида креатив фикрлашга мойиллик сезилади. Креатив ўқувчилар қолган ўқувчиларга қиёслаганда қуйидаги сифатлар билан ажралиб туради:

- Тенгдошлари орасида бошқача фикрлайди ва бошқа ўқувчилар ҳаёлига келмаган ғояларни ўртага ташлайдилар
- Ўзига хослиги ўзларини ифода этишда ҳам яққол сезилиб туради
- Аксарият холларда мавзу ташқарисидан ёки ғайриоддий саволлар беради
- Мураккаб, ечими очиқ саволлар билан ишлашдан завқланади
- Муаммонинг ечимида ноанъанавий ёндашувни афзал кўради
- Ғоялар муҳокамасида далилларга таянишни хуш кўради

Ўқувчилар қачонки ўзларини эркин сеза олсалар шундагина креатив фикрлаш қобилиятини ривожлантира оладилар. Агар ўқувчиларда бирор ишни уддалай олмаслик кўрқув ҳисси юқори бўлса, ўзгача фикрлашдан ҳадиксирасалар, танқиддан чўчисалар, бундай ҳолда ўқувчиларнинг креатив фикрлаш кўникмасини шакллантириб бўлмайди. Креативлик кўникмасини шакллантиришга тўсқинлик қилувчи омиллар:

- Таваккал қилмаслик, таваккалликдан ўзини тийиш
- Ўзгаларга тобе бўлиш
- Ўқувчиларнинг тасаввур ва фантазиясини қадрламаслик
- Ўқувчи томонидан билдирилган ғоя ва фикрларнинг масҳара қилиниши
- Фақат баҳо учун ўқиш
- Ўзгача бўлиш ва ажралиб туришдан кўрқиш

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда ўқувчиларнинг креатив фикрлаш кўникмасини шакллантириш ва ривожлантиришда юқорида таъкидланган учта муҳим факторлар бор бўлиб улар: ўқитувчи, муҳит ва амалиёт ҳисобланади. Ўқитувчининг ушбу кўникманинг шакллантиришдаги ўрнини муҳимлигини юқорида келтирилган фикр, мулоҳазалар ва тадқиқотлар натижалари асосида баён қилинди. Аммо креативлик кўникмасини шакллантирувчи муҳит ҳам ва уни ривожлантирувчи амалий машғулотлар ҳам бевосита ўқитувчи фаолияти билан боғлиқ. Айнан ўқитувчи синфдаги креативлик муҳитини “жонлантириб” бера олади ҳамда ўқувчиларни уларнинг қизиқишини кўзгата оладиган амалий машғулотларга жалб қила олади. Шу нуқтаи назардан қаралганда, бўлажак педагоглар тайёрлайдиган олий таълим муассасаларида ўқувчиларда креативлик кўникмасини шакллантиришга йўналтирилган махсус ўқув курслари ташкил қилиш ҳам мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Jack C Richards “Creativity in language teaching” Iranian Journal of Language Teaching Research 1(3), (Oct., 2013) 19-43
2. Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 05.04.2022 кунги ўтказилган видеоселектор йиғилишидан <https://kun.uz/uz/news/2022/04/05/maktablardagi->

[eng-katta-muammo-oqitish-metodikasi-eskirkani-prezident-maktab-talimini-isloh-qilish-haqida](#)

3. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – с.– 388 б.
4. Sternberg, R. «Creativity is a decision» [Text] / R. Sternberg: in A.L. Costa (Ed.). - Teaching for intelligence II, 2000. - 85-89p
5. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари.: / – Тошкент. 2015. – 120 бет
6. Еремина Лариса Ивановна “Развитие креативности личности, психологический аспект” Общество : Социология. Психология. Педагогика 2014, №1
7. Умонбоева, А. Тўраева. Креатив педагогика асослари. Ўқув услубий мажмуа. ТДПУ, 2016
8. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA
9. Patti Drapeau. Sparking Student Creativity:practical ways to promote innovative thinking and problem solving. Alexandra, Virginia USA. 2014

Received: 30 September 2024

Accepted: 5 October 2024

Published: 15 October 2024

Article / Original Paper

SOURCES OF INNOVATION: ACTOR-NETWORK THEORY

Norboyev Farkhod Chorshanbievich,

Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

Abstract. The article outlines the content and main postulates of one of the most important theories in the social sciences -the actor-network theory. The explanations of the theory regarding changes, causes, and factors of creativity are analyzed. The application of the actor-network theory to creativity and the innovation process, which arose at the end of the 20th century and became one of the interdisciplinary methodological theories, is described.

Key words: actor, network, action program, actor, change, hybridity, quasi-subject

INNOVATSIYALAR MANBALARI: AKTYOR-TARMOQ NAZARIYASI

Norboyev Farxod Chorshanbiyevich,

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy fanlardagi muhim nazariyalardan biri aktyor-tarmoq nazariyasi mazmuni, asosiy postulatlarini bayon qilingan. Nazariyaning o'zgarishlar, ijod sabablari, omillari borasidagi tushuntirishlari tahlil qilingan. XX-asr oxirida yuzaga kelib, fanlararo metodologik nazariyalardan biriga aylangan aktyor-tarmoq nazariyasining kreativlik va innovatsion jarayonga tatbiqi tavsiflangan.

Kalit so'zlar: aktyor, tarmoq, harakatlar dasturi, aktant, o'zgarish, gibridlik, kvazisubjekt

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I10Y2024N38>

Kirish. Sotsiologiyadagi muhim munosabatlarga xos nazariyalardan biri aktyor-tarmoq nazariyasi (ATN) bo'lib, bu nazariya *hisobga kirish* nazariyasi va ko'chish (translation) sotsiologiyasi sifatida mashhur hamda u ilk marta 1979 yilda Bruno Latour va Stiv Volgar tomonidan Hayot Laboratoriyasi (Laboratory Life)da qayd etilgan bo'lsa-da, atama ATN borasidagi taniqli tadqiqotchi Michel Callon ishlari bilan bog'lanadi [4]. Ushbu ikki kitob (birinchisi, yuqorida tilga olganimiz Hayot laboratoriyasi va B.Latourning yana bir asari *Fan harakatda* (Science in Action, 1987)) ATNga iqtibos berishda tilga olinuvchi eng asosiy ikki asar hisoblanishadi. Bu asarlar nazariyaning ba'zi muhim xususiyatlarini ifodalaydi: u etnografik metodologiyaga hamda kundalik amaliyotni tadqiq qilishga tayanishi; uning emik¹ kategoriyalar va ishtirokchilar refleksivligiga bo'ysunishi (bu ikki xossa etnometodologiyadan meros olingan, Garfingel ishlariga qarang) va uning eng katta yangiligi – amaliyotning o'lchanuvchan qismlari amaliyotning o'zini tashkil etuvchilar ekanligiga qat'iy ishonchdir.

ATN Fan va Texnologiyalar tadqiqotlari yondashuvlaridan biri sifatida boshlangan, ayni holat nazariyaning ijtimoiy texnologik jarayonlar, ya'ni ijtimoiylik, texnika, inson hamda artefaktlar (jihazlar)ning egizakligi haqida qayg'urishini izohlashi yoziladi. Albatta, B.Latour va

¹ Emic - muayyan til yoki madaniyatni o'rganish yoki tavsiflashga har qanday mavjud tashqi sxema nuqtai nazaridan emas, balki uning ichki elementlari va ularning ishlashi nuqtai nazaridan yondashish

S.Volgar xuddi H.Bekker san'at sohasida ko'rsatgani singari, ijod (kreativlik, yaratish) bu yolg'iz yetishma emasligi, ixtiro (yaralma narsa) yagona ixtirochining mahsuli emas, balki ko'plab *aktantlar (quyiga qarang), insonlar va inson bo'lmaganlar* orasidagi manfaatlarining barqarorlashuvidan kelib chiquvchi ijtimoiy madaniy va kontekstual natijalar ekanligiga kuchli isbotlar keltirishadi. Kreativ o'zaro ta'sir va innovatsion jarayonlar tavsifi va tahlili uchun Madeline Akrich va Bruno Latour kalit tushuncha "harakatlar dasturi" - aktantlar intiladigan va bir biriga "aylantirishi, ko'chirishi" orqali aralashtirishi va hech bir boshlang'ich aktant ko'zlamagan yangi harakat dasturi yaratilishini ifodalovchi termini qo'llashadi [1]. Aylantirish (ko'chish) jarayoni interaktiv (birgalikdagi o'zaro harakatlardan tarkib topadi), kommunikativ va kuzatiluvchan, modomiki, ATNning doimiy asosi o'zgarish sotsiologiyasidir. Shu kabi kuzatiluvchan birgalikdagi (o'zaro) harakatlar, ta'sirlashuvlar natijasi bo'lmish ixtiro "ishlaydi" chunki u "istayman"ni o'sha aktantlarga o'zgartirishga qodirdir. Misol uchun, Wiebe E.Bijker velosiped keysini tahlil qiladi. U velosiped hozirgi shaklini egallaganlik boisini Viktorian davri axloqi (ayniqsa, bu ayollarning ehtiyot saqlagan holda haydash imkoniga oid) va xavfsizlik hamda tezlik tashvishlarining har ikkalasini birlashtirib bilib o'zgarganligi (aylanganligi)gi bilan bog'laydi [3].

Nazariya keyinchalik asta sekin Fan va texnologiyalari tadqiqotlaridan ajralishni, kengroq chegaralar da'vo qilishni, sotsiologiyada alohida, boshqa yo'lda amal bajaruvchi sifatida o'rin olishni, ilmiy tadqiqot olib borish (ilmiy faoliyat) boshqa ijtimoiy faoliyatlardan mutlaq farqlanmasligiga tayanishni va na texnologik determinizm, na ijtimoiy determinizmni ma'qullamaslikni boshlaydi (ATN ning qonunlar antropologiyasiga tatbiqini bilish uchun qarang [13], moliya bozoriga tatbiqi uchun qarang [16]). ATNning tezlikda tan olinishni boshlashi faktiga boshqa ta'sir etuvchilar qatori fanning jamiyatda ahamiyati oshib borishi ham muhim hissa qo'shadi. Ayni jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda va bunga kollaborativ bilimlar o'rnining oshib borishi [7], bilimlarning intensiv ishga aylanishi [2], kollektiv jarayonlarning ijtimoiy texnik tarmoqlarga birlashuvi kabi masalalar tahlil qilingan gumanitar fanlarga oid adabiyotlar orqali guvoh bo'lish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Harakatlarning gibrid tabiati

ATN tadqiqotchilari har doim dualizmni shodlantirishdan (misol uchun, texnologik determinizmni jamiyat uchun qulayroq vosita sifatida qarashga qarshi qo'yishdan) ehtiyot bo'lishgan, bunday tashvishlar chuqur ildizga ega. ATN tarafdorlari uchun Platonning "mutlaqlashtirishdan qochish va o'rtalikni tanlashda qat'iy bo'ling" maslahati shunday oraliq sohalarning xira sarhadlarini tadqiq qilish, bilish imkonini beruvchi nazariy model sifatida o'qilishi mumkin. ATning tayanch tushunchalaridan biri bu gibridlik bo'lib, u ijtimoiyot va harakat (lar) doimo murakkab o'zaro aloqalar, ta'sirlar mahsuli bo'lishi, hech qachon tabiat yoki madaniyat kabi sof sohalarga mansub bo'lmasligini anglatadi. Bu yo texnik yo ijtimoiy tushuntirmalarni ma'qul ko'ruvchi nazariy modellar ushbu tuzilmalarni tushuntirish, hatto tavsiflash uchun mos kelmasligini anglatadi. ATN uchun gidridlik aksioma emas, balki nazariya shiori "aktyorlarning o'zlarini kuzating" [14,12]ga chin ko'ngildan ishonish orqali har kim guvoh bo'la olishi mumkin bo'lgan nimadir. Bunga 1987 yilda B.Latour tomonidan olimlar va injenerlarni harakatda kuzatish orqali misol keltirib o'tadi.

B.Latour o'zining "Biz hech qachon zamonaviy bo'lmaganmiz" (We have never been modern (1993)) asarida aniq "simmetrik antropologiya" manifesti vositasida tabiat va ijtimoiylik "ajraluvi" haqidagi empirik chalkashlikni rad etadi. Uning fikricha, tabiat va jamiyat yoki texnologiya va madaniyat orasidagi bo'linish bartaraf etilishi hamda spektrumning har bir nihoyasi uchun boshqa turdagi tushuntirish talab etmasligi zarur.

Binobarin, biz bunda (ATNga ko'ra) bir tomonda inson subyektlar va tomonda inson bo'lmagan subyektlar bo'lmasligini, balki ular kvazisubjekt yoki kvaziobyektlar, aralash ontologiyadagi gibridlar ekanligini anglashimiz shart. Agar aktyor-tarmoq nazariyasining bir yolg'iz hissasiga urg'u berilishiga to'g'ri kelsa, unda bu hissa nazariyaning aktorni bir yolg'iz va

farqlanuvchan birlik sifatida emas, balki ko'proq tarmoqning o'zi sifatida konseptuallashtirishidir, bu g'oya B.Latourning "Birov harakat qilganda, boshqalar harakatga tushadi" so'zlarida umumlashtirilgan [11; 237]. Harakat allaqachon shakllanib bo'lgan subyektning maqsadli irodasi yoki istagidan kelib chiquvchi emas, balki turli xil mustaqil mavjudliklarning gibrid birlashmasi effekti sifatida tushuniladi. Nimadir yangi, oddiy tarzda qo'shilgan yoki faollashtirilgan elementlar bilan izohlab bo'lmaydigan yuzaga keladi [12].

Tadqiqot metodologiyasi. ATNning harakat versiyasida insonlar va inson bo'lmaganlar harakat dasturlariga erishish uchun birlashadilar (bunda harakat dasturi biror tomoning niyati yoki rejasi bilan cheklanmaydi) [14]. Jamoada ham insoniy, ham insoniy bo'lmagan ishtirokni hisobga olish zarurati o'ziga ATNga asoslangan uch prinsipni qamrab oladi. Ushbu prinsiplar: (a) agnosticism – ham insoniy ham insonga oid bo'lmagan omillarga xolis munosabat, (b) umumlashma simmetriya – qarama-qarshi nazarlarni neytral leksika va abstraksiyalar foydalanib, bir xil terminlar bilan tavsiflash, biror bir omilga maxsus tushuntirma bermaslik (c) erkin assotsiatsiya – texnologik va ijtimoiy orasidagi farqlar borasidagi barcha umumiy xulosalar likvidatsiyasi.

Assotsiatsiyalar biror bir tomonning ifodasi hisoblanmaydi, ayni paytda boshqalar uning shunchaki vositalari yoki ijrochilari bo'lishi mumkin. Ayniqsa, inson bo'lmaganlar o'z foydalanuvchilari-insonlar istaklarini aniq amalda ifodalovchi sodda o'rtaliq sifatida tushunilmaydi. Ular ko'proq B.Latour mediatorlar (o'rtakashlar) deya nomlovchilardir; boshqacha qilib aytganda, obyekt o'zi qabul qilayotgan impulsni yetkazishi (o'tkazishi) uchun uni o'zgartirishi yoki yuqorida qayd etgan konseptimizga qaytsak – ekvivalenti bo'lsa-da, uni nimagadir aylantirishi (o'zgartirishi) kerak, italyancha maqol "traduttore traditore ("tajrimon xoin", qarang [12]). Michel Kallon o'zining dengiz taroqlarini xonakilashtirish bo'yicha omadsizlikka uchragan mashhur original tajribasi natijasida har qanday boshlanma muvaffaqiyati uchun tomonlar – ularning tabiatidan qat'iy nazar – bir-birining harakat dasturini o'gira (tarjima qila) bilishga qodir bo'lishi yoki ular o'z umumiy boshlanmasi omadsiz bo'lish riskini ko'rish faktini umumlashtiruvchi "o'girish (tarjima) sotsiologiyasi" atamasini kiritadi [5].

Harakatlarni Vaqt va Makon bo'ylab ko'chirish vositasida jamoa qurish

Ushbu qarashning muhim oqibatlari bor, binobarin u moddiy obyektlarga ijtimoiy realikka (sohaga) kirish (aralashish) imkonini beradi. Inson bo'lmaganlarni ijtimoiyning foni yoki ozmi-ko'pmi cheklovchi "konteksti"da ko'rish, o'ylashdan ko'ra ATN texnik obyektlarga jamoalar qurilmasining haqiqiy ishtirokchilari sifatida qaraydi. B.Latour tushuntirishicha, bizning jamiyatimiz maymunlardan farqlanishi biz murakkabligimiz, ayni vaqtda ular soddaligi sababli emas: primatologlar tadqiqotlari maymunlar orasida ijtimoiylashuv ko'plab murakkab o'zaro aloqalarni qamrab olishini ko'rsatadi[11].

Maymunlarning "tabiiy tabiati" va "bugungi jamiyat" xususiyatlari orasidagi farqqa urg'u berish uchun B.Latour *kompleks* (ko'plab qismlardan tarkib topuvchi) va *murakkab* (o'zaro bog'liq, aloqador ko'p qismlardan tarkib topish) tushunchalarini farqlab olishni taklif etadi. Maymunlar jamoada har qanday o'zaro aloqalar, ta'sirlar yuz bermasin, uni tanlay bilish imkoniga ega emas, u bilan ish ko'rishga majbur, o'zlari ijtimoiy tartibotini ular orqali qayta qurishlari shart bo'lsa – ularning jamiyati kompleks; insonlar o'zaro aloqalarni izchillikda ko'rib chiqa olishadi, oldingini keyingi sifatida qora qutida saqlab qo'ya olishadi (texnik obyektlar hisobiga). Boshqacha qilib aytganda, artefaktlar o'zaro aloqalar (birgalikda harakatlar)ning kechiktirilishi, barqarorlashuvi, o'sha barqarorlashgan shakllardan boshqa birgalikdagi o'zaro harakatlarga ko'chirilishiga imkon beradi. Misol keltiramiz: ayni shu sabab bir kuni men Transport boshqarmasidan bo'lgan imtihonchini men avtomobil hayday olishimga ishontirganman, u menga bergan va mening kompyuterim (telefonim) xotirasida saqlanuvchi haydovchi litsenziyasi menga har doim politsiya ofitserini uchratganimda hayday olishimni, o'z haydashga qodirligim va malakamni qayta isbotlamaslikka imkon beradi. Haydovchilik litsenziyasi sharofati bilan mening Transport boshqarmasi imtihonchisi bilan

o'zaro munosabatim (birga harakatim), men va politsiya ofitseri uchrashganda bo'luvchi hodisa kutilganidek qora qutiga solingan va kafolatlangan.

Texnik obyektlarning o'zaro aloqalarni "ko'tarib yurish"ga qodirligi Coorenga o'zaro aloqalarning makonsiz (ko'chirma) xususiyati haqida so'z ochishga imkon beradi [6]: o'zaro ta'sir har doim boshqa joy va boshqa vaqtda ro'y bergan hodisalarni ham o'z ichiga oladi, chunki u hisoblar, hujjatlar va boshqa obyektlar vositasida ularni shu yerda hozir qila oladi.

Kreativlikka tatbiqlari

Bu kreativlik va innovatsiyalarni tadqiq qilishda mutlaqo boshqa yo'lni ochadi. Qayd etib o'tish joizki, ATN asosan 2007-yilgacha B.Latour faoliyat olib borgan va boshqa mashhur ATN tadqiqotchilari xususan, Antoine Hennion yoki Madeleine Akrich hali ham faoliyat yuritayotgan (Michel Callon yaqinda nafaqaga chiqdi) Parijda, Centre de sociologie de l'innovation (Innovatsiyalar sotsiologiyasi Markazi, ISM)da rivojlantirilgan; ISMdan tashqarida biz John Law, Annemarie Mol, Peter-Paul Verbeek, Vincent Lépinay va boshqa olimlarni tilga olishimiz mumkin. ATNning innovatsiyalarga qarashining asosiy elementi kreativlik solitar jarayon emasligidir, bu Antoine Hennionning havaskor musiqachilar bilan ishlarida [9] ko'rsatib berilgan, ushbu xulosa boshqacharoq tarzda boshqa tadqiqotlarda ham ifodalangan. A. Hennion mashhur musiqalar keyslari masalasida qayd etganidek, mashhur musiqa yaralish holatida ijodiy ish nafaqat "ijodiy jamoa" o'rtasida taqsimlanadi, balki texnik, moliyaviy va tijorat bo'lishi kerak bo'lgan ishlab chiqarish ishini bajarishda jamoat didining haqiqiy vositachilari sifatida ishlaydigan usullar, texnikalar va qurilmalarga ham tayanadi. Masalan, A.Hennion tushuntiradiki, qo'shiq faqat musiqaning o'zi bilan, yoki hatto musiqa va so'zlar aralashmasi bilan ("3 daqiqalik romanlar" deb tushuniladi) cheklanmaydi; unga musiqaning aylanishi, o'zgarishi va havasmandlarni "tortishi" ham kiradi. Shuning uchun ma'lum bir musiqa asari nima ekanligini uni yaratgan san'atkor asari sifatida ham, havaskorlar tomonidan qanday qabul qilinishi bilan ham cheklab xulosalash mumkin emas. Musiqa "texnikalar, sozlamalar, qurilmalar va jamoaviy tashuvchilar"ni nazarda tutadi, lekin ulardan hech kim uni ishlab chiqarmaydi, yaratmaydi; haqiqatan ham, "biz hech bo'lmaganda harakat manbalari haqida vaqtincha so'rashni to'xtatishimiz kerak. "Kim harakat qildi (yaratdi)?" kabi savollar endi ishlaymaydi "[9; 221].

Tahlil va natijalar.

Kreativlik bo'linuvchi va munosabatlarga xos sifatida

ANT jarayoni harakatni u inson bo'lish bo'lmasligidan qat'iy nazar individual bilan cheklamaydi. Harakat hech qachon yolg'iz iroda mahsuli emas, balki bir qancha butunliklar – aktyorlar tarmog'i mahsulidir.

Bu holat ANTning kreativlik munosabati borasidagi muhim element, konfiguratsiya tushunchasini ekanligini anglatadi. Binobarin, inson va obyektlar bunday konfiguratsiyalarni (bu kollektiv ham deya nomlanadi, pastga qarang) qanday qurishini tadqiq qilish, ular amalga oshirishi yoki saqlab turishi ehtimoli bo'lgan harakatlar dasturi darajasiga qisqaradi. Boshqacha qilib aytganda, insonlar faqatgina muhitni qurish yoki o'z harakatlarini amalga oshirish jarayonida bo'lishmaydi, balki bu bilan umuman harakat ehtimoli bo'lgan olamni qurishadi, chunki ular o'zlari qurayotgan olam ichida (u bilan) harakat qilishadi. Demakki, yangi narsalarni qurish, yaratish faqatgina yangi g'oyalarga egalikka intilayotgan ong mahsuligina emas, balki biz bizni o'rab turuvchi boshqa insonlar va artefaktlar bilan birgalikdagi harakat qilish (o'zaro munosabatda bo'lish) yo'llari natijasidir. Bunga o'z ranglarini aralashtirayotgan rassom misol bo'la oladi: buni qilar ekan, u nafaqat allaqachon rejalashtirilgan (bu ham alohida masala bo'lishi mumkin) harakatni amalga oshiradi, balki jarayonda yangi rang paydo bo'lar, yangicha kombinatsiyalarni taklif etar ekan, harakatning yangi ehtimolliklarini kashf qiladi.

Bilishdan dunyoda hayot kechiruvchi ko'p turli (insonlar va inson bo'lmaganlar) bo'lishlarga aynalish A.J.Greimasning narratologiya tushunchasi orqali konseptualashtirilishi mumkin. Fransuz lingvisti A.J.Greimas ATN rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan va uni aniq, tushunarli tahliliy apparat bilan ta'minlagan tadqiqotchi hisoblanadi [8].

Ayniqsa, A.Greimas yondashuvi harakat semiotikasi matni to'g'ri o'rganishdan-da ilgari borishini taxmin qiladi. A.Greimas ko'rsatadiki, "qahramon" o'z intiluvini fazalari orasida harakatlanar ekan, boshqa narsalar qatori u asta sekin obyektlar, kompetensiyalar va u harakat qilishi bilan harakatlanuvchi yordamchilarni o'zlashtiradi. Misol uchun, sehrli qilich berilgach, ritsarga aylangan kambag'al dehqon haqida o'ylab ko'ring. Ritsar bu aktor-tarmoq; u sehrli qilichli, ajdarni o'ldira oluvchi dehqon, Garchi dehqon/qilich ikkiligi yaxshi amal (birlik) sifatida da'vo qilinishi va sabablanishi mumkin bo'lsa-da, ularning birortasi boshqasiz mavjud bo'la olmaydi (harakat qila olmaydi). A.Greimas uchun harakat mexanizmi qadr obyekt (bu pul, ritsar, missiya, o'zini hurmat qilish bo'lishi mumkin) aktantlar orasida aylanishi bilan ko'plab birlashish va bo'linishlar seriyasidan tarkib topuvchi sifatida tavsiflanadi.

Ushbu atama, aktant A.Greimas talqinshunoslik (narrative)da haqiqiy harakatdagi shaxsdan mustaqil, uni ontologiyasidan mustaqil tarzda uni to'ldiruvchidir (misol uchun qahramonning yordamchisi rolini sehrgar, eshak (ot) yoki qilich o'ynashi mumkin). B.Latour ushbu atamani kengaytiradi va uni sotsiologiyada aktor tushunchasi muqobili sifatida qo'llaydi. Shunday qilib, aktant shaxs yoki obyekt emas, sababi uning joyi mansubliklar (munosabatlar) tarmog'idadir. Ayni shu sabab, birlashma va ajrashmalar (disjunctionlar) harakatdagi aktantlarni transformatsiyalaydi va uni ko'rilayotgan masalaga nisbatan turlicha subyektiv maqomlar bilan ta'minlaydi. Jon va boylik orasidagi bog'lamalar Jonni boyga aylantiradi "Jonda tillar tangalarga to'la ko'za bor deyish" "Jon boy" deyishga funksional jihatdan ekvivalentdir [8; 88–89]. Bu ayniqsa egalik va borlik orasidagi aloqadorlikni tushunishda alohida ahamiyat kasb etadi, ya'ni bu transformativ funksiyaga yoki (qayta) konfiguratsiya salohiyatiga ega.

Kreativlik borasidagi tadqiqotlar ATNning eksternal nuqtai nazaridan foyda olishlari mumkin (psixologiyaga hurmat saqlagan holda): kreativlikni tushunish individual ongga "kirish"ni talab etmaydi, aksincha, biz harakat qiladigan va o'z navbatida shaxslar bo'lgan dunyoni tashkil etuvchi o'rnashma munosabatlar (bir qator bog'lovchilar va ajratmalar orqali) vositasida amaliyotni kuzatishda joylashadi.

Bu dunyo – geterogen mavjudliklar birlashmasi sifatida mumkin bo'lgan harakatlarga imkon beradi yoki to'sqinlik qiladi va yangi harakatlar dasturlarini, yanada keyingi munosabatlarni taklif qiladi. Shuning uchun "aktyorlarning o'zlariga" ergashish orqali biz ijodkorlik tatbiqini kuzatishimiz mumkin. Biroq, biz aktyorlikni odamlar bilan cheklamasligimiz kerak: aksincha, biz kuzatuvlarimizni kundalik ish va hayot muhitimizni to'ldiradigan ko'p yoki kamroq moddiy "narsalar" ga, shu jumladan artefaktlar, mashinalar, kompyuterlar, dasturiy ta'minot, doskalar, hujjatlar, qoidalar, nazariyalar va boshqa ko'plab birliklar (yoki aktantlar)ga kengaytirishimiz kerak. Bu, ATNga ko'ra, etnometodologiyadan meros bo'lib o'tgan etnografik metod hisoblanadi, chunki u ishtirokchilar ishi (amali) qismlari orqali o'rnatilgan munosabatlarni kuzatish imkonini beradi. Bunga pedologlar (tuproq haqidagi fan bilan shug'ullanadigan) namunalarni qismlarga saralash usuli xizmat qiladi, bu ularga Amazoniyada joyida ishlash va Fransiyadagi laboratoriya tahlillari o'rtasida uzluksizlikni (bir vaqtda ishlashni) amalga oshirishi imkonini beradi. Ushbu qismlarning oddiyliги tasodifiy kuzatuvchini aldashi mumkin: aslida har bir qism maxsus ma'lum bir joy (makon) manzarasiga hissa qo'shadi va ular tufayli tahlil natijalarini haritalarda ifodalash mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Akirch M, Latour B. A summary of a convenient vocabulary or the semiotics of human and non-human assemblies. In: Bijker WE, Law J, editors. Shaping technology – building society. Studies in sociotechnical change. Cambridge, MA: MIT Press; 1992.
2. Alvesson M. De-essentializing the knowledge intensive firm: reflections on sceptical research going against the mainstream. J Manag Stud. 2011;48(7):1640–61.

3. Bijker WE. Of bicycles, bakelites, and bulbs : toward a theory of sociotechnical change. Cambridge, MA: MIT Press; 1995.
4. Callon M. The sociology of an actor-network: the case of the electric vehicle. In: Callon M, Law J, Rip A, editors. Mapping the dynamics of science and technology: sociology of science in the real world. Basingstoke: Macmillan; 1986a. p. 19–34.
5. Callon M. Some elements of a sociology of translation: domestication of the scallops and the fishermen of St Brieuc Bay. In: Law J, editor. Power, action and belief: a new sociology of knowledge? London: Routledge; 1986b. p. 196–223.
6. Cooren F, Fairhurst GT. Local? Global? No, dislocal: how to scale up from interactions to organization. Paper presented at the the 54th conference of the International Communication Association; 2004.
7. Норбоев Ф. Kreativlik va innovatsiya borasida zamonaviy nazariyalar //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 8.
8. Faraj S, Jarvenpaa SL, Majchrzak A. Knowledge collaboration in online communities. Organ Sci. 2011;22(5):1224–39. Garfinkel H. Studies in ethnomethodology. Englewood Cliffs: Prentice-Hall; 1967.
9. Greimas AJ. On meaning: selected writings in semiotic theory. Minneapolis: University of Minnesota Press; 1987.
10. Hennion A, Gomart É. A sociology of attachment: music amateurs, drug users. In: Law J, Hassard J, editors. Actor network theory and after. Oxford: Blackwell; 1999.
11. Latour B. We have never been modern. Cambridge, MA: Harvard University Press; 1993.
12. Latour B. On interobjectivity. Mind Cult Act. 1996;3:228–45.
13. Latour B. Pandora's hope : essays on the reality of science studies. Cambridge, MA: Harvard University Press; 1999b.
14. Latour B. La fabrique du droit : une ethnographie du Conseil d'État. Paris: La Découverte; 2002.
15. Latour B. Reassembling the social : an introduction to actor-network-theory. Oxford/New York: Oxford University Press; 2005.
16. Latour B, Woolgar S. Laboratory life : the social construction of scientific facts. Beverly Hills: Sage; 1979.
17. MacKenzie D. Material markets: how economic agents are constructed. Oxford: Oxford University Press; 2008.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 10 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).